




2025

№1

ISSN 3030-380X

TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR.

XALQARO ILMIY METODIK JURNAL
МЕЖДУНАРОДНЫЙ НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ
INTERNATIONAL SCIENTIFIC METHODOLOGICAL JOURNAL



TA'LIMDA ISTIQBOLLI IZLANISHLAR

Xalqaro ilmiy-metodik jurnal

ПЕРСПЕКТИВНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В ОБРАЗОВАНИИ

Международный научно-методический журнал

PROSPECTIVE RESEARCH IN EDUCATION

International scientific methodological journal

№ 1-son, 1-qism, 2025-yil

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi OAK Rayosatining 2024 - yil 7 - iyundagi 355-son qarori bilan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
TILAVOV MUXTOR HASAN O'G'LI
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Кулешов Валерий Владимирович - pedagogika fanlari doktori, professor Rossiya Fanlar akademiyasining akademigi (Ukraina).

Andriyenko Yelena Vasilyevna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta'limi instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Romm Tatyana Aleksandrovna - pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta'lim instituti, Novosibirsk, Rossiya).

Eko Sri Margianti - Gunadarma universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya).

Xamidov Obidjon Xafizovich - Buxoro davlat universiteti rektori, iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

Zaripov Lochin Rustamovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot markazi, O'quv-uslubiy faoliyatni takomillashtirish boshqarma boshlig'i).

Nazarov Akmal Mardonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini mudiri).

Qodirov Azizjon Anvarovich - iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent (Buxoro davlat universiteti Tabiiy fanlar va agrobiotexnologiya fakulteti dekani).

Davlatov Suxrob Sayitjonovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti O'quv-uslubiy departament boshlig'i).

Adizov Bobir Baxtiyorovich - iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat universiteti Moliyalashtirish, iqtisodiy rivojlantirishni rejalashtirish departamenti boshlig'i).

Paxrutdinov Shukriddin Ilyosovich - siyosiy fanlar doktori, professor. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Akramova Shaxnoza Abrorovna - pedagogika fanlari nomzodi, professor (O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti, Harbiy-vatanparvarlik, ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va yoshlar bilan ijtimoiy ishlash kafedrasini boshlig'i, podpolkovnik).

Mamanazarova Nargiza Komildjanovna - pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent. Oriental universitetining "Iqtisodiyot va turizm" kafedrasini professori.

Ostanov Shuhrat Sharifovich - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti psixologiya kafedrasini dotsenti).

Rustamov Shavkat Shuhrat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Dilova Nargiza Gaybullayevna - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Kengash kotibi).

Olimov Shirinboy Sharofovich - pedagogika fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti Pedagogika kafedrasini mudiri).

Hamroyev Alijon Ro'ziqulovich - pedagogika fanlari doktori (DSc), professor (Buxoro davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim metodikasi kafedrasini mudiri).

G'ofurov Azizbek Umarjonovich - psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent, (Farg'ona davlat universiteti Magistratura bo'limi boshlig'i).

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini dotsenti).

Ataboyev Nozimjon Bobojon o'g'li - filologiya fanlari doktori, professor (Buxoro davlat universiteti xorijiy tillar fakulteti dekani).

Atayeva Mexriniso Farxodovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Geliofizika, qayta tiklanuvchi energiya manbaalari va elektronika kafedrasini dotsenti).

Xotamov Shuxrat Nosirovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (O'zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi Harbiy texnik instituti Gumanitar va ijtimoiy fanlar kafedrasini dotsenti).

Turdiyev Bexruz Sobirovich - falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Yurisprudensiya, ijtimoiy-siyosiy fanlar kafedrasini dotsenti).

Fayziyeva Umida Asadovna - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Inson resurslarini boshqarish departamenti boshlig'i).

Muxlisov Sodiqjon Saidjonovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Axborot tizimlari va raqamli texnologiyalar kafedrasini dotsenti).

Axmadoy Nazirjon Rahmat o'g'li - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), (Buxoro davlat universiteti "Psixologiya" kafedrasini katta o'qituvchisi).

Uzoqov Asliddin Mexritdinovich - pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (Buxoro davlat pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti boshlig'ining o'quv ishlari bo'yicha o'rinbosari).

Ataxojayeva Shaxlo Anvarovna - psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent (University of Business and Science Oliy ta'lim muassasasi "Ilmiy tadqiqot, innovatsiyalar, ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi" boshlig'i).

Mas'ul kotib:

Dehqonboyev Shohjahon Oybek o'g'li – Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrasini o'qituvchisi

Xonimov Sharofutdin Bahodirovich,
O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi
markaziy apparati bo'lim boshlig'i
falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**YANGI O'ZBEKISTON SHAROITIDA - O'ZINI O'ZI BOSHQARISH
ORGANLARIDA YOSHLAR IJTIMOY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH
ISTIQBOLLARI**

Annotasiya: Mazkur maqolada "ijtimoiy", "siyosiy", "madaniyat", "ma'naviyat", "mafura" tushunchalari to'g'risida alohida adabiyotlarga tayangan holdagi to'g'ri va aniq ma'lumotlar keltirilgan. Shu bilan bir qatorda "madaniyat", "ma'naviyat" va "mafura" tushunchalarining har birini tahlil qilib misollar bilan aniq va batafsilroq yozib chiqilgan. Shuningdek, mazkur tushunchalar xususida ilmiy talqinlar misollar bilan keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Madaniyat, mafura, ma'naviyat, yangi O'zbekiston, respublika, milliy, siyosatchi, tarix.

Аннотация: В данной статье приведены точные и правильные данные о таких понятиях, как "социальное", "политическое", "культура", "духовность", "идеология", основываясь на различных источниках. Кроме того, подробно проанализированы понятия "культура", "духовность" и "идеология", с примерами для более детального понимания. Также представлены научные интерпретации этих понятий с примерами.

Ключевые слова: культура, идеология, духовность, новый Узбекистан, республика, национальный, политик, история.

Annotation: This article presents accurate and correct information about the concepts of "social", "political", "culture", "spirituality", and "ideology", based on various literature sources. Additionally, each of the concepts "culture", "spirituality", and "ideology" is analyzed with examples in a more detailed and thorough manner. The article also presents scientific interpretations of these concepts with examples.

Key words: Culture, ideology, spirituality, new Uzbekistan, republic, national, politician, history.

Kirish. Dunyoda kechayotgan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar demokratiyaning bashariyat tarixida mavjud bo'lgan barcha boshqaruv tuzilmalaridan farqli o'laroq, o'zini o'zi boshqarish tizimi va fuqarolik jamiyati negizlarida ko'proq namoyon bo'lishini ko'rsatmoqda. Unda boshqaruvchi va boshqariluvchi bir shaxsda - faol fuqaroda aks etadi. Demak, demokratiyaning taqdiri fuqarolarning, ayniqsa yoshlarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy jihatdan faolligi, tashabbuskorligi hamda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini mustaqil ravishda, xalqning ayniqsa, yoshlarning huquq manfaatlarini himoya qilish yo'lida mahalla yettiligining jips hamkorlikdagi faoliyatiga bog'liq. Binobarin, demokratik jamiyatni barpo etishda fuqarolarning ijtimoiy, siyosiy, huquqiy madaniyatini yuksaltirish eng dolzarb masalalardan biriga aylanadi. Chunki demokratik an'analarni ijtimoiy hayotga izchil tatbiq etmay turib, jamiyatda ijtimoiy-siyosiy, huquqiy madaniyatni oshirish mumkin emas.

Yangi O'zbekistonni qurishning ilk kunlaridanoq demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati barpo etishni izchil davom ettirish, shuningdek fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarini jamiyat hayotida ma'muriy jihatdan maqomini yuksaltirishni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ydi.

Shu nuqtai nazaridan mazkur yo'nalishdagi islohotlarning mantiqiy davomi o'laroq 2022-yil 19-yanvardagi hurmatli Prezidentimizning PQ-92-son qarori asosida mahallalarda yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etilib, yoshlar bilan ishlashning vertikal boshqaruv mexanizmlari va ularning muammolarini bevosita mahallalarda hal etish yaratish tizimi yaratildi. Ushbu tizim asosida hozirgi kunda 9 452 ta mahallada yoshlarning barcha toifalarini keng qo'llab-

quvvatlash, imkoniyat va salohiyatini ro'yobga chiqarish maqsadida yoshlar yetakchilari faoliyat olib bormoqda.

Shu vaqt davomida yetakchilar mahalladagi yoshlarning og'irini yengil qilish, ularga munosib turmush sharoitini yaratish barobarida yigit-qizlarimizning ishonchli hamkori, samimiy maslahatgo'yi va eng yaqin do'stiga aylanish bilan bir qatorda demokratik islohotlarning eng pastki bo'g'in - mahallalardagi faol targ'botchisiga aylanib ulgurdi.

Endi shunday bir sharoitda yoshlarning ijtimoiy siyosiy faolligi hamda siyosiy madaniyati turli ideallar, qadriyatlar, zarur bilim va ko'nikmalar, shuningdek, siyosiy his-tuyg'ular majmuidir. Siyosiy madaniyat, avvalo, inson manfaatlari, xohish-istaklari tevaragida mujassamlashadi va uning shaxsiy tajribalari negizida mustahkamlanadi. Umume'tirof etilgan siyosiy-madaniy qadriyatlar, xulq-atvor andozalari hamda an'analar fuqarolarni yagona siyosiy tizim atrofida birlashtiradi, bir jamiyatni boshqa jamiyatdan farqlaydi. Kishilar siyosiy madaniyat negizida yagona davlat fuqarolari ekanini anglab yetadi. Shu bilan birga, siyosiy madaniyat jamiyat a'zolarida vatanparvarlik tuyg'usini qaror toptiruvchi kuch ham hisoblanadi.

Yoshlar o'rtasidagi ma'naviy qashshoqlik, eng avvalo, moddiy ta'minotning hayotiy mezoniga aylanganligi, moliyaviy ehtiyojni yuqori darajaga qo'yish, individualizm g'oyalarining o'sib borishi, pul topish maqsadida jinoyatdan ham tap tortmaslik, kaltabinlik, boqimandalik, jur'atsizlik, mas'uliyatdan qochish, hamma narsani menga davlat yoki ota-ona yaratib berishi lozim degan egoistik aqida, siyosiy ongning past saviyada ekanligi singari xususiyatlar bilan belgilanadi.

Hammamiz judayam yaxshi bilamizki, har bir jamiyatning o'ziga xos ma'lum madaniyat darajasi bo'lib, u o'zida huquq ham siyosat ham o'zida yagona ijtimoiy mazmunni mujassam yetadi. Siyosiy vakuum bo'lgan joyda huquqiy faoliyat ko'rsatish mumkin emas. Siyosiy madaniyat va huquqiy madaniyat davlat, demokratiya, ozodlik va mas'uliyat to'g'risidagi eng ibtidoiy tushunchalarga borib taqaladi. Bu g'oyalar hamisha dolzarb bo'lib, ijtimoiy o'zgarishlar davrida ular faqat aksiologik ahamiyatgagina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Inson o'z ongida aks etayotgan narsalarni hodisalarni qayta fikrlab tafakkur qilib, aks etayotgan narsalarni qamrab olishga qodir bo'lsagina, har qanday madaniyat obektiv harakat qiladi.

Madaniyat tushunchasini o'rganish jarayonida siyosiy, huquqiy axloqiy madaniyatni rivojlanish darajasi bilan uning mazmunini farqlash juda muhim. Davlatimizda yuz berayotgan jarayonlar shu vaqtgacha an'anaviy bo'lib kelgan ilmiy izohlarni keskin o'zgartirmoqda.

Masalan: inson huquqlari nuqtai-nazari jihatidan baholash, yangicha yondashishlarni keltirib chiqqan holda qonunda ta'qiqlanmagan barcha narsalar jamiyat foydasiga xizmat qilishi kerak. Yoshlarda huquqiy, siyosiy, axloqiy madaniyat yuksalganligi quyidagilarda ifodalanadi:

- "siyosiy, ma'naviy, huquq fikrlarning ilg'or g'oyalarini o'ziga singdirilganligi;
- iqtisodning yuqori darajasi uning barqarorligi;
- qonunlarning takomillashganligi;
- qonun ustuvorligi;
- sharq mutafakkirlarining huquqiy, siyosiy, axloqiy qarashlari va g'oyalarining o'zida

mujassamlashtirganligi"[6]

Mahallalar kesimida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli targ'ibot va tashviqot ishlari, ochiq va yopiq holdagi sosial tadqiqotlar bizga ularning huquqiy ongiga, huquqiy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga imkon berdi. Bular quyidagilardir: yoshlarda umumiy dunyoqarashning torligi, hamma narsani pul bilan o'lshashi, atrofdagi salbiy fe'l-atvorli shaxslarning ta'sir etishi va boshqalar.

Huquq normalarini mukammallashtirishda axloq katta rol o'ynaydi, huquq normalari yesa uni odamlar ongiga singdirishda yordam beradi. Konstitutsiyamizda ham axloqiy majburiyatlar birligi belgilab qo'yilgan: 60-moddasida "Fuqarolar Konstitutsiya va qonunlarga rioya etishga boshqa insonlarning huquqlari, erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar"[7] D.A.Karimov turli fanlarning axloqiy-huquqiy ta'sirini ishlab shiqish, vazifa

va yo'nalishini aniqlash kerak degan asosli savol qo'yadi. Buni amalga oshirish ushuni quyidagi muammolarni hal qilish zaruratini ko'rsatadi.

Huquqiy va axloqiy ijodkorlikning axloqiy asoslanishi va axloqni rivojlantirishda huquqning o'zni, axloqiy va huquqiy normalarni hayotga tadbiq yetishda ularning o'zaro harakatda bo'lishligi. Yuridik adabiyotda tan olinishisha huquq va axloqning nufuzi insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ishki munosabatidir. Darhaqiqat, huquqning mavjudligi qonunlarning moddalari va qismlarida emas, balki butun jamiyatning shu jumladan, uning har bir a'zosining ongida qay darajada aks yetishi bilan bog'liq. Abu Nasr Forobiy o'zining "Fozil odamlar shahri" nomli asarida axloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to'xtalib, axloqiy kamolotga yerishish masalalari ko'p bor tilga oladi. Shuningdek, huquq va axloqning o'zaro uzviy aloqadorligini Z.Islamov shuqur tahlil qiladilar. Huquq va axloq o'rtasidagi nisbatlar yetarli darajada murakkab, u birlik tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to'rt tarkibiy qismni o'z ishiga olishini o'z asarida ko'rsatib o'tadi[8]. Shu bilan birga taniqli olim "Axloq qoidalarini buzmay turib davlat qonunini buzish mumkin yemas" degan fikrlari bilan axloq va huquqning uzviy bog'liqligini bir so'zda ifodalaydilar.

XXI asrda yashar ekanmiz bugungi kunda insondan keskin sifat o'zgarishi o'z-o'zini anglab olishni talab qilmoqda.

Yoshlarning tashabbuskorligi faolligini oshirish bu - doimiy harakatdagi, keng qamrovli, ko'p o'lchamli va ochiq tushunchadir. U faollikni qo'llab-quvvatlash, zo'rlik va qurolli to'qnashuvlarni oldini olish, tinchlik o'rnatish, inson huquqlari hurmatini ta'minlash, demokratiyaning chuqurlashtirish va mustahkamlash bilan bog'liq tushunchadir. Tinchlik madaniyati muammosini tahlil qilish va yechish quyidagilarni nazarda tutadi.

Xulosa o'rnida yoshlarda tashabbuskorlik va faollikni madaniyatini shakllantirish uchun - yoshlar ongida tashabbuskorlik g'oyasini qaror toptirish hamda bu vazifani hal etishda ta'lim tarbiya sohasi, shuningdek, balki keng jamoatchilik institutlari ya'ni oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalari yetakchi o'rin tutmog'i lozim.

Shuningdek, yoshlarda tashabbuskorlik va faollik madaniyatini shakllantirishda asosiy e'tibor ularda inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilishi lozim. Unda inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt va boshqa shunga o'xshash hujjatlarning asosiy prinsiplaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Yoshlar faolligi va tashabbuskorligini keng matematikasini ishlab chiqishda olimlarning xalqaro hamkorligining tizimini yaratish lozim va unga boshqa ilmiy fikrlari namoyondalarini ham jalb etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. –T.: O'zbekiston, 2017.– 32.b
2. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017.– 56 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O'zbekiston, 2017. – 488 b.Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – B. 496.
4. Tadjixanov U. Saidov A. Huquqiy madaniyat nazariyasi. – Toshkent: O'zbekiston, IIV akademiyasi 1998 – B.33
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 60-modda. – Toshkent: O'zbekiston, 2023. – B.13.
6. Исломов З. Общество Государство Право Ташкент: Адолат, 1998. – Б. 24-28.

Bazarov Fayzullojon Muxiddinovich,
Temir yo'l vokzallari MCHJ Buxoro vokzali boshlig'i

O'ZBEKISTONDA TEMIR YO'L INFRATUZILMASINI MODERNIZATSIYA QILISHNING GLOBAL TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY YECHIMLAR

Annotatsiya: Maqolada O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishdagi global tendensiyalar va yechimlar tahlil qilinadi. Temir yo'l tizimining avtomatlashtirilishi, raqamlashtirish va ekologik barqarorlikni ta'minlash zarurati muhokama qilinadi. O'zbekistonda eski infratuzilma va moliyaviy cheklovlar muammolariga e'tibor qaratilib, global tajribalar asosida zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishning samaradorligi ko'rsatiladi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, temir yo'l, modernizatsiya, global tendensiyalar, xavfsizlik, raqamli texnologiyalar, avtomatlashtirish.

Аннотация: В статье анализируются глобальные тенденции и решения для модернизации железнодорожной инфраструктуры в Узбекистане. Рассматривается необходимость автоматизации железнодорожной системы, цифровизации и обеспечения экологической устойчивости. Обращается внимание на проблемы устаревшей инфраструктуры и финансовых ограничений в Узбекистане, а также демонстрируется эффективность применения современных технологий на основе глобального опыта.

Ключевые слова: Узбекистан, железные дороги, модернизация, глобальные тенденции, безопасность, цифровые технологии, автоматизация.

Annotation: The article analyzes the global trends and solutions for modernizing the railway infrastructure in Uzbekistan. The necessity of automation, digitalization, and ensuring environmental sustainability in the railway system is discussed. Attention is drawn to the issues of outdated infrastructure and financial constraints in Uzbekistan, while demonstrating the effectiveness of applying modern technologies based on global experience.

Key words: Uzbekistan, railway, modernization, global trends, safety, digital technologies, automation.

Kirish. O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish bugungi kunda nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatlardan ham katta ahamiyatga ega. Jahon bo'ylab temir yo'l tarmog'ining yangilanishi, global iqtisodiy integratsiya jarayonlari va texnologik taraqqiyotlar bilan bog'liq holda, transport tizimini modernizatsiya qilish zaruriyati o'zgarib bormoqda. Shu nuqtai nazardan, O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini zamonaviy texnologiyalar asosida rivojlantirish, jahondagi muvaffaqiyatli tajribalarga tayangan holda yangi yechimlarni amalga oshirish zaruriyati ortib bormoqda.

Xalqaro miqyosda temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi sohasida ko'plab global tendensiyalar mavjud. Ular orasida avtomatlashtirish, raqamli tizimlar, ekologik barqarorlikni ta'minlash, shuningdek, transport xavfsizligini oshirish kabi masalalar dolzarb hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va Xalqaro temir yo'l transporti ittifoqi (UIC) kabi tashkilotlar, transportning ekologik jihatlarini hisobga olishni ta'kidlaydilar va barqaror rivojlanish maqsadlariga erishish uchun temir yo'l tizimini yangilashni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan. Shu bilan birga, ko'plab mamlakatlar temir yo'l tizimini innovatsion texnologiyalar va zamonaviy infratuzilma bilan modernizatsiya qilish orqali o'z iqtisodiyotlarini rivojlantirish va xalqaro savdoni kengaytirishga intilmoqda.

O'zbekistonda ham temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi, milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga hissa qo'shadi, shuningdek, mintaqalararo va xalqaro aloqalar, savdo imkoniyatlarini kengaytiradi. Biroq, bu jarayon bir qancha muammolarni yuzaga keltirmoqda, jumladan, eski infratuzilma, texnik-ijro etishdagi qiyinchiliklar va moliyaviy resurslarning yetishmasligi kabi masalalar mavjud.

Maqolada, O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan global tajribalar va zamonaviy yechimlar, shu jumladan, yangi texnologiyalarni tatbiq etishning samaradorligi tahlil qilinadi. Yana bir muhim nuqta, temir yo'l tizimining barqarorligi, xavfsizligi va ekologik jihatlarini hisobga olinishidir, chunki bular jamiyat va iqtisodiyotning turli sohalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib, O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiya qilish jarayoni, nafaqat mamlakat ichida, balki mintaqaviy va global miqyosda ham dolzarb va muhim masala bo'lib qolmoqda.

O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayoni global iqtisodiy va ekologik muammolarni yechish yo'lida ham katta rol o'ynaydi. Jahon bo'ylab transport tarmog'ida eng samarali va barqaror yechimlarni izlash jarayonida temir yo'l transporti ekologik jihatdan eng toza va xavfsiz transport turlaridan biri sifatida tan olinmoqda. Xalqaro transport va logistika tarmoqlarining o'sishi, ayniqsa, Xitoy va Yevropa o'rtasidagi temir yo'l yo'nalishlari, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratmoqda va bu o'z navbatida O'zbekistonning temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi kerak.

BMTning Barqaror Rivojlanish Maqsadlari (BRM) va global iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish borasidagi tashabbuslar, transport tizimining ekologik jihatlarini kuchaytirish, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirishga qaratilgan. Temir yo'l transporti bu borada muhim ahamiyatga ega, chunki bu transport turi avtomobil va aviatsiya turlariga qaraganda kamroq energiya sarflaydi va kamroq ifloslanishni keltirib chiqaradi. Shu sababli, temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda ekologik toza texnologiyalarni tatbiq etish, masalan, elektrlashtirish va avtomatlashtirish tizimlarini rivojlantirish, iqtisodiy samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

Shuningdek, temir yo'l tizimining xavfsizligini ta'minlash – bu jahonda eng dolzarb masalalardan biridir. Har yili millionlab odamlar temir yo'l transportida qatnashib, ba'zi hollarda avariya sodir bo'ladi. Shu sababli, xavfsizlikni oshirish uchun yangi texnologiyalarni, masalan, avtomatik boshqaruv tizimlari, real vaqt rejimida monitoring qilish va sun'iy intellektdan foydalanishni joriy etish kerak. O'zbekistonda bu sohada hal etilishi lozim bo'lgan masalalar, mavjud infratuzilmaning yaroqsizligi va temir yo'l tizimining eskirganligini hisobga olgan holda, xalqaro tajribalardan foydalangan holda zamonaviy yechimlarni amalga oshirish lozim.

Temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi bilan bog'liq yana bir muhim jihat, bu sohadagi xalqaro hamkorlikdir. O'zbekistonning geosiyosiy joylashuvi, uning Markaziy Osiyo va Xitoy, Rossiya kabi yirik iqtisodiy mintaqalar bilan aloqalari, temir yo'l tarmog'ini rivojlantirishda katta imkoniyatlarni yaratadi. Yangi temir yo'l yo'nalishlari va tranzit yo'llarining o'zaro bog'lanishi, O'zbekistonni mintaqaviy logistika markaziga aylantirishi mumkin. Shuning uchun, xalqaro transport tarmoqlari bilan hamkorlikni kuchaytirish va temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali O'zbekistonning iqtisodiy o'sishini tezlashtirish mumkin.

Bundan tashqari, O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi jarayonida moliyaviy va resursli jihatlar ham muhim o'rin tutadi. Bugungi kunda, temir yo'l tizimining yangilanishi katta investitsiyalarni talab qiladi. Shu bois, davlat va xususiy sektorga jalb qilish, xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik qilish va innovatsion moliyalashtirish modellarini qo'llash zarur. Aynan shu yo'l bilan temir yo'l infratuzilmasini zamonaviylashtirishga doir katta loyihalarni amalga oshirish mumkin.

1. O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasining hozirgi holati va asosiy muammolar.

O'zbekiston temir yo'l infratuzilmasi 20-asrning o'rtalaridan boshlab rivojlanishni boshlagan bo'lsa-da, hozirgi kunda bu tarmoqda hali ham bir qator muammolar mavjud. Temir yo'l tizimining asosiy muammolaridan biri – eski va yaroqsiz infratuzilma. Aksariyat temir yo'l yo'nalishlari va stansiyalar eskirgan va bu ularning samarali ishlashiga to'sqinlik qiladi. O'zbekistondagi temir yo'l tarmog'ining bir qismi sovet davrida qurilgan bo'lib, bu tizimning

ko'p qismlari texnik jihatdan eskirib, xalqaro standartlarga javob bermaydi. Ayniqsa, eski va ishonchsiz poyezdlar, relslar va elektr ta'minoti tizimlari zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etishni qiyinlashtirmoqda.

Bundan tashqari, temir yo'l transportining samaradorligini oshirish uchun yetarli darajada avtomatlashtirilgan tizimlarning yo'qligi ham katta muammo bo'lib qolmoqda. Ko'p hollarda, temir yo'l transporti boshqaruvi, tarmoqni kuzatish va xavfsizlikni ta'minlashda qo'l mehnati katta rol o'ynaydi, bu esa tizim samaradorligini pasaytiradi.

2. Global tendensiyalar va temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi.

Jahon bo'ylab temir yo'l tizimining modernizatsiyasi jarayoni bir necha asosiy global tendensiyalarni o'z ichiga oladi. Bularning eng muhimlari quyidagilardir:

- **Avtomatlashtirish va raqamli texnologiyalar:** Ko'plab davlatlar temir yo'l tizimlarida avtomatlashtirishni, raqamli boshqaruv va monitoring tizimlarini joriy etmoqdalar. Masalan, Yevropa va Xitoyda temir yo'l tarmoqlarida sun'iy intellekt va "Internet of Things" (IoT) texnologiyalari orqali real vaqt rejimida relslar holati va poyezdlar harakatini kuzatish tizimlari joriy qilingan. Bu texnologiyalar, o'z navbatida, xavfsizlikni oshirish, muammolarni oldindan aniqlash va tizimni samarali boshqarish imkonini beradi.

- **Yuqori tezlikdagi temir yo'l tarmoqlari:** Dunyoning rivojlangan davlatlarida, jumladan, Yaponiya, Xitoy, Germaniya kabi mamlakatlarda yuqori tezlikdagi temir yo'l tizimlari qurilmoqda. Bu tizimlar nafaqat transport tezligini oshiradi, balki atrof-muhitga zarar yetkazmasdan tez va xavfsiz transportni ta'minlashga xizmat qiladi. O'zbekistonda ham yuqori tezlikdagi temir yo'l yo'nalishlari va zamonaviy vositalarni joriy etish zarurati ortib bormoqda.

- **Ekologik barqarorlik:** Temir yo'l transporti ekologik toza transport turlaridan biri sifatida ko'riladi. O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda ekologik barqarorlikni ta'minlash, yangi avlod elektr poyezdlarini va quyosh energiyasidan foydalanishni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Xitoy va Yevropada temir yo'l tizimlarini elektrlashtirish orqali energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini kamaytirish borasida katta natijalarga erishildi.

3. O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishning samarali yechimlari.

O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish jarayonida bir qator samarali yechimlarni amalga oshirish mumkin:

- **Elektrlashtirish va yuqori tezlikdagi yo'nalishlar:** Temir yo'l tarmog'ini elektrlashtirish, birinchi navbatda, poyezdlarning samaradorligini oshirish va ekologik tozaligini ta'minlash imkonini beradi. O'zbekiston, ayniqsa, Toshkent-Samarqand va Toshkent-Buxoro kabi yo'nalishlarda yuqori tezlikdagi poyezdlar joriy qilishni ko'rib chiqishi zarur.

- **Avtomatlashtirish va raqamli tizimlar:** Temir yo'l tarmog'ida raqamli boshqaruv tizimlarini joriy etish, poyezdlarning harakatini real vaqt rejimida kuzatish, xavfsizlikni oshirish va xatolarni kamaytirish imkonini beradi. Bunday tizimlar yordamida temir yo'lning samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin.

- **Xalqaro hamkorlik va investitsiyalar:** O'zbekiston temir yo'l tizimini rivojlantirish uchun xalqaro hamkorlikni kuchaytirishi va global investitsiyalarni jalb etishi zarur. Temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda Xitoy, Rossiya va boshqa mamlakatlarning tajribalari, shuningdek, Xalqaro moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda amalga oshirilishi mumkin.

- **Yangi texnologiyalar va innovatsiyalar:** Temir yo'l tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalar, masalan, sun'iy intellekt, IoT (Internet of Things), yuqori tezlikda elektron poyezdlar va avtomatik boshqaruv tizimlari joriy etilishi kerak. Bu texnologiyalar nafaqat tizim samaradorligini oshiradi, balki transportning xavfsizligini ta'minlaydi.

4. Moliyaviy va resursli yechimlar.

Temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish katta investitsiyalarni talab qiladi. O'zbekiston hukumatining temir yo'l tizimini rivojlantirish

bo'yicha belgilagan maqsadlariga erishish uchun quyidagi moliyaviy yechimlarni amalga oshirishi zarur:

- **Xususiy sektorga jalb qilish:** Xususiy investorlarga temir yo'l infratuzilmasi loyihalariga sarmoya kiritish uchun qulay sharoitlar yaratish zarur. Xususiy sektor temir yo'l tizimiga innovatsion texnologiyalarni olib kirishi va samarali boshqaruvni ta'minlashi mumkin.

- **Xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlik:** Xalqaro moliya institutlari, masalan, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni kuchaytirish, temir yo'l tizimining modernizatsiyasi uchun zarur bo'lgan moliyaviy resurslarni jalb etish imkonini beradi.

- **Davlat va xususiy hamkorlik (PPP):** Davlat-xususiy hamkorlik (PPP) modeli orqali temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilishda samarali yechimlarni amalga oshirish mumkin. Bu modelda davlat va xususiy sektor birgalikda investitsiyalarni jalb qiladi va temir yo'l tarmog'ining rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Xulosa. O'zbekistonda temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish, mamlakatning transport tizimini yanada samarali, xavfsiz va ekologik barqaror qilishda katta rol o'ynaydi. Jahonning rivojlangan mamlakatlaridagi tajribalar va yangi texnologiyalarni qo'llash, O'zbekistonda temir yo'l tizimini yangilash va zamonaviylashtirish uchun samarali yechimlarni taqdim etadi. Biroq, bu jarayonni amalga oshirish uchun xalqaro hamkorlik, innovatsion texnologiyalar va moliyaviy resurslarni to'plash zarur. Modernizatsiya jarayoni nafaqat transport tizimini rivojlantiradi, balki mamlakat iqtisodiyotining barqaror o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni (2021). *"Temir yo'l transportini rivojlantirish bo'yicha yangi dastur"*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2021 yil, Toshkent.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori (2020). *"Temir yo'l infratuzilmasini modernizatsiya qilish va logistika tarmoqlarini rivojlantirishga doir dastur"*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2020 yil, Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni (2022). *"Temir yo'l transporti tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish"*. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2022 yil, Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori (2023). *"Temir yo'l transport tizimini yangilash va xavfsizlikni ta'minlash to'g'risida"*. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 2023 yil, Toshkent.
5. "Transport va logistika sohasida raqamli transformatsiya" (2021). O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi, Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Transport va kommunikatsiyalar vazirligi (2021). *"Temir yo'l infratuzilmasining modernizatsiyasi: Global tajribalar va O'zbekistonning rivojlanish istiqbollari"*. O'zbekiston Respublikasi Transport vazirligi nashri, 2021 yil, Toshkent.
7. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi (2022). *"Temir yo'l tizimida ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan qonunlar va normativ hujjatlar"*. O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi, Toshkent.

Atabayeva Nargis Batirovna

TDPU, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'QUVCHILARDAGI O'ZBEK MILLIY XUSUSIYATLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada o'quvchilarning milliy, etnik xususiyatlariga oid tasavvurlari tizimi tahlil qilingan. Milliy xususiyatlar shaxsning o'z millatiga xos jihatlarni xulq-atvorida namoyon qilishidir. Milliy xususiyatlar insonning temperamenti, harakterida aks etadi. Mazkur holatni o'quvchilarda qanchalik rivojlanganligini aniqlash uchun etnik xususiyatlar haqidagi tasavvurlarni aniqlash orqali bolalarni tarbiyalashni tashkil etish muhim. Shu boisdan, mazkur maqolada o'quvchilarning milliy xususiyatlarini o'ziga xos jihatlari tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: milliy xususiyat, etnik identifikasiya, milliy qiyofa, bag'rikenglik, millat, xalollik, mehmondo'stlik.

Аннотация: В данной статье анализируется система представлений студентов о национальных и этнических особенностях. Национальные особенности – это поведение человека, характерное для его национальности. Национальные особенности отражаются на темпераменте и характере человека. Важно организовать воспитание детей путем определения представлений об этнических особенностях, чтобы определить степень развития этого состояния у школьников. Поэтому в данной статье изучаются конкретные аспекты национальных особенностей студентов.

Ключевые слова: национальный характер, этническая идентичность, национальный имидж, толерантность, национальность, честность, гостеприимство.

Abstract: This article analyzes the system of students' perceptions of national and ethnic characteristics. National characteristics are a person's behavior characteristic of his nationality. National characteristics are reflected in a person's temperament and character. It is important to organize the upbringing of children by determining the perceptions of ethnic characteristics in order to determine the degree to which this condition is developed in students. Therefore, in this article, the specific aspects of the national characteristics of students are studied.

Key words: national character, ethnic identity, national image, tolerance, nationality, honesty, hospitality.

Kirish. Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning aqliy-ruhiy qiyofasi, ya'ni milliy mentaliteti o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turlicha bo'lishi shubhasiz. Ma'lum bir millat vakillarining o'ziga xos idrok etishi, fikrlashi va orzu-istaklarini, ya'ni oliy ruhiy xususiyatlarini tushunish va tushuntirish, uning namoyon bo'lish sabablarini organizmning, miyaning tuzilishidan emas, balki yuqorida aytganimizdek, xalqning tarixiy taraqqiyoti, uni o'rab turgan tabiiy muhitning shart-sharoitlaridan qidirish kerak. Turli ijtimoiy tizim va iqtisodiy taraqqiyoti bilan bog'liq bo'lgan amaliy faoliyat shakllari turli ruhiy jarayonlar tizimining shakllanishini belgilab beradi. Shuning uchun ham turli tarixiy davrlarda, ijtimoiy tuzumda yashayotgan xalqlar bir-biridan faqat ongning mazmuni bilangina farqlanib qolmasdan, shuningdek, faoliyat shaklining tuzilishi jihatidan ham farqlanadilar. Zero, milliy o'ziga xosliklar uzoq; tarixiy davrdagi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'rnav, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi. Aynan shu omillar hamda xalqning ruhiy-psixologik qarashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi.

O'zbek xalqining etnik jihatdan ko'p tarmoqli va sertomir ekanligi uning mentalitetida barcha urug' va ijtimoiy qatlamlar uchun umumiy jihatlar, jamoa manfaatlarini himoya qiluvchi fazilatlarining rivoj topishini taqozo etib kelgan. Xalqimiz fe'lidagi bag'rikenglik, hotamtoylik,

mehmondo'stlik, o'zaro hamkorlikka moyillik, g'am-anduhi paytlarda nochor kimsalarga hamdardlik, yelkadoshlik fazilatlarini ana shu jamoaviy yakdillikni ta'minlash, til va dil, fikr birligini saqlash ehtiyojlaridan tug'ilgan va sayqal topgandir.


Hozirgi kunda o'zbek psixolog olimlari tomonidan etnopsixologik muammolarga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Jumladan, M.G.Davleshin, E.G'.G'oziyev, V.M.Karimova, M.M.Mamatov, N.S.Safayev, A.M.Jabborov, I.I.Maxmudov, F.S.Tatibayeva, B.M.Botirov, D.Arapbayeva kabi psixolog olimlar va tadqiqotchilar etnik xarakter genezisi, vazifalari va tuzilishi bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq muammolarni chuqur o'rganishgan. Jumladan, M.G.Davleshin va E.G'.G'oziyev mamlakatimizda etnopsixologiya fanining rivojlanishi bilan bog'liq ilmiy izlanishlar olib borishgan bo'lsa, M.M.Mamatov va N.S.Safayevlar etnik va milliy o'zlikni anglash muammolarini tadqiq etganlar. Shuningdek, F.S.Tatibayeva tomonidan ijtimoiylashuv jarayonida etnik stereotiplarning shaxsga ta'siri, I.I.Mahmudov tomonidan xulq-atvorning etnik stereotiplari masalalari o'rganib chiqilgan. S.S.Otamurotov O'zbekiston mustaqilligi sharoitida ijtimoiy faol yoshlarning milliy o'zlikni anglash masalalarini tadqiq qilgan bo'lsa, M.Salayeva o'zbek oilasining regional hamda etnopsixologik tafovutlarini, V.M. Karimova yosh yigit va qizlarning o'zbek oilasi xususidagi ijtimoiy tasavvurlarini, O.B.Muhammatberdiyev O'rta Osiyo xalqlarining zamonaviy taraqqiyot bosqichidagi o'zlikni anglash masalalarini o'rganganlar. B.M.Botirov tomonidan esa o'zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari masalalari yoritilgan bo'lib, mentalitet shakllanishida alohida olingan qadriyatlar emas, balki ularning qadriyatlarga oid mental makondagi o'zaro dispozitsiyasi hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lishi ta'kidlanadi. Shuningdek, olim muayyan xalq ajdodlari tomonidan yaratilgan madaniyatda mujassam bo'lgan qadriyatlar keyinchalik o'sha madaniyatni vujudga kelishiga sabab bo'lgan insonlarga xos xususiyatlarni tarkib toptirishini, ya'ni shunday xususiyatlarga ega individlarni saralab olishga xizmat qiladigan o'ziga xos matrisa vazifasini bajarishi mumkinligini ta'kidlaydi[1].

Har bir millat o'zining etnik taraqqiyotida turli davrlarni, bosqishlarni bosib o'tadi. Xalqning etnik taraqqiyoti, shu xalq vakillari bilan asrlar davomida sodir bo'lgan tarixiy voqealar milliy psixologik qiyofani shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatib, etnik xususiyatlarni shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Etnopsixologik xususiyatlarning ayrim belgilari kishilar birligining hamma tarixiy davrlariga ya'ni urug', qabila, elatlarga ham xosdir. Etnopsixologik xususiyatlar ayrim tadqiqotchilar ko'rsatganidek, faqat bir omil – tabiiy muhit ta'siri bilangina vujudga kelib qolmay, uning vujudga kelishida uchta omil ta'sir ko'rsatadi. Birinchi omil bu – siyosiy-iqtisodiy va jamiyat hayotida bo'layotgan ijtimoiy jarayonlar tizimi bo'lsa, ikkinchisiga, shu etnik birlik yashab turgan tabiiy-geografik muhitning xususiyatlari kiradi. Uchinchi omilga esa xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy hodisa va voqealar kiradi. Lekin shuni aytish kerakki, etnopsixologik xususiyatlar tizimida kishilar ruhiyatining mazmunini, avvalo birinchi omil – siyosiy o'zgarishlar belgilab beradi. Tabiiy-geografik omil esa asosan etnopsixologik qiyofaning tashqi ifodalarini belgilaydi. Shuning uchun ham bu omil kuzatayotgan kishi nazariga birinchi omilga qaraganda yaqqol namoyon bo'ladi. Xalq hayotida bo'lib o'tgan muhim tarixiy voqealar so'zsiz uning psixologik qiyofasida o'chmas iz qoldiradi. Tabiatdagi ayni bir voqeyeliklarning doimiy ta'siri natijasida kishilar bu voqeyelikdagi xususiyatlarni boshqa sharoitda yashayotgan etnik guruh vakillariga qaraganda chuqurroq idrok qilishga o'rganib qoladilar. Chunki tashqi muhit bizning sezgi a'zolarimizga behisob informatsiyalar, ya'ni xilma-xil taassurotlar yuborib turadi. Natijada evolyutsion taraqqiyot davomida, tanamizda shu tashqi muhit bilan adekvat munosabatni ta'min ettiruvchi neyro-fiziologik mexanizm shakllanadi. U kishilarning sezgi va idroklarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun u yoki bu xalqqa xos stereotiplar xatti-harakatlarni, idrok xususiyatlarini tashqi muhitga moslashuvining oliy ko'rinishi deb hisoblash kerak. Tashqi muhitning doimiy ta'sirida vujudga kelgan ruhiy xususiyatlar bu taassurotlarning butun sistemasi(tizimi)ni emas, balki uning uchun muhim

bo'lgan va o'tmish tajribasida sinalgan, mustahkamlanib qolgan tomonlarnigina aks ettiradi. Tashqi olam ta'siri kishi miyasida o'rnashib hislar, fikrlar, xohish, irodani namoyon bo'lishi, xullas, ideal orzu-tilak tarzida aks etadi va xuddi shu ko'rinishda, ideal kuchlar bo'lib qoladi, deb ko'rsatgan edi E.Fridrix. S.I.Korolevning yozishicha, shakllangan etnopsixologik xususiyatlar ma'lum darajada muhofaza qiluvchi mexanizm rolini o'ynaydi. U xuddi g'alvirdek, yot narsalarni ajratib, uni yo qabul qiladi yoki shu xalqda mavjud bo'lgan normalar asosida qayta ishlab beradi, yoxud uni inkor etadi[2].

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, biz o'z ilmiy izlanishlarimizda o'quvchilarda milliy xususiyatlarning rivojlanishi, namoyon bo'lishi masalasini tadqiq etdik. Buning uchun Toshkent shahridagi maktab o'quvchilaridagi o'zbek va rus millati haqidagi avtostereotip va geterostereotiplarni o'rganish maqsadida 10-sinf o'quvchilari tadqiqotga jalb qilindi. Tadqiqotda "O'zbek va rus millatiga xos stereotiplarni o'rganish metodikasidan foydalanildi[3]. Bunda o'quvchilarga 70 ga yaqin sifatlar yozilgan varoq taqdim qilinib, shu ro'yhatda berilgan sifatlardan o'zbek va rus millatini to'liq va aniq yoritib bera oladigan 15 ta xususiyatni belgilash so'raldi. Rus maktablarida tahsil oluvchi o'zbek va boshqa millat vakillari hamda o'zbek maktablarida tahsil oluvchi o'zbek millatiga mansub o'quvchilar natijalari o'zaro qiyoslandi. Rus maktab o'quvchilari bilan olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi ma'lumotlar qo'lga kiritildi:




1-rasm. Rus tilida ta'lim oluvchi o'quvchilarda o'zbek millati haqidagi etnik tasavvurlar

O'zbeklarga sabrlik (76,19 %), mehnasevarlik (71,43%), mehmondo'stlik (71,43%), do'stonalik (61,9%), saxiylik (57,14%), bardoshlilik (57 %), bosiqlik (52,8%), kuchlilik (52,38%), vatanparvarlik (52,38%), rahmdillik (52,38%), kamtarlik (52,38%), tartiblilik (47,62%), mag'rurlik (42,86%), hazilkashlik (42,86%), tejamkorlik (42,86%) sifatleri xos ekanligini ma'lum qilishgan. Ushbu avtostereotiplar boshqa millat vakillarining o'zbeklar haqidagi geterostereotiplaridan farq qildi. Boshqa millat vakillari bo'lgan o'smir va ilk o'spirin o'quvchilar o'zbeklarga do'stonalik, muloqotchanlik, kamtarlik, sabrlik, emosionallik,


moddiy manfaatni ustun qo'yish, bosiqlik, mehnasevarlik, tinib-tinchimaslik, mustaqillik, saxiylik, ishonuvchanlik kabi sifatlarni xoslaganlar. Muloqotchanlik, emosionallik, moddiy manfaatni ustun qo'yish, tinib-tinchimaslik, mustaqillik, ishonuvchanlik kabi xususiyatlar bilan ta'riflash orqali boshqa millat vakillari o'zbek xalqidagi ta'sirchanlik va shaxslararo munosabatlarga oson kirishish va ekstravert insonlarga xos fazilatlarni sanab o'tganlar, ya'ni ular ko'proq hissiy affektiv holatlar bilan bog'liq fazilatlarni e'tirof etganlar. O'zbek o'quvchilar avtostereotiplarida esa aynan bu sifatlari qayd etilmadi. Bunda ko'proq insonning irodaviy sifatlari bilan bog'liq xususiyatlarni o'zbek millatiga xoslash holati kuzatildi.

Rus tilida ta'lim oluvchi o'zbek o'quvchilari rus millati haqida (2-rasm) esa mustaqillik (66,6%), muvaffaqiyatga intiluvchanlik (61,9%), hazilkashlik (52,3%) va do'stona, xayrixohlik (47,6%) sifatlarini asosiy xususiyat sifatida e'tirof etganlar. Rus, metis va boshqa millat vakillaridan iborat o'quvchilar esa rus millatiga xoslab bardoshli, alkogolga ruju qo'ygan, jiddiy, jahldor, mag'rur, qahri qattiq, serg'ayrat sifatlarini keltirganlar. Natijalardan ko'rinadiki, rus tilida ta'lim oluvchi o'zbeklarning ruslar haqidagi geterostereotiplarida shaxs xususiyatlariga tegishli ijobiy sifatlarni, ularga nisbatan simpatiyani his qilishlarini ko'rish mumkin. Rus, metis va boshqa millat vakillaridan iborat o'quvchilar jamoasi esa, aksincha asosan salbiy shaxs xususiyatlarini ruslarga xos sifatlari qatorida keltirib o'tganlar.



2-rasm. Rus tilida ta'lim oluvchi o'quvchilarda rus millati haqidagi etnik stereotiplar


Tadqiqotimizning keying bosqichida o'zbek tilida tahsil oluvchi o'quvchilar natijalari tahlil qilinib, o'zi haqidagi tasavvurlari o'zbek va rus millati haqidagi tasavvurlari bilan solishtirilgan holda etnik mansublikni his qilish holati o'rganildi.



3-rasm. O'zbek guruhlarida tahsil oluvchi o'quvchilarning o'zi haqidagi tasavvurlari

O'zbek tilida tahsil oluvchi o'quvchilarning o'zi haqidagi tasavvurlari (3-rasm) o'rganilganda, aksariyat o'quvchilar o'zlarini hazilkash (60%), halol (54,2%), saxiy (54,2%), tartibli (48,5), bardoshli (42,8%), sabrli (42,8%), o'ziga ishongan (42,8%) deb baholab, o'zbek millatini ta'riflashda foydalangan xususiyatlarini qo'llaganlar, ya'ni o'zlarini o'zlari mansub bo'lgan millat bilan identifikasiya qilganlar. Mazkur holat o'quvchilardagi o'zbek millatiga mansub etnik xususiyatlarida samimiy muloqotga intilish, irodaviy sifatlarni rivojlantirish, o'ziga adekvat baho berish orqali milliy ong va milliy iftixorni namoyon qilishi muhimligini ko'rsatib o'tganlar.

Ilmiy izlanishlarimizning navbatdagi bosqichida o'quvchilarning o'zbeklar haqidagi avtostereotiplarini tadqiq qildik (4-rasm). Natijalarimizga ko'ra, o'quvchilarning o'zbeklar haqidagi avtostereotiplarida halollik (74,2%), tartiblilik (68,5%), saxiylik (68,5%), hazilkashlik (65,7%), bardoshlilik (62,8%), sabrlilik (57,1%) sifatlari yetakchi o'ringa ega bo'lgan.



4-rasm. O'zbek o'quvchilarning o'z millati haqidagi avtostereotiplari. Natijalardan ko'rinadiki, o'zbek tilida tahsil oluvchilarda o'z millatidan qoniqish, fahrlanish hissi mavjud yoki ularda o'zbekona xususiyatlardan hisoblangan istihola qilish mavjud bo'lib, ular jamiyat a'zolari uchun nomaqbul hisoblangan fikrlarni bildirmaslikka harakat qiladilar. Rus tilida tahsil oluvchilarda esa fikrini ochiq bayon etish, tanqidga moyillik hislari shakllanganini, bu xatto uning etnik tasavvurlariga ham, milliy mansublik hissini shakllanishiga ham o'z ta'sirini o'tkazganini ko'rish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, shaxsda etnik tasavvurlar, milliy mansublik hissining shakllanishi va rivojlanishi murakkab jarayon bo'lib, bu jarayonga nafaqat oila, mahalla, do'stlar, balki ta'lim tizimi, ta'lim massasasi va ta'lim tili ham ahamiyatli darajada o'z ta'sirini ko'rsatar ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Botirov B.M. O'zbek mentalitetining psixologik xususiyatlari. – T.: TDPU, 2011. - 143 b.
2. Королев С.И. Вопросы этнопсихологии в работах зарубежных авторов (на материалах стран Азии).–М.: Наука, 1970.
3. Стефаненко Т. Г. Этнопсихология: практикум. –М.: Аспект Пресс, 2006. –208 с.

Ismatova Dilafruz Tuymuratovna,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrası dotsenti,

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

OTA-ONALARDAGI HISSIY-EMOTSIONAL MUNOSABATLARNING FARZAND TARBIYASIDAGI O'RNI

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalash mas'uliyati, tarbiyaning asosi bo'lgan oila muhiti, farzandlarni sog'lom, e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ota-ona zimmasiga yuklanganligi, oilaning har bir a'zosi millatning davomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi vazifasiga ega ekanligi, insonning shaxs bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida oila asosiy poydevor hisoblanishi haqida fikrlar keltirilgan. Shuningdek, ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosini o'rgangan bir nechta izlanuvchilarning fikrlari, oilada ota-onalikning eng muhim sifatlari, farzandlarni tarbiyalash usullari, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasi, intizomga chaqirish bilan bog'liq talablar haqida aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Tarbiya, mafkura, ma'naviy yetuklik, aybdorlik hissi, emotsional rad etish, stress, optimal hissiy aloqa, konsentratsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается ответственность за воспитание подрастающего поколения в семье как совершенного человека, семейная среда, являющаяся основой воспитания, Воспитание детей здоровыми, уверенными в себе, физически сильными, на родителей возложена ответственность, каждый член семьи несет ответственность за развитие национальных и общечеловеческих ценностей, сохраняющих преемственность нации, воспитание духовно и физически совершенного поколения в мире, воспитание личности человека в духе в становлении, обретении места в жизни, высказываются мнения о том, что семья является основным фундаментом в достижении почта и уважения в стране. Также были высказаны мнения нескольких исследователей, изучавших проблему установок воспитания и их стилей воспитания детей, о важнейших качествах воспитания в семье, методах воспитания детей, степени удовлетворения различных потребностей ребенка, требованиях, связанных с призывом к дисциплине.

Ключевые слова: воспитание, идеология, духовная зрелость, чувство вины, эмоциональный отказ, стресс, оптимальный эмоциональный контакт, концентрация.

Annotation: In this article, the responsibility of raising the younger generation as a perfect person in the family, the family environment that is the basis of upbringing, the responsibility of the parent to educate children as healthy, faithful, physically strong, each member of the family has the task of bringing into the world a spiritual and physically harmonious generation, ensuring the development of national and universal values, within el yurt, it has been suggested that the family is considered the main foundation in respectability. Also mentioned are the opinions of several researchers who studied the problem of parental and their methods of raising children, the most important qualities of parenting in the family, methods of raising children, the degree of satisfaction of the child's various needs, requirements related to calls for discipline.

Keywords: upbringing, ideology, spiritual maturity, feelings of guilt, emotional rejection, stress, optimal emotional communication, concentration.

Kirish. Oila hayotning abadiyligini davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas urf-odatlarimizni saqlaydigan, shu bilan birga kelajak nasllarni qanday inson bo'lib etishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'idir. Oilaviy turmush inson xayotining eng muhim

jihatlaridan biri hisoblanadi. Xuddi shu boisdan jamiyatning qonun qoidalarga nisbatan munosabat ham oiladagi shaxslararo turli tuman muammolarda, muloqotda, fikr almashinuvida, munozaralarda, o'z ifodasini topadi, binobarin yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash oilaning naqadar mustahkam bo'lishiga, ota-ona munosabatlarida oliyjanob xarakter hislarini, bolada yuksak ma'naviy hislarni shakllantirishga bog'liqdir. Ta'kidlash joizki, oila ijtimoiy institut sifatida o'zining barcha vazifalarini bajargan taqdirdagina, mafkuraviy tarbiyaning kafolatli o'chog'iga aylanadi. Zero, har bir oilaning muqaddas vazifasi – qobiliyatli farzandlarni o'stirish, ularni jismoniy, intellektual va ma'naviy tomondan yetuk qilib, ota-onasiga, Vataniga sadoqatli insonlar qilib tarbiyalashdan iborat[1]. Ya'ni, ham ma'naviy, ham jismoniy jihatdan sog'lom, barkamol inson faqat sog'lom oilada shakllanishi mumkin. Oiladagi sog'lom muhit va barqarorlik esa yaxlit jamiyat ma'naviy takomilining aslosidir.

Yosh avlodni oilada komil inson qilib tarbiyalashdek yuksak va mas'uliyatli vazifa ota-onaga, oiladagi kattalarga yuklatilgandir. Tarbiyaning asosi oila muhitidir. Bola uyda nimani ko'rsa, shunga taqlid qilib o'sadi. Oilada ota olijanob keng fe'l, bosiq, mulohazali va ozgina siyosatliroq bo'lishi, ona esa mehribon, rahmli, bolalarini behuda qarg'amaydigan va muloyim bo'lmog'i lozim. Farzandlarimizni sog'lom e'tiqodli, jismonan baquvvat qilib tarbiyalash ham ota-ona zimmasiga yuklangan. Oilaning har bir a'zosi millatning davomiyligini saqlovchi milliy va umuminsoniy qadriyatlarning rivojini ta'minlovchi, ma'naviy va jismoniy barkamol avlodni dunyoga keltirib tarbiyalovchi muqaddas makon ma'naviyat maskanidir. Insonning shaxs bo'lib shakllanishida, hayotda o'z o'rnini topish, el-yurt ichida izzat-hurmatga sazovor bo'lishida oila asosiy poydevor hisoblanadi.

Ota-onalik ustanovkalari va ularning farzand tarbiyalash uslublari muammosi rossiyalik qator izlanuvchilarning asarlarida qayd etilgan. Jumladan, A.E.Lichko, A.A.Bodalev, A.A.Stolin, E.G.Eydemiller, V.V.Yustitskiy kabi olimlar oilada ota-onalikning eng muhim sifatlarini, farzandlarni tarbiyalash usullarini, bolaning turli ehtiyojlarini qondirish darajasini, intizomga chaqirish bilan bog'liq talablar darajasini, ta'qiqlovlar yoki bolaning xulqini jilovlash uchun ishlatiladigan sanksiyalar tizimi va qattiqqo'llik darajasini tadqiq qilganlar[2]. Qattiqqo'llik – bir qarashda emotsional rad etishga o'xshaydi, lekin undan ochiqroq va og'irroqdir. Qattiqqo'llik to'g'ridan-to'g'ri bolani yoshligidan kaltaklash, haqorat qilish, kamsitish shaklida yoki bola ehtiyojlariga to'la befarqlik, uning bor-yo'qligini go'yoki sezmaslik kabi ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Ikkala holatda ham bola yoshligidan nima qilib bo'lsa-da, tezroq katta bo'lish, o'zi amallab tirikchiligini qilish, ota-ona tazyiqidan qutulishni o'ylab yashaydi. Bunday oilada bolani u yoki bu xulqi uchun jazolash odat tusiga kirib qoladi, bola qo'rqqanidan ota-ona hukmiga itoat etayotganligi, buning istiqbolda yomon asoratlari borligini kattalar bilmaydilar, bilsalar ham bu usul ular uchun samarali tuyuladi. Aybdorlik, aybga yarasha jazo kabi usullar bola xulq-atvorini boshqaruvchi psixologik omilga aylanadi, u ham kelajakda doimo aybdorlarni qidirishga o'rganib boradi. A.Freyd nazariyasiga ko'ra, ana shunday jazoga hukm etilgan bola tobora agressiv bo'lib borib, o'zida alamni qaysidir bir obyektidan (o'zidan kichiklardan, begonalardan, hayvonlardan) olishga qasd qiladigan, qasoskor bo'lib o'sadi. Ma'lumotlarga ko'ra, Amerikada ko'cha bolalarining kamida 1%i oilada ayni shunday tarbiyaning qurbonidirlar. Amerikalik olim S.D.SHerriits oiladagi ana shu kabi qattiqqo'lliklarning bola va ota-ona xulq-atvoriga salbiy ta'sirini o'rganib, ularning xarakterida ro'y beradigan o'zgarishlarga to'xtalib o'tgan. Jismoniy jihatdan bolaga zug'um qilib, uni kaltaklash holatlari deyarli barcha ijtimoiy qatlam vakillariga xosdir. Hayotda, ish-faoliyatida omadi kelmagan yoki baxtsiz muhabbat qurboni bo'lgan, lekin farzand ko'rgan ayollarning aksariyati achchig'ini bolasidan olishga moyillik tarkib topadi, bu tobora hayotiy ko'nikmaga aylanib boradi. Ayniqsa, stress omillar ta'sirida ota-ona o'z ijtimoiy muammolarini hal qila olmay, farzandidan o'ch ola boshlaydi. Turmushdagi muammolar qanchalik ota yoki ona uchun murakkab tuyulsa, ularning bolasini kaltaklashi, undan o'ch olish ehtimoli shuncha yuqori bo'lishini olimlar o'rganishgan.

Tadqiqot obyekti. Oila, undagi shaxslararo munosabatlar, ota-ona va farzandlar o'rtasidagi emotsional munosabatlarni tadqiqotimiz obyekti sifatida keltirishimiz mumkin. Ayrim holatlarda ota-onalarning farzandlariga nisbatan haddan ziyod e'tibor ko'rsatishiga guvoh bo'lamiz, bu ularning bola tarbiyasi uchun kuch, vaqt va e'tiborni ayamaskliklarida namoyon bo'ladi. Ota-ona bu ishni hayot tarziga aylantiradi, ya'ni ona uchun ham, ota uchun ham bola tarbiyasi hayotining mazmun-muddaosiga aylanadi. Yana boshqa bir vaziyatlarda ota-ona tomonidan bolaning barcha istak, tilak va ehtiyojlari ko'r-ko'rona, tanqid va mulohazasiz qondirishga harakat qilinadi, bolani har qanday qiyinchiliklar va to'siqlardan himoya qilish, uning barcha istaklarini joyida bajo keltirish, erkalatish, oddiy yutuqlaridan quvonish, xatolarini sezmaslikka qaratilgan harakatlar ota-onalar tomonidan ko'p amalga oshiriladi. Bolasi uchun "jonini jabborga beruvchilar" bu turdagi ota-onalar, odatda, o'zlari bilmagan holda farzandlariga yomonlik qilayotganliklarini sezmaydilar, natijada bola kelajakda ishga toqati yo'q, ko'pchilikning ichida o'zini tuta olmaydigan, hayotning past-balandliklarida o'zini nochor his etadigan, tantiq, erka bo'lib qoladi. Ayniqsa, bola o'smirlik yoshiga yetganda, erka, tantiq bo'lgani uchun do'stlari va tengqurlari davrasida ham hamma aytganlari bo'lishini istaydigan, liderlikka intiluvchanligini namoyon etgisi keladi, lekin ikkinchi tomondan, aslida unda bunday sifatlar bo'lmaydi. Gap shundaki, bunday holatlarda ota-ona zurriyodi timsolida ilgari o'z hayot tajribasida erisholmagan armonlarini ro'yobga chiqargisi keladi, ularning tarbiya uslublari aynan shunga qaratilgan bo'ladi, lekin bola ko'p jihatdan nochor ekanligini keyinchalik ijtimoiy muhitning turli vaziyatlariga tushganida his eta boshlaydi. Yana ayrim turdagi ota-onalarda erkalatishdan ko'ra bolasining har bir yurgan qadami va xatti-harakatini nazoratga olish orqali unga e'tibor berish holati ko'p uchraydi. Shuning uchun bu tarbiya uslubida turli xil ta'qiqlar, chegaralashlar bisyor bo'ladi. Bunday sharoitda katta bo'lgan bola, odatda, mustaqil qarorlar chiqaruvchi bo'lolmaydi, salga jahli chiqadigan, ko'p narsalardan norozi holda katta bo'ladi, chunki u doimiy nazoratga, birovlarining hamma yo'l-yo'riqlarni ko'rsatib, aytib berishlariga o'rganib qoladi[3]. Oiladagi yana bir holatga alohida to'xtalib o'tishni ham joiz deb topdik. Bu oiladagi o'ta kuchli axloqiy mas'uliyat hissidir. Bunda ota-ona tomonidan bolaga nisbatan talablar darajasi o'ta yuqori bo'lib, bunda farzandning asl xohish-istaklari, ehtiyojlari unchalik e'tiborga olinmaydi. Ota-ona bolasining kelajagini puxta qilishni o'ylab, uning yurish-turishi uchun o'zlarini mas'ul deb his qilgan holda, shaxsiy tasavvuridagi insonni yaratishga, shaxsni shakllantirishga urinadilar, ba'zan nazorat ostida bolaning yoshi, aqliy yoki jismoniy imkoniyatlariga zid talablar, topshiriqlar ham berilaveradi. Bu kabi holatlar ham bola psixologiyasida albatta o'zining salbiy ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Qo'llanilgan metodlar. Oila roliga bo'lgan munosabatni tahlil qilish psixologga subyektning oilaviy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini yaxshiroq tushunishga, unga psixologik yordam ko'rsatishga yordam beradi. Ota-onalar va bolalar munosabatlari metodologiyada tahlilning asosiy mavzusidir. Ko'pincha ota-onalar va bola o'rtasidagi muvaffaqiyatsiz munosabatlarning xususiyatlarini, bu munosabatlardagi keskinlik zonasini tushunish uchun kalit bo'lgan individual tarozilarni tahlil qilish alohida qiziqish uyg'otadi. Texnika psixodiagnostik suhbatni tayyorlash va o'tkazishda yordam berishi mumkin.

Biz tadqiqot ishimiz davomida Parining "Ota-onalar munosabatini o'rganish usuli" metodikasidan foydalanib, ota-onalar va farzandlarning oilaviy hayotning turli tomonlariga munosabatini o'rganishga harakat qildik. Pari so'rovnomasi oilaviy hayot va ota-onalik haqidagi 115 ta bayonotni o'z ichiga oladi. Unda ota-onalarning bolaga va oiladagi hayotga munosabatining turli jihatlariga oid 23 ta shkala mavjud bo'lib, har bir tarozida 5 tadan savol bor. Ulardan 8 tasi oilaviy rollarga munosabatni tavsiflaydi va 15 tasi ota-ona va bola munosabatlariga taalluqlidir. O'z navbatida, ushbu 15 ta o'lchov quyidagi 3 guruhga bo'linadi:

- 1 - optimal hissiy aloqa,
- 2 - bola bilan haddan tashqari hissiy masofa,
- 3 - bolaga haddan tashqari konsentratsiya.

Metodikada o'zaro bog'langan mezonlar mavjud bo'lib, ularga nisbatan faol yoki qisman rozilik yoki kelishmovchilik shaklida respondentlar o'z munosabatini bildirishi kerak:

A - faol rozilik

a - qisman kelishuv

b - qisman kelishmovchilik

B - to'liq kelishmovchilik.

Anketa quyidagi shkalalarni birlashtiradi: Verbalizatsiya, haddan tashqari tashvish, oilaviy qaramlik, irodani bostirish, o'zini qurbon qilish hissi, xafa qilishdan qo'rqish, oilaviy nizolar, achchiqlanish, haddan tashqari jiddiylik, oila ichidagi ta'sirlarni istisno qilish, ota-onalarning super kuchi, agressivlikni bostirish, hamkorlik, bolaning faolligini rivojlantirish, mojarolardan qochish, onaning hukmronligi, bolaning dunyosiga favqulodda aralashuv, tenglashtirilgan munosabatlar, bolaning rivojlanishini tezlashtirish istagi, onaning mustaqilligi yo'qligi. Darhol amalga oshirilishi mumkin bo'lgan asosiy xulosa - ota-ona va bola aloqasini uning optimalligi nuqtayi nazaridan baholash. Buning uchun mezonlarning dastlabki 3 guruhi bo'yicha o'rtacha ball solishtiriladi: optimal aloqa, hissiy masofa, konsentratsiya.

Olingan natijalar tahlili:

Tadqiqot ishimizda qo'llagan usulimizda mavjud bo'lgan ota-onalarning oilaviy rolga bo'lgan munosabatlarini aniqlashga qaratilgan mezonlar bloki bizda katta qiziqish uyg'otdi. Ushbu mezonidagi oilaviy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari oilaviy hayotni tashkil etish darajalarini baholashga imkon berdi. Biz oilada bolishi mumkin bo'lgan munosabatlarning ayrim jihatlarini ajratib ko'rsatishiz mumkin:

- maishiy, oilaviy hayotni tashkil etish (metodologiyada bu 3, 13, 19, 23-o'lchovlar);

- do'stlararo, axloqiy, hissiy qo'llab-quvvatlash, bo'sh vaqtni tashkil etish, shaxsni, o'z va sherikni rivojlantirish uchun muhit yaratish bilan bog'liq (texnikada bu 17-o'lchov);

- bolalarni tarbiyalashni ta'minlaydigan munosabatlar "pedagogik" (5, 11-shkala metodologiyasida).

Tadqiqot ishimiz mobaynida raqamli ma'lumotlarga qarab, oilaning "dastlabki portretini" yaratishga muvaffaq bo'ldik. Shuningdek, metodikada keltirilgan 7-o'lchov (oilaviy nizolar) juda muhimdir. Ushbu shkala bo'yicha yuqori ko'rsatkichlar mojaroni, oilaviy mojaroni ishlab chiqarish munosabatlariga o'tkazishni ko'rsatishi mumkin. 3-shkala bo'yicha yuqori baholar oilaviy muammolarning ishlab chiqarishdan ustunligi, "ish" manfaatlarining ikkilamchi ekanligidan dalolat beradi, 13-shkala bo'yicha yuqori baholarga ega bo'lgan shaxslar oilaga qaramlik, iqtisodiy funksiyalarni taqsimlashda past izchillik bilan ajralib turadi. Oilaning yomon integratsiyasi 17, 19, 23 shkalalarida yuqori baholardan dalolat beradi. Bu holat ota-ona va bola munosabatlari metodologiyada tahlilning asosiy mavzusi hisoblanadi. Bu borada tadqiqotchi sifatida darhol amalga oshirilishi mumkin bo'lgan asosiy xulosa - bu ota-ona va bola o'rtasidagi aloqani maqbulligi nuqtayi nazaridan baholashdir. Buning uchun dastlabki uchta shkala guruhining o'rtacha ko'rsatkichlari taqqoslanadi. Bular: optimal aloqa, hissiy masofa, konsentratsiya kabildir. Ushbu shkalaning mohiyatiga ko'ra, oiladagi ziddiyatli tarbiya ta'siri keltirib o'tiladi. Bunday beqaror tarbiya uslublarini E.Eydemiller, V.Yustitskiy, N.Lengardlar o'rganib, uning oqibatida bolada salbiy xarakter xususiyatlari, masalan, qaysarlik, obro'li shaxslarning tazyiqini noto'g'ri baholash kabilar shakllanishini isbotlaganlar[4]. Ota-ona tarbiyadagi beqarorlikning oqibatlarini tasavvur qilsalarda, uning oldini olishni bilmaydi. Ko'pincha bu – bolalikka xos sifatlar ekanligi fikri ularni tinchlantiradi. Aksariyat ota-onalar bolasini yo'qotib qo'yish yoki uning ko'ngli qolishidan qo'rqib ham noto'g'ri tarbiya yo'llarini tutadi. Shuning uchun oilaviy tarbiya o'ta murakkab jarayon bo'lib, unda ota-onalar oldindan psixologik jihatdan tayyor bo'lishlari kerak.

Xulosa. Fikrimiz yakunida shuni aytishimiz mumkinki, oila inson ijtimoiylashuvining asosiy ildizi, jamiyatning rivojlanishi, qadriyat va an'analarni avloddan – avlodga o'tkazib beruvchi, ayni paytda har bir jamiyatda o'ziga xos tarbiya instituti hisoblanadi. Oila shunday bir maskanki, bunda oila a'zolari o'zaro bir-biriga intilishni his qiladilar hamda o'zaro

g'amxo'rlik qilishni oila a'zolarining burchi sifatida qaraydilar. Shuning uchun oilada barqaror va muvozanatlashgan shaxslararo munosabatni shakllantirish jamiyat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etadi. Oilani o'rganishga bag'ishlangan tadqiqot ishlarida psixologik muammolari mavjud oilalar soni ortib borayotganligi tasdiqlanmoqda. Bu holatlar er-xotin va ayniqsa yoshlar o'rtasida maqsadga yo'naltirilgan ishlarni amalga oshirishni talab qiladiki, ular jumlasiga eng avvalo, yoshlarni oilaviy hayotga mukammal tayyorlash, yaxlit jamiyat miqyosida oila institutiga nisbatan jamoatchilikning hurmatini oshirish, oilaning qadriyat sifatidagi mavqeyi mustahkamlanganligini ta'minlovchi maqomini muhofaza qilish, unga ma'naviy, tibbiy, ijtimoiy, psixologik jihatdan yordam berishni taqozo qilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. G'.B.Shoumarov I.O.Haydarov, N.A.Sogunov, G.Niyozmetova "Oila psixologiyasi". O'quv qo'llanma.2014.
2. Z.T.Nishanova., Sh.T.Alimbayeva., M.V.Sulaymanov "Psixologik xizmat" darslik, Toshkent – 2014.
3. V.M.Karimova , "Oila psixologiyasi" Darslik – T.: 2007.
4. D.Arapbaeva, N.Kurbonova, N.Toshpolotova «Oilaviy munosabatlar psixologiyasining nazariy va amaliy masalalari»metodik qo'llanma Toshkent-2019
5. N.Qayumova, M.M.Pirmuhamedova, L.A.Kulay, Sh.Sodiqova, B.Xojimurodova, M.A.Rasulxo'jayeva, R.Avezova. «Oila pedagogikasi» Toshkent-2007

Soatov Asadulloh Jabborovich,
Turon universiteti Pedagogika va psixologiya
kafedrası dotsenti, p.f.f.d (PhD).

ESDA OLIB QOLISH TURLARI VA ULARNI TADQIQ QILISH METODIKASI

Annotatsiya: Maqolada esda olib qolish turlari va ularni tadqiq qilish metodikasi, esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishining muhimligi, mantiqiy shaklda esda olib qolingani ma'lumot shaxsning analiz qilishi orqali maznunini anglagan holda o'zlashtirganligi sabab xotirada uzoq vaqt saqlanishining ahamiyati yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: xotira, esda olib qolish, esda saqlash, esga tushirish, mantiqiy xotira, mexanik xotira, ko'nikma, assotsiatsiya, tasavvur.

Абстрактный: В статье рассматриваются виды запоминания и методика их исследования, значение значения усваиваемого в процессе запоминания материала, то, что информация, запоминаемая в логической форме, усваивается человеком с пониманием его содержание подвергается анализу и надолго остается в памяти, подчеркивается важность его сохранения.

Основные понятия: память, припоминание, припоминание, припоминание, логическая память, механическая память, навык, ассоциация, воображение.

Annotation: The article highlights the types of memorization and the methodology for their investigation, emphasizing the importance of the material being internalized having inherent meaning during the memorization process. It is pointed out that information stored in a logical manner remains in memory for a long time because the individual comprehends its content through analysis, thereby truly internalizing the material.

Key concepts: memory, memorization, retention, recall, logical memory, mechanical memory, skill, association, imagination.

Kirish. Psixologik jihatdan xotira faoliyati esda olib qolishdan boshlanadi. Ma'lumotni xotiramizda saqlab turish va zarur vaqtda esga tushira olishimiz uni qanday usullar orqali esda olib qolganimizga ko'p jihatdan bog'liq. Nazariy jihatdan esda olib qolishning sifatlariga uning tezligi, to'raligi, aniqligi va mustahkamligi kiradi. Esda qoldirishning bu sifatleri esga tushirishning tezligi, to'raligi va aniqligiga, shuningdek, nechog'li tez yoki sekin unutilishiga qarab aniqlanadi. Tez, to'la va aniq esga tushirish va tezda unutib qo'yimaslik esda qoldirishning eng yaxshi sifatlaridandir.

Esda olib qolish ma'lumotlar mohiyatiga ko'ra mexanik va mantiqiy xillarga bo'linadi. Materialni ma'nosiga tushunmasdan quruq takrorlash orqali ko'r-ko'rona yod olish mexanik xotira deyiladi. Materialning ma'nosini anglagan holda tushunib yod olish mantiqiy xotira deyiladi. Mexanik shaklda o'lashtirilgan ma'lumot manosi anglanmaganligi sabab tez xotiradan ko'tariladi. Mantiqiy shaklda esda olib qolingani ma'lumot esa shaxsning aniliz sintez va tahlil qilishi orqali maznunini anglagan holda o'zlashtirganligi sabab xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Shuning uchun ta'lim-tarbiya jarayonida mantiqiy esda qoldirishning ahamiyatini doimo esda tutish zarur.

Esda olib qolish inson faoliyatining ajralmas qismi bo'lib, uning turli turlari psixologik jarayonlarni o'rganishning muhim yo'nalishlaridan biridir. Bu jarayonlarning har biri inson xotirasining turli mexanizmlari va qobiliyatlari orqali amalga oshadi. Tadqiqotlar, shu jumladan eksperimentlar va so'rovnomalar orqali, esda qolishning turli usullari va ularning samaradorligini o'rganish imkoniyatlari mavjud. Mazkur tadqiqotlar xotira jarayonlarining murakkabligini va shaxsiy farqlarni aniqlashga yordam beradi, shuningdek, xotirani mustahkamlashning samarali metodlarini ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Ma'lumki, xotirada ma'lumotlar mustahkam saqlanishi uchun dastavval bu ma'lumotlar to'g'ri esda qoldirilishi kerak. Esda olib qolish inson faoliyatining xususiyatiga bevosita bog'liqdir. A. A. Smirnov, P. I. Zinchenko tajribalari shuni

ko'rsatadiki, esda olib qolish u yoki bu faoliyatdagina samarali bo'lish mumkin. A.A.Smironovning tajribalarida tekshirishlarga qaraganda, ikki xil faoliyat taklif qilinsa, birinchi holda ular ma'noli matnni esda olib qolish nazarda tutiladi. Sinaluvchilar matnni yodlar ekanlar, materiallar ustida hech qanday faol ish olib bormaganlar. Ikkinchi holda esa esda olib qolish vazifasi qo'yilmaydi-yu, lekin matn ustida muayyan ish olib borish, unda uchraydigan ma'noviy xatolarni aniqlash taklif etiladi. Ikkinchi holda esda olib qolish ancha samarali bo'lganligi aniqlangan[2].

Esda olib qolish jarayonida o'zlashtirilayotgan materialning ma'noga ega bo'lishligi yoki bo'lmasligi muhimdir. Assotsiativ psixologiya maktabining vakili, taniqli ruhshunos G. Ebbingauz jahon psixologiyasida birinchi bo'lib, 1885 yilda oliy ruhiy jarayon bo'lgan xotirani (1888 yilda intellektni) ilmiy tajriba metodi negizida tekshirdi va keng ko'lamda turmushga tatbiq etdi. U xotira jarayonini tajribada tekshirishning asosiy yo'nalishini ishlab chiqdi. Xotirani "sof" ko'rinishda o'rganishga harakat qilib, ma'no kasb etmaydigan bo'g'inlardan foydalanadi. Uning bu tadqiqoti kishining mantiqiy xotirasini emas, balki mexanik xotirasiga nisbatan qo'llanishga xos to'g'ri yo'nalishdir. U xotira jarayonini tekshirishda o'z oldiga 38 ta ma'no anglatmaydigan bo'g'inlardan tuzilgan materialni esda olib qolishni maqsad qilib qo'ygan. Bu materialni o'zlashtirish o'rtacha 55 marta takrorlashni talab qiladi. Esda olib qolish uchun 38-40 so'zdan, 11 ta bog'liq bo'lmagan so'zlardan foydalangan. Bu materialni o'zlashtirish 6-7 marotaba takrorlashni talab etgan, umumiy hisob esa 9:1 nisbatga to'g'ri kelgan[3].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim jarayonida ma'lumotlarni esda olib qolishning samaradorligi o'qituvchi tomonidan beriladigan ko'rsatmalarga bog'liqdir. Umuman esda olib qolish ko'rsatmasi uzoq va qisqa muddatli esda saqlashga, aniq esga tushirishga yoki so'zlari bilan esga tushirishga qarab ko'rsatmalar berish mumkin.

Buning uchun tajriba o'tkazuvchilar sinaluvchilarga quyidagi ustanovkalarni berishi lozim:

- sinaluvchilarga mos ko'rsatmalarni ishlab chiqish;
- qaysi xabar, ma'lumot, axborot, taassurot muvaqqat xususiyatga ega ekanligini aniqlashtirish;
- nimani esda olib qolish zarurligini tushuntirish;
- ma'lumotni tushunib olish kifoya qilishini ta'kidlash;
- nimani qay holda so'zma-so'z esda olib qolish kerakligini ko'rsatib o'tish lozim.

Kuzatishlarning ko'rsatishicha, bunday ko'rsatmalar (ustanovkalar berilmaganda) tajriba ishtirokchilarida ko'pincha noto'g'ri va qarama-qarshi hukmlar vujudga keladi[6].

Maxsus vositalar va oqilona usullarni qo'llash orqali esda olib qolish sohasidagi yodlashdan iborat tashkiliy faoliyat alohida ahamiyatga ega. A.A.Smironovning o'tkazgan tajribasidagi natijalar shuni ko'rsatadiki, matnni maxsus tuzib chiqilgan rejaga asoslangan holda yodlash, rejasi pala-partish esda olib qolishdan ikki baravar samaraliroq ekanligi aniqlangan. Psixolog olimlarning tavsiyasiga binoan yodlash jarayonida materialni takrorlash bilan uni faol esga tushirishni o'zaro almashtirib turish yuqori natijalar beradi. Kuzatishlar va tajribalar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilar va talabalar bu usullarni mustaqil ravishda egallay olmaydilar, odatda ular muallimning rahbarligida egallashadi, aks holda o'quv faoliyati ishtirokchilari materialni bevosita, ixtiyorsiz esda olib qolish bosqichida qotib qolishi mumkin, bu hol aqliy o'sishga qarama-qarshidir[5].

Tahlil va natijalar. Psixologiya fanida esa olib qolishning quyidagi turlari farqlanadi:

1. ma'lumot, xabar, taassurot, axborot va materiallarni eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish;
2. egallash yoki o'zlashtirish zarur bo'lgan materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish;
3. materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali idrok qilish hamda esda olib qolish;

4. aralash holatda esda olib qolish: ko'rish, harakat kabilar orqali idrok qilish va esda olib qolish, boshqacha aytganda, bir nechta ta'sir etuvchilar yordamida aks ettirish.

Sanab o'tilgan esda olib qolish usullarining mazmuniga ko'ra quyida to'rt ustundan iborat har bir ustunda 10 tadan jami 40 ta so'zdan tashkil topgan topshiriqlar jadvali keltirilgan.

1-jadval

Esda olib qolish turlari uchun so'zlar

№	1	2	3	4
1	Sayohat	Mashina	Tezlik	Qadam
2	Zulmat	Ketmon	Kuch	Kibr
3	Qo'shiq	Ayiq	O'q	Bayroq
4	Tasavvur	Sabzi	Bulut	Vaqt
5	Kulgu	Kosa	Ot	Raqs
6	Taskin	Dasxat	Tinch	Kino
7	Tabiat	Stol	Shamol	Qilich
8	Muloqot	Bankomat	Issiq	Hamyon
9	Ishtaha	Eshik	Nafas	Ingliz
10	Mamlakat	Gul	Yurak	Diqqat

Topshiriqni qo'llash uchun dastavval, jadvalda berilgan birinchi qator o'qib beriladi, so'ng eslab qolingani so'zlarni yoddan aytish talab qilinadi. Ikkinchi qatordagi so'zlar monitorda ko'rsatiladi, talabalarga esa ko'rib idrok qilganlarini eslab yozish vazifasi qo'yiladi. O'n minutdan keyin uchunchi qatordagi so'zlar o'qib beriladi va ularni havoda yozib ko'rsatish so'raladi, bu yo'l idrok qilingan so'zlarni yoddan eslab yozishni taqozo qiladi. So'nggi qator o'qiladi va ko'rsatiladi, sinaluvchilar ularni ichdan takrorlashlari kerak, undan so'ng eslab qolingani so'zlarni yozish tavsiya qilinadi. Mana shu yo'llar orqali ko'rish, eshitish, eshitish-harakat, aralash turlari yordamida xotiraning qaysi turi ustunroq yoki qaysi biri bo'sh ekanligini aniqlash mumkin.

Esda olib qolishda assotsiatsiyalarning ahamiyati muhimdir. Buning uchun esda olib qolish jarayonining bog'lanishlari paydo bo'lish sur'atini aniqlash maqsadida, ular xususiyatlariga binoan quyidagi turlarga ajratiladi:

- 1) sabab-oqibat bog'lanishi;
- 2) bo'lak va yaxlit munosabati;
- 3) qarama-qarshilik munosabati;
- 4) in'kor etish holati;
- 5) adekvat yoki aniqlik holati.

Tadqiqotimiz davomida tanlab olingan nazorat guruhidagi talabalarga yuqorida sanab o'tilgan assotsiatsiyalar va ulardan foydalanish texnikasi haqida ma'lumot berilmagan holda ularning to'g'ridan – to'g'ri esda olib qolish xususiyatini ya'ni tabiiy xotirasini sinovdan o'tkazdik. Quyidagi 1-jadvalda nazorat guruhidagi talabalarining natijalari ko'rsatilgan.

1-jadval

Esda olib qolish turlari bo'yicha nazorat guruhidagi talabalarining so'zlarni eslab qolish ko'rsatgichi (T=50).

№	Mezonlar	Ko'rsatgichlar			
		Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past
1	Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish	10 %	15 %	30 %	45 %
2	Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish	20 %	25 %	35 %	20 %

3	Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali esda olib qolish	10 %	20 %	25 %	45 %
4	Aralash holatda esda olib qolish	25 %	35 %	25 %	15 %
Jami		16%	24%	29%	31%

Metodika natijalariga ko'ra nazorat guruhida quyidagi natijalar qayd qilindi. Topshiriqni bajarish jarayonida "Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish" mezonni bo'yicha talabalarning 10 % yuqori natijani 15 % yaxshi natijani, 30 % o'rtacha natijani va 45 % past natijani qayd etdi. Talabalarning "Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish" mezonni bo'yicha 20 % yuqori natijani 25 % yaxshi natijani, 35 % o'rtacha natijani va 20 % past natijani qayd etdi. "Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali esda olib qolish" mezonni bo'yicha esa talabalarning 10 % yuqori natijani 20 % yaxshi natijani, 25 % o'rtacha natijani va 45 % past natijani qayd etdi. "Aralash holatda esda olib qolish" mezonni bo'yicha esa talabalarning 25 % yuqori natijani 35 % yaxshi natijani, 25 % o'rtacha natijani va 15 % past natijani qayd etdi. Barcha mezonlar bo'yicha 16 % talaba yuqori, 24 % talaba yaxshi, 29 % talaba o'rta va 31 % talaba past natijani qayd etdi.

Tadqiqotimiz davomida tajriba guruhidagi talabalarga assotsiatsiyalarning yuqorida sanab o'tilgan turlari haqida ma'lumot berildi. Ma'lumotlarni eslab qolishda birinchi ma'lumotni ikkinchi ma'lumotga bog'lash uchun sabab-oqibat bog'lanishi, bo'lak va yaxlit munosabati, qarama-qarshilik munosabati, in'kor etish holati, adekvat yoki aniqlik holati kabi assotsiatsiya turlariga qanday bog'lash texnikasi tushuntirildi. Quyidagi 2-jadvalda nazorat guruhidagi talabalarning natijalari ko'rsatilgan.

2-jadval

Esda olib qolish turlari bo'yicha tajriba guruhidagi talabalarning so'zlarni eslab qolish ko'rsatgichi (T=50).

№	Mezonlar	Ko'rsatgichlar			
		Yuqori	Yaxshi	O'rta	Past
1	Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish	20 %	30 %	40 %	10 %
2	Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish	30 %	40 %	20 %	10 %
3	Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali esda olib qolish	20 %	20 %	35 %	25 %
4	Aralash holatda esda olib qolish	30 %	40 %	20 %	10 %
Jami		25%	33%	28%	14%

Metodika yakunida quyidagi natijalar qayd qilindi. Topshiriqni bajarish jarayonida "Materiallarni eshitish orqali esda olib qolish" mezonni bo'yicha talabalarning 20 % yuqori natijani 30 % yaxshi natijani, 40 % o'rtacha natijani va 10 % past natijani qayd etdi. Talabalarning "Materiallarni ko'rib idrok qilish yordamida esda olib qolish" mezonni bo'yicha 30 % yuqori natijani 40 % yaxshi natijani, 20 % o'rtacha natijani va 10 % past natijani qayd etdi. "Materiallarni harakat yordamida va eshitish orqali esda olib qolish" mezonni bo'yicha esa talabalarning 20 % yuqori natijani 20 % yaxshi natijani, 35 % o'rtacha natijani va 25 % past natijani qayd etdi. "Aralash holatda esda olib qolish" mezonni bo'yicha esa talabalarning 30 % yuqori natijani 40 % yaxshi natijani, 20 % o'rtacha natijani va 10 % past natijani qayd etdi. Barcha mezonlar bo'yicha 25 % talaba yuqori, 33 % talaba yaxshi, 28 % talaba o'rta va 14 % talaba past natijani qayd etdi.

Xulosa va tavsiyalar. Tajriba va nazorat guruhi o'rtasidagi farqlarni taqqoslaganda tajriba guruhidagi talabalar assotsiatsiyalarga asosanib so'zlarni esda olib qolish texnikasini qo'llash orqali nazorat guruhidagi talabalarga nisbatan yaxshiroq natijani qayd etgan. Tajriba

guruhida yuqori natijani qayd etgan talabalarning foizi nazorat guruhidagi talabalarga taqqoslaganda 1.6 baravar ijobiy chiqqan. Yaxshi natijani qayd etgan talabalar o'rtasidagi farq 1.4 ni tashkil qilgan. Nazorat guruhidagi talabalarning o'rtacha natijasi tajriba guruhidagi talabalarnikidan 1.1 ga ko'p chiqqan. Nazorat guruhidagi past natijani qayd qilgan talabalarning foizi tajriba guruhidagi talabalarnikidan 2,2 baravarga farq qilgan.

Xulosa qilib aytganda ma'lumotlarni eslab qolishda maqsad qilingan ma'lumotni avval tajribamizda bor bo'lgan bilimlarimizga bog'lash uchun sabab-oqibat bog'lanishi, bo'lak va yaxlit munosabati, qarama-qarshilik munosabati, in'kor etish holati, adekvat yoki aniqlik holati kabi assotsiatsiya turlariga maqsadli bog'lagan holda esda olib qolish to'g'ridan – to'g'ri esda olib qolishga nisbatan bir muncha samarali ekan. Demak o'quvchi – talabalarga bilimlarni o'zlashtirish jarayonida assotsiativ usullarga asoslangan holda esda olib qolish ko'nikmalari pedagoglar tomonidan o'rgatilsa ta'lim samaradorligi yaxshilanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-128 b.
2. Soatov A.J. Tushunchalarni eslab qolishda zanjir usulidan foydalanishning psixologik aspektlari. O'zMU xabarlar jurnali. Toshkent: 1/8. 2024. 170 b.
3. Soatov A.J. Ma'lumotlarni eslab qolishda assotsiativ usullardan foydalanishning mnemonik ahamiyati. Ta'limda istiqbolli izlanishlar - xalqaro ilmiy-metodik jurnal. 5.2024. 157 b.
4. Soatov A.J. So'zlarni eslab qolishda hikoya usulidan foydalanishning metodik ahamiyati. Zamonaviy ta'lim jurnali. 7(140). 2024. 39 b.
5. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 106 b.
6. G'oziyev E. Umumiy psixologiya. Darslik. Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2010.-336-39 b.

*O'rozboyeva Gulshanoy Ixtiyor qizi,
Shovot tuman 30- son Davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti psixologi*

PEDAGOGLARDA STRESSNI BARTARAF ETISH UCHUN JAMOAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH TIZIMINING ROLI

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagoglarda stressni kamaytirish va ularning ish samaradorligini oshirish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining roli tahlil qilinadi. Pedagoglar o'rtasida stressni bartaraf etish va emotsional holatni yaxshilash uchun jamoaviy hamkorlik va o'zaro yordamning qanday ahamiyatga ega ekanligi ko'rsatilgan. Pedagoglar o'rtasidagi o'zaro qo'llab-quvvatlash tizimi stressni kamaytirish, samarali muloqot va motivatsiyani oshirishda muhim rol o'ynaydi. Maqolada bu tizimning ta'lim jarayonidagi o'zgarishlarga va pedagoglarni ijobiy ruhda ushlab turishga qanday ta'sir ko'rsatishi hamda amaliy tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: Pedagog, stressni boshqarish, jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, ish samaradorligi, emotsional qo'llab-quvvatlash, pedagoglar motivatsiyasi, ta'lim sifatini oshirish, stressni kamaytirish, pedagoglar o'rtasida hamkorlik.

Аннотация: В данной статье анализируется роль коллективной системы поддержки в снижении стресса у педагогов и повышении их трудовой эффективности. Показано, насколько важны коллективное сотрудничество и взаимопомощь среди педагогов для преодоления стресса и улучшения эмоционального состояния. Коллективная система поддержки среди учителей играет ключевую роль в снижении стресса, эффективном общении и повышении мотивации. В статье рассматривается влияние этой системы на изменения в образовательном процессе и ее роль в поддержании позитивного настроя у педагогов, а также представлены практические рекомендации.

Ключевые слова: педагог, управление стрессом, коллективная система поддержки, трудовая эффективность, эмоциональная поддержка, мотивация учителей, повышение качества образования, снижение стресса, сотрудничество между учителями.

Abstract: This article analyzes the role of a collective support system in reducing stress among educators and improving their work efficiency. It highlights the significance of collaborative teamwork and mutual assistance in alleviating stress and enhancing the emotional well-being of teachers. The peer support system plays a crucial role in reducing stress, facilitating effective communication, and boosting motivation. The article also discusses how this system impacts changes in the education process, helps maintain a positive atmosphere among teachers, and provides practical recommendations.

Key words: Educators, stress management, collective support system, work efficiency, emotional support, teacher motivation, improving education quality, reducing stress, collaboration among teachers.

Kirish. O'zbekistonda oliy pedagogik ta'limni turli yondashuvlar asosida tashkil etish masalasiga asosiy e'tibor qaratilmoqda [1]. Bundan maqsad Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida sifatli ta'limga erishishdir. Shu jihatdan ya'lim tizimida pedagoglarning jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi mana shunday turli yondashuvlarning muhim shakllaridan biri hisoblanadi. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, albatta, barkamol shaxsni tarbiyalash va Prezidentimiz Sh.M. Mirziyoyev, "jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar ta'lim tizimidan boshlanganini ko'ramiz. Ta'lim va tarbiyaning asosi maktabdir. Maktabning harakatlantiruvchi kuchi o'qituvchilardir.[2] Shunday ekan "o'qituvchilik" kasbining o'zi ham shaxs zimmasiga bir qancha mas'uliyat va vazifalarni yuklaydi. Bu holat o'qituvchilarning psixologik-ijtimoiy salomatligini ta'minlash, pedagogik

jamoada ijtimoiy psixologik muhitni yaxshilash, o'qituvchilarning kasbiy stressga konstruktiv munosabatini yaxshilash, turli psixologik mexanizmlar asosida ularning stressga chidamliligini oshirishni taqozo etadi. Pedagogik faoliyat stressni keltirib chiqaruvchi omillar bilan to'la bo'lgan bir soha hisoblanadi. Pedagoglar o'quvchilarni ta'lim olish jarayoniga jalb qilish, o'quv dasturlarini amalga oshirish va ta'lim muammolarini hal qilishda ko'plab qiyinchiliklarga duch keladilar. Ushbu qiyinchiliklar stressni keltirib chiqarishi mumkin. Stress pedagoglarning ishga bo'lgan motivatsiyasini pasaytiradi, ularning ruhiy holatini yomonlashtiradi va ta'lim jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotlar doirasida M.Tishkova tomonidan berilgan ta'rif eng mukammal deb baholanadi. Uning fikricha, stressga barqarorlik:

1) xavfli signalni tashkil etuvchi va xulq-atvorlarning o'zgarishiga olib keladigan kuchli yoki g'ayrioddiy ogohlantirishlarga chidash qobiliyati;

2) stress omillari ta'sirida yuzaga keladigan haddan tashqari qo'zg'alish va hissiy taranglikka dosh berish qobiliyati;

3) faoliyatga aralashmasdan yuqori darajadagi faollashuvga dosh berish qobiliyati [7].

Pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladigan kasbiy stress omillarini shartli ravishda quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin: mehnat faoliyati bilan bog'liq omillar: ortiqcha ish yuki, yomon mehnat sharoitlari, vaqt etishmasligi; pedagogning pedagogik jamoadagi o'rni bilan bog'liq stress omillari: kasbiy mas'uliyatni bajara olmaslik, jamoada e'tirof etmaslik, barcha mas'uliyatni o'z zimmasiga olish, ish yukini adolatsiz taqsimlash natijasida yuzaga keladigan noaniqlik, jamoa oldidagi mas'uliyatning o'ta pastligi, ishtirokining pastligi. jamiyat hayotida; pedagogik jamoada shaxslararo munosabatlar bilan bog'liq omillar: rahbar, hamkasblar, o'quvchilar, ota-onalar bilan buzg'unchi munosabatlar, muloqot muammolari; Pedagogik martaba bilan bog'liq omillar: kasbiy "muvaffaqiyatsizlik", pensiyaga chiqish qo'rquvi, kasbiy bilimning etishmasligi; kasbiy faoliyatdan tashqari omillar: oilaviy muammolar, surunkali kasalliklar va boshqalar [3; 5].

Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi stressni kamaytirish uchun samarali vosita hisoblanadi. Bunday tizim pedagoglarni o'zaro yordam ko'rsatish, bir-birining tajribalarini o'rganish va professional yordamlashish imkoniyatlari bilan ta'minlaydi. Pedagoglar bir-birlariga yordam berish, o'z muammolarini baham ko'rish va jamoaviy ishlash orqali stressni kamaytirishi mumkin.

Jamoaviy tizim pedagoglarga yangi stressni boshqarish metodlarini o'rganish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va birgalikda o'z maqsadlariga erishish imkonini beradi. Bu o'z navbatida, pedagoglarni motivatsiya qilish va ularning ish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Pedagogik faoliyat o'zining murakkabligi va talabchanligi bilan pedagoglarni turli stress omillariga duchor qiladi. Pedagoglar o'z ishlarida o'quvchilar bilan aloqada bo'lish, ta'limni samarali tashkil etish, sinfdagi muammolarni hal qilish kabi vazifalarni bajaradilar. Bunday sharoitda stressni boshqarish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi muhim vosita sifatida ajralib turadi.

Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi pedagoglarga o'zaro yordam ko'rsatish, tajriba almashish va bir-birini professional hamda emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini yaratadi. Bu tizim stressni boshqarishda samarali vosita bo'lishi mumkin, chunki pedagoglar bir-birining muammolarini tushunadilar va birgalikda yechimlar izlaydilar. Bunday tizim pedagoglarning ruhiy holatini yaxshilash va ularning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishga yordam beradi.

Stressning kuchayishi pedagoglarning ish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning ishga bo'lgan ishtiyoqi kamayadi, ta'lim sifatiga salbiy ta'sir o'tadi. Shu sababli, jamoaviy qo'llab-quvvatlash pedagoglarni birlashtirib, ularning bir-biriga yordam berish orqali stressni kamaytiradi va ishning sifatini yaxshilaydi. Pedagoglar bir-birlariga qo'llab-quvvatlash va maslahatlar berish orqali o'z stresslarini kamaytirishlari mumkin.

Bundan tashqari, jamoaviy tizim pedagoglarga yangi stressni boshqarish usullarini o'rganish, bir-birini qo'llab-quvvatlash va umumiy maqsadlarga erishish imkoniyatini yaratadi. Bunday qo'llab-quvvatlash pedagoglarning o'zlarini to'liqroq va samarali his qilishlariga yordam beradi, bu esa ta'lim jarayoniga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglarda stressni kamaytirish uchun o'zaro aloqalar va jamoaviy ishlarning ahamiyati beqiyosdir. Stressni kamaytirish va pedagoglarning ish samaradorligini oshirish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi ta'lim jarayoniga kiritilishi kerak. Bu tizim pedagoglarning psixologik barqarorligini ta'minlash, ishga bo'lgan motivatsiyalarini oshirish va samarali ta'lim berish imkoniyatini yaratadi.

Shuningdek, jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi pedagoglarga o'zlarini hamda ishlarini yaxshiroq tushunish imkonini beradi. Pedagoglar birgalikda ishlash orqali o'zlarining shaxsiy va professional o'sishlarini ta'minlaydilar. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash pedagoglarning stressga nisbatan ko'proq chidamli bo'lishlarini ta'minlaydi.

Pedagogik xodimlarning salomatligi va ularning pedagogik faoliyatining samaradorligi ko'plab kasbiy sohalarida bo'lgani kabi, mehnat sharoitlari, jamoadagi muhit kasbiy funktsional majburiyatlarga bog'liq. Biroq, ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, so'nggi o'n yillikda pedagogik faoliyat bilan bog'liq stress omillari soni ortib bormoqda. Bugungi kunda o'qituvchilarning ishi psixogen, intellektual, hissiy tarangliklarga to'la[3]. Pedagoglarda stressning mavjudligi va uning ta'siri ta'lim tizimining samaradorligiga bevosita ta'sir qiladi. Pedagoglar o'z ishlarida turli omillar tufayli yuqori darajada ruhiy va jismoniy bosimga duch keladilar, bu esa nafaqat pedagogning o'ziga, balki uning o'quvchilari va butun ta'lim muhitiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Stressni bartaraf etish uchun nafaqat individual yondashuvlar, balki jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining o'rni juda katta. Ushbu tizimning samarali ishlashi, pedagoglarning ishdagi stressni kamaytirishga yordam beradi va umumiy ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi.

Pedagoglar orasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, tajriba almashish va professional rivojlanish imkoniyatlari orqali stressni yengish va ishda samarali bo'lish mumkinligini isbotlagan. Pedagoglarda stressni bartaraf etish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining zarurligi quyidagi asosiy nuqtalarda aks etadi:

1. Pedagogik stressning ortishi: Pedagoglar o'z faoliyatlarida bir nechta stress omillariga duch keladilar, jumladan, yuqori ish yuklamasi, o'quvchilarning xulq-atvori va pedagogik muammolar. Bu omillar pedagoglarni ruhiy va jismoniy jihatdan zo'riqtiradi. Shu sababli, stressni kamaytirish va unga qarshi kurashish uchun samarali jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining zarurligi oshmoqda.

2. Pedagoglarning ruhiy salomatligi va ish samaradorligi: Pedagoglarda stressni bartaraf etish, ularning ruhiy salomatligini yaxshilash va ish samaradorligini oshirishga yordam beradi. Stressdan aziyat chekayotgan pedagoglar o'quvchilarga sifatli ta'lim bera olmaydi

3. Jamoaviy ish muhitining zarurati: Pedagoglarning bir-biriga yordam berishi, o'zaro tajriba almashishi va birgalikda stressni yengishlari pedagoglarning ishdagi samaradorligini oshiradi. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi pedagoglarning bir-biriga yordam berish imkoniyatlarini yaratadi, bu esa ularning ishga bo'lgan ishtiyoqini oshiradi.

Quyida jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining bir qancha xususiyatlarini ko'rib chiqamiz:

🌈 Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining mohiyati. Pedagoglarda stressni bartaraf etishning samarali yo'llaridan biri – jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining rivojlanishidir. Bu tizim, pedagoglar o'rtasida o'zaro yordam va hamjihatlikni yaratish, ish jarayonida yuzaga keladigan muammolarni birgalikda hal etish, shuningdek, ruhiy va emotsional qo'llab-quvvatlashni ta'minlashga qaratilgan. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash nafaqat pedagoglarning o'zaro muloqoti va hissiy aloqalarini kuchaytiradi, balki ularning ishdan keyingi vaqtlarini ham samarali o'tkazish imkonini yaratadi.

✚ Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining pedagoglarga ta'siri. Pedagogik faoliyatda pedagoglar ko'plab stress omillariga duch keladilar. O'quvchilarning xulq-atvori, pedagogik yuklamalar, sinfdagi tartibsizlik va boshqalar pedagoglarda salbiy ruhiy holatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Bu holatlarda, jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi pedagoglarga stressni yengillashtirish, o'zaro maslahatlashish va tajriba almashish imkonini beradi. Misol uchun, pedagoglar o'z ishlarida yuzaga kelgan qiyinchiliklarni jamoa bilan muhokama qilib, birgalikda yechim topishlari mumkin. Bu nafaqat stressni kamaytiradi, balki pedagoglarning ishga bo'lgan ishtiyoqini ham oshiradi.

✚ Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining ish samaradorligiga ta'siri. Pedagoglar o'rtasida qo'llab-quvvatlash tizimining mavjudligi ish samaradorligini oshiradi. Pedagoglar bir-biriga yordam berish orqali o'z ishlarini yanada samarali va mas'uliyatli bajarishga harakat qilishadi. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash shuningdek, pedagoglarning o'zaro munosabatlarida o'zgacha bir atmosfera yaratadi. Bu atmosfera stressni kamaytiradi va pedagoglarning professional rivojlanishiga yordam beradi. Shuningdek, bu tizim, pedagoglarning bir-birini motivatsiya qilishiga va o'zaro tajriba almashishiga olib keladi.

✚ Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining ta'lim sifatiga ta'siri. Pedagoglarda stressni kamaytirish va ularning ish samaradorligini oshirish orqali ta'lim sifatini yaxshilash mumkin. Agar pedagoglar ruhiy jihatdan tinch va baxtli bo'lsalar, ular o'quvchilarga ham yaxshiroq ta'lim berishadi. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi, pedagoglarning o'zaro hamkorligini kuchaytirib, ta'lim jarayonida ko'proq ijodkorlik va samaradorlikni ta'minlaydi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarning muvaffaqiyatlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagoglarda stressni bartaraf etish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimining roli bo'yicha tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan bir nechta izlanishlar va ishlanmalar mavjud. Ushbu ishlar pedagoglarning stressni kamaytirish va ish samaradorligini oshirishga qaratilgan yondashuvlar, metodlar va tizimlarni o'rganishga qaratilgan.

Olib borilgan tadqiqotimizda 50 nafar pedagog ishtirok etdi. Ishtirokchilar turli yoshdagi va tajribaga ega pedagoglardan iborat bo'lib, maktabdagi stress darajasi va jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi haqidagi fikrlari o'rganildi. Pedagoglar ikki guruhga ajratildi:

Guruh 1: Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimidan faol foydalanadigan pedagoglar.

Guruh 2: Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimidan cheklangan pedagoglar.

Tadqiqot jarayonida ishtirokchilarga stress darajasini va jamoaviy qo'llab-quvvatlashning samaradorligini baholash uchun so'rovnoma taqdim etildi.

So'rovnoma asosida tanlangan 10 nafar pedagog bilan intervyular o'tkazildi. Intervyularda ularning stressni boshqarishdagi tajribalari, jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi haqidagi fikrlari va bu tizimning ularning ish faoliyatiga qanday ta'sir qilganligi haqida ma'lumotlar yig'ildi.

Tadqiqot davomida pedagoglarni o'quv faoliyatida kuzatib borishdi. Ayniqsa, pedagoglarning o'zaro aloqalari, yordam va maslahatlar berish jarayonlari, hamkorlikdagi ishlar o'rganildi. Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali stressni boshqarishning samarali usullari ko'rib chiqildi.

Guruh 1 (Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi faol foydalanadigan pedagoglar): Ushbu guruhdagi pedagoglar o'z stress darajasining ancha pastligini va o'zaro yordamning ish samaradorligini oshirishda muhimligini ta'kidladilar. Pedagoglar jamoaviy qo'llab-quvvatlash, bir-biriga maslahatlar berish, tajriba almashish va psixologik yordam olish orqali stressni boshqarishda muvaffaqiyat qozonishgan. Tadqiqot davomida ushbu guruhdagi pedagoglar ko'proq ijobiy munosabat, yuqori ish motivatsiyasi va ruhiy salomatlikni ta'kidlashdi.

Guruh 2 (Jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi bilan cheklangan pedagoglar): Ushbu guruhdagi pedagoglar stressni boshqarishda qiyinchiliklarga duch kelganligini bildirishdi. O'zaro yordam va qo'llab-quvvatlash tizimining cheklanganligi, ishda yuqori bosim va stressni yanada oshirgan. Bu guruhdagi pedagoglar o'z salomatliklari va ish motivatsiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatgan stressni boshqarishdagi usullarni izlashgan.

Bundan ko'rinib turibdiki jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi stressni kamaytiradi: Pedagoglar o'rtasida o'zaro yordam, tajriba almashish va bir-birini ruhiy qo'llab-quvvatlash stress darajasini sezilarli darajada kamaytiradi va ish samaradorligini oshiradi.

Ushbu tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimlarini rivojlantirishga, pedagoglar o'rtasida hamkorlikni oshirishga va stressni boshqarish usullarini yaxshilashga yordam beradi. Bu nafaqat pedagoglarning salomatligini saqlash, balki ta'lim sifatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Pedagoglarda stressni bartaraf etish uchun jamoaviy qo'llab-quvvatlash tizimi orqali bir nechta samarali yechimlarni amalga oshirish mumkin. Bu yechimlar pedagoglarning stress darajasini kamaytirish, ish samaradorligini oshirish va umumiy ruhiy salomatlikni yaxshilashga yordam beradi[4]

1. Jamoaviy psixologik qo'llab-quvvatlash tizimini yaratish. Pedagoglarda stressni kamaytirish uchun jamoaviy psixologik qo'llab-quvvatlash tizimi tashkil etilishi zarur. Pedagoglarni bir-biriga yordam berishga undaydigan, o'zaro tajriba almashish va qo'llab-quvvatlashni rag'batlantiradigan muhit yaratish lozim. Bu tizimlar pedagoglarning ish joyida o'zlarini qo'llab-quvvatlangan his qilishlariga yordam beradi, ular stressni yengishda bir-birlariga yordam bera olishadi.

2. Ta'lim dasturlarini stressni boshqarishga yo'naltirish. Ta'lim dasturlarida pedagoglarning stressni boshqarish bo'yicha maxsus kurslar yoki seminarlarga joy ajratish kerak. Ushbu dasturlar stressni aniqlash, stressga qarshi kurashish metodlari, va o'z-o'zini qo'llab-quvvatlash haqida bilim berishi lozim. Shuningdek, vaqtni boshqarish, delegatsiya va stressni bartaraf etishning amaliy usullari o'rgatilishi kerak.

3. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini kuchaytirish. Pedagoglar o'rtasida ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'ini rivojlantirish muhim. Pedagoglar o'rtasida ochiq muloqotlar, o'zaro maslahatlar va yordam tarmoqlarini yaratish orqali stressni kamaytirish mumkin. Shu bilan birga, pedagoglar bir-birlariga yordam berish imkoniyatlariga ega bo'ladilar va bu ularning ishga bo'lgan motivatsiyasini oshiradi.

Основная част. В теории спортивной тренировки (Матвеев Л.П., 1991) первоосновой выступают собственно соревновательные упражнения (часто тождественные понятию «вид спорта») и тренировочные формы соревновательных упражнений. Соревновательные упражнения рассматриваются как целостные действия (в том числе и сложные совокупности действий), которые служат средством ведения спортивной борьбы и выполняются в том же составе, что и в условиях соревнований по избранному виду спорта. В этом смысле основные элементы туристской работы можно считать соревновательными упражнениями, учитывая особенности тренировочных форм таких упражнений и особенности их использования в подготовке туристспортсменов. В спортивном туризме эти упражнения многообразны. Они могут быть и скоростно-силовыми, и собственно силовыми, и сложнокоординированными. Они могут иметь относительно стабильные и переменные формы в зависимости от ситуационных условий. При этом сложно-координированные упражнения составляют основу техники туризма в условиях преодоления естественных препятствий. Спортивный туризм относится к видам спорта, для которых характерна активная двигательная деятельность с проявлением физических и волевых качеств. Его можно отнести к комплексным (смешанным) видам спорта типа многоборий. Спортсмен-турист должен обладать специфической многоборной специальной туристской выносливостью.

Основные виды туризма на сегодня входят: Таблица.1

➤ пешеходный,	➤ горный,
➤ водный,	➤ пешеходный,
➤ велосипедный,	➤ лыжный,
➤ парусный	➤ автомобильный

Эти виды включены в спортивную классификацию, как части спортивного туризма, они могут развиваться в рамках любого типа (спортивного, рекреационного, реабилитационного, профессионально-прикладного, учебного и др), но в спортивном туризме они нормированы определёнными требованиями по набору технически сложных препятствий, продолжительности, протяжённости и другим факторам спортивного туристского маршрута. Соревнования по спортивному туризму проводятся, как правило, на самодеятельной основе, регулируются общественными и государственными организациями и относятся к важному для государства

социальноспортивному сектору духовного и физического совершенствования человека. По своей форме организации и конечным целям Туристскоспортивные мероприятия имеют следующую направленность: – путешествие; – спортивный поход; – экспедиция; – туриада; – туристско-спортивная школа; – локальные соревнования на реальном и искусственном рельефе. По своему масштабу соревнования делятся на международные, республиканские, областные, городские, районные и др.

В общетуристской подготовке преобладает теоретическая подготовка по всем указанным разделам. Она направлена в основном на формирование знаний туристов. Отдельные ее разделы, связанные с охраной окружающей среды, краеведением, проведением туристских слетов и соревнований, предполагают формирование умений и навыков туристов в конкретных условиях. Такие разделы общетуристской подготовки требуют практических занятий в аудиториях или природных условиях. Количество часов теоретических и практических занятий и распределение их по периодам подготовки зависят в основном от уровня квалификации занимающихся и частично от вида туризма. Малые объемы общетуристской подготовки новичков по ряду разделов частично компенсируются в процессе многолетней подготовки, повышая интеллектуальный потенциал занимающихся спортивным туризмом.

Заключение и обзор. В многолетней спортивно-туристской подготовке можно выделить несколько этапов:

- ознакомительный этап подготовки;
- начальный этап подготовки;
- базовый этап подготовки;
- специализированный этап подготовки;
- этап спортивного совершенствования;
- этап спортивного мастерства.

Спортивный туризм развивает и совершенствует необходимые человеку физические качества - выносливость, быстроту, силу различных групп мышц, ловкость. Кроме того, в туристских походах совершенствуются морально-волевые качества, такие, как смелость, решительность, дисциплинированность, коллективизм, активность, воля и др. Все эти качества должны вырабатываться и развиваться в учебно-тренировочном процессе. Достижение высоких спортивных результатов в туризме возможно при решении основных задач учебно-тренировочного процесса: обеспечения всестороннего физического развития; воспитания высоких моральных качеств; овладения туристской техникой и тактикой; приобретения необходимых знаний по основам теории, методики и организации физического воспитания и спортивной тренировки; совершенствования спортивного мастерства.

Ознакомительный этап подготовки целесообразно планировать в рамках школьного туризма с широким охватом видов спортивного туризма, с нефорсированными нагрузками по объему и интенсивности, с воспитательно-оздоровительными целями для расширения кругозора занимающихся и привития им определенного интереса к занятиям туризмом

Базовый этап подготовки может соответствовать базовому уровню подготовки общественных туристских кадров (инструкторов туризма, гидов-проводников) при использовании программ Туристскоспортивного союза России. Форсированный срок этой подготовки не менее одного года.

Этап спортивного мастерства целесообразно планировать не менее чем на два года. В результате этой подготовки обеспечивается выполнение норматива мастера спорта, создаются предпосылки высших спортивных достижений в соревнованиях на «маршрутах» и «дистанциях».

Подготовка туристских кадров в настоящее время проводится по примерным программам, которые соответственно утверждены. Общая и специальная физическая

подготовки в этих программах нормами нагрузок не регламентируются. Однако тренировочный процесс не может быть построен без учета физической подготовленности, поэтому, исходя из местных условий, необходимо дополнить примерные программы соответствующими разделами и принять скорректированные программы за основу при разработке необходимых документов. Функциональное состояние организма можно разделить на три фазы. Первая - утомление со всеми присущими ему признаками выражается в пониженной работоспособности. Вторая - восстановление работоспособности организма до начального уровня. Третья - повышение работоспособности до уровня выше начального. Длительность каждой фазы зависит от степени тренированности, интенсивности и продолжительности. Если последующее занятие совпадает с первой фазой, т. е. с периодом утомления, то в организме развивается хроническое утомление, так называемое переутомление. Если последующее занятие совпадает со второй фазой, то переутомление исключается, но и не создаются предпосылки для повышения работоспособности. Наибольший эффект дают повторные занятия в третьей фазе.

Устойчивость уровней физической и технической подготовленности достигается правильным планированием и проведением тренировок. При этом нужно учитывать все названные принципы и «не засорять» тренировки множеством специальных упражнений и приемов. Не следует также приступать к изучению нового приема, пока не создана достаточная основа для его усвоения. Необходимо закреплять и совершенствовать полученные навыки в практике туристских походов. Методы тренировки должны обеспечивать выполнение задач учебно-тренировочного процесса. В процессе тренировки туристы получают определенную нагрузку. Эта нагрузка складывается из объема и интенсивности выполнения упражнений. Объем нагрузки определяется количеством выполняемых упражнений за одну тренировку или тренировочный цикл. Его можно выразить в километрах (для циклических упражнений) или в часах (для ациклических упражнений). Интенсивность определяется скоростью выполнения определенного объема нагрузки. В практике спортивного туризма используют различные методы выполнения упражнений

Использованная литература.

1. Sh.M.Mirziyoyev. Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni. Toshkent shahri, 2018 yil 5 mart
2. Schwarzer R. Stress, Resources, and Proactive Coping / R. Schwarzer // Applied Psychology: An International Review. - 2001. - № 50(3). - P. 400- 407
3. Салихов Т. и др. Psychological Characteristics Of Increasing Cognitive Activity In Elementary School Students //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2021. – Т. 7. – №. 7.
4. Mansurovich S. S. Methodology of organizing physical education lessons through digital technologies //European Journal of Modern Medicine and Practice. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 107-111.

*Nusratova Mexriniso Baxshilloyevna,
Buxoro innovatsiyalar universiteti dotsenti
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

TALABALARLARDA ALTRUISTIK XULQNI RIVOJLANGANLIK DARAJASI VA UNING GENDER FARQLARI

Annotasiya: Mazkur maqolada talabalardagi altruizmning yoshga oid xususiyatlari va gender farqlari tahlil qilingan. Altruizm – shaxsning o'zgalarning manfaatlariga yo'nalgan, styenik hislar asosida yuzaga keladigan, qadriyatlar tizimida barqaror xarakterga ega bo'lgan shaxs xususiyatidir. Shunday ekan, talabalik davrida altruistik xulq namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari gender jihatlarini gender jihatdan yoritib berish orqali, altruizm motivlarining ijtimoiy determinanti tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: altruizm, motiv, talaba, gender xususiyat, empatiya, axloq, egoizm.

Аннотация: В статье анализируются возрастные особенности и гендерные различия альтруизма у студентов. Альтруизм – это характеристика личности, направленная на интересы других, формирующаяся на основе стенических чувств и приобретающая устойчивый характер в системе ценностей. Поэтому были проанализированы социальные детерминанты мотивов альтруизма, выделив психологические особенности альтруистического поведения в студенческий период.

Ключевые слова: альтруизм, мотив, студент, гендерная характеристика, сопереживание, мораль, эгоизм.

Abstract: This article analyzes the age-related characteristics and gender differences of altruism in students. Altruism is a characteristic of a person that is directed to the interests of others, is formed on the basis of sthenic feelings, and has acquired a stable character in the value system. Therefore, the social determinants of altruism motives were analyzed by highlighting the psychological characteristics of altruistic behavior during the student period.

Key words: altruism, motive, student, gender characteristic, empathy, morality, egoism.

Altruizm fenomeni bir qancha fanlar doirasida tadqiq qilingan va uning o'ziga xos jihatlarini yoritib berilgan bo'lishiga qaramay, psixologik mexanizmlarini milliy kontekstda o'rganish masalasiga yetarlicha e'tibor qaratilmagan. Altruizm tushunchasiga olimlar turli izohlar berishgan. Jumladan, E.V.Sidorenkoning ta'kidlashicha, altruizm – bu subyektning ixtiyoriy ravishda o'zgalarga yordam berishga qaratilgan erkin harakatidir [4]. V.V.Solovyov esa altruizm deganda «boshqa insonlarga nisbatan axloqiy birdamlik»ni tushunishni taklif etadi [5].

O.A.Gulevichning ta'kidlashicha, esa «altruizm – bu shaxsning o'z manfaatlariga asoslangan boshqa mustaqil motivlardan farqli ravishda uning asosida o'zgalarga beg'araz g'amxo'rlik qilish va sevish, guruh uchun o'zini fido qilish, mas'uliyatni his etish ehtiyoji yotadi»[2].

Yuqorida keltirilgan izohlarga asoslanib, shuni aytishimiz mumkinki, altruizm – shaxsning o'zgalarning manfaatlariga yo'nalgan, stenic hislar asosida yuzaga keladigan, qadriyatlar tizimida barqaror xarakterga ega bo'lgan shaxs xususiyatidir.

Bugungi kunda altruizm fenomenini o'rganishga bo'lgan ehtiyoj eng avvalo, jamiyatda, guruhlar orasida sodir bo'layotgan vaziyatlardagi stressogen omillar ta'sirida shaxs xususiyatlarida agressivlikning ortib borayotganligi bo'lsa, ikkinchi tomondan aholi orasida migratsiyaning kuchayishi xalqlar, millatlarning bir-biri bilan «til topishish» istagining yuqoriligi o'zaro beg'araz munosabatlarni talab etayotganligi, uchinchi tomondan, aholi orasidagi asotsial xulqni oldini olishning o'sib borishini potensial kamaytirishning eng qulay usuli sifatida shaxslararo munosabatlarda altruistik qadriyatlarni kuchaytirish zaruratini dolzarblashib borayotganligi bilan belgilanadi. Ayniqsa, shaxsning qadriyat tizimida barqaror

altruizmning shakllanishi mazkur muammolarga qarshi kurashishning yetakchi usuli sifatida qaralmoqda.

Yuqoridagi izohlardan va atamaga berilgan tavsiflardan ham ko'rinib turibdiki, altruizm fenomeni shaxsning ma'naviy qiyofasini izohlab beruvchi biosotsiopsixologik tushunchadir. Chunki, altruistik xulq tendensiyasi o'ziga xos biogenetik, neyrodinamik asoslarga ega bo'lish bilan bir qatorda ijtimoiy va psixologik omillarning o'zaro integratsiyasi natijasida shaxs xulqida namoyon bo'ladi. Altruizm shaxs xulq-atvorida quyidagi tamoyillar asosida reprezentatsiyalanadi va uning ma'naviy qiyofasiga proyeksiyalanadi:

1. Adolatlilik tamoyili – ushbu tamoyil shaxsni o'zgarlar manfaatlariga zarar yetkazmasdan turib harakatlanishga undaydi;

2. O'zaro hurmat tamoyili – o'zini hurmat qilgan shaxs o'zgalarning manfaatlarini va shaxsini ham hurmat qilishi bilan bog'liq harakatlarda aks etadi;

3. Hamkorlik tamoyili – atrofdagilarning ehtiyojlari insonning shaxsiy manfaatlariga uyg'unlashuvini nazarda tutadigan harakatlar tizimi hisoblanadi.

Altruizm fenomenining psixologik tamoyillaridan ham ko'rinib turibdiki, bugungi kunda shaxslararo munosabatlarda mazkur jihatni qadriyat darajasiga aylantirish yoshlarni turli «ommaviy madaniyat» ko'rinishlariga nisbatan «psixologik immunitet»ni shakllantirishning muhim komponenti hisoblanar ekan.

Yuqorida altruizmni biosotsiopsixologik tushuncha deb izohladik. Buning asosiy sabablari mazkur fenomenning shaxs qadriyatlar tizimida barqaror xususiyat sifatida shakllanishida o'ziga xos bosqichlar mavjud bo'lib, uning negizida biologik, psixologik, ijtimoiy determinantlar bir xil ta'sir darajasiga ega. Mazkur bosqich quyidagi ketma-ketlikda amalga oshadi:

- Altruistik mayllar – har bir shaxs dunyoga kelganda o'z nasliga g'amxo'rlik qilish instinktlari bilan dunyoga keladi. Aynan ushbu instinktlar altruizmning biologik asosini belgilaydi va insonda anglanmagan altruistik xatti-harakatlarni faollashtiradi.

- Altruistik hislar – altruistik mayllar shaxsda altruistik reaksiyalarni yuzaga keltiradi. Mazkur reaksiyalar muayyan bir kechinmalar, hislar shaklida ifodalanadi. Altruistik hislar stenik xarakterga ega bo'lib, insonni kimgadir yordam berish uchun faollashtiradi.

- Altruistik ustanovkalar – shaxsning o'ziga beradigan ichki barqaror ko'rsatmalari tizimi.

- Altruistik yo'nalganlik – shaxsning o'zgalarga yordam berishga moyilligini anglatuvchi barqaror shaxs xususiyati.

- Altruistik xulq motivlari – shaxsni beg'araz yordam berishga undovchi kuch.

- Altruistik xulq – anglangan yoki qisman anglangan o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatishga yo'nalgan axloq.

Shaxslar orasida raqobatlashishga bo'lgan intilishning turli shakllari kuchaygan davrda «niqoblangan altruizm»ga bo'lgan ehtiyojning ortayotganligini ham ko'rishimiz mumkin. Shu boisdan, yoshlarda ratsional altruizmning psixologik jihatlarini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Buning uchun esa bolaga yoshligidan gumanistik qadriyatlar tizimini singdirib borish kerak. Shaxs qadriyatlar tizimi shakllanishida albatta oila institutining o'rnini inkor etib bo'lmaydi. Lekin ta'lim muassasalari, shaxslararo munosabatlar, referent guruhlar ham altruistik xulq motivlarini shakllanishiga katta ta'sir o'tkazadi.

Shaxsning ahloqiy tushunchalari maktabgacha tarbiya davridan shakllana boshlaydi va o'smirlik davriga kelib ular barqaror ustanovkalarga, ilk o'spirinlik davriga kelib esa muayyan qadriyatlar tizimiga, talabalik davriga kelib esa refleksiv darajadagi barqaror xulq shakliga aylanib boradi. Mazkur davrlarning shaxs ahloqiy taraqqiyotida muhim davr ekanligini hisobga olib, biz o'z tadqiqotimiz uchun aynan shu davrlarni tanlab oldik. Biz tadqiq etishni maqsad qilgan altruizm motivlariga asoslangan xulq shaxsning ahloqiy dunyoqarashi, kognitiv jarayonlari va emosional holatlari bilan uyg'unlashuvchi shaxs individualligini namoyon etuvchi xulq-atvor shaklidir.

Altruizm fenomeni shaxsning altruistik kechinmalari bilan bog'liq holda yuzaga kelib, u muayyan darajadagi altruistik motivlarni uyg'otadi. Shu boisdan, biz dastlab, respondentlarimizdagi altruistik xulq motivlarining shakllanganlik darajasni aniqlab oldik. Buning uchun dissertasion tadqiqotimizning navbatdagi talabalik davrida altruistik xulqni rivojlanganlik darajasi va uning gender farqlarini aniqlab olish uchun S.K.Nortova-Bochaverning «Altruizm motivatsiyasi» so'rovnomasini o'tkazib oldik. Olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilindi. Miqdoriy tahlil natijalari jadval ko'rinishida aks ettirildi.

1-jadval

Turli yosh davrida altruizm motivatsiyasi namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari (N =262)

Shkalalar	Talabalar (n=262)
Yuqori darajadagi altruizm motivatsiyasi	41,1%
O'rta darajadagi altruizm motivatsiyasi	40,7%
Past darajadagi altruizm motivatsiyasi	18,2%

Yuqorida keltirilgan jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, talabalarning 41,1% foizida altruistik motivatsiyaning yuqoriligi kuzatildi. Pyespondentlarimizdagi altruistik motivlarning ustunligi, ularning xulq-atvorida altruizm, o'zgalarga yordam berish motivatsiyasining yuqoriligini anglatadi. Talabalik davrida esa altruizm motivlarining yuqoriligi ularning aniq maqsad, ya'ni kasbiy shakllanish maqsadi asosida o'z ustida ishlashlari, emosional qadriyatlar tizimining barqaror xarakterga ega ekanliklari, atrofdagilar bilan munosabatlar tizimida emosional turg'unlikka intilishlari, empatiyaning yuqoriligi bilan tavsiflanadi. Talaba endi nafaqat kimgadir yordam berishi kerakligini tushunadi, balki, qanday yordam berish kerakligini ham aniq rejalashtira oladi. Talabalik davridagi maqsadga intiluvchanlik, o'ziga xos maksimalizm, ularni uyushgan holda hamkorlikdagi faoliyatga undashi bilan bir qatorda bir-biriga yordam berish ehtiyojining ham ortishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, bu yerda e'tibor qaratishimiz muhim bo'lgan yana bir jihat bor – bu talabalarimizning kasbiy yo'nalganliklaridir. Biz tanlab olgan talabalar pedagogika va psixologiya ta'lim yo'nalishida tahsil olayotganligini ham muhim ahamiyatga ega. Chunki, pedagog-psixologlarning kasbiy professiogrammasida ijtimoiy empatiya, o'zgalarga yordam berish motivi yuqoriroq bo'lishi bilan ajralib turadi. Shu boisdan, natijalarimizning ushbu holatini talabalarning kasbiy shakllanish jarayoni bilan ham bog'lab izohlash mumkin.

Talabalarning 40,7% foizida altruistik motivlarning o'rtacha darajasi aniqlandi. Pyespondentlarimizdagi altruizm motivlarining o'rtacha darajada namoyon bo'lishi ijtimoiy, psixologik omillar ta'sirida shaxsni o'zgalarga yordam berishga tayyorligini anglatadi.

Talabalarning 18,2% foizida altruistik motivlarning past darajasi aniqlandi. Sinaluvchilardagi altruizm darajasining pastligi ulardagi egoizmdan dalolat beradi va mazkur sinaluvchilarimiz bizning eksperimental guruhimizni tashkil etdi. Talabalardagi egoizmning namoyon bo'lishi konfliktogen omil hisoblanib, bu ularning o'z manfaatlarini qondirish yo'lidagi bir vosita sifatida xizmat qiladi. Egoizmning bu darajada taraqqiy etganligi uning tarbiyasidagi nuqsonlarni samarasidir. Chunki, shaxsning o'ziga haddan tashqari yuqori baho berishi va egosentriзмning negizlari bolalik davrlariga borib taqaladi, qolaversa, aynan mana shu jihatlar boladagi altruistik xulq-atvorni namoyon bo'lishiga ichki to'siq vazifasini o'taydi.

Shu nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak, altruizm reprezentatsiyasining yoshga oid xususiyati talabalik davrida esa kasbiy refleksiya, ijtimoiy identifikasiya va empatiyaning qadriyatlar tizimida barqaror xarakterga ega bo'lishi bilan belgilanadi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tanlab olingan respondentlarimiz guruhida altruistik xulq tendensiyalari namoyon bo'lishida yoshga oid xususiyatlar muhim ekanligi aniqlangan. Xususan, talabalarda kasbiy yo'nalganlikning o'ziga xos jihatlari bilan bog'liqligi aniqlangan.

Ilmiy tadqiqotimizning navbatdagi bosqichida altruistik xulqning gender farqlarini aniqlashni oldimizga vazifa qilib belgilab olgan edik. Shu maqsadda, gender, ya'ni jins farqlarini aniqlash uchun qaratilgan tahlillarni amalga oshirdik. Umuman olganda jins farqlarni o'rganish ko'p yillar davomida olimlarning diqqat markazida bo'lgan muammolardandir. Lekin, shunga qaramay, dastlabki ilmiy asoslangan jins farqlarni o'zida mujassamlashtirgan ilmiy asar – bu 1974 yilda nashr qilingan Eleanor Makkobi va Kerol Djeklinning «Jinsiy tafovutlar psixologiyasi» nomli kitobidir [2]. Qolaversa, gender psixologiyaga oid masalalar qator olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Shaxsda altruizm va altruistik xulq shakllanganligining jins farqlari masalasida ham qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bizga ma'lumki, ayollar erkaklarga nisbatan g'amxo'rroq va o'zgalarga hamdard bo'la oladilar va shu boisdan ayollar ko'proq altruistdir degan umum qabul qilingan gender stereotiplar mavjud. Lekin, 1986 yilda Igli va Krouli tomonidan o'tkazilgan ijtimoiy psixologik tadqiqotlar mutlaqo buning aksini ko'rsatdi, ya'ni erkaklar ayollarga nisbatan altruistiroq ekanligini ular asoslab berdilar. Mualliflar o'z tadqiqotlari davomida qisqa muddatli inqirozli holatda notanish kishiga yordam berishga qaratilgan vaziyatni yaratadilar va erkak respondentlarning aksariyatini yordamga tayyor ekanligini aniqlaydilar [3].

Keyinchalik olimlarning o'zlari tomonidan olib borilgan metaanaliz shuni ko'rsatdiki, ayollar ham erkaklar singari yordamga tayyorlar. Biroq, bu ikki jinsni yordam berishga undovchi motivlar turlicha ekanligi aniqlandi. Bu motivlar ayol va erkaklarning turli ijtimoiy rollari natijasida shakllanadi. Shaxsning jamiyatda bajaradigan rollariga qarab, turli ijtimoiy me'yorlar uning xulq-atvoriga o'z ta'sirini o'tkazadi va shu asosida shaxsda muayyan xulq-atvor shakllari tarkib topib boradi.

Umuman olganda, har doim ham olimlarni muayyan psixologik hodisa yoki fenomenning namoyon bo'lishida gender farqlarning o'rni qiziqtirib kelgan. Chunki, psixologik hodisa alohida kategoriya sifatida namoyon bo'lish jarayonida muayyan gender stereotiplarga ham bog'liq bo'lishi mumkinligi ko'pgina tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Biz ham shaxsda altruistik xulqning shakllanganligidagi gender farqlar va ularga undovchi motivlarni aniqlash maqsadida respondentlarimizdan olingan natijalarni tahlil qildik. Bizning tadqiqotimizda ishtirok etgan 262 nafar talabalarining 112 nafari o'g'il bolalar va 150 nafari qiz bolalardan iborat edi. Olingan natijalar quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

2-jadval

Turli yosh davrida altruistik xulq namoyon bo'lishining gender xususiyatlari (N=262)

Sinaluvchilar	Altruistik xulq		t – statistik farq ko'rsatkichi
	O'g'il bolalar	Qiz bolalar	
Talabalar (n=262)	46,41	54,19	-4,23**

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$.

Talabalarda ham o'g'il bolalarga qaraganda qiz bolalarda altruistik xulq dominant ekanligi aniqlangan. Mazkur holat qiz bolalarning to'satdan yuzaga kelgan emosiogen vaziyatlarga nisbatan ta'sirchanligi, refleksiv empatiyaning kuchliligi hamda altruizmning verbalizasiyalash bilan bir qatorda ratsional tarzda xulqqa proyeksiyalay olishi bilan belgilanadi. Talabalarda altruistik xulq haqidagi tushunchalar tizimi bilan uning reallikda aks etishi identivligini anglatadi. O'g'il bolalarda esa altruizm ko'proq irodaviy xususiyatlar negizida ifodalanganligi bois, yordam berish bilan bog'liq qarorlarni qabul qilganlarida ijtimoiy mas'uliyat va qatilik bilan bog'liq holda yuzaga chiqadi.

Yuqorida olib borgan dissertatsion tadqiqotlarimiz asosida altruistik xulqning yoshga oid xususiyatlarini quyidagicha differensial tahlil qilishimiz mumkin:

Talabalar uchun xos xususiyatlar:

- altruistik xulq haqidagi tushuncha va real xulqning identivligi;
- altruistik xulqning kasbiy yo'nalganlik prizmasida namoyon bo'lishi;

- altruizm obyektining terminal qadriyatlar iyerarxiyasining barqaror shakllanganligi bilan bog'liq holda ota-onalar auditoriyasiga yo'nalganligi;
- qadriyatlar iyerarxiyasida altruizm bilan bog'liq sifatlar, ya'ni ratsionalizm, tolerantlik, ijtimoiy mas'uliyatlik, refleksiv empatiyaning talabalarda dominantligi;
- talabalarda altruizm motivlarining kasbiy yo'nalganlik prizmasida refleksiv empatiya ta'sirida namoyon bo'lishi;
- talabala qizlarning mehribonligi, emosional ta'sirchanligi, ijtimoiy faolligi, o'g'il bolalarda esa irodaviy sifatlar ularni altruistik xulqini ifodalanishini kuchaytirishi aniqlangan;
- talabalardagi «ijtimoiy foydali» bo'lish istagi ularni «ijtimoiy faolligi»ni oshishiga va bu esa altruistik xulq tendensiyasini kuchaytirishi kuzatilgan;
- talabalarda altruistik xulq kasbiy refleksiyaning shakllanishigi to'g'ri proporsional rivojlanishi aniqlangan.

Olingan natijalar tahlili shuni ko'rsatadiki, barcha respondentlarimizda ratsional altruistik xulq rivojlanishida shaxslararo munosabatlardagi ahloqiy tushunchalarni shaxsning o'z «Men»iga munosabati hamda emosional qadriyatlar tizimi shakllanganlik darajasi bilan o'zaro uyg'un holda ifodalanishi tufayli, yosh va jins xususiyatlariga bog'liq differensial farqlar mavjudligi asoslangan. Qolaversa, altruistik xulqning ifodalanishi bilan bog'liq shaxs xususiyatlarining kognitiv, affektiv, ijtimoiy komponentlari orasida ayrim differensial farqlar mavjud.

Tadqiqotimiz davomida olingan ma'lumotlar asosida natijalarning differensial farqlarini taqqoslash natijasida klaster tahlilga erishildi. Natijalar tahlili 3-jadvalda keltirib o'tilgan.

3-jadval

Shaxsdagi altruistik xulqning yoshga oid xususiyatlari algoritmi (mualliflik yondashuvi)

Shaxs	Kognitiv xususiyatlar	Affektiv xususiyatlar	Ijtimoiy xususiyatlar
Talabalar	altruistik xulq haqidagi tushuncha va real xulqning identivligi; altruistik xulqning kasbiy yo'nalganlik prizmasida namoyon bo'lishi; talabalarda altruistik xulq kasbiy refleksiyaning shakllanishiga to'g'ri proporsional rivojlanishi.	ratsionalizm, tolerantlik, ijtimoiy mas'uliyatlik, refleksiv empatiyaning talabalarda dominantligi; talabalarda altruizm motivlarining kasbiy yo'nalganlik prizmasida refleksiv empatiya ta'sirida namoyon bo'lishi; mehribonlik, emosional ta'sirchanlik, ijtimoiy faollik, irodaviy sifatning altruistik xulqni kuchaytirishi.	altruizm obyektining terminal qadriyatlar iyerarxiyasining barqaror shakllanganligi bilan bog'liq holda ota-onalar auditoriyasiga yo'nalganligi; talabalardagi «ijtimoiy foydali» bo'lish istagi ularning «ijtimoiy faolligi»ni oshishiga va bu esa altruistik xulq tendensiyasini kuchaytirishi kuzatilgan.

Dissertatsion tadqiqotlarimiz asosida olib borgan ilmiy izlanishlarimiz natijasida quyidagi xulosalarni shakllantirishimiz mumkin:

Talabalik davrida «altruistik xulq obyekti» sifatida ota-onalar auditoriyasining ustuvorligi, kasbiy refleksiya, ijtimoiy identifikasiya va empatiyaning qadriyatlar tizimida barqaror xarakterga ega bo'lishi bilan belgilanishi hamda talaba qizlarda ratsional empatiyaning ijtimoiy faoliyatda namoyon bo'lishining kuchayishi, o'g'il bolalarda esa ijtimoiy mas'uliyatning ta'sirida altruistik xulqni ustuvor tavsiflanishi aniqlangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Бек А. Техника когнитивной психотерапии // Психологическое консультирование и психотерапия. Хрестоматия / под. Ред. А.Б.Игнатъевой, М.Ю.Локтаева. – М.: Московский психотерапевтический журнал. 1998. – Т.1. – С. 142-166.
2. Гулевич О.А. Основные стадии моральной социализации // Институт психологии РАН. 2010. С. 52-66.
3. Детская психология. Методические указания/ Автор-составитель Р.П.Ефимкина. - Новосибирск. Научно-учебный центр психологии МГУ. 1995. – 25- с.
4. Сидоренко Е.В. Методы математической обработки в психологии / Е.В. Сидоренко. – СПб.: Социально-психологический центр. 1996. – 350 с.
5. Соловьёв В.В. Оправдание добра // В.В.Соловьёв Соч в 2 тт Т.1 М.: Мысль. 1988. С. 152-169.

*Avezov Olmos Ravshanovich,
Osiyo xalqaro universiteti professori
Xasanova Shoira Jumayevna,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti*

O'SMIRLIK DAVRIDA SHAXS YO'NALGANLIK DARAJASINI O'RGANISH

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'smirlik davrida shaxs yo'nalganligi darajasini aniqlash bo'yicha tadqiqot natijalari yoritilgan. Tadqiqot davomida so'rovnoma, kuzatish va statistik tahlil usullari qo'llanilgan. Natijalar o'smirlarning qiziqishlari va hayotiy maqsadlarini rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: o'smirlik davri, shaxs yo'nalganligi, qiziqish, empirik tadqiqot, ijtimoiy moslashuv.

Abstract: This article highlights the research findings on the level of personality orientation during adolescence. The study employed survey, observation, and statistical analysis methods. The results include practical recommendations for developing adolescents' interests and life goals.

Keywords: adolescence, personality orientation, interest, empirical research, social adaptation.

Абстрактный: В данной статье представлены результаты исследования уровня направленности личности в подростковом возрасте. В ходе исследования использовались методы анкетирования, наблюдения и статистического анализа. Результаты включают практические рекомендации по развитию интересов и жизненных целей подростков.

Ключевые слова: подростковый возраст, направленность личности, интересы, эмпирическое исследование, социальная адаптация.

Kirish. O'smirlik davri inson rivojlanishining eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi, chunki bu davrda shaxsning individual va ijtimoiy jihatlari shakllanadi. Ushbu davrda o'smirlar o'z qiziqishlari, qadriyatlari va hayotiy maqsadlarini aniqroq belgilay boshlaydilar. Biologik va psixologik o'zgarishlar tufayli o'smirlik davri inson ruhiyatining intensiv rivojlanish bosqichi sifatida e'tirof etiladi. Shaxs yo'nalganligi bu jarayonda asosiy rol o'ynaydi, chunki u insonning qaysi yo'nalishda rivojlanishini belgilovchi muhim omildir.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida shaxs yo'nalganligini to'g'ri shakllantirish, ularning kelajakdagi hayotiy muvaffaqiyatlari va ijtimoiy moslashuvchanligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, bu davrni chuqur o'rganish va undagi muhim jihatlarni aniqlash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masalalardan biridir.

Mazkur maqolada o'smirlik davrida shaxs yo'nalganligini shakllantirishning nazariy asoslari, tadqiqot metodlari va empirik natijalari yoritilgan. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar asosida amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular o'smirlarning hayotiy maqsadlari va qiziqishlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan.

O'smirlik davri va shaxs yo'nalganligi. O'smirlik davri 12-18 yosh oraliq'ini o'z ichiga oladi va biologik, psixologik hamda ijtimoiy o'zgarishlar bilan ajralib turadi. Bu davrda yoshlarda mustaqillikka intilish, ijtimoiy moslashuv va o'z-o'zini anglash jarayonlari jadallashadi. O'smirlar o'z qiziqishlarini aniqlash, shaxsiy maqsadlarini belgilash va jamiyatda o'z o'rnini topishga intiladi. Shu bilan birga, ushbu davrda shaxsning ijtimoiy, madaniy va ma'naviy qadriyatlari shakllanadi.

Shaxs yo'nalganligi – bu insonning o'z maqsad va qadriyatlariga, qiziqish va ehtiyojlariga asoslangan rivojlanish jarayonidir. Ushbu jarayon yoshlik davrida jadal kechadi va o'smirlik davrida shakllangan yo'nalganlik keyinchalik inson hayotining asosiy

tamoyillarini belgilaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, shaxs yo'nalganligi ijtimoiy muhit, oilaviy ta'sir va o'z-o'zini anglash bilan chambarchas bog'liq.

Erikson (1968) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni ta'kidlaydiki, o'smirlik davri identifikatsiya inqirozining o'tkir davri hisoblanadi. Bu inqiroz davomida shaxs o'zining qaysi qadriyatlar va ideallarga ergashishini aniqlaydi. O'z yo'nalganligini anglash orqali o'smirlar kelajakdagi kasbiy va shaxsiy hayotlarida muvaffaqiyatga erishish uchun mustahkam poydevor yaratadilar.

Bronfenbrenner (1979) o'z ekologik rivojlanish nazariyasida shaxs rivojlanishi ijtimoiy muhitning bir qismi ekanini qayd etadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida oila, maktab, tengdoshlari va ommaviy axborot vositalari shaxs yo'nalganligiga ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va maktabdagi pedagoglarning individual yondashuvi o'smirlarning qiziqishlarini rivojlantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Boshqa tadqiqotlar, masalan, Vygotskiy (1986) tomonidan olib borilgan ishlar, o'smirlarning bilish faoliyati va ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonlari ularning shaxs yo'nalganligini aniqlashda muhim ekanligini ko'rsatadi. Bu davrda o'smirlar yangi bilimlarni egallashga va ijtimoiy o'zaro aloqalarni kengaytirishga intiladi.

O'smirlik davrida qiziqishlar va faoliyatga yo'nalganlik ham shaxs yo'nalganligini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Misol uchun, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, sport va san'at faoliyatlariga qatnashgan o'smirlar ko'pincha o'z qiziqishlariga chuqur e'tibor berib, kelajakdagi maqsadlarini aniq belgilaydilar. Shuningdek, fan va texnologiyaga qiziqadigan o'smirlar innovatsion fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish orqali jamiyatda o'z o'rnini topadilar.

Shaxs yo'nalganligiga ijtimoiy rollar ham ta'sir qiladi. O'smirlar o'zlariga berilgan mas'uliyat va vazifalar orqali ijtimoiy moslashuvchanlikni o'rganadilar. Masalan, sinf yetakchisi yoki sport jamoasi sardori bo'lish shaxsiy yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Shaxs yo'nalganligi bilan bog'liq bo'lgan yana bir muhim omil bu o'z-o'zini anglashdir. Tadqiqotlar ko'rsatadiki, o'z-o'zini anglash darajasi yuqori bo'lgan o'smirlar o'z qiziqishlari va maqsadlarini aniq belgilashga qodir. Shu orqali ular jamiyatda o'z o'rnini topish va kelajakda muvaffaqiyatli shaxsga aylanish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, o'smirlik davri shaxs yo'nalganligini shakllantirish uchun juda muhim davr hisoblanadi. Bu jarayon oila, jamiyat va ta'lim muhitining birgalikdagi ta'siri bilan aniqlanadi va har bir o'smirning o'ziga xos xususiyatlariga bog'liq.

Tadqiqot metodlari. Mazkur tadqiqot o'smirlik davrida shaxs yo'nalganligi darajasini aniqlash maqsadida amalga oshirildi. Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

1. **So'rovnoma:** O'smirlarning shaxs yo'nalganligini aniqlash uchun maxsus ishlab chiqilgan savollar jamlanmasi.

2. **Kuzatish:** O'smirlarning ijtimoiy muhitdagi xatti-harakatlarini kuzatish orqali ularning yo'nalganligini baholash.

3. **Statistik tahlil:** Olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va umumlashtirish.

Tadqiqot natijalari va tahlil

Tadqiqotda 150 nafar o'smir ishtirok etdi. Ma'lumotlar quyidagi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oldi:

1. **O'smirlarning qiziqish yo'nalishlari:** Asosan sport, san'at, fan va texnologiya sohalariga qiziqish bildirildi.

2. **Hayotiy maqsadlar:** Ko'pchilik o'smirlar kelajakda kasb-hunar egallash va mustaqil bo'lish istagini bildirdi.

Quyida tadqiqot natijalari statistik ko'rinishda keltirilgan:


Yo'nalishlar	O'smirlar soni (n=150)	Foiz (%)
Sport	45	30%
San'at	30	20%

Fan va texnologiya	50	33.3%
Boshqalar	25	16.7%

Muhokama. Tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlarning qiziqishlari ularning ijtimoiy va psixologik rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, sportga qiziqqan o'smirlar o'zlarida jamoaviylik, intizom va o'zini boshqarish kabi sifatlarni rivojlantirgan. Shu bilan birga, san'at sohasiga e'tibor qaratgan o'smirlar ko'proq ijodkorlik va estetik tuyg'ularni namoyon etgan.

Oila muhiti ham shaxs yo'nalganligiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Tadqiqotda qatnashgan o'smirlarning 70 foizi ota-onalarning qo'llab-quvvatlashi va qiziqishlarini rag'batlantirishi ularning hayotiy yo'nalishini belgilashda muhim bo'lganligini qayd etdi. Ota-onalar tomonidan qiziqishlarning rag'batlantirilishi o'smirlarning o'z maqsadlarini yanada aniqroq belgilashlariga yordam bergan.

Quyidagi diagrammada o'smirlarning qiziqish yo'nalishlari va ularga nisbatan foizlar ko'rsatilgan.



Shuningdek, maktab muhiti ham muhim omil bo'lib xizmat qilgan. O'quvchilarning maktabdagi turli to'garaklar va klub faoliyatlarida ishtirok etishi ularning qiziqishlarini aniqlash va rivojlantirish imkoniyatini yaratgan. Masalan, fan va texnologiyaga qiziqish bildirgan o'smirlarning aksariyati ushbu yo'nalishda tashkil etilgan tadbirlar va loyihalarda faol qatnashgan.

Statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, jamiyatdagi madaniy va ijtimoiy omillar ham o'smirlarning yo'nalganligiga sezilarli ta'sir qiladi. Masalan, urbanizatsiya jarayoni fan va texnologiyaga qiziqishni oshirgan bo'lsa, qishloq hududlarida sport va jismoniy faoliyatga ko'proq e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotda shuningdek, individual psixologik omillar, masalan, o'z-o'zini anglash va o'ziga bo'lgan ishonch darajasi ham muhim ekanligi aniqlangan. O'ziga ishongan o'smirlar o'z maqsadlarini aniqroq belgilashga moyil bo'lib, ularga erishish uchun qat'iy harakat qilishgan.

Ijtimoiy moslashuv jarayoni ham o'smirlarning shaxs yo'nalganligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, do'stlar bilan ijtimoiy aloqalarning sifati o'smirlarning qiziqishlarini kengaytirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ijtimoiy

guruhlar bilan o'zaro ta'sir shaxs yo'nalganligini rivojlantirishda qo'llab-quvvatlovchi omil sifatida xizmat qilgan.

Ushbu dalillar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davrida shaxs yo'nalganligini aniqlash va rivojlantirish uchun turli xil psixologik va ijtimoiy strategiyalarni qo'llash muhimdir. Bunday yondashuv o'smirlarning kelajakda muvaffaqiyatli hayot kechirishlariga yordam beradi.

Xulosa. O'smirlik davri inson hayotida muhim o'rin tutadi, chunki bu davrda shaxsiyat shakllanadi, qiziqishlar va maqsadlar rivojlanadi. O'smirlar o'zlarini anglash, dunyoqarashini shakllantirish, shaxs sifatida mustahkamlanish jarayonida turli ijtimoiy va psixologik omillar ta'sirida bo'ladilar. Shuningdek, o'smirlar o'zlarining jismoniy, emotsional va ruhiy holatlarini yaxshi tushunishlari, o'z-o'zini anglashlari va ijtimoiy muhitga moslashishlari zarur.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning qiziqishlari, orzulari va kelajakdagi maqsadlari ularga o'zlarini tanitish va hayotda o'z o'rnini topishga yordam beradi. Shu bois, o'smirlarning bu qiziqishlarini, orzularini va maqsadlarini to'g'ri yo'naltirish, ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash uchun maxsus strategiyalar ishlab chiqish zarur.

Ushbu strategiyalar, birinchi navbatda, o'smirlarning o'z-o'zini anglashlarini, ijtimoiy moslashuvchanliklarini va o'z fikrlarini erkin ifodalash qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Masalan, o'smirlar o'zlarining hissiy tajribalarini, qo'rquvlarini va orzularini boshqalar bilan muloqot qilishda ifodalashga imkoniyat yaratish, ularning o'ziga bo'lgan ishonchini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, bu davrda o'smirlar o'zlarining ijtimoiy tarmog'ini rivojlantirishi, do'stlari va oila a'zolari bilan mustahkam aloqalar o'rnatishi kerak.

O'smirlik davrida amalga oshirilgan bunday yondashuvlar, o'smirlarni ijtimoiy va shaxsiy jihatdan muvaffaqiyatli va moslashuvchan qilib tarbiyalashga yordam beradi. O'z-o'zini anglash va ijtimoiy moslashuvchanlik, o'smirning kelajakda hayotga bo'lgan yondashuvini, mehnatga nisbatan munosabatini va shaxs sifatida rivojlanishini belgilaydi. Shu sababli, o'smirlarning qiziqishlari va maqsadlariga mos ravishda shakllantirilgan strategiyalar, nafaqat o'smirning hozirgi holatida, balki uning kelajakdagi muvaffaqiyatli shaxs sifatida o'sishida ham muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Аvezов, О. Р. (2023, March). Экстремал вазиятларда стрессбардошлилик тушунчаси. In *E Conference Zone* (pp. 63-67).
2. Ravshanovich, A. O. (2024). Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 3(28), 18-22.
3. Ravshanovich, A. O., & Tavakkal o'g'li, S. S. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning amaliy ahamiyati. *Scientific Impulse*, 2(14), 344-347.
4. Ravshanovich, A. O. (2024). Psixologik xizmat korsatish predmeti, maqsadi va vazifalari. *masters*, 2(1), 52-55.
5. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. *Science and Education*, 3(4), 747-752.
6. Avezov, O. R., & Ubaydullayeva, N. F. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o'rni. *Science and Education*, 3(4), 753-759.
7. Avezov, O. R. (2024). Specific characteristics of psychological effects on persons in extreme and emergency situations. *journal of child psychology and psychiatry*, 7(1), 85-90.
8. Avezov, O. R. (2024). Sport psixologiyasi va uning bugungi istiqbollari. *innovative developments and research in education*, 3(30), 308-312.
9. Avezov, O. R. (2024). Specific characteristics of psychological effects on persons in extreme and emergency situations. *journal of child psychology and psychiatry*, 7(1), 85-90.
10. Ravshanovich, A. O. (2024). Xorijiy psixologiyaning rivojlanishida psixologik maktablarning orni. *pedagog*, 7(4), 178-183.

11. Ravshanovich, A. O. (2024). Respublikamizda psixologik xizmat borasidagi tadqiqotlarning vujudga kelishi. *Новости образования: исследование в XXI веке*, 2(18), 483-487.
12. Avezov, O. R. (2024). Bolalar nutqini rivojlantirishda hamkorlik texnologiyasidan foydalanish yo'llari. *Scientific Impulse*, 2(20), 778-782.
13. Avezov, O. R. (2024). Sport psixologiyasi va uning bugungi istiqbollari. *innovative developments and research in education*, 3(30), 308-312.
14. Аvezов, О. Р. (2023, March). Экстремал вазиятларда стрессбардошлилик тушунчаси. In *E Conference Zone* (pp. 63-67).
15. Ravshanovich, A. O. (2024). Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari. *o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali*, 3(28), 18-22.
16. Ravshanovich, A. O. (2024). Psixologik xizmat korsatish predmeti, maqsadi va vazifalari. *MASTERS*, 2(1), 52-55.
17. Ravshanovich, A. O. (2024). Tibbiyot xodimlarining ijtimoiy kompetensiyalarining psixologik asoslarini tushunish, ularning farovonligi va samaradorligi. *Scientific Impulse*, 2(17), 1605-1610.
18. Avezov, O. R. (2024). Gender differences in prevention of aggressive situations in adolescent period. *journal of child psychology and psychiatry*, 7(1), 79-84.

Avezov Olmos Ravshanovich,
Osiyo xalqaro universiteti professori
Farmonova Gulasal Shavkat qizi,
Osiyo xalqaro universiteti magistranti

XALQ TA'LIMI TIZIMIDA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISH XIZMATINING XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish xizmatining tashkil etilishi, uning asosiy vazifalari va zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, xizmatning samaradorligini oshirishga qaratilgan innovatsion texnologiyalar va hamkorlikning ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqolada o'quvchilarning qobiliyatlari va mehnat bozorida talablarni uyg'unlashtirish bo'yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: kasb-hunarga yo'naltirish, xalq ta'limi, psixologik-pedagogik yondashuv, innovatsion texnologiyalar, mehnat bozori, o'quvchilarning qiziqishlari, amaliyotga yo'naltirish.

Аннотация: В статье анализируется организация службы профориентации в системе народного образования, ее основные задачи и современные подходы. Также будет рассмотрена важность инновационных технологий и сотрудничества для повышения эффективности обслуживания. В статье даны рекомендации по соотношению способностей студентов с требованиями рынка труда.

Ключевые слова: профессиональная ориентация, народное образование, психолого-педагогический подход, инновационные технологии, рынок труда, интересы студентов, ориентация на практику.

Abstract: This article analyzes the organization of the career guidance service in the public education system, its main tasks and modern approaches. It also considers the importance of innovative technologies and cooperation aimed at increasing the effectiveness of the service. The article provides recommendations on harmonizing students' abilities and labor market requirements.

Key words: career guidance, public education, psychological and pedagogical approach, innovative technologies, labor market, students' interests, orientation to practice.

Xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish xizmatining tashkil etilishi va rivojlanishi jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy ehtiyojlariga javob beruvchi muhim yo'nalishdir. Ushbu xizmat ta'limning barcha bosqichlarida o'quvchilarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va mehnat bozorida talablarni hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Quyida ushbu xizmatning asosiy xususiyatlari ko'rib chiqiladi:

Kasb-hunarga yo'naltirish xizmatining asosiy maqsadi o'quvchilarning kelajakdagi kasbiy faoliyatga tayyorgarligini ta'minlashdir. Bu jarayon quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

1. O'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini aniqlash. Maxsus psixologik testlar va so'rovnomalar orqali o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini baholash.

2. Mehnat bozorida talablar haqida ma'lumot berish. O'quvchilarga zamonaviy iqtisodiyot va texnologik o'zgarishlar haqida tushuncha berish orqali ularning kelajak kasblarni tanlashdagi xabardorligini oshirish.

3. Kasbga yo'naltiruvchi trening va mashg'ulotlar tashkil etish. Amaliy mashg'ulotlar orqali o'quvchilarga turli kasb-hunarlarining mohiyatini ko'rsatish.

4. Ota-onalar va pedagoglar bilan hamkorlik qilish. Bolalarning kasbiy qiziqishlarini rivojlantirishda ularning yaqinlari va ustozlarining ishtirokini ta'minlash.

Kasb-hunarga yo'naltirish xizmatini muvaffaqiyatli amalga oshirishda psixologik-pedagogik yondashuv muhim ahamiyatga ega. Bu jarayonda quyidagi tamoyillarga amal qilinadi:

- Individual yondashuv. Har bir o'quvchining shaxsiy qobiliyatlari va imkoniyatlariga mos yo'nalishlarni tanlash.

- Davomiylik va izchillik. Kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini boshlang'ich ta'limdan boshlab bosqichma-bosqich amalga oshirish.

- Amaliyotga yo'naltirilganlik. O'quvchilarning nazariy bilimlarini amaliy tajriba bilan mustahkamlash imkonini yaratish.

Zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish kasb-hunarga yo'naltirish xizmatini takomillashtirishda muhim omil hisoblanadi. Masalan:

- Onlayn platformalar va test tizimlari. Internet orqali o'quvchilarning qiziqishlari va qobiliyatlarini baholash imkoniyatini taqdim etuvchi dasturlar.

- Virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar. Turli kasblarni vizual ko'rsatish va amaliy mashqlarni bajarish imkoniyatini yaratish.

- Kasbga oid ma'lumotlar bazasi. O'quvchilar uchun turli kasblar haqida batafsil ma'lumot beruvchi resurslarni tashkil etish.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarni kelajakdagi kasb-hunarga yo'naltirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayonni muvaffaqiyatli tashkil etish uchun maktab, mahalliy mehnat bozori va kasb-hunar kollejlari o'rtasida samarali hamkorlik aloqalarini o'rnatish alohida ahamiyatga ega. Bu hamkorlik o'quvchilarni mehnat bozorining real ehtiyojlariga tayyorlash, ularga kasb tanlashda aniq va amaliy ko'mak berish hamda o'qituvchilarning bilim va tajribasini boyitishga yordam beradi.

Hamkorlikning asosiy afzalliklaridan biri o'quvchilarni nazariy ta'lim bilan bir qatorda amaliy mashg'ulotlarga jalb qilishdir. Mahalliy ish beruvchilar bilan o'rnatilgan hamkorlik asosida o'quvchilar uchun maxsus amaliyot dasturlari tashkil etilishi mumkin. Bu dasturlar quyidagilarga imkon yaratadi:

- O'quvchilar nazariy bilimlarini real ish sharoitida qo'llab ko'rishadi.

- Ular kasbiy mahoratni oshirish bilan birga mehnat bozorining real ehtiyojlarini tushunish imkoniga ega bo'lishadi.

- Ish beruvchilar esa yosh mutaxassislarni o'zlarining ehtiyojlariga mos ravishda tayyorlashda ishtirok etadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonini to'g'ri tashkil etishda turli tadbirlarning ahamiyati kattadir. Mehnat bozori, mahalliy korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik orqali quyidagi tadbirlar muntazam tashkil etilishi mumkin:

- Mehnat yarmarkalari: Ushbu tadbirlarda o'quvchilar turli sohalar vakillari bilan bevosita muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishadi. Bu orqali ular o'zlariga mos kasbni tanlash haqida aniq tasavvur hosil qilishadi.

- Ochiq eshiklar kunlari: Bu tadbirlar mahalliy korxonalar va kasb-hunar kollejlari faoliyatini yaqindan ko'rish va o'rganishga imkon beradi. O'quvchilar ish jarayonining real sharoitlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, kasblar haqida aniqroq ma'lumot olishadi.

- Seminar va treninglar: Ushbu tadbirlar orqali o'quvchilar nafaqat kasblar haqida bilimga ega bo'lishadi, balki muhim ko'nikmalarni ham shakllantiradilar.

Yoshlarning kasblarga moyilliklari va ularning kasbiy qiziqishlarini o'rganish katta amaliy ahamiyatga ega. Bu borada maktab, kasb-hunar bilim yurti va akademik litsey psixologlari, hamda kasbga yo'naltirish bo'yicha mutaxassislarning etarli vositalar, shu jumladan sinalgan, ishonchli psixologik metodikalarga ega bo'lishlari zarurligi hech kimga sir emas. Bu borada mavjud metodikalar orasida keng qo'llanilib kelayotgan E.A.Klimovning «Differentsial-dagnostik so'rovnomasi» (DDS) o'zining tezkorligi, natijalarning ishochliligi bilan farqlanadi. Eng asosiysi, bu metodika o'quvchiga qaysi aniq bitta kasb emas, balki, kasblar guruhining mos kelishini aniqlaydi. O'quvchi ular orasidan o'ziga ma'qulini, yoqqanini tanlab olishi mumkin.

Tajriba ishlari Buxoro shahar 8-sonli o'rta maktab bitiruvchi sinflarida o'tkazildi. So'rovda 95 o'quvchi ishtirok etdi. Ulardan 4 kishining javoblari to'liq bo'lmaganligi sababli


natijalarni tahlil qilishda hisobga olinmadi, 91 o'quvchining natijalari har tomonlama tahlil qilindi.

Metodika ("Differentsial-dagnostik so'rovnoma") blanka usulida o'tkazildi.

Olingan natijalarni saralash, filtrlash, ba'zi statistik qiymatlarni aniqlashda DDS metodikasining kompyuterlashtirilgan varianti imkoniyatlaridan foydalanildi.

Tadqiqot o'tkazilgan guruhlarda, o'rtacha ko'rsatgichlar bo'yicha natijalar quyidagicha taqsimlandi.

Umumiy natijalar (o'rtacha arifmetik qiymat bo'yicha)					
Kasb toifalari	Inson - tabiat	Inson - texnika	Inson - inson	Inson - belgilar tizimi	Inson - badiiy obraz
%	15%	20%	25%	20%	20%
O'rtacha qiymat	3	4	5	4	4




Jadvaldan va diagrammadan ko'rinib turibdiki, tekshiriluvchilarning aksariyati (25%) "Inson-inson" toifasidagi kasblarni tanlashga moyilliklarini namoyon qilganlar. Keyingi o'rinda esa "Inson-texnika", "Inson-belgilar tizimi" va "Inson-badiiy obraz" toifasidagi kasb toifalari teng taqsimlangan (20%). O'quvchilar orasida "Inson-tabiat" toifasidagi kasblarga moyillik ko'rsatganlar soni eng kamidir. Natijalar yoshlar orasida kasblarning nufuzi, ularning amaliy tomonlari haqida tushunchalar hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy muhitdan kelib chiqib shakllanganligini ko'rsatadi. Chunki ular "Inson-tabiat" toifasidagi kasblar egalari bo'lgan nufuzli insonlarni kam uchratadilar.

Kasbiy afzallikning namoyon bo'lishida jinsiy tafovutlarning ta'sirini aniqlash uchun o'g'il bolalar va qiz bolalarning natijalari alohida tahlil qilindi. Natijalar quyidagi jadval va diagrammalarda aks ettirilgan.

O'g'il bolalarning kasb toifalari bo'yicha taqsimlanishi					
Kasb toifalari	Inson - tabiat	Inson - texnika	Inson - inson	Inson - belgilar tizimi	Inson - badiiy obraz
%	15%	25%	20%	20%	20%
O'rtacha qiymat	3	5	4	4	4

O'g'il bolalarning kasb toifalari bo'yicha taqsimlanishi (46 kishi)



Qiz bolalarning kasb toifalari bo'yicha taqsimlanishi

Kasb toifalari	Inson - tabiat	Inson - texnika	Inson - inson	Inson - belgilar tizimi	Inson - badiiy obraz
%	20%	10%	30%	15%	25%
O'rtacha qiymat	4	2	6	3	5

Qiz bolalarning kasb toifalari bo'yicha taqsimlanishi (45 kishi)



Ko'rinib turibdiki, ma'lum kasb toifalariga afzallik ko'rsatishda jins omili katta ta'sirga ega. O'g'il bolalarda "Inson-texnika" toifasidagi kasblarga moyillik ko'rsatganlar eng ko'p – 25% ni tashkil qiladi. Eng kami – "Inson-tabiat". Qolganlari nisbatan teng taqsimlangan.

Qizlarda esa eng yuqori o'rinda "Inson-inson" toifasidagi kasblar. Demak, qizlar kishilar bilan muloqotga kirishish, ta'lim, tarbiya, kishilarga turli xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kasblarni tanlashga intiladilar.

Shuni ta'kidlash lozimki, qizlarda ikkinchi o'rinda "Inson-badiiy obraz", keyingi o'rinda "Inson-tabiat" toifasidagi kasblar turibdi. Bu ularda kasbning estetik jozibadorligi, go'zallikka, tabiatga intilishning ham yuqoriligidan dalolat beradi.

Olingan natijalarni boshqa tadqiqotchilarning natijalari bilan taqqoslash shuni ko'rsatadiki, kasblarga moyillik tekshiriluvchi yashab turgan ijtimoiy-iqtisodiy muhit, o'quvchining kasblar haqidagi tasavvurlarning rivojlanganligiga qarab farqlanadi.

Ta'lim jarayonini zamonaviy mehnat bozoriga moslashtirish uchun o'qituvchilarning malakasini oshirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon doirasida

o'qituvchilarni yangi texnologiyalar, ish jarayonlari va soha talablari bilan tanishtirish uchun maxsus seminar va treninglar tashkil etiladi. Ular mehnat bozori tendensiyalarini tahlil qilishni o'rganadilar va o'quvchilarga kasb tanlash bo'yicha aniq maslahatlar bera olishadi. Bu esa o'quv jarayonida zamonaviy usullar va amaliyotlardan keng foydalanish imkonini beradi.

Xalq ta'limi tizimida kasb-hunarga yo'naltirish xizmatining samarali tashkil etilishi o'quvchilarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu esa o'z navbatida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga hissa qo'shadi. Zamonaviy yondashuvlar va texnologiyalarni qo'llash orqali ushbu xizmatni yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

19. Авезов О.Р. (2023, March). Экстремал вазиятларда стрессбардошлилик тушунчаси. In E Conference Zone (pp. 63-67).

20. Авезов О.Р. (2024). Psixologik xizmatning asosiy yo'nalishlari. o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 3(28), 18-22.

21. Авезов О.Р. (2023). Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim-tarbiya berishda ijodiy o'yinlarning amaliy ahamiyati. Scientific Impulse, 2(14), 344-347.

22. Авезов О.Р. (2024). Psixologiyada shaxs identivligi muammosini tadqiq qilish. Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 19(2), 33-37.

23. Авезов О.Р. (2024). Psixologik xizmat korsatish predmeti, maqsadi va vazifalari. masters, 2(1), 52-55.

24. Авезов О.Р. (2022). Logotherapy: how psychotherapy helps a person to find meaning in life. Science and Education, 3(4), 747-752.

25. Авезов О.Р. (2022). Frankl logoterapiyasi va uning inson hayotidagi tutgan o'rni. Science and Education, 3(4), 753-759.

26. Авезов О.Р. (2022). Ekstremal vaziyatlarda shaxsga psixologik ta'sir etishning o'ziga xos xususiyatlari. Science and Education, 3(4), 717-724.

27. Авезов О.Р. (2024). Specific characteristics of psychological effects on persons in extreme and emergency situations. journal of child psychology and psychiatry, 7(1), 85-90.

28. Avezov, O. R. (2024). Sport psixologiyasi va uning bugungi istiqbollari. innovative developments and research in education, 3(30), 308-312.

29. Авезов О.Р. (2024). Specific characteristics of psychological effects on persons in extreme and emergency situations. journal of child psychology and psychiatry, 7(1), 85-90.

30. Авезов О.Р. (2024). "Tarbiyasi qiyin" o'smirlar bilan ishlashning o'ziga xos xususiyatlari. Scientific Impulse, 2(17), 1183-1188.

31. Авезов О.Р. (2024). O'smir shaxsini shakllanishida o'z-o'zini anglashning psixologik jihatlari. Scientific Impulse, 2(17), 1179-1182.

Sattarova Shaxnozaxon Qo'chqarovna,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti,
"Amaliy psixologiya" kafedrası dotsenti,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Email : academics.uzb@gmail.com

PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATIDA OPTIMISTIK VA PESSIMISTIK XUSUSIYATLARI AHAMIYATI

Annotasiya: Maqolada pedagoglar faoliyatida optimistik va pessimistik holatlar, zamonaviy pedagoglardagi optimistik uslublar, ulardagi ijobiy psixologiya va pozitiv kayfiyatni rivojlantirish munosabatlarini ijtimoiy-psixologik muammolari xususida so'z boradi. Optimizm va pessimizm shaxs rivoji jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lgan qadriyatlar tizimi sifatida va shu bilan birga pedagoglarda pozitiv fikrlashning o'ziga xos xususiyatlari: kundalik hayoti, kelajakka pozitiv munosabat, insonlar kayfiyati, mustaqilligi, baxt tushunchasi, o'z-o'zini anglash, ta'limda pozitivlikning samaradorligi ta'lim sifatini ko'tarilishida asosiy mezon sifatida xizmat qilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan. Ma'naviy-ruhiy xolatlar, o'zidan qoniqmaslik, ruhiy zo'riqish, o'ziga nisbatan afirmasiyalarni qo'llay olmaslik, tashqi bosim, kayfiyatsizlik, negativizm, shaxslararo munosabatlarga kirisha olmaslik, jamoadagi o'rnidan qoniqmaslik kabi omillarga to'xtalib, ayrim psixologik muammolar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: optimizm, pessimizm, etnopsixologik xususiyatlar, muvafaqqiyatga erishish, muvafaqqiyatsizlik, negativlik, pozitiv fikrlash, ijobiy kayfiyat, salbiy fikrlash, ichki ziddiyat, ta'lim samaradorligi.

Аннотация: В статье рассматриваются оптимистические и пессимистические состояния в деятельности педагогов, современные оптимистические стили педагогов, их отношение к развитию позитивной психологии и позитивного настроения. Оптимизм и пессимизм рассматриваются как система ценностей, которая может изменяться в процессе развития личности, а также рассматриваются особенности позитивного мышления у педагогов: повседневная жизнь, позитивное отношение к будущему, настроение людей, независимость, понятие счастья, самопознание, эффективность позитивности в обучении как основной критерий повышения качества образования. В статье также обсуждаются такие факторы, как духовно-эмоциональные состояния, неудовлетворенность собой, психическое напряжение, неспособность использовать аффирмации, внешнее давление, плохое настроение, негативизм, трудности в межличностных отношениях, неудовлетворенность своей ролью в коллективе, и анализируются некоторые психологические проблемы.

Ключевые слова: оптимизм, пессимизм, этнопсихологические особенности, достижение успеха, неудачи, негативность, позитивное мышление, позитивный настрой, негативное мышление, внутренние противоречия, эффективность образования.

Abstract: The article discusses the optimistic and pessimistic situations in the work of educators, optimistic methods in modern educators, socio-psychological problems of the relationship between positive psychology and the development of positive mood in them. Optimism and pessimism as a system of values that can change in the process of personal development, and at the same time, information is provided on the specific features of positive thinking in educators: everyday life, positive attitude to the future, people's mood, independence, the concept of happiness, self-awareness, the effectiveness of positivity in education as a key criterion for improving the quality of education. Some psychological problems are analyzed, focusing on factors such as spiritual and mental states, dissatisfaction with oneself, mental stress, inability to use affirmations for oneself, external pressure, moodiness, negativism, inability to enter into interpersonal relationships, dissatisfaction with one's place in the team.

Key words: *optimism, pessimism, ethnopsychological characteristics, achieving success, failure, negativity, positive thinking, positive mood, negative thinking, internal conflict, educational effectiveness*

Kirish. Optimizm va pessimizm muammosi ijtimoiy fanlarning hali to'liq ifodasini olmagan tadqiqot sohalaridan biridir. Hozirgi vaqtda psixologiya va boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar tadqiqotlari mavzusi bo'yicha keng qamrovda o'rganilayotgan muammolardan biri bo'lib bormoqda. Ko'pgina olimlar "optimizm" va "pessimizm" ni tushunishga o'zlarining yondashuvlarini keltirib o'tishga harakat qilmoqdalar. Psixologiya, falsafa va sotsiologiyadagi turli xil nazariy oqimlarga mansub bir qator mualliflarning tadqiqotlarida biz inson sub'ektivligi dunyosida sodir bo'layotgan jarayonlarni tushunishga urinishni o'z ichiga olgan holatlar, mulohazalar va tushunchalarni ko'rish mumkin.

Asosiy qism. T. N.Slobodyan pozitiv tafakkurni individual fikrlash sifati deb hisoblaydi, bu esa muammoli masalalarni hal qilishning maqbul yo'llarini topishda shaxsning ijobiy-optimistik yo'nalganligiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari, olim bu hodisani atrofdagi voqelikning muhim xususiyatlari, yuzaga kelayotgan hayot muammolarini hal qilish yo'llarini oldindan biladigan, insonning faol bilish va ijtimoiy harakatlarini amalga oshirishga tayyorligi orqali olamni idrok etish va muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi sifatida tasvirlash mumkinligini qayd etadi. Muallifning fikricha, yoshlarning pozitiv tafakkurini rivojlantirish xususiyatlarini o'rganishda ularda mazkur yosh davrining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Yoshlik ularning dunyoqarashi va undagi o'z o'rnini ko'rish, shaxsiy va kasbiy o'z-o'zini anglash, o'sish, shuningdek, umuman psixik salomatlik shaxs uchun barqarorlashtiruvchi bo'lib boradi. Tadqiqotchi tizimli-yaxlit yondashuvga tayangan holda quyidagi o'zaro bog'liq komponentlarni o'z ichiga olgan pozitiv tafakkur strukturasini taklif etadi:

- ✚ kognitiv: mazmunli, refleksiv, prognozlovchi elementlarni qamrab oladi;
- ✚ emotsional-baholovchi: optimizm, o'z-o'zini shakllantirish, ijobiy modallik emotsiyasini qamrab oladi;
- ✚ xulq-atvor: xulq-atvor faoliyatiga munosabat, muvaffaqiyat motivatsiyasini qamrab oladi.

K. Fridmutter pozitiv fikrlash har doim insonning o'z baxti uchun shaxsiy mas'uliyatga asoslangan, deb hisoblaydi. Farovonlikning eng muhim omillari har bir inson ichidadir. Insonning ichki dunyosi qanchalik barqaror va ishonchli bo'lsa, shuncha yaxshi. Bu holatdagi odamlarga tashqi omillar ta'sir qilish juda qiyin. Bundan tashqari, pozitiv fikrlaydigan odamlar har qanday hayotiy voqealarni tushuntirishning optimistik uslubini qo'llashlari mumkin. Shu bilan birga, odatda pozitiv fikrlaydigan odam qiyin hayotiy vaziyatlarda pessimistik tushuntirish uslubi elementlarini ham qo'llashi mumkin. Tushuntirish uslubi insonning muayyan hodisalar nima uchun sodir bo'lganligini qanday tushuntirishini anglatadi. Optimistik uslubida tushuntiradiganlar ijobiy voqea-hodisalarda ko'proq o'zlariga ishonishga moyil bo'ladi, lekin, odatda, yomon natijalarda tashqi kuchlarni ayblaydilar. Ular, shuningdek, salbiy hodisalarni vaqtinchalik va noodatiy sifatida ko'rishga moyil. Boshqa tomondan, pessimistik uslub tushuntiradiganlar salbiy voqea-hodisalar sodir bo'lsa, o'zlarini ko'proq ayblaydilar va o'z muvaffaqiyatli natijalarini munosib baholay olmaydilar. Ular, shuningdek, salbiy hodisalarga kutilgan va uzoq muddatli deb qarashga moyil bo'ladilar.

Bugungi kunda, N. B. Pravdina fikricha, yagona axborot makoni vaziyatida nafaqat kattalar, balki o'smirlar va bolalar ham quvonch va optimizm yetishmovchiligini his qilmoqda. Odatda, odamlarning o'ziga, o'z imkoniyatlariga ishonchi kamayib, pessimizm o'sishi kuzatilmoqda, depressiv holatlar dolzarblashmoqda. Emotsional doirada charchoq, tushkunlik, loqaydlik, chorasizlik tuyg'ulari ustunlik qiladi. Televideniye, internet vositalari orqali kirib kelayotgan salbiy axborotlar girdobida g'azab va norozilik sezilarli darajada oshib bormoqda. Ushbu omillar xavotirli tafakkurga ega insonni tarbiyalashga xizmat qiladi, ularga atrof-muhitni salbiy qabul qilish xos bo'lib, shaxsiy resurslarini hayotiy barqarorlik, kayfiyati, psixologik

sog'iligi va faollik manbalarini yaxshilashga undaydi. O'z navbatida, pozitiv tafakkur istalgan kelajakni amalga oshirish yo'lidagi har qanday to'siqlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. [17,182]

«Inson tafakkurini shakllantirish uzoq muddatli va murakkab jarayon» ekanligini ta'kidlagan psixolog-olim E.G'.G'oziev quyidagi fikrni keltirib o'tadi: «Axloq tarbiyasidagi qo'pol xatolar bolaning ruhiy dunyosiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, shaxs dunyoqarashini tubdan qayta qurish, tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish masalasiga alohida e'tibor berish zarur».

E. A. Burkovaga ko'ra, inson hayot faoliyatining asosi madaniyatning emotsional-pozitiv asosi bo'lgan ijobiy fikrlash prinsipi bo'lsa, jamiyat rivojlanishi mumkin. Bu hodisani o'rganish insonni axloqiy va estetik mazmunga tayangan holda o'zini to'laroq namoyon eta oladigan madaniyat sub'ekti sifatida chuqurroq anglash imkoniyatini beradi. Ijobiy yoki salbiy fikrlash atrof-muhitni bilishdagi ikki turli qarash, ikki nuqtain nazar, ikki usuli sifatida optimizm va pessimizmga asoslanadi:

pessimizm – qora ko'zgu orqali qarash, barcha yuz berayotgan hodisalarda faqat salbiy jihatlar ko'rildi;

optimizm – insonga asosan pozitiv idrok etish imkonini beruvchi qarash.

Shu bilan birga, optimizmni hayot mazmuni bilan birlikda insonga tegishli bo'lgan muayyan jamiyatda zavq, lazzatlanish, muvaffaqiyat, tan olish deb hisoblash maqsadga muvofiqdir. Optimizmni tushunish, bir tomondan, dunyoni ijobiy idrok etish, ikkinchi tomondan esa, baxt-saodat, muvaffaqiyatga umid qilishga qaratilgan kayfiyatdir. Ushbu muammoni o'rganishda atrof olam va o'ziga nisbatan qarama-qarshi fikrlar sifatida optimizm va pessimizm konstatatsiyasi muhim sanaladi. Optimizm va pessimizm shaxs rivoji jarayonida o'zgarishi mumkin bo'lgan qadriyatlar tizimi sifatida belgilanadi. Bundan tashqari, optimizmni insonning katta yosh davrlarida dunyoni idrok etish dinamikasi sifatida o'rganish mumkin. Yoshlar o'lim haqiqatini anglamaydi, shuning uchun ular hayotning to'liqligini his qilmaydi va bu pessimizmni keltirib chiqaradi. Hayotiy tajriba orttirish insonning o'z imkoniyatlarini voqelik bilan muvofiqlashtirib, dono bo'lishiga imkoniyat yaratadi. Barcha yoshdagi kishilar muvaffaqiyat orqali pessimizmni yengishga o'rganganliklari uchun har qanday faoliyatda faol bo'lish muhimdir. Keksalikda pessimizmning orttirilgan hayotiy tajribasi hayot to'kinligini boshdan kechirishning eng yuqori darajasini belgilaydi.

T.Yu. Artyuxovaning ta'kidlashicha, pozitiv tafakkur aqliy munosabat bo'lib, inson o'zi uchun pozitiv natijalarni kutadi. U, o'z mohiyatiga ko'ra, energiyani haqiqatga aylantiruvchi fikrni yaratishning maqsadga muvofiq jarayonidir. Bu jarayon insonga har qanday vaziyat uchun, odatda, baxtli yakunni kutish imkonini beradi. Bugungi kunda, odamlar tobora ko'proq bu tushunchaga murojaat qilishmoqda. Ushbu yo'nalishda chop etilayotgan ommabop adabiyotlar soni ortib borayotgani bundan dalolat beradi. Amalda, ijobiy munosabat bilan duch kelgan kishi har doim ham kasbiy, ham shaxsiy planda muvaffaqiyat qozonadi. Pozitiv fikrlashning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

kundalik stressni kamaytiradi ;
tegishli kasalliklar xavfini kamaytiradi;
muvozanatli o'z-o'ziga ishonch;
hayot farovonligini anglashning yuqori darajasi;
kommunikabellikning muvozanatli darajasi;
va ko'plab boshqalar.[1]

«Mustaqil fikrlash - sog'lom ma'naviyat va tafakkurning alohida xossasi» ekanligini ta'kidlagan o'zbek psixolog olimlaridan V.M.Karimova, Tafakkur —inson ongining bilish ob'ektlari hisoblanmish narsa va hodisalar o'rtasida murakkab, har tomonlama aloqalarning bo'lishini ta'minlovchi umumlashgan va mavhumlashgan aks ettirish shaklidir deb fikrlash va tafakkur tushunchalari o'rtasidagi bog'liqlikni ta'kidlab o'tadi. [10,184]

J.V.Sidorenko tomonidan olib borilgan tadqiqot muammolari bo'yicha ilmiy adabiyotlarning nazariy va uslubiy tahlili shuni ko'rsatdiki, pozitiv tafakkur tushunchasi yigirmanchi asrning oxirida psixologiya fanining amaliyotiga kiritilgan. Olimlar psixik salomatlik va inson mavjudligining uyg'unligini ta'minlashdan iborat bo'lgan mohiyatining umumiy qarashlarini aniqladilar. Pozitiv tafakkurga doir psixologik tadqiqotlarni muallif shartli ravishda ikki yo'nalishga bo'lishni taklif qiladi:


birinchisi – ijobiy, ya'ni pozitiv tafakkur mohiyatini ko'rib chiqish shaxsning haqiqatga konstruktiv, optimistik munosabati orqali amalga oshiriladi;

ikkinchisi – mazmunli, ya'ni uning doirasida fikrlarning inson hayotidagi jismoniy timsoliga oid qoidalarni ilgari surgan olimlarning pozitsiyalari birlashtiriladi.[19,301-308]

Yu.N. Kashitsina pozitiv tafakkurni maqbul yechimlarni topish, hayotiy vaziyatlarda ijobiy harakatlarni amalga oshirishni osonlashtiruvchi insonning muayyan pozitsiyasi deb hisoblaydi. Bu tushuncha nafaqat optimizmni, balki konstruktiv yo'nalishni ham qamrab oladi, bu esa insonga ijobiy, turli vaziyatlarda eng oqilona yo'l tutish imkonini beradi. Har bir inson o'z hayotini kundalik fikrlar bilan yaratadi. Shu bilan birga, ko'pincha yuzaga keladigan salbiy fikrlar tufayli himoyasizlik va tashvish hissi paydo bo'ladi. Bu voqeelikka ta'sir etishi mumkin bo'lgan qarashlarning shakllanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Ba'zan ular kuchli destruktiv xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga, ijobiy fikrga ega bo'lgan odamlar qiyin vaziyatlardan yaxshi chiqib keta oladilar, odatda, jismoniy va intellektual qobiliyatlarga ega, stressli vaziyatlarni yaxshiroq boshdan kechiradi va shunga ko'ra yaxshi natijalarga erishishlari mumkin.

Natija va muxokamalar. Pedagoglarda pozitiv fikrlashning komponent tarkibiy rivojlanishining holatini tadqiq etish maqsadida empirik tadqiqot tashkillashtirildi va o'tkazildi, unda oliy ta'lim muassasalarining jami 460 nafar pedagoglari ishtirok etdi. Empirik tadqiqot tanlovi pedagoglarda pozitiv fikrlashni komponent tarkibiy rivojlanishini o'rganish uchun quyidagi metodikalardan tashkil topgan psixodiagnostik kompleks yordamida kuzatildi: "adaptatsiyasidagi hayotga chidamlilikni aniqlash" metodikasi; "muloqotmandlik va kommunikativlik" testi; "irodaviy o'z-o'zini boshqarishni tadqiq qilish" test-so'rovnomasi; "muvaffaqiyat motivatsiyasi va muvaffaqiyatsizlikdan qo'rqish" so'rovnomasi; "o'z-o'zini baholash darajasini aniqlash" test-so'rovnomasi; "agressivlik darajasi" test-so'rovnomasi; "refleksivlik rivojlanishi darajasini aniqlash" so'rovnomasi.

Shunday qilib, yetti metodika bo'yicha (n=460) olingan psixodiagnostik ma'lumotlarni umumlashtirish va talqin qilishning tayyorlangan mexanizmi pedagoglarning ijobiy tafakkurini rivojlantirishning holatini o'rganish imkonini berdi.
1-jadval



1-jadvalda berilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, so'rovda qatnashgan pedagoglarning aksariyati 35,4% ijobiy tafakkurning (past darajada va o'rta darajadan past) rivojlanish darajasiga ega. Pedagoglarning 43,1% o'rganilayotgan hodisaning o'rta rivojlanish darajasiga ega. Shu bilan birga, pedagoglarning faqat 21,2% ijobiy fikrlash (o'rtadan yuqori daraja, yuqori daraja) rivojlanishining darajasiga ega.

Yuqoridagi tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirishda psixologik treninglarning o'rni hamda shakllantiruvchi tajriba sharoitida pozitiv tafakkurning tarkibiy komponentlariga doir masalalar inobatga olinib, pedagoglar uchun psixologik trening mashg'ulotlari ishlab chiqildi va tajriba-sinov jarayoniga tadbiiq etildi. Psixologik trening bu – turli ijtimoiy faoliyat sohalari shaxsni tayyorlashdan iborat bo'lib, bunda asosiy e'tibor shaxs yoki guruhning muloqot yoki kommunikativ sohasidagi bilimdonlik darajasini maqsadga muvofiq tarzda amalga oshirish jarayonini aks ettirishdir. Ishlanmaning asosiy maqsadi O'zbekiston sharoitida pedagoglarda pozitiv fikrlashni rivojlantirish etib belgilangan.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda, bugungi kunda pozitiv tafakkurni o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar dolzarbligi bilan ajralib turadi, deb xulosa qilish mumkin, chunki bu hodisa atrofdagi voqelik, dunyoqarashga nisbatan ijobiy munosabatni rivojlantirish, emotsiyalarni boshqarish jarayonini sezilarli darajada optimallashtirish, inson faoliyati, shu jumladan, ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, ilmiy-amaliy ishlarda bu yo'nalishda empirik tadqiqotlar hamda ijobiy fikrlashni o'rganishga turli yondashuvlar yo'qligi kuzatilmoqda. Shunday qilib, ayrim olimlar bu hodisaning mohiyatini insonning atrofdagi voqelikka konstruktiv va ijobiy munosabati orqali ko'rib chiqish pozitsiyasiga rioya qiladilar, boshqalari esa fikrlarning hayotga jismoniy ifodasi haqidagi qoidalarni shakllantiradilar. Pozitiv tafakkurni insonning ob'ektiv voqelikni noreal idrok etish prizmasi orqali talqin qiluvchi tadqiqotchilar ham bor.

Shu bilan birga, ko'plab tadqiqotchilarning pozitsiyalariga rioya qilib, ushbu dissertatsiya ishining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda, pozitiv tafakkur asosida haqiqatning muhim belgilarini aks ettirish, yuzaga keladigan muammolarni hal qilishning konstruktiv usullarini prognoz qilish, dunyoni idrok etishda optimizmni ta'minlash va faol bilish, ijtimoiy harakatlarning bo'lajak pedagog tomonidan amalga oshirishga tayyorlik orqali samaradorlikka erishishga turtki berishga olib keladigan sifat ko'rsatkichlari to'plamini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir. O'z mohiyatiga ko'ra, pozitiv tafakkur voqelikning emotsional, ijodiy, realistik in'ikosi resurslariga tayanadi. Ushbu asos kundalik hayotda muammoli vaziyatni o'zlashtirishda o'zgaruvchan yondashuv, moslashuvchanlik va samaradorlik, hissiy va realistik fikrlarni amalga oshirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Артюхова Т.Ю. Роль и значение позитивного мышления в жизнедеятельности человека. // Проблемы теории и практики современной психологии. Всероссийской (с международным участием) научно-практической конференции. 2016. - С. 143-145.
2. Бобриская В. Мышление и здоровье человека: размышления о положительном, критическом и негативном мышлении. // Психолог. - 2004 - №12 - С. 11- 16.
3. Борисова Е.Н. Учитель и ученик: позитивное мышление как профилактика эмоционального выгорания. // Высшее образование сегодня. Российский новый университет Москва.: 2019. - С. 45-49.
4. Буркова Е.А. Позитивное мышление как ресурс сохранения психологического здоровья человека. // ВИ-я Международная научно-практическая конференция «Психологическое здоровье человека: жизненный ресурс и жизненный потенциал». - 2019. - С. 62-70.
5. Гордеева Т.А. Оптимистическое мышление студента как составляющая личностного потенциала. // Психологическая диагностика. - 2006. - №2. - С. 42-50.

6. Замышляева М.С. Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении в юношеском возрасте. // Воспитание в контексте междисциплинарного подхода. - 2005. - № 5. - С. 183-190.
7. Калошин В.Ф. Основы позитивного мышления в образовательной деятельности. Учебное пособие. - М.: 2005. - 252 с.
8. Калошин В.Ф. Позитивное мышление: счастье, здоровье, успех. - Х.: Изд. группа «Основа», 2008. Вып 4 (64). - 256 с.
9. 9.Карапетян Л.В. Исследование особенностей оптимизма и пессимизма у студентов. // Психологический вестник Уралского государственного университета. - 2008. - Вып.6. - С. 332-343.
10. Karimova.V.M.Mustaqil fikrlash.-Т.:«Sharq» 2000y,184b.
11. 11.Кашицына Ю.Н. Позитивное мышление в системе социальных и профессиональных отношений. // Геопатогенные зоны и здоровье подрастающего поколения. - Уфа: РИЦ Баш-ГУ, 2014. - С. 122-129.
12. 12.Климентева С.В. Профессиональное становление педагога как протсесс проектирования личности. // Вестник Ярославского государственного университета им. П.Г. Демидова. - 2007. - №6. - С. 138-142.
13. Крюкова Т.Л. Оптимизм и пессимизм в совладающем поведении объекта учебной деятельности. // Психологическое исследование: теория, методология, практика: Сборник материалов ИИ Сибирского психологического форума. - Томск: Томский государственный университет, 2007. - С. 236-242.
14. Мартин Э.П. Как научиться оптимизму. Советы на каждый ден. - М.: Вече, Персей, АСТ, 2000. – 432 с.
15. Муздыбаев К. Оптимизм и пессимизм личности. // Сотсиологические исследования. - 2003. - № 12. - С. 87-96.
16. Перова Е.А. Оптимизм как одна из составляющих субъективного благополучия студента. // Вопросы психологии. - 2006. - № 4. - С. 51-57.
17. Правдина Н.Б. Азбука позитивного мышления. - М.: ОЛМА Медиа Групп, 2007. - 182 с.
18. Селигман М. Новая позитивная психология: научный взгляд на счастье и позитивный смысл жизни. - М.: Издательство «София», 2006. - 368 с.

Baxronova Komila Yadgorovna,
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti dotsenti,
Umumta'lim fanlar kafedrası mudiri,
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
komilaba338@gmail.com

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHISINING YOSHGA XOS RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshga xos rivojlanish xususiyatlari tahlil qilinadi. Bolalarning psixologik, jismoniy, emotsional va ijtimoiy rivojlanish bosqichlari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri hamda samarali ta'lim metodlari haqida so'z yuritiladi. O'qituvchilar va ota-onalar uchun bolaning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: Boshlang'ich sinf, yosh xususiyatlari, psixologik rivojlanish, jismoniy rivojlanish, emotsional rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, ta'lim metodlari, o'qituvchi roli.

Аннотация: В данной статье анализируются возрастные особенности развития учащихся начальных классов. Рассматриваются этапы психологического, физического, эмоционального и социального развития детей, их влияние на учебный процесс, а также эффективные методы обучения. Даются рекомендации для учителей и родителей по поддержке развития ребенка.

Ключевые слова: Начальная школа, возрастные особенности, психологическое развитие, физическое развитие, эмоциональное развитие, социальная адаптация, методы обучения, роль учителя.

Annotation: This article analyzes the age-related developmental characteristics of elementary school students. It examines the stages of children's psychological, physical, emotional, and social development, their impact on the learning process, and effective teaching methods. Recommendations are provided for teachers and parents on supporting a child's development.

Key words: Elementary school, age characteristics, psychological development, physical development, emotional development, social adaptation, teaching methods, teacher's role.

Kirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari bolalikdan o'smirlik davriga o'tish jarayonidagi muhim bosqichda turadilar. Ushbu davrda bolalarning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanish jarayonlari tez sur'atda kechadi. Shu sababli, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularning yoshga xos xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

Jismoniy rivojlanish- Boshlang'ich sinf o'quvchilari odatda 6-10 yosh oraliqida bo'lib, ularning organizmida jismoniy o'zgarishlar tez sodir bo'ladi. Bu davrda quyidagi xususiyatlar kuzatiladi:

- Muskullar va suyak tizimi jadal rivojlanadi, lekin hali mustahkam emas.
- Mayda motorika rivojlanishda davom etadi, bu esa yozuv malakalarini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.
- Harakat faolligi yuqori bo'lib, uzoq vaqt davomida bir joyda o'tirish qiyin bo'lishi mumkin.

Psixologik rivojlanish- Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar psixologik jihatdan ham o'ziga xos rivojlanish jarayonini boshdan kechiradilar:

- Ular ko'proq hissiyotlarga berilishadi, kayfiyatlari tez o'zgarishi mumkin.
- Taqlid qilish va o'rganishga bo'lgan qiziqish yuqori darajada bo'ladi.
- Mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati endi shakllanib boradi.
- Xotira, diqqat va tafakkur rivojlanish jarayonida bo'ladi, ayniqsa, obrazli fikrlash muhim rol o'ynaydi.

Ijtimoiy rivojlanish- Bolalarning ijtimoiy rivojlanishi ularning oilasi, maktab muhitida va jamiyatdagi o'ri bilan bog'liq:

- Ustoz va ota-onalarga bo'lgan ishonch yuqori bo'ladi.
- Do'stlik va jamoa bilan ishlash malakalari rivojlana boshlaydi.
- Ular odob-axloq qoidalarini o'rganib, o'z xulq-atvorlarini ularga moslashtirishga harakat qiladilar.

• Rag'batlantirish va maqtovga ehtiyoj sezadilar, bu ularning motivatsiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Intellektual rivojlanish- Boshlang'ich sinf o'quvchilari aqliy rivojlanish jarayonida quyidagi o'zgarishlarni boshdan kechiradilar:

• Ularning qiziqishlari kengayib boradi, ular atrof-muhitni faol o'rganishga harakat qiladilar.

• Muhokama qilish, mantiqiy fikrlash va mustaqil o'rganish malakalari rivojlana boshlaydi.

• Til va nutq qobiliyatlari jadallik bilan rivojlanadi, lug'at boyligi kengayadi.

• Dars jarayonida mustaqil ish qilish qobiliyati shakllana boshlaydi.

Boshlang'ich sinf yoshi chegaralari hozirgi vaqtda 6-7 yoshdan 10-11 yoshgacha bo'lgan davr sifatida belgilangan. Bu davrda bolaning jismoniy va psixofiziologik rivojlanishi amalga oshadi.

Maktabda o'qishni boshlash bolaning rivojlanishidagi ijtimoiy vaziyatni o'zgartiradi. U "ijtimoiy" sub'ektga aylanadi va ijtimoiy ahamiyatga ega majburiyatlarga ega bo'ladi. Boshlang'ich sinf yoshi davomida atrofda odamlar bilan yangi munosabatlar shakllana boshlaydi. Kattalarning so'zsiz avtoriteti asta-sekin yo'qolib, boshlang'ich sinf yoshi oxiriga kelib bola uchun tengdoshlarining ahamiyati ortib boradi.

Boshlang'ich sinf yoshida yetakchi faoliyat o'quv faoliyati hisoblanadi. U bolalar ruhiy rivojlanishidagi eng muhim o'zgarishlarni belgilaydi. O'quv jarayoni doirasida boshlang'ich sinf o'quvchilari rivojlanishida eng muhim yutuqlarni aks ettiradigan psixologik yangilanishlar shakllanadi.

Boshlang'ich ta'limning turli bosqichlarida intellektual rivojlanish bolalarning yosh xususiyatlariga qarab farq qiladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faoliyati xususiyatlari ularning psixologik xususiyatlariga ham bog'liq. Ularning tafakkuri asosan konkret xususiyatga ega bo'lib, aniq ob'ektlar bilan bog'langan holda namoyon bo'ladi.

Piaje J. tomonidan ishlab chiqilgan rivojlanish davriylashtirilishiga ko'ra, boshlang'ich sinf yoshi (7-8 yoshdan 11-12 yoshgacha) intellekt rivojlanishining uchinchi bosqichiga to'g'ri keladi. Ushbu yoshda konkret operatsiyalar shakllanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun asosiy tafakkur turi obrazli tafakkurdir. Bolalar mantiqiy fikrlashlari mumkin, biroq ularda idrok mantig'i ustunlik qiladi, shuning uchun bu yosh ko'rgazmali ta'lim uchun sezgir davr hisoblanadi.

Boshlang'ich sinf yoshida aqliy rivojlanish uch bosqichdan o'tadi:

1. Namuna va mezonga asoslanib harakatlarni o'zlashtirish.
2. Belgilangan model doirasida harakatlar tizimini shakllantirish.
3. Buyumlarning xususiyatlari va ularning o'zaro munosabatlarini aks ettiruvchi aqliy harakatlarga o'tish.

Tafakkur rivojlanishining xususiyatlari

Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkuri maktabgacha yoshdagi bolalar tafakkuridan sezilarli darajada farq qiladi. Maktabgacha yoshda bolalar fikrlash jarayonini erkin boshqarolmaydilar, fikrlash faoliyati ko'proq qiziqishlari va shaxsiy ehtiyojlari bilan bog'liq bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari esa ta'lim jarayonida muntazam ravishda vazifalarni bajarish orqali o'z tafakkurini boshqarishni, faqat qiziqarli bo'lgan paytda emas, balki zarur bo'lgan holatlarda ham fikr yuritishni o'rganadilar.

Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hatto bir yoshdagi bolalar ham tafakkur xususiyatlariga ko'ra farq qiladilar. Masalan, ba'zi bolalar amaliyotga yo'naltirilgan fikrlash bilan bog'liq masalalarni yengilroq hal qiladilar – bu ularga konstruksiyalash, buyum tayyorlash va amaliyotga asoslangan vazifalarni bajarishda yordam beradi. Boshqalar esa voqealar yoki predmetlarning holatlarini tasavvur qilish va ularni obrazli tarzda ko'z oldiga keltirish orqali vazifalarni yengil hal qiladilar. Yana bir guruh bolalar sharhlash, xulosa chiqarish va mantiqiy mulohaza yuritishda ko'proq muvaffaqiyatga erishadilar – bu esa ularga matematika masalalarini hal qilish, umumiy qoidalarni shakllantirish va ularni konkret holatlarda qo'llash imkonini beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida fikrlashning barcha turlarini rivojlantirish muhimdir, chunki ular orqali bolalarning ongida turli aqliy qobiliyatlar shakllanadi. Masalan, Vizual-amaliy tafakkur asosida muammolarni izchil yechish qobiliyati rivojlanadi. Bu tafakkur turi bilan bola narsalarni qo'lga olib, ularning holatini o'zgartirish, fazoda joylashtirish va xususiyatlarini aniqlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Bola buyumlar bilan ishlaganda, o'z harakatlarini kuzatish va nazorat qilish osonroq bo'ladi. Vizual-amaliy tafakkur bolalarda fikrlash jarayonini ongli ravishda boshqarish, o'z harakatlarini nazorat qilish va maqsadga yo'naltirilgan harakatlarni bajarish qobiliyatini shakllantiradi. Amaliyot ko'rsatadiki, bu tafakkur turini rivojlantirishda chizish, haykalcha yasash, konstruksiyalash kabi faoliyat turlari muhim o'rin tutadi.

Vizual-amaliy tafakkur asosida yanada murakkab tafakkur turi – Vizual-obrazli tafakkur shakllanadi. Bu turda bolalar muammolarni amaliyotga asoslanmagan holda, faqat aqliy tasavvur qilish orqali hal qiladilar.

So'z-mulohazaviy tafakkur esa oldingi tafakkur turlariga asoslanadi. Uning asosiy xususiyati tushunchalar bilan ishlashdir. Boshlang'ich sinf o'quvchisida mukammal tushuncha shakllantirish uchun uni ob'ekt xususiyatlarini farqlashga o'rgatish kerak. Bolalar muhim xususiyatlarni ajrata olishi kerak, chunki shu xususiyatlarsiz ob'ekt belgilangan tushunchaga tegishli bo'la olmaydi.

Tushunchaga ega bo'lish mezonini – uni amalda qo'llay olish qobiliyatidir. 1-2-sinf o'quvchilari odatda ob'ektning eng aniq tashqi xususiyatlarini ko'rsatishadi, uning harakatlari yoki funktsiyalarini ta'riflashadi. 3-4-sinf o'quvchilari esa ob'ektlar haqida bilim va tasavvurlariga ko'proq tayanib fikr yuritadilar.

3-sinf o'quvchilari tushunchalar iyerarxiyasini aniqlash, umumiy va xususiy tushunchalarni ajratish, ular o'rtasidagi bog'liqlikni topish qobiliyatiga ega bo'lishlari kerak. Maktabgacha yoshdagi bola yoki 1-2-sinf o'quvchisi isbot va dalil o'rniga real faktlarga ishora qilish yoki analogiyaga tayanib ish ko'radi. Ammo 3-4-sinf o'quvchisi esa dalillarni asoslash, mantiqiy tartibda isbotlash va mukammal argument keltirish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinf o'quvchisi o'z rivojlanishida alohida ob'ekt va hodisalarni tahlil qilishdan ular o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilishga o'tadi.

Intellektual rivojlanishdagi muhim omillar

Qabul qilishni rivojlantirish jarayonida eng muhim vazifa – bolalarni ob'ektlarning alohida belgilari va xususiyatlarini ajratishga, ko'rilgan narsalarni anglab yetishga va tafakkur faoliyatini qabul qilish jarayoniga jalb etishga o'rgatishdir.

Diqqat intellektual va amaliy faoliyatning asosidir. Boshlang'ich maktabda diqqat barqarorligini, uning kontsentratsiyasi va taqsimlanishini shakllantirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xotira rivojlanishining asosiy yo'nalishi – bolalarda vositali xotirani shakllantirishdir. Bunda yodlash uchun turli yordamchi vositalar, shu jumladan ramz va belgilardan foydalanish talab etiladi. Bunday ko'nikma shakllanishi uchun ob'ektlarni qismlarga ajratish, ularning xususiyatlarini ajratib ko'rsatish va ular o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muhimdir.

Intellektual rivojlanish bolalar shaxsiyatining, ayniqsa, uning bilish qobiliyatining shakllanishida muhim ahamiyatga ega.

Tasavvurni rivojlantirish. -Boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun tasavvur ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi va darslik tomonidan beriladigan ko'pgina ma'lumotlar so'zli tavsiflar, rasmlar, sxemalar shaklida bo'ladi. O'quvchilar ushbu ma'lumotlarni haqiqat bilan bog'lab tasavvur qilishlari kerak: hikoya qahramonlarining xatti-harakatlari, o'tmish voqealari, landshaftlar, fazodagi geometrik shakllarning joylashuvi va o'zaro bog'liqligi.

Bu qobiliyatni rivojlantirish ikki bosqichda kechadi. Dastlab, shakllanayotgan tasavvur reallikka nisbatan oddiyroq bo'lib, tafsilotlarga boy bo'lmaydi. Bunday obrazlar statik bo'ladi, chunki ularda ob'ektlarning o'zgarishi va harakati aks etmaydi. Ularni shakllantirish uchun so'zli tavsif yoki rasm talab qilinadi. 2–3-sinflarda esa rivojlanishning ikkinchi bosqichi kuzatiladi: tasavvur qilingan obrazlar ko'proq xususiyat va belgilarga ega bo'lib, aniqroq va to'liqroq bo'la boshlaydi.

Boshlang'ich sinf yoshida qayta tiklovchi (reproduktiv) tasavvur barcha o'quv mashg'ulotlarida rivojlanadi. Bu bolalarning ob'ektlarning yashirin holatlarini tasavvur qilish va tasvirlash, ayrim ob'ektlar, ularning xususiyatlari va holatlari nisbiy ekanligini tushunish qobiliyatlarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi. Qayta tiklovchi tasavvur haqiqatni aks ettiruvchi obrazlarni qayta ishlaydi.

Bolalar ob'ektlar va ularning paydo bo'lish shartlari haqidagi ma'lumotlarni o'zlashtirib borar ekan, yangi obraz kombinatsiyalarini mantiqiy asoslash va isbotlashga intiladilar. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining buyumlarning kelib chiqishi va tuzilishini tushuntirishga bo'lgan harakati ularda ijodiy (produktiv) tasavvur rivojlanishining muhim psixologik sharti hisoblanadi.

J. Piaje ta'limotiga ko'ra, 7 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan davrda bolalar tasavvuri yanada moslashuvchan va harakatchan bo'lib, u oldindan tasavvur qilish qobiliyatini rivojlantiradi. Bu, o'z navbatida, operatsion fikrlash jarayonida muhim rol o'ynaydi va unga yordam beradi. Tasavvurning eng yorqin namoyon bo'lishi va rivojlanishi hikoya va ertaklar yozish, rasm chizish jarayonida kuzatiladi. Yuqori darajadagi tasavvur aniq operatsiyalar bilan rivojlanib boradi va operatsion mantiqni shakllantirish asosini tashkil etadi. Agar boshlang'ich sinf yoshida tasavvur yetarli darajada rivojlanmasa, bu kelajakda abstrakt tafakkurning shakllanishini qiyinlashtirishi mumkin.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining yoshga xos rivojlanish xususiyatlarini hisobga olgan holda, ta'lim jarayonini tashkil qilish muhimdir. Pedagoglar va ota-onalar bolalarning jismoniy, psixologik, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga e'tibor berishlari zarur. Bu esa ularning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash va ijtimoiy moslashuvini yaxshilashga yordam beradi. Shunday qilib, boshlang'ich ta'lim davrida to'g'ri yondashuv bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyatlari uchun mustahkam poydevor yaratadi.

Yuqorida aytilganlardan kelib chiqib, boshlang'ich sinf davri oxiriga kelib o'quvchilarning psixologik jarayonlari yangi, yanada yuqori darajada shakllanadi: murakkab va bilvosita xotira shakllari rivojlanishi, abstrakt, so'z-mantiqiy tafakkurga o'tish sharoitlari yaratilishi, shuningdek, harakat va intellektual jarayonlarni ixtiyoriy boshqarish darajasi yetarli darajada rivojlangan bo'lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bahronova K.Ya. Social'no-psihologicheskie osobennosti povedencheskih rasstrojstv u mladshego shkol'nogo vozrasta. «Vestnik integrativnoj psixologii» – g. Yaroslavl', 2019.– № 19.– S. 93–96.
2. Бахронова, К. Я. (2024). Роль родительского стиля воспитания в развитии эмоционального интеллекта у детей. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(6), 79-84.
3. Асмолов А.Г. Психология личности. – М: изд-во МГУ, 1990г.
4. Божович Л.И. Личность и её формирование в детском возрасте. – М.: Просвещение, 1988г.

Axmedova Shaxzoda Axtamovna,

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY IDENTIKLIK SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tahlili yoritib berilgan. Shuningdek, bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining o'ziga xos jabhalari tahliliy yondashuvlar asosida ta'kidlab o'tilgan. Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishida shaxsning ijtimoiy-psixologik indikatorlarini rivojlantiruvchi asosiy jihatlarga ham e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: kasb, bo'lajak pedagog, kasbiy identiklik, ijtimoiy-psixologik omil, psixologik xususiyat.

Аннотация: В статье дается анализ социально-психологических факторов, влияющих на формирование профессиональной идентичности будущих педагогов. Также на основе аналитических подходов выделены специфические аспекты формирования профессиональной идентичности будущих педагогов. Также уделено внимание основным аспектам, развивающим социально-психологические показатели личности при формировании профессиональной идентичности будущих педагогов.

Ключевые слова: профессия, будущий учитель, профессиональное самосознание, социально-психологический фактор, психологическая характеристика.

Annotation: This article provides an analysis of socio-psychological factors influencing the formation of professional identity in future educators. Also, specific aspects of the formation of professional identity in future educators are highlighted based on analytical approaches. Attention is also paid to the main aspects that develop the socio-psychological indicators of the individual in the formation of professional identity in future educators.

Key words: profession, future educator, professional identity, socio-psychological factor, psychological characteristic.

Kirish. Kasbiy identifikatsiyaning umumiy identifikatsiyalar tuzilishida tutgan o'rni hali to'liq yoritib berilmagan, lekin fenomen va ijtimoiy identifikatsiya tuzilishi hamda uning alohida turlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanganligi kasbiy identifikatsiyani ijtimoiy "Men" tuzilishidagi muhim elementlardan biri sifatida o'rganish imkonini beradi. Ijtimoiy identifikatsiya hayotdagi o'zaro hamkorliklar, ijtimoiy taqqoslashlar va sub'ekt ijtimoiy qurilishining tayanch tizimi sifatida namoyon bo'luvchi faol ijtimoiy ta'limni yo'lga qo'yish natijasida bunyod bo'luvchi dinamik jarayon sifatida yuzaga keladi. Biz ijtimoiy identifikatsiya yagona kognitiv, motivatsion va qadriyatlar tizimini o'z ichiga qamrab olishini kuzatishimiz mumkin.

Bu yondashuvga muvofiq kasbiy identifikatsiya faoliyat va u bilan bog'liq bo'lgan o'zaro hamkorlikning individual emotsional bilimlar bilan boyitilishi, faoliyatga yo'nalganlik ta'siri ostida yuzaga keluvchi shaxsning o'z-o'zini anglashi sifatida ko'rib chiqiladi. Bu bilimlarga muvofiq tarzda individ qadriyatlar tizimini, qolaversa, mehnat jamoasiga xos bo'lgan xulq-atvor shakllarini va mehnat jamoasining status-rolli, axloqiy, motivatsion ta'sirlariga muvofiq maqsadlarni ham o'zlashtiradi. Kasbiy identifikatsiya ijtimoiy identifikatsiya tuzilishining muhim elementlaridan biri bo'lib, shaxsiy va kasbiy taraqqiyot jarayonida shakllanadi va inson hayotining ko'p jihatlariga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Yuqoridagilarni hisobga olib, kasbiy identifikatsiyani o'zida kasblar dunyosiga yo'nalganlik va o'zaro ta'sirni ta'minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning potensialini to'liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlangan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo'nalishini oldindan ko'ra biluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deb hisoblasak bo'ladi. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsiy kasbiga nisbatan sub'ektiv munosabatlar bilan

hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o'zni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. Bu g'oyalar kasbiy identifikatsiya kognitiv-motivatsion va axloqiy komponentlar bilan yaxlitilikni tashkil qilishi ko'rsatib berilgan emperik tadqiqotlarda o'z isbotini topgan.

Identifikatsiyaning kognitiv, motivatsion va axloqiy komponentlarini ajratib ko'rsatar ekanmiz, ular ichida kognitiv komponentlarni tadqiq qilish mushkul ekanini ta'kidlab o'tamiz, chunki, aynan kognitiv komponent identifikatsiya tuzilishining yadrosi hisoblanadi.

Demak, kasbiy identifikatsiya zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan predmeti hisoblanadi. Bu integrativ tushunchada shaxsning kasblar olamiga, mehnat jamoasi va keng ijtimoiy muhitga yo'nalishini ta'minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxs potensialini to'liq namoyon qilish imkonini beruvchi, qolaversa tanlangan kasbning kutilayotgan natijalarini va shaxsiy taraqqiyot imkoniyatlarini oldindan ko'ra biluvchi kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarining o'zaro aloqasi aks etadi. Kasbiy yo'nalganlik va o'z-o'zini anglash kasbiy taraqqiyotning muhim ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi.

Kasbiy identifikatsiyani o'zida kasblar dunyosiga yo'nalganlik va o'zaro ta'sirni ta'minlovchi, kasbiy faoliyatda shaxsning potensialini to'liq amalga oshiruvchi, qolaversa, tanlangan kasbning natijasini hamda taraqqiyot yo'nalishini oldindan ko'ra biluvchi shaxsning kognitiv, motivatsion va axloqiy tavsifnomalarini mujassamlashtirgan integrativ tushuncha deyish mumkin. Muayyan bir axloqiy va motivatsion tizimdagi, qolaversa, shaxsiy kasbga nisbatan subyektiv munosabatlar bilan hamohang tarzda kechuvchi shaxsning mehnat jamoasida tutgan o'zni haqidagi tasavvurlari kasbiy identifikatsiyaning asosini tashkil qiladi. Ushbu konsepsiya psixologiyani markaziy tushunchalaridan biriga aylanadi, chunki u ijtimoiy nazariya va amaliyot muammolari majmuasi bilan bog'liq. Shuni ta'kidlash kerakki, zamonaviy tadqiqotlarda kasbiy o'ziga xoslik shaxsning kasbiy rivojlanishining asosiy mezonini va mehnat subyekti yatakchi xususiyati sifatida ajralib turadi.

1-jadval

Kasbiy identiklikni aniqlash so'rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o'rtacha qiymati	shkalaning standart og'ishi	Shkalaning α -koeffitsienti (Alfa-kronbax bo'yicha) (0,25-1 oralig'ida ishonch darajasi)
Kasbiy faoliyatda mavhumlik	6	0,65	0,36
Moratoriylik	7	0,72	0,40
Kasbiy bosim	5	0,48	0,44
Kasbiy identiklik	9	0,89	0,52
Alpha (α) koeffitsienti			0,38

Yuqorida tanlab olgan metodika bo'yicha sinaluvchilarning natijalari quyidagicha aks etgan. Kasbiy faoliyatda mavhumlik shkalasi bo'yicha Qarshi davlat universiteti talabalarida 6, shkalaning standart og'ishi 0,65ni tashkil etadi. Bu esa standart ko'rsatkich bo'yicha o'rtachani tashkil etadi.

Kasbiy faoliyatga qadam qo'yganda moratoriylik shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich Qarshi davlat universiteti talabalarida 7, shkalaning standart og'ishi 0,72 ni tashkil etadi.

Tadqiqot davomida tekshirilayotgan shaxslarning ba'zi xarakteristik xususiyatlari va individual psixologik fazilatlarini aniqlash mumkin, bu haqda jamoatchilikka ma'lum qilish kerak emas.

Bundan tashqari, kasbiy identiklik natijalari o'z-o'zidan nomzodning kasbiy istiqboliga ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli, kasbiy identiklik mutaxassisi kasbiy yaroqlilikni aniqlash jarayonida olingan ma'lumotlardan faqat rasmiy maqsadlarda foydalanishi, ularning oshkor etilishiga yo'l qo'ymasligi shart.

Kasbiy bosim shkalasi bo'yicha o'rtacha ko'rsatkich Qarshi davlat universiteti talabalarida 5, shkalaning standart og'ishi 0,48 ni tashkil etadi. Salbiy xulosa to'liq kasbiy yaroqsizligi haqidagi "hukm" sifatida, shaxsning umumiy salbiy bahosi sifatida qaralmasligi kerak. Ma'lum bir foiz xatolarga yo'l qo'yib, kasbiy yaroqlilikni baholashning ehtimollik xususiyatini ko'rsatish kerak.

Shunday qilib, kasbiy identiklik o'zining shakllanish va rivojlanish tarixiga ega. Insonlarning identiklik masalalasi uzoq tarixiy davrdan buyon mavjud bo'lishiga qaramay, kasbiy psixologik saralash ilmiy-amaliy yo'nalish sifatida XX asr boshlarida yuzaga kelgan. Uning paydo bo'lishiga jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish orqali turli sohalar mutaxassislarga bo'lgan ehtiyoj sabab bo'lgan.

Oxirgi shkala kasbiy identiklik bo'yicha talabalarning natijalari 9, shkalaning standart og'ishi 0,89 bilan xarakterlangan, mazkur metodika bo'yicha sinaluvchilarning metodikaga bergan mulohazasiga ko'ra, ishonchlik darajasi 0,38 daraja bilan quyi darajada ishonchli ko'rsatkichni taqdim etgan.

2-jadval

Shaxsning ko'p omilli xususiyatlarini o'rganish so'rovnomasi natijalari

Shkalaning tarkibiy elementlari	shkalaning o'rtacha qiymati	shkalaning standart og'ishi	Shkalaning α -koeffitsienti (Alfa-kronbax bo'yicha) (0,25-1 oralig'ida ishonch darajasi)
muloqotga moyillik	5	0,48	0,32
hissiy barqaror	7	0,65	0,48
hukmronlikka intilish	3	0,30	0,22
ijtimoiy yetuklik	6	0,52	0,42
dadillik	8	0,72	0,63
ishonuvchanlik	5	0,47	0,38
o'ziga ishonch	4	0,32	0,26
mustaqillik	4	0,28	0,20
o'zini nazorat qilish	6	0,52	0,40
zo'riqish	7	0,61	0,52
Alpha (α) koeffitsienti			0,44

Bo'lajak pedagoglarda kasbiy identiklik shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarining o'zni bo'yicha o'tkazilgan tadqiqot natijalari ikkinchi so'rovnoma bo'yicha ya'ni ko'p omilli shaxs xususiyatlaridan olingan natijalar universitetda tahsil oluvchi talabalarda birinchi shkala bo'yicha muloqotga moyillik 5, shkalaning standart og'ishi esa 0,48

qiymatdagi darajani ko'rsatgan. Bunday shaxslar muloqotga moyillik sezmaydi va o'z faoliyatida avtoritar uslubida ish tutadi. Bunday shaxslar boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat e'tiborli, qattiq g'azablanish yoki xursand bo'lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmaydilar, xulqini boshqara olish qobiliyatiga ega, rahmdil va samimiy, lekin talabchandır.

Ikkinchi shkala ya'ni hissiy barqaror bo'yicha natijalar 7, shkalaning standart og'ishi 0,65 darajani tashkil qilgan. Kasbiy identiklik mehnat psixologiyasi va tashkiliy psixologiyaning bir tarmog'i sifatida boshqa fanlar bilan ham bog'langan bo'lib, personal bilan ishlash, uni saralash masalalarini samarali amalga oshirishga imkon beradi.

Keyingi shkala hukmronlikka intilish bo'yicha olingan natijalar standart me'yorga ko'ra, 3, shkalaning standart og'ishi esa 0,30 darajani qayd etgan. Bundan tashqari, kasbiy psixologik saralash - juda murakkab tadbirlar jamlanmasi bo'lib, nafaqat ilmiy va tashkiliy-boshqaruv masalalarini, balki ma'naviy-axloqiy va etika muammolari bilan bog'liq masalalarni yechish bilan ham shug'ullanadi.

To'rtinchi shkala ijtimoiy yetuklik bo'yicha talabalarning to'plagan natijalari 6, shkalaning standart og'ishi esa 0,52 ni tashkil qilgan. Shunday ekan, faoliyat davomida diskriminatsiyaga yo'l qo'ymaslik va ma'naviy-axloqiy va etika qoidalariga amal qilish uchun kasbiy psixologik saralash chora-tadbirlarini maxsus tayyorgarlik va ilmiy-amaliy ish tajribasiga ega mutaxassilar amalga oshirishlari kerak.

Keyingi shkala dadillik bo'yicha 8, shkalaning standart og'ishi 0,72 qiymatni tashkil qilganligi va biror-bir noxushlikni ijobiy darajada qabul qilishi bilan belgilanadi.

Navbatdagi shkala ishonuvchanlik 5, shkalaning standart og'ishi 0,47 nisbatlangan. O'ziga ishonch shkalasi bo'yicha talabalarning olgan qiymatlari 4, shkalaning standart og'ishi 0,32 ni tashkil qilganligi va bu o'zgalar bilan shaxslararo munosabatlarni yo'lga qo'yishda tez ranjib qolmasliklaridan dalolat beradi.

Navbatdagi shkala mustaqillik 4, shkalaning standart og'ishi 0,28 bilan nisbatlangan. Keyingi o'zini nazorat qilish shkalasiga ko'ra, o'rtacha qiymatlar 6, shkalaning standart og'ishi 0,52 ni tashkil qilgan. Oxirgi shkala zo'riqish shkalasiga ko'ra, talabalarda 7, shkalaning standart og'ishi 0,61 nisbat bilan birorta ishni noto'g'ri bajargan holda ham aybdorlik hissi juda quyi darajada ekanligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytganda, har qanday kasbiy faoliyat insonga ma'lum talablarni qo'yadi va uning shaxsi va butun hayot tarzida o'ziga xos iz qoldiradi. Bo'lajak pedagoglar kasbiy faoliyat samaradorligini belgilovchi qanday shaxsiy fazilatlariga ega bo'lishi kerakligini aniqlash uchun ushbu faoliyatning o'zini psixologik tahlil qilish, o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash, tuzilishini ochib berish kerak. Kasbiy identiklikning namoyon bo'lishida kasbiy faoliyatning qonuniyatlarini aniqlash nafaqat uni o'rganish, balki uni takomillashtirishga qaratilgan tashkiliy chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Жуковская В.И. Психологические основы выбора профессии.- Минск.: Народная асвета, 1978.-112 с
2. Кондаков И.М. "Индивидуально – психологические особенности подростков в выборе профессии" Москва, 1989. С 36.
3. Завалишина Д.Н. Способы идентификации человека с профессией. //Психология субъекта профессиональной деятельности. М.-Ярославль: ЯрГУ, под. Ред. А.В. Карпова, 2001. С. 104 – 128.
4. Мищенко Т.В. Становление профессиональной идентичности у студентов педагогического вуза: Канд. дис. Ярославль, 2005. С. 57.

Baxronova Shoirra Yadgorovna,
Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi

XOTIN-QIZLARDA BIRLAMCHI KASBIY FAOLIYATNING TANLANISHIGA SABAB BO'LUVCHI MOTIVLAR

Annotatsiya: ushbu maqolada xotin-qizlarda birlamchi kasbiy faoliyatning tanlanishiga sabab bo'luvchi motivlar haqida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek tadbirkorlik faoliyatini tanlagan xotin-qizlarning faoliyatga moslashuvini psixofiziologik jihatdan tibbiy-gigienik tomonlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kasbga moslashuv, ijtimoiy moslashuv, psixofiziologik moslashuv, muloqot, o'zini anglash.

Аннотация: в этой статье представлена информация о мотивах, побуждающих женщин к выбору первичной профессиональной деятельности. Также проанализированы психофизиологически медико-гигиенические аспекты адаптации женщин, выбравших предпринимательскую деятельность, к деятельности.

Ключевые слова: профессиональная адаптация, социальная адаптация, психофизиологическая адаптация, общение, самореализация.

Annotation: this article presents information about the motives that cause the selection of primary professional activities in women. Also analyzed are the psychophysiological medical-hygienic aspects of the adaptation of women to activities who have chosen entrepreneurial activity.

Key words: professional adaptation, social adaptation, psychophysiological adaptation, communication, self-awareness.


Kirish. Xotin-qizlarning birinchi kasbiy faoliyatini tanlash jarayoni, ularning hayotidagi muhim va mas'uliyatli bosqichlardan biridir. Bu jarayon faqatgina kasbiy ko'nikmalarni o'rganish bilan cheklanmaydi, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar bilan ham bog'liqdir. Xotin-qizlarning kasbiy tanloviga ta'sir ko'rsatuvchi motivlar turlicha bo'lib, ular o'zgaruvchan iqtisodiy sharoitlar, oilaviy rollar, shaxsiy qiziqishlar, jamiyatdagi stereotiplar va boshqalar kabi faktorlar bilan bog'liqdir. Shuningdek, ta'lim va kasbiy tayyorgarlik darajasi, oilaviy qo'llab-quvvatlash va jamiyatdagi ijtimoiy-psixologik muhit ham muhim omillar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu maqolada xotin-qizlarning birlamchi kasbiy faoliyatini tanlashdagi motivatsion omillar tahlil qilinadi va ularga ta'sir ko'rsatuvchi asosiy sabablarga e'tibor qaratiladi. Xotin-qizlarning kasbiy faoliyatni tanlash jarayoni faqat individual qaror emas, balki jamiyatda o'rnatilgan qadriyatlar va normativlar bilan ham bog'liqdir. Shuning uchun, kasbiy yo'lni tanlashda ularning ijtimoiy va oilaviy rollari, jamiyatdagi o'rinlarini mustahkamlash istagi ham katta ahamiyat kasb etadi.

Internet ma'lumotlariga ko'ra, Rossiya davlat xizmati akademiyasi (RAGS) tomonidan o'tkazilgan qator tadqiqotlardan ma'lum bo'lishicha, shaxs u yoki bu darajadagi yangi sharoit bilan to'qnash kelar ekan, yangi vaziyatga moslashish va unumli faoliyatni ta'minlash psixologiyaning asosiy vazifalaridan biridir. Yuqoridagi alohida ta'kidlab o'tilganidek, zamonaviy psixologiya fanida bunday jarayon moslashish, deb ataladi hamda bu ibora yangi sharoitga xos bo'lgan shartlarni yangi mehnat egasi (masalan, tadbirkor ayollar) tomonidan o'zlashtirilishini nazarda tutadi.

Bozor munosabatlari sharoitida xotin-qizlarning birlamchi kasbiy mehnat faoliyatiga moslashuvining asosiy jihatlarini ob'ektiv va sub'ektiv omillarga bog'lab o'rganadigan fan – bu «Mehnat sotsiologiyasi va psixologiyasi» fanidir. Mazkur fanda faoliyatga moslashuvning quyidagi ikkita o'zaro bog'liq asosiy jihatlarini farqlanadi (1-rasmga qarang):

- kasbga moslashuv;
- ijtimoiy moslashuv.

1) Kasbga moslashuv. Tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq moslashuvning bunday jihatini xotin-qizlardan bajariladigan ishga qo'yiladigan talablarni o'zlashtirishni taqozo qiladi. Bu xil moslashuvda ob'ektiv va sub'ektiv omillar mavjud bo'lib, kasbiy moslashuvning ob'ektiv omillari sifatida xotin-qizlarning ma'lumoti, malakasi va tajribasini sanab o'tish mumkin. Sub'ektiv omillar qatoriga esa xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyati (kasb)ga bo'lgan munosabati, yangi ish joyidan kutayotgan daromadi va foydasini kiritish mumkin.



1-rasm.

O'zgarishlar jarayonida tadbirkorlik faoliyatini tanlagan xotin-qizlarning faoliyatga moslashuvini psixofiziologik jihatiga tadbirkorlik sub'ektidagi mehnat sharoitining psixofiziologik va tibbiy-gigienik tomonlari kiradi. Moslashuvning ushbu turini ifodalovchi asosiy ko'rsatkich sifatida tadbirkorning toliqish darajasini olish mumkin. Sinaluvchi o'zini holatini, ish sharoiti va bajarayotgan mehnati og'irligini baholashi ushbu moslashuv turining sub'ektiv tomonlaridir.

2) Ijtimoiy moslashuv. N.Korneliusning mulohaza etishicha, ijtimoiy-psixologik moslashuv deganda, xotin-qizlarning mehnat jamoasidagi mavjud munosabat tizimiga moslashishi, jamoaga xos bo'lgan norma va qoidalar hamda unga guruh tomonidan belgilangan rolni va mavqeni qabul qilish jarayoniga aytiladi. Bunday moslashuvning muvaffaqiyatli o'tishi mehnat egasining xarakter xislatlariga, uning muloqotga moyilligiga, hayotiy tajribasi va dunyoqarashining yangi sharoit talablariga mos kelishiga bog'liq. Guruhning ahilligi, uning madaniyat darajasi va asosiysi uning egiluvchanligi bu xildagi moslashuv jarayonining muvaffaqiyatli o'tishi garovidir.

Ijtimoiy-psixologik so'rovnomadagi «Nega siz ayni vaqtda yangi mehnat yoki birlamchi kasbiy faoliyati bilan shug'ullanishni davom ettirayapsiz?» – degan savolga: 57 % respondent o'z javoblarida atrofda qilargalga ishning foyda keltirishi va vatan ravnaqini; 30 % komfort shart-sharoitlarni; 36 %i mutaxassislikni oshirish yoki kasbiy faoliyatni yangilash imkoniyatini; 50 % sinaluvchilar hukumat tomonidan xotin-qizlarga yaratilgan moddiy manfaatdorlikni; 23 %i – mustaqillikka intilish motivi yoki ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyatini; 5 %i – referent guruh tavsiyasini; 42 %i – yaxshi jamoada yoki obro'li tashkilotda ishlash imkoniyati; 11 %i – o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyojini va 5 %i – vaziyat taqozosiga ko'ra majbur ekanliklarini sabab qilib ko'rsatgan holda javob berishgan bo'lsa, yana 3 %i o'z

variantlarini keltirib o'tishgan.(1 -jadvalga qarang).

1-jadval

Xotin-qizlar tomonidan birlamchi kasbiy faoliyatning tanlanilishi va davom ettirilishiga sabab bo'lgan motivlar reytingi (n=100)

№	Motivlar	XK-SSx/q	Tq
		n=50	n=50
1.	Atrofdagilarga ishning foyda keltirishi va vatan ravnaqi	24	33
2.	Xotin-qizlarga yaratilgan komfort sharoitlar	12	18
3.	Mutaxassislikni oshirish yoki kasbiy faoliyatni yangilash imkoniyati	19	17
4.	Moddiy manfaatdorlik	16	34
5.	Mustaqillikka intilish yoki ko'proq o'z vaqtiga ega bo'lish imkoniyati	4	17
6.	Referent guruh tavsiyasiga asosan	3	2
7.	Yaxshi jamoada yoki obro'li tashkilotda ishlash imkoniyati	18	24
8.	Imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish ehtiyoji	3	8
9.	Vaziyat taqozosi	1	4
10	Yana qanday?	2	1

Adabiyotlar tahlilidan ko'rinadiki, faol moslashuvning asosiy mohiyati insonning o'z atrofidagi shart-sharoit, ijtimoiy muhit talablarini qabul qilishi va o'zlashtirishida namoyon bo'ladi. Mazkur ta'rif o'zgaruvchan jamiyat miqyosida tahlil etilganda xotin-qizlarning o'zlari bajarishi lozim bo'lgan faoliyat bilan tanishishi hamda yangi muhit talabiga mos ravishda o'z xulq-atvorlarini o'zgartirib borishini nazarda tutamiz. Tashkilotda xodimlar moslashuvi ishga yangi kelgan yoki o'zgargan mehnat sharoitlariga ko'nikishi lozim bo'lgan mutaxassisa tegishli deb qaraladi.

Xotin-qizlarning yangi mehnat jamoasiga qanchalik tez moslashishi uning samarali mehnat faoliyatini erta boshlab yuborishidagi asosiy omildir. Respublikamizda bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan bozor munosabatlariga o'tish jarayonida iqtisodiyot sub'ektlari yangi mehnat egasining moslashuvi uchun juda qat'iiy shartlar qo'yapti.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикасининг “Ахборот олиш кафолатлари ва эркинлиги тўғрисида”ги қонуни. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси. – 1997 й.

2. Галютдинов Р.Р. Информационная безопасность. Виды угроз и защита информации //Сайт преподавателя экономики. [2014]. URL: <http://galyautdinov.ru/post/informacionnaya-bezopasnost>

3.https://tace.uz/upload/iblock/5fb/Кибербезопасность_Республики_Узбекистан_%20Итоги_2020_года.pdf.

4. <https://uzcert.uz/usefulinfo/prognoz-osnovnykh-riskov-kiberbezopasnosti-na-2021-god/.pdf>. Рекомендации - ГУП "Центр кибербезопасности" (tace.uz)

Ro'zimurodova Muxlisa Farxodovna,
Buxoro innovatsion tibbiyot texnikumi o'qituvchisi

TIBBIYOT YO'NALISHI O'QUVCHILARIDA KASBIY MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING TIBBIY-PSIXOLOGIK OMILLAR

Annotatsiya: Ushbu maqola tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishda tibbiy-psixologik omillarning o'rni va ahamiyatini yoritadi. Mazkur tadqiqotda hissiy barqarorlik, kommunikativ ko'nikmalar, empatiya, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati va stressga chidamlilik kabi omillar tahlil qilingan. Mualliflar kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun psixologik treninglar, amaliy mashg'ulotlar va diagnostik metodikalardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydilar. Shuningdek, maqola kasbiy madaniyatning asosiy tarkibiy qismlarini chuqur o'rganib, ularni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

Kalit so'zlar: kasbiy madaniyat, tibbiy-psixologik omillar, hissiy barqarorlik, kommunikativ ko'nikmalar, empatiya, stressga chidamlilik, tibbiyot o'quvchilari, psixologik treninglar, diagnostik metodikalar, axloqiy qadriyatlar.

Аннотация: Данная статья освещает роль и значение медико-психологических факторов в развитии профессиональной культуры у студентов медицинских специальностей. В исследовании проанализированы такие факторы, как эмоциональная устойчивость, коммуникативные навыки, эмпатия, способность к саморегуляции и стрессоустойчивость. Авторы подчеркивают необходимость применения психологических тренингов, практических занятий и диагностических методик для развития профессиональной культуры. Кроме того, статья углубленно изучает основные компоненты профессиональной культуры и дает рекомендации по их совершенствованию. Результаты исследования способствуют улучшению подготовки профессионально и этически компетентных специалистов в области медицины.

Ключевые слова: профессиональная культура, медико-психологические факторы, эмоциональная устойчивость, коммуникативные навыки, эмпатия, стрессоустойчивость, студенты медицинских специальностей, психологические тренинги, диагностические методики, этические ценности.

Annotation: This article explores the role and importance of medical-psychological factors in developing professional culture among students of medical specialties. The study analyzes factors such as emotional stability, communication skills, empathy, self-regulation, and stress resilience. The authors emphasize the necessity of psychological training, practical sessions, and diagnostic techniques to enhance professional culture. Additionally, the article delves into the main components of professional culture and provides recommendations for their improvement. The findings contribute to the preparation of professionally and ethically competent specialists in the medical field.

Key words: professional culture, medical-psychological factors, emotional stability, communication skills, empathy, stress resilience, medical students, psychological training, diagnostic techniques, ethical values.

Kirish. Zamonaviy jamiyatda tibbiyot sohasi inson salomatligi va turmush sifatini oshirishda muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarini kasbiy madaniyatga ega bo'lishlari va ularni rivojlantirish masalasi dolzarb hisoblanadi. Kasbiy madaniyat nafaqat nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni, balki insonparvarlik, hamdardlik, muloqot madaniyati, va axloqiy qadriyatlarni ham o'z ichiga oladi. Tibbiyot sohasi xodimlari bemorlar bilan ishlashda yuqori darajada kasbiy madaniyatni namoyon eta olsalar, ularning shaxsiy va professional muvaffaqiyati, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimining umumiy samaradorligi ortadi.

Tibbiy-psixologik omillar tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu omillar o'quvchilarning psixologik

tayyorgarligi, hissiy barqarorlik, empatiya, stressga chidamlilik, va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Ayniqsa, tibbiyot sohasida faoliyat yurituvchi mutaxassislar kundalik faoliyatida jiddiy qarorlar qabul qilish, og'ir sharoitlarda ishlash va bemorlarning hissiy holatini to'g'ri baholash qobiliyatlariga ega bo'lishlari zarur.

Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarining kasbiy madaniyatini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, bu borada innovatsion o'quv usullari, psixologik treninglar, va kasbiy malakani oshirish dasturlari muhim rol o'ynaydi. Xususan, Amerika, Yevropa, va Osiyo mamlakatlaridagi tibbiyot muassasalarida psixologik yordam xizmatlari, motivatsion dasturlar va interfaol mashg'ulotlar yordamida o'quvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi.

Shu munosabat bilan ushbu tadqiqot tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tibbiy-psixologik omillarini aniqlash va ular asosida samarali uslubiy yondashuvlarni ishlab chiqishga qaratilgan. Tadqiqot natijalari nafaqat o'quvchilarning shaxsiy va professional o'sishiga, balki tibbiyot sohasida sifatli xizmat ko'rsatishga ham zamin yaratadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati shundaki, unda o'quvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirish uchun tibbiy-psixologik omillarning alohida o'rni tahlil qilinib, sohaning istiqboldagi rivoji uchun aniq tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish masalasi pedagogika, psixologiya va tibbiyot fanlarining kesishmasida keng o'rganilgan. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar ikki asosiy yo'nalishga bo'linadi. Kasbiy madaniyatning nazariy asoslarini ishlab chiqish va amaliy yondashuvlar asosida uni rivojlantirish usullarini ishlab chiqish.

Kasbiy madaniyatni shakllantirish bo'yicha xorijiy olimlarning tadqiqotlari asosida J. Holland, R. Katz, va C. Rogers kabi mutaxassislar tibbiy sohadagi kasbiy axloqiy qadriyatlar, shaxslararo muloqot madaniyati, va empatiyaning muhimligini ta'kidlagan. Ular tibbiyot xodimlari va o'quvchilarining professional muvaffaqiyatini oshirish uchun stressni boshqarish va hissiy intellektni rivojlantirishga qaratilgan treninglarning samaradorligini ko'rsatib o'tganlar.

Rossiya olimlari orasida N.Ye. Shurkova, V.A. Slastenin, va L.V. Bayborodovanning ishlari tibbiyot yo'nalishi talabalari uchun kasbiy madaniyatning o'rni va uning rivojlantiruvchi omillari haqida keng tahliliy yondashuvlarni taqdim etgan. Ular kasbiy madaniyatni shakllantirishda shaxsiy fazilatlar, axloqiy qadriyatlar va kasbiy mas'uliyatni rivojlantirishni asosiy jihatlar sifatida ajratib ko'rsatishgan.

O'zbekistonda ushbu mavzu bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyatga ega. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini modernizatsiya qilishga qaratilgan qarorlari kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda. M. Yo'ldoshev va S. Matmurodovanning ishlarida tibbiyot xodimlarining muloqot madaniyati, kasbiy tayyorgarlik jarayonidagi psixologik omillar va axloqiy qadriyatlar muammosi tahlil qilingan.

Shuningdek, xalqaro tajribaga asoslanib, A. Maslow va E. Fromm kabi psixologlar kasbiy rivojlanishda shaxsiy o'sish va o'zini anglash jarayonlarining ahamiyatini ko'rsatgan. Ularning nazariyalari asosida tibbiyot sohasidagi talabalarni tayyorlashda shaxsiy va kasbiy rivojlanish jarayonlarining integratsiyasi zarurligi asoslangan.

Hozirgi davrda tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishga qaratilgan o'quv dasturlari, amaliy treninglar va psixologik diagnostika vositalarining samaradorligini baholash bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va interfaol o'qitish usullaridan foydalanish masalalari ham zamonaviy muammolar qatorida o'rganilmoqda.

Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi.

Masalan, G. A. Azgarovanning tadqiqotida tibbiyot universiteti talabalari shaxsiy xususiyatlari, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati va kasbiy yo'nalishi o'rganilgan. Natijalar qizlarda yuqori tashvish va stressga nisbatan kamroq qarshilik, o'g'il bolalarda esa ko'proq mustaqillik mavjudligini ko'rsatgan

Shuningdek, M.P.Imomov tomonidan kollej o'quvchilarining kasbiy madaniyatini kompetensiyaviy yondashuv asosida rivojlantirish metodikasi ishlab chiqilgan. Ushbu tadqiqotda kollej o'quvchilarida kasbiy madaniyat shakllanganligi holati va uni rivojlantirishning psixologik-pedagogik omillari aniqlangan

Bundan tashqari, S.S.Narzulloyevaning dissertatsiyasida hamshiralarning kasbiy kompetentligini shakllantirishga xizmat qiluvchi psixologik omillar ishlab chiqilgan va takomillashtirilgan. Ushbu tadqiqotda hamshiralarning kommunikativ bilim va ko'nikmalarini takomillashtirishga qaratilgan treninglar samaradorligi ko'rsatib o'tilgan

Yana bir tadqiqotda tibbiyot oliygohi talabalari o'quv motivlarini rivojlantirishning psixologik modeli joriy etish masalalari ko'rib chiqilgan. Ushbu tadqiqotda talabalarning kasbiy yo'nalganligi va o'quv motivlari o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan

Umuman olganda, tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishning tibbiy-psixologik omillari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ushbu jarayonning murakkab va ko'p qirrali ekanligini ko'rsatadi. Bu borada o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, o'quv motivlari, kommunikativ ko'nikmalari va stressga chidamliligi kabi omillar muhim rol o'ynaydi.

Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirishda tibbiy-psixologik omillar muhim ahamiyatga ega. Kasbiy madaniyat - bu tibbiyot xodimlarining o'z kasbiga bo'lgan munosabati, kasbiy bilim va ko'nikmalari, shuningdek, bemorlar bilan muloqot qilish madaniyatini o'z ichiga oladi.

Tibbiy-psixologik omillar:

1. **Shaxsiy xususiyatlar:** O'quvchilarning shaxsiy fazilatlari, masalan, empatiya, sabr-toqat va mas'uliyat hissi, ularning kasbiy madaniyatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Bu xususiyatlar bemorlar bilan samarali muloqot qilish va ularning ehtiyojlarini tushunishda yordam beradi.

2. **Ijtimoiy-madaniy ta'sirlar:** Oila, do'stlar va jamiyatning qadriyatlari o'quvchilarning kasbga bo'lgan munosabatini shakllantirishda ahamiyatlidir. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va madaniy qadriyatlar kasbiy qiziqishlarni rivojlantirishga yordam beradi.

3. **Ta'lim muhiti:** Ta'lim muassasasidagi muhit, o'qituvchilarning malakasi va o'quv dasturlarining sifati o'quvchilarning kasbiy madaniyatini rivojlantirishga ta'sir qiladi. Sifatli ta'lim va amaliyotlar o'quvchilarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga yordam beradi.

4. **Kasbiy stress:** Tibbiyot sohasida stress omillari yuqori bo'lib, bu o'quvchilarning psixologik holatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Stressni boshqarish bo'yicha treninglar va psixologik qo'llab-quvvatlash kasbiy madaniyatni saqlashda muhimdir.

5. **Motivatsiya va qiziqish:** O'quvchilarning kasbga bo'lgan qiziqishi va ichki motivatsiyasi ularning kasbiy madaniyatini rivojlantirishda asosiy omillardandir. Motivatsiyani oshirish uchun kasbga yo'naltirish dasturlari va amaliy mashg'ulotlar samarali hisoblanadi.

Kasbiy madaniyatni rivojlantirish usullari:

• **Ta'lim dasturlarini takomillashtirish:** O'quv dasturlariga kasbiy etika, muloqot ko'nikmalari va stressni boshqarish bo'yicha mavzularni kiritish o'quvchilarning kasbiy madaniyatini oshirishga yordam beradi.

• **Amaliyot va stajirovkalar:** Amaliy tajriba o'quvchilarga nazariy bilimlarni amalda qo'llash imkonini beradi va kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlaydi.

• **Psixologik qo'llab-quvvatlash:** O'quvchilarga psixologik yordam ko'rsatish, stressni boshqarish va motivatsiyani oshirish bo'yicha treninglar tashkil etish muhimdir.

• **Kasbiy yo'naltirish:** O'quvchilarga kasb tanlashda yordam berish, ularning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash orqali kasbiy madaniyatni rivojlantirish mumkin.

Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish tibbiy-psixologik omillarni hisobga olish orqali amalga oshirilishi mumkin. Bunda quyidagi asosiy omillar ahamiyatga ega:

1. **Shaxsiy xususiyatlar va hissiy barqarorlik:** Tibbiyot yo'nalishi talabalari kasbiy vaziyatlarda hissiy barqarorlikni namoyon eta olishlari, ya'ni murakkab va stressli sharoitlarda o'z holatlarini boshqara olishlari muhim. Bu borada talabalarni stressni boshqarish usullariga o'rgatish, ularga psixologik tayyorgarlik va o'zini o'zi boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

2. **Kompetensiyaviy yondashuv:** Kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun o'quv dasturlarida kommunikativ ko'nikmalar, empatiya, bemorlar bilan muloqot madaniyati, va axloqiy qadriyatlarni shakllantiruvchi treninglarni o'tkazish muhim. Shuningdek, talabalarning kasbiy yo'nalganligini kuchaytirish va ularga samarali muloqot qilish imkonini beradigan interfaol mashg'ulotlar tashkil etilishi lozim.

3. **Pedagogik-psixologik qo'llab-quvvatlash:** O'qituvchi va psixologlarning talabalar bilan individual ishlashi, ular uchun ma'naviy-ruhiy qo'llab-quvvatlash muhitini yaratish orqali kasbiy madaniyatni shakllantirish samaradorligini oshirish mumkin. O'quvchilarga insonparvarlik, hurmat, va etika me'yorlariga amal qilishning muhimligini yetkazish pedagogik jarayonning ajralmas qismi bo'lishi kerak.

4. **Amaliy mashg'ulotlar va klinik stajirovkalar:** Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilari real amaliy sharoitlarda kasbiy fazilatlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'lishlari lozim. Klinik stajirovkalar davomida kasbiy axloqiy me'yorlarga rioya qilish, bemorlarga nisbatan hurmat va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish, kasbiy mahoratni oshirish orqali talabalarda professional madaniyat shakllanadi.

5. **Psixologik diagnostika va rivojlantirish dasturlari:** Talabalarning kasbiy madaniyatini o'lchash va tahlil qilish uchun maxsus diagnostik usullar va metodikalar qo'llanilishi lozim. Bu diagnostika natijalariga asoslanib, psixologik treninglar, maslahatlar va korreksion mashg'ulotlar o'tkazish orqali kasbiy madaniyatni tizimli ravishda rivojlantirish mumkin.

Tibbiy-psixologik omillarni to'g'ri va puxta o'rganib, ulardan samarali foydalanish talabalarning nafaqat bilim va ko'nikmalarini, balki ular qabul qiladigan qarorlar va xatti-harakatlarning kasbiy va axloqiy darajasini ham yuqori bosqichga ko'taradi. Bu esa o'z navbatida kelajakdagi tibbiyot xodimlarining bemorlar bilan ishlashda mas'uliyatli, professional va insonparvar bo'lishlariga zamin yaratadi.

Jadvalda tibbiy-psixologik omillar va ularning kasbiy madaniyatga ta'siri ko'rsatib o'tilgan:

1-jadval

Tibbiy-psixologik omil	Izoh	Kasbiy madaniyatga ta'siri
Hissiy barqarorlik	Stressli vaziyatlarda hissiy holatni boshqara olish qobiliyati.	Hissiy barqaror talabalar bemorlar bilan ishlashda o'z vazifalarini muvaffaqiyatli bajaradi.
Kommunikativ ko'nikmalar	Samarali muloqot olib borish, bemorlar va hamkasblar bilan ochiq va tushunarli muloqot qilish ko'nikmasi.	Kommunikatsiyasi rivojlangan talabalar kasbiy munosabatlarda hamkorlikni ta'minlaydi, ishonch muhitini yaratadi.
Empatiya va bemorlarga nisbatan hurmat	Bemorlarning holatini tushunish va ularga hurmat bilan munosabatda bo'lish qobiliyati.	Empatiya rivojlangan talabalarda kasbiy axloqiy qadriyatlar mustahkamlanadi.
O'zini o'zi boshqarish qobiliyati	Murakkab vaziyatlarda xatti-harakatlarini boshqara olish, hissiyotlarni nazorat qilish va oqilona qaror qabul qilish qobiliyati.	O'zini o'zi boshqarishni biladigan talabalar mas'uliyatli va ishonchli mutaxassis bo'lib shakllanadi.
Stressga chidamlilik	Qiyin sharoitlarda stressni engish, ijobiy motivatsiyani saqlash qobiliyati.	Stressga chidamli talabalar kasbiy faoliyatda barqaror natijalarga erishadi va bemorlarga nisbatan muloyim bo'ladi.

Xulosa. Tibbiyot yo'nalishi o'quvchilarida kasbiy madaniyatni rivojlantirish uchun tibbiy-psixologik omillarni to'g'ri baholash va ulardan samarali foydalanish zarur. Bu omillar orasida hissiy barqarorlik, kommunikativ ko'nikmalar, empatiya, o'zini o'zi boshqarish qobiliyati va stressga chidamlilik muhim o'rin tutadi. Ushbu omillarni rivojlantirish orqali o'quvchilar bemorlar bilan ishlashda yuqori darajada kasbiy mas'uliyatni namoyon etadilar, samarali muloqotni amalga oshiradilar va axloqiy me'yorlarga rioya qiladilar. Shuning uchun, talabalarning shaxsiy xususiyatlari va kasbiy yo'nalganliklarini hisobga olib, maxsus psixologik treninglar, interfaol mashg'ulotlar va diagnostik metodikalardan foydalanish dolzarb hisoblanadi.

Tavsiyalar.

1. Tibbiy-psixologik treninglarni joriy etish: Talabalarga stressni boshqarish, hissiy barqarorlikni mustahkamlash va empatiyani rivojlantirishga qaratilgan amaliy mashg'ulotlar o'tkazish.
2. Kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish: Kommunikativ va axloqiy ko'nikmalarni rivojlantiruvchi, bemorlar bilan muloqot madaniyatini oshiruvchi o'quv dasturlarini qo'llash.
3. Psixologik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish: O'quvchilarga doimiy ravishda psixologik maslahatlar berib borish, ularga kasbiy mas'uliyat va axloqiy qadriyatlar haqida tushunchalarni chuqurlashtirish.
4. Klinik stajirovkalarni boyitish: Talabalarga amaliy mashg'ulotlar davomida real kasbiy vaziyatlarni boshqarish, muloqot qilish va muammolarni hal etish imkoniyatini berish.
5. Psixologik diagnostika va monitoring: O'quvchilar kasbiy madaniyatining rivojlanish darajasini muntazam ravishda baholab borish, olingan natijalar asosida o'quv jarayoniga o'zgartirishlar kiritish.
6. Axloqiy qadriyatlarni targ'ib qilish: Talabalarga insonparvarlik, hurmat va kasbiy axloqiy me'yorlarning muhimligini amaliy misollar orqali yetkazish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Анохин, П.К. Системные механизмы высшей нервной деятельности. – М.: Наука, 1980. – 296 с.
2. Выготский, Л.С. Педагогическая психология. – М.: Педагогика, 1991. – 480 с.
3. Леонтьев, А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. – М.: Политиздат, 1975. – 304
4. Слостёнин, В.А. Педагогика: инновационная деятельность. – М.: Изд-во «Магистр», 1998. – 512 с.
5. Rogers, C.R. Client-Centered Therapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1951. – 560 p.
6. Maslow, A.H. Motivation and Personality. – New York: Harper, 1954. – 411 p.
7. Омонинова, М.П. Социальная психология: учебное пособие. – СПб.: Питер, 2012.
8. Mott, D.S. Interpersonal Skills Training: A Handbook. – New York: Wiley, 1999. – 312
9. Boyko, V.V. Психодиагностика эмоционального стресса. – М.: Флинта, 1996. – 312

*Maxmudova Zulfiya Mexmonovna,
Buxoro davlat universiteti, Psixologiya kafedrası dotsenti, PhD*

QO'RIQLASH XIZMATI XODIMLARI KOMPETENTLIGINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOSLIGI

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'riqlash xizmati xodimlari kasbiy kompetentligi omillarining va rivojlanishini tadqiq etish hamda uning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillarini takomillashtirish haqida fikr yuritilib, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi va kommunikativ kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar, komponentlarini aniqlash mexanizmlari ochib berilgan.

Kalit so'zlar: kompetentlik, xodim ijtimoiy-psixologik kompetentligi, kasbiy kompetentlik, kompetentlik, kasbiy faoliyat

Аннотация: В статье рассматриваются вопросы изучения факторов развития профессиональной компетентности сотрудников органов безопасности и совершенствования их конкретных социально-психологических факторов, а также раскрываются механизмы выявления социально-психологических факторов и компонентов, формирующих социально-психологическую компетентность и коммуникативная компетентность.

Ключевые слова: компетентность, социально-психологическая компетентность работника, профессиональная компетентность, компетентность, профессиональная деятельность

Annotation: This article discusses the study of the factors and development of professional competence of security service employees and the improvement of its specific socio-psychological factors, and reveals the mechanisms for identifying socio-psychological factors and components that develop the social-psychological competence and communicative competence of an employee.

Keywords: competence, social-psychological competence of an employee, professional competence, competence, professional activity

Kirish. Qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy faoliyatiga psixologik tayyorgarlik darajasini takomillashtirish, ularning ijtimoiy-psixologik kompetentligini rivojlantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillar va mexanizmlarini aniqlash, qo'riqlash xizmati xodimlarining kasbiy tayyorgarlik rolini oshirish va ularning faoliyat samaradorligiga ta'siri masalasini aniqlash alohida tadqiqot muammosi sanaladi.

Psixolog qo'riqlash xizmati tizimida xizmat qilayotgan barsha xodimlar va harbiy xizmatchilarni axloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlashning mutlaqo yangi vazifalari, shuningdek, xodimlarning umumiy dunyoqarashi, ma'naviy va intellektual salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanparvarlik, g'urur, iftixor, kasbiga sadoqat va yuqori mas'uliyat hislarini oshirish bilan bohlash vazifalarni belgilab beradi.

Xodimlarni ahloqiy-ruhiy qo'llab-quvvatlash psixodiagnostika, psixoprofilaktika va psixokorreksiya ishlarida amalga oshiriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Kompetentlik va kompetensiya kategoriyalarining tuzilmasini o'rganish jarayonida bir nechta yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Ko'pgina mualliflar faoliyatli yondashuvni istiqbolli deb baholaydilar, shuningdek ular kompetentlikni kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi va shu bilan bir qatorda uning asosi ham, deb hisoblaydilar. Bunday holatda kompetentlik jarayonning aniq doirasida samarali harakatni yuzaga keltirish uchun zarur bo'lgan ichki resurslar tizimi sifatida tushuniladi. Kompetentlik tuzilmasi quyidagi komponentlarga ajratiladi: yo'naltiruvchi va ijrochi, mazmunli (bilim) va jarayonli (ko'nikma), kognitiv va operatsional.

Ijtimoiy-psixologik kompetentlik muammosining umumiy jihatlari G.M.Andreyeva, Ye.A.Abulxanova-Slavskaya, V.P.Bederxanova, A.A.Bodalev, M.Kyarest, V.A.Labunskaya,

A.N.Leontev, A.K.Markova, D.Mayers, Ye.S.Mixaylova, A.V.Petrovskiy, S.L.Rubinshteyn, A.V.Xutorskiy, A.J.Yujaninova kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

A.K.Markova ijtimoiy kompetentlikni mazmun jihatdan tahlil qilib, uning jarayonli va natijali tomonlarini ajratib ko'rsatgan. Muallif kompetentlik tuzilmasini jarayon (pedagogik faoliyat, pedagogik muloqot, o'qituvchi shaxsi) va pedagogik faoliyat natijalari, ya'ni ta'lim oluvchining ta'lim olganlik va tarbiyalanganlik nuqtai nazaridan tizimlashtirilgan.

Chunonchi, mehnat foliyatining barcha jihatlari uchun psixologik modul deb nomlanuvchi kasbiy bilim, ko'nikma va malakalar, kasbiy psixologik xususiyatlar ishtirok etadi. Shuningdek, kompetentlik tuzilmasi faoliyatning ichki vositasi, ya'ni motiv, bilim, ko'nikma va malaka kabi elementlarni qarab chiqish uning jarayonli va natijali ko'rsatkichlarini hisobga olish haqidagi tasavvur paydo bo'ladi.

A.V.Xutorskiyning o'tkazgan ilmiy izlanishlarida, kompetentlik – o'ziga xos individual-psixologik xususiyat sifatida namoyon bo'lishi, kompetensiya esa insonning aniq bir muhitda samarali va sifatli faoliyati uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikka qo'yilgan va oldindan belgilangan ijtimoiy talablardan iboratligini ta'kidlaydi.

Psixologik kompetentlik tuzilmasida J.G.Garanina quyidagi ikkita darajaning mohiyatini bilim, ko'nikma, malaka va fikrlash asosida talqin qiladi:

1) kategoriyalar, hissiy-emotsional obrazlar, ijtimoiy etalonlar, stereotiplar va boshqalar, hamda fikrlash tizimlari (ijtimoiy muammolarni hal etish bo'yicha refleksiv aqliy faoliyat);

2) amaliy, ijrochilik, ya'ni insonlar bilan o'zaro ta'sir o'tkazish malaka va ko'nikmalar tizimi. Yuqoridagi ikkala yo'nalish kompetentlikning refleksiv va progressiv xususiyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Bizning fikrimizcha, agar shu ikki daraja bo'lmaganida edi kompetentlik tushunchasining mohiyati u qadar to'laqonli hisoblanmasdi.

O.A.Bulavenkoning ta'kidlashicha, kompetentlikni kasbiy faoliyatning o'ziga xos chizgisi sifatida emas, balki shaxsning turg'un oshirilgan yoki pasaytirilgan faollikda namoyon bo'luvchi holati sifatida qarash kerakligini taklif etadi. Fikrimizcha, kompetentlik faqat faol kasbiy faoliyatda namoyon bo'ladi, faoliyatda qanaqadir turg'unlik bo'lishi uni muvaffaqiyatga erishishda to'siq bo'lishi mumkin.

I.A.Zimnaya kompetentlikni yo'naltirilganlik, maqsadni qo'ya bilish, xulqning hissiy-irodaviy boshqarilishi, qadriyatli-mazmunli munosabatlarni o'z ichiga olgan shaxs xususiyatlari sifatida qaraydi. Uning fikricha, kompetentlik tuzilishi quyidagi komponentlar tizimidan iborat:

a) shaxsning ichki psixik, tashqi xulqiy harakatida ushbu xususiyatlarni namoyon qilishga tayyorlik;

b) muvaffaqiyatga erishish uchun vazifalarni bajarishning vositasi, metodlari va dasturlarini anglash, ijtimoiy va kasbiy masalalarni yecha olish, tartib-intizom talablari va o'ziga xos bo'lgan me'yorlariga rioya qilish. Bu kompetensiyaning asosiy mazmun-mohiyatini quyidagicha mazmunda ochib beradi;

c) bilimlarni amaliyotda qo'llay olish tajribasi, ya'ni ko'nikma va malaka;

d) hissiy-irodaviy regulatsiya, kompetentlikni namoyon qila olish qobiliyati, uning ijtimoiy va kasbiy o'zaro ta'sir holatlariga bog'liq holda namoyon bo'lishini muvofiqlashtirish sifatida.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki, kompetensiya tarkibida ijtimoiy-psixologik va kasbiy kompetentlikning namoyon bo'lish holatlarida o'zini-o'zi nazorat qilish, shaxsiy va kasbiy imkoniyatini namoyon qilish qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos belgilarni ajratish zarur. Sud psixologik ekspertizasi jarayonida o'z bilim, ko'nikma va malakalarni samarali qo'llash sud psixolog xodimidan o'zini-o'zi idora qilish va o'zini-o'zi boshqarishning psixologik mexanizmlarining shakllanishini talab qiladi.

Pedagog A.A.Dunyushin shaxsning ijtimoiy-psixologik kompetentligi kasbiy faoliyatda insonlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni

amalda qo'llay olish qobiliyati ekanligini ta'kidlaydi. Ko'rinib turibdiki, fikr muallifi quyidagi bir necha mulohazalar orqali aniqlashtirilgan:

- kompetentlik aniq bir faoliyat sub'ekti tavsifi sifatida baholanishi mumkin;
- kompetentlikning mazmuni kasbiy faoliyat maqsadi, tuzilishi va maxsus talablariga bog'liq;
- kompetentlik hissiy-irodaviy sifatlar, shaxsning muloqotmandligi, intellektual salohiyati, shaxsning yo'naltirilganligi kompetentlikka asos bo'lib xizmat qiladi.

Demak, yuqoridagi tahlillarga tayangan holda, sud psixolog xodimlarining kommunikativ kompetentligiga aloqador bo'lgan jihatlarni rivojlantirish dolzarb vazifalardan biri ekanligi, sud psixolog xodimlari kasbiy faoliyatining turli tomonlarini tadqiq etishni hozirgi zamon talabi sifatida tushunish lozim.

A.V.Raysev tomonidan kompetentlik tushunchasining mohiyatida quyidagi bosqichlar keltirilgan: intellektual, amaliy, qadriyatli-mo'ljalli va nutqli. Shundagina mutaxassis kompetentligi har doim faoliyat turiga bog'liq bo'lgan aniq holatda namoyon bo'ladi.

L.G.Semushina asarlarida talqin qilishicha, malaka past, o'rtacha va yuqori darajada bo'lganligi tufayli mutaxassis tomonidan biror bir kasb yoki mutaxassislikning egallaganlik darajasini belgilab beradi, deb ta'kidlaydi. Olim bu yerda malakani kompetentlik tushunchasiga yaqinlashtirishga uringan.

N.S.Aulova olib borilgan nazariy tahlillarga asoslanib shuni aytish mumkinki, mutaxassislarni faoliyatga tayyorlashda ijtimoiy kompetentlikning quyidagi mezonlarini asos qilish kerakligini ko'rsatadi:

- Shaxs refleksiv faolligi darajasi – hamkasblarga munosabat, shaxsiy ahamiyatli kasbiy sifatlarda ifodalangan ideal mutaxassis obrazini tanlash, o'z kasbiga mosligini baholash, refleksiv (o'z tushunchasi va hatti-harakatlarni anglash) harakatlarning shakllanganligi;
- Asosiy texnologik tayyorgarlik sifatida mazmunli-jarayonli, operatsional komponentning shakllanganlik darajasini, kasbiy faoliyatning vositalari, metodlari va yo'llarini egallash;
- Bilish faollik darajasining o'zlashtirilgan kasbiy bilimlar tizimi, kasbiy masalalarni hal etish usullarini qo'llash ko'nikmasi;
- kasbning yuqori ijtimoiy belgilanganligida ishonchning shakllanganligi darajasi;
- samarali kasbiy faoliyat ko'nikmalarini o'zlashtirish zaruriyatining ahamiyatini anglash;
- ularni o'z kasbiy faoliyatida amalga oshirish yo'llarini topishga intilish;
- anglashning faollik darajasi.

Bizningcha, muallifning mazkur ta'rifida o'ziga xos ijtimoiy-psixologik omillar tizimiga alohida e'tibor qaratadi.

Bugungi kunda jahonda ijtimoiy-psixologik kompetentlikning quyidagi asosiy jihatlari alohida ahamiyat beriladi:

❖ ijtimoiy – o'ziga mas'uliyatni his etish, hamkorlikda qarorlar qabul qilish va unda faol ishtirok etish qobiliyati, turli etnik madaniyat va dinlarga tolerantlik, shaxsiy qiziqishning jamiyat talablari bilan mosligi;

❖ kommunikativ – turli tillardagi yozma va og'zaki tarzda muloqot qila olish qobiliyatiga egalik;

❖ ommaviy axborot vositalari orqali tarqatilayotgan ijtimoiy axborotga tanqidiy munosabat;

❖ kognitiv – doimiy ravishda ta'lim olish darajasini oshirishga intilish, o'zining imkoniyatini faollashtirish va amalga oshirishga bo'lgan ehtiyoj, ya'ni bilim va ko'nikmalarni mustaqil egallash, o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyati;

❖ madaniyatlararo kompetensiyalar;

- ❖ mustaqil bilish faoliyati sohasidagi kompetentlik;
- ❖ maxsus – kasbiy amallarni mustaqil bajarishga tayyorgarlik, o'z mehnati natijalarini baholash.

Jumladan, psixologiya fanining fundamental asoslarini ochib bergan olimlardan E.F.Zeer va G.M.Romansevlarning metodologik xizmati shundaki, malaka insonning ijtimoiy va kasbiy qobiliyatlariga qo'yiladigan ijtimoiy va kasbiy malakaviy talablar majmuasi ekanligini isbotlab berishganligidadir.

Shunday qilib, malaka ham kompetentlik kabi asosiy va kasbiy bo'lishi, shu bilan birga, kasbiy malakalarni ko'pincha oddiy malakalar deb nomlash ham mumkin.

✚ shaxsning kasbiy tayyorgarligi darajasidan tashqaridagi uning ekstrofunktsional bilimi, ko'nikmalari, individual xususiyalari;

✚ aniq kasblar guruhlari sohasidagi ishini bajarish uchun zarur bo'ladigan shaxsning umumkasbiy bilimlari, ko'nikmalari va malakalari, shuningdek, qobiliyatlari va sifatleri;

✚ turli jamoalarga moslashish va ularda samarali faoliyat uchun zarur madaniyatlararo va sohalararo bilimlar, ko'nikmalar, malakalar va qobiliyatlar.

Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi bo'yicha olingan ma'lumotlar tahlili (n=102)

1-jadval

Omillar		besh yilgacha ish stajiga ega boʻlgan xodimlar		besh yildan ortiq ish stajiga ega boʻlgan xodimlar		Farq (% hisobida)
		n1-41		n2-61		
		N	%	n	%	
«A» omil	Muloqotchan	16	39,01	40	65,6	±26,5
	Muloqotga kirishishga qiynaladigan	25	60,9	21	34,4	
	Jami	41	100	61	100	
«B» omil	Mantiqiy fikrlaydigan	19	46,3	33	54,1	±7,8
	Zaif fikrlaydigan	22	53,6	28	45,9	
	Jami	41	100	61	100	
«C» omil	Barqaror	13	31,7	43	70,5	±38,8
	Beqaror	28	68,3	18	29,5	
	Jami	41	100	61	100	
«D» omil	Optimizm	16	39,01	34	55,7	±16,6
	Pessimizm	25	60,09	27	44,3	
	Jami	41	100	61	100	
«K» omil	Ijodiy tafakkuri rivojlangan	14	34,1	38	62,3	±28,2
	Realist	27	65,9	23	37,7	
	Jami	41	100	61	100	
«N» omil	Oʻzini nazorat qila oladigan	19	46,3	45	73,8	±27,5
	Nazoratda qiyinchilikka uchraydigan	22	53,7	16	26,2	
	Jami	41	100	61	100	
«M» omil	Oʻziga yoʻnalgan	18	43,9	28	45,9	±2
	Oʻzgalarga yoʻnalgan	23	56,1	33	54,1	
	Jami	41	100	61	100	
	Jami	41	100	61	100	

“Kommunikativ ijtimoiy kompetentlik diagnostikasi” metodikasidan olingan natijalar tahliliga ko'ra “A” omil bo'yicha “muloqotchanlik” besh yilgacha ish stajiga ega bo'lgan xodimlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodimlarda 65,6% (+26,5%) ni, aksincha, muloqotga kirishishga qiynalish 34,4 % (-26,5%) tashkil qildi. Ko'rinib turibdiki, sud psixolog xodimi faoliyati ish staji va tajribasining ortib borishi bilan bog'liq omil hisoblanadi. “B” omil bo'yicha “mantiqiy fikrlash” darajasi besh yil stajiga ega bo'lganlarga nisbatan besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan xodim 54,1% ni (+7,8%), “zaif fikrlash darajasi” esa besh yilgacha mehnat faoliyati davomiyligiga ega bo'lgan sud psixolog xodimlarda 53,6% ni (-7,8%) ko'rsatdi. Lekin bu omil bo'yicha besh yil va besh yildan ko'p ish stajiga ega bo'lgan xodimlar ko'rsatkichlari o'rtasidagi farq oralig'i ($\pm 7,8$) keskin tafovut qilmaganligini ko'rishimiz mumkin. “Mantiqiy fikrlash” qobiliyati sud psixolog xodimi faoliyati uchun muhim jihat hisoblanib, bu qobiliyat yillar mobaynida shakllanishi aniqlandi. Bunda bevosita intellektual rivojlanish jarayonning roli beqiyosdir. “Barqarorlik” va “beqarorlik” omillari bo'yicha ham besh yildan ortiq 70,5%, beqarorlik esa besh yilgacha 68,3% ni ($\pm 38,8$) tashkil etdi. Bundan ma'lum bo'ldiki, barqaror ijtimoiy munosabatlar yillar davomida taraqqiy qiladi. Keyingi mezon, ya'ni, “optimizm” va “pessimizm” omili bo'yicha besh yilgacha optimizm 39,01% ni, “pessimizm” esa besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan sud psixolog xodimlarda 60,09 % ni tashkil etdi. Optimizm, ya'ni yuqori kayfiyatda atrofdagilar bilan munosabatga kirishish 5 dan ortiq ish tajribasiga ega bo'lgan sud psixolog xodimlarda ustun bo'lsa, pessimizm – ya'ni kayfiyatdagi o'zgarishlar, shaxsiy pragmatik kelishmovchiliklar va muloqot jarayonidagi uzilishlar besh yilgacha ish tajribasiga ega bo'lgan psixologlarda yuqori o'rin egallashi aniqlandi ($\pm 16,6\%$).

“K” omili bo'yicha “ijodiy tafakkuri rivojlanganlik darajasi” besh yilgacha 34,1 % ni, realistlar esa 65,9 % ni tashkil qildi. Bundan ko'rinib turibdiki, muloqot qilish davomida besh yilgacha realistik tafakkur besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarda esa voqealarga kreativ yondashish, erkin munosabat bildira olish va tahlil qilish kabi sifatlar rivojlanar ekan.

Keyingi omil bo'yicha “O'zini nazorat qila olish” omili besh yilgacha 19 nafar shaxsda 46,3 % ni, “O'zini nazorat qilishda qiynalish” esa besh yildan ortiq stajilarda 45 respondent ishtirokida 73,8 % da namoyon bo'ldi. So'nggi omil bo'yicha tahlil qilinganda “o'ziga yo'nalganlik” besh yildan ortiq stajiga ega bo'lgan 28 nafar respondent ishtirokida 45,9%ni “o'zgalarga yo'nalganlik” 23 nafar respondent bilan besh yilgacha 56,1%ni tashkil qildi. Unga ko'ra kommunikatsion muomala jarayonida o'ziga bo'lgan munosabatning ustunligi besh yildan ortiq vaqt ichida to'liq shakllanadi, ungacha esa o'zgalarga ya'ni ijtimoiy muhitga e'tibor bevosita ustunlik qiladi. Ushbu tahlillar 1-jadvalda yanada aniqroq o'z aksini topgan.

Demak, o'rganilgan emperik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Xulosa. Demak, o'rganilgan emperik natijalar asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligiga ta'sir etuvchi psixologik omillar (ish tajribasiga qarab) turli ko'rinishda bo'lishi mumkinligi kuzatildi. Ushbu omillarni aniqlash asosida qo'riqlash xizmati xodimlarining ijtimoiy-psixologik kompetentligini oshirishdagi mavjud bo'lgan muammolarni bartaraf etish bo'yicha muayyan darajadagi psixologik tahlillar olib boriladi va shu tahlil natijalari asosida ularga psixologik xizmat ko'rsatishning keyingi vazifalarini aniqlab beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. O'smirlarda ekstremal vaziyatlarda psixologik himoya mexanizmlarini shakllantirish. Monografiya. “Buxoro viloyat bosmaxonasi MChJ” nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 160.

2. Maxmudova Z.M., Olimov L.Ya. Psychodiagnostics. O'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. Toshkent 2014. -B. 298.
3. Olimov L.Ya. Psixodiagnostika va psixometrika asoslari. Darslik. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2021. -B. 747.
4. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. "Durdona" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.
5. Olimov L.Ya., Maxmudova Z.M.. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya. o'quv qo'llanma. "Turon zamin ziyo" nashriyoti. T. 2020. -B. 820.
6. Olimov L.Ya., Nazarov A.M.. Xulqi o'gishgan bolalar psixologiyasi. O'quv qo'llanma. "Tafakkur avlodi" nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 490.
7. Olimov L.Ya., Bahronova M.O'. O'smirlar ma'naviyatini shakllantirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. Science and education. Scientific journal. Volume 3, issue 3. March 2022 407-413 p.

Baratov Xumoyin Sharipovich,
Buxoro psixologiya va xorijiy tillar instituti,
Psixologiya kafedrasida dotsenti

JISMONIY TARBIYA O'QITUVCHILARI FAOLIYATIDA SHAXSLILIK XUSUSIYATLARINING NAMOYON ETILISHI VA RIVOJLANISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sotsial intellekti bilan shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik va ruhiy toliqishlarni oldini olishga ko'maklashishi to'g'risida amaliy va nazariy ma'lumotlar berilgan.

Kalit so'zlar: psixologik kompetentlik, «Men-konsepsiyasi», agressiya, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik.

Аннотация: В данной статье представлена практическая и теоретическая информация о взаимосвязи социального интеллекта и личностных качеств учителей физического воспитания и их вкладе в профилактику психического выгорания.

Ключевые слова: психологическая компетентность, «я-концепция», агрессия, социальная настойчивость, социальная зрелость.

Absract: This article provides practical and theoretical information about the relationship between social intelligence and personal qualities of physical education teachers and their contribution to the prevention of mental burnout.

Key words: psychological competence, "I-Concept", aggression, social persistence, social maturity.

Kirish. Jahonda zamon talablariga mos, kasbiy faoliyat uchun zaruriy sifat va fazilatlarni egallagan, ijtimoiy faol pedagogik kadrlarni tayyorlash va ularning psixologik kompetentligini takomillashtirish usullarini ishlab chiqish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Ayni paytda, jismoniy tarbiya o'qituvchilarini sotsial intellektini rivojlantirishga qaratilgan zamonaviy ta'lim sifatini va vositalarini takomillashtirish, erishilgan innovatsion natijalarni amaliyotga tatbiq etishga bo'lgan zarurat tobora ortib bormoqda.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilari sotsial intellekti bilan shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi munosabatlarni o'rganishni amalga oshirishda R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasiga tayandik. Ma'lumki, R.Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasi shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Ushbu so'rovnoma muallifi G'arbda shaxs psixologiyasiga murojaat qilgan dastlabki psixologlardan biridir. Biz sotsial intellekt shaxs xususiyatlariga uyg'un holda rivojlanadi degan nuqtai nazardan kelib chiqib tibbiyot xodimi shaxslilik xususiyatlarini tadqiq qilishni maqsad qilib oldik. Tadqiqotimizda so'rovnoma tarkibidagi omillarning oltitasi kliniik xarakterga ega ekanligi bois, faqat o'n omilidan foydalanishni lozim topdik. Biz foydalangan omillar esa, aynan shaxsning psixologik xususiyatlarini yoritishga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir. Ushbu o'nta omil ko'rsatkichlarini baholash orqali, jismoniy tarbiya o'qituvchisi shaxsidagi shakllangan sotsial intellekt bilan bog'liq xususiyatlarga baho berish mumkinligi nuqtai nazardan tadqiqot umumiy maqsadiga moslashtirildi. Bizning izlanishimizga qadar olib borilgan tadqiqotlarda ham ushbu metodikadan keng foydalanilgan. Bu esa bizning amaliyot uchun obyektiv ilmiy ma'lumotlar berishga xizmat qiluvchi psixodiagnostik metodika sifatida tatbiq etishimizda qo'l keldi. Metodika oldingi metodikalar singari tadqiqot ob'ektiga tatbiq etildi. So'rovnomaning umumiy va xususiy hollardagi natijalarini quyida batafsil tahlil etib o'tamiz. Sotsial intellekt va shaxslilik xususiyatlari munosabatini o'rganishdan oldin tibbiyot xodimlarining shaxsiga xos umumiy qiymatlar ustida to'xtalib o'tamiz (1.1-jadvalga qarang).

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining R.B. Kettellning «Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasiga tayanib olgan natijalarimizda shaxslilik xususiyatlari quyidagi

psixologik tavsiflarga ega. Deyarli barcha omillar bo'yicha jismoniy tarbiya o'qituvchilarini ko'rsatkichlari o'rtachadan yuqori zonadan o'rin oldi.

Ularning ushbu shaxslilik xususiyatlari ko'rsatkichini omillar bo'yicha xususiy hollarda talqin etiladi:

Muloqotga moyillik (A) shkalasi (5,28). Bu qiymat shu bosqichdagi jismoniy tarbiya o'qituvchilari boshqalar bilan hamkorlik qilishga tayyor, diqqat-e'tiborli, qattiq g'azablanish yoki xursand bo'lish holatlariga (ichki hayajonlanish, ehtiros) tushmasliklari, o'z hulqini boshqara olish qobiliyatiga ega ekanliklari, ayni paytda rahmdil va samimiy, shu bilan birga o'zgacha uslubda talabchanliklarini anglatadi.

Hissiy barqarorlik (S) (5,20±1,76). Bu ko'rsatkichda pedagoglarga xos o'z hislarini va kayfiyatini boshqara oladigan, «Men timsoli» kuchi yuqoriroq ekanligi, «Men» konsepsiyasini ijobiy bo'lishiga intiluvchanligi, kasbiy faoliyatda ma'lum darajada muvaffaqiyat bilan ishlashlari mumkinligini bildiradi. Agarda jismoniy tarbiya o'qituvchilarida hissiy barqarorlik yanada yuqori darajada bo'lsa, maqsadga muvofiq bo'ladi deyish mumkin.

1.1-jadval

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarida shaxslilik xususiyatlari namoyon etilishining umumiy ko'rsatkichlari

«Shaxsni 16 omil yordamida o'rganish» so'rovnomasi (R.B.Kettell)	Omillar	X	U
	Muloqotga moyillik (A)	5,28	1,61
	Hissiy barqarorlik (S)	5,20	1,76
	Hukmronlikka intilish (Ye)	5,34	1,57
	Ijtimoiy yetuklik (Qr)	5,31	1,52
	Ijtimoiy dadillik (N)	5,56	1,61
	Ishonuvchanlik (J)	5,06	1,68
	O'ziga ishonish (Q)	5,11	1,58
	Mustaqillik (Q ₂)	5,66	1,74
	O'zini nazorat qilish (Q ₃)	5,58	1,67
	Xotirjamlik (Q ₄)	5,25	2,01

Hukmronlikka intilish (Ye) (5,34±1,57). Omilning bu darajasi jismoniy tarbiya o'qituvchilarini atrofidagi odamlar ta'siriga beriluvchanligi, atrofdagilar talabini ham hisobga olishi, mustaqilligini belgilovchi huquqingizni himoya qilishda agressiv emasliklari, shu bilan birga ularda rahbariyat bilan erkin munosabatda bo'lishga moyilligidan dalolat beradi.

Ijtimoiy yetuklik (Qr) (5,31±1,52). Mazkur omilning ushbu darajasi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining hayotga va ishga yengil qarashlari, javobgarlikni his qilmasliklari, tejamisizlik kabi hislatlardan to'la ozod emasliklari, biroq bunday holat ularning «Men-konsepsiyasi» ni salbiy ekanligini anglatmaydi, balki o'z hulqini boshqara olish va qa'tiylikni yetarli emasligi oqibati bo'lib hisoblanadi. Ular umuminsoniy qadr-qimmatlarni tan olishga va ahloq qoidalariga rioya qilishga intiluvchi shaxslar sifatida mavqega egadirlar.

Ijtimoiy dadillik (N) (5,56±1,61). Bunday qiymat jismoniy tarbiya o'qituvchilarining yetarli darajada botirliklari, odamlar bilan aloqaga erkin kira olishi, muomaladagi qiyinchiliklarni yenga olishi, kutilmagan holatlarga tushib qolganida o'zini yo'qotmasligidan dalolat bermoqda.

Ishonuvchanlik (J) (5,06±1,68). Ishonuvchanlik omilining ushbu ko'rsatkichi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining kasbiy faoliyat va hayotiy masalalarni hal etishda aqlga asoslanib ishonishlari va shu orqali faoliyatda samaraga erishishla-ri mumkin.

O'ziga ishonish (Q) (5,11±1,58). Omilning ushbu darajasi jismoniy tarbiya o'qituvchilarini o'ziga bo'lgan ishonchi muvaffaqiyatsizliklarini boshqarish imkoniyatini,

bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholash va ularga munosib javobni bera olishini, o'z imkoniyatlariga ishonchni yuzaga keltiradi. Ularda o'zini kamsitishga moyillik bo'lmasada, lekin bir muncha yuqori darajadagi tez xafa bo'lish, ta'sirchanlik bor. Ular o'zilariga bo'lgan ishonchni mustahkamlashga harakat qilishlari, kasbiy sifatlarini takomillashtirishga alohida e'tibor berishlari maqsadga muvofiq.

Mustaqillik (Q2.) (5,66±1,74). Jismoniy tarbiya o'qituvchilari hamma narsani o'zlari bajarishni ma'qul ko'rsalarda, atrofida qilish tavsiyasi va takliflarini ham quloq soladilar. Ular mustaqil bo'lishni ham, atrofida qilishga tayanishni ham, ularni qo'llab-quvvatlashlarini ham xohlaydilar. Ulardagi mustaqillik faoliyatlarini samarali bo'lishini ta'minlaydi.

O'zini nazorat qilish (Q3.) (5,58±1,67). Ko'rsatkich jismoniy tarbiya o'qituvchilarining ijtimoiy va axloq normalarini bajarishda qat'iyatli ekanligi, ko'pchilik holatlarda tartibli va rejali harakat qilishlari. Ammo ular har doim ham qiyinchiliklarni yengib, boshlagan ishni oxirigacha yetkazavermas ekanlar. O'z faoliyatlarini samarali tashkil qila olsalarda, har qalay o'zlarini nazorat qilishga ko'proq e'tibor berganlari ma'qul.

Xotirjamlik (Q4.) (5,25±2,01). Ushbu omil ko'rsatkichlarining namoyon etilishi, jismoniy tarbiya o'qituvchilarida ehtiyojlar miqdorining ko'pligi tufayli ularda bir muncha zo'riqish borligidan va nisbatan ko'proq asabiylikka moyillikdan dalolat beradi.

Murakkab maqsadlardan o'zini olib qochish va zo'riqish, birinchi navbatda, kasbiy faoliyat natijasi bo'lib, bunga o'z navbatida, temperament tiplarining o'ziga xos xususiyatlari ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi.

Yuqoridagi jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxslilik xususiyatlarini umumiy holati sharhida ham ijobiy, ham mo'tadil va ayrim o'rinlarda pedagogik faoliyat uchun teskari xarakterni aks ettiruvchi xususiyatlar mavjudligini ko'rdik

Demak, R.B. Kettel uslubi natijalariga ko'ra barcha jismoniy tarbiya o'qituvchilari sotsial intellekti va shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va aloqadorlikda rivojlanishida muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o'ziga ishonish, o'zini nazorat qilish xususiyatlarining yetakchilik qilishi aniqlandi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sotsial intellekti bilan shaxslilik xususiyatlari o'rtasidagi mutanosiblik ularni shaxslararo munosabatlarda hissiy barqaror bo'lishlarini, hukmronlikka intilmasliklarini va ruhiy toliqish, qo'zg'alish va zo'riqishlarni kamaytirishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman, jismoniy tarbiya o'qituvchilari shaxsiy va kasbiy faoliyati uyg'unligining namoyon etilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi sotsial intellekt ko'rsatkichlariga baho berishda har bir jismoniy tarbiya o'qituvchisi shaxslilik xususiyatlarini chuqur o'rganish, tahlil qilish va tegishli empirik xulosalar chiqarish orqali tibbiyot xodimlari kasbiy faoliyat kompetentligini taminlash mumkinligi yana bir bor o'z tasdig'ini topdi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchilarining shaxslilik xususiyatlari orasidan muqotmandlik, hissiy barqarorlik, ijtimoiy dadillik, ijtimoiy yetuklik, o'ziga ishonish, o'zini nazorat qilish kabi xususiyatlar kasbiy faoliyat jarayonida sotsial intellekt ko'rsatkichlarining barqaror va izchil tarzda rivojlanishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Агавелян О.К. Социально-перцептивные особенности детей с нарушениями развития. – Челябинск: Изд-во Татьяна Лурье, 1999. – 365 с.
2. Абульханова К.А. Социальное мышление личности// Современная психология: состояние и перспективы исследований. Часть 3. – Социальные представления и мышление личности. – М.: Изд-во "Институт психологии РАН", 2002 – С. 88-103.
3. Абульханова-Славская К.А. Развитие личности в процессе жизнедеятельности// Психология формирования и развития личности. – М.: 1981. – С. 19-44.
4. Ананьев Б.Г. Интеллектуальная деятельность и терморегуляция// Возрастная психология взрослых. Материалы конференции. – Ленинград: 1991.– С. 75—84.

5. Аъзамхўжаева Э.А. Муомала маромининг ёш хусусиятлари ва динамикаси: Псих. фан. ном. ... дис. – Т.: ЎзМУ, 2002. – 155 б.

6. Бедерханова В.П. К вопросу о социальной перцепции в связи с использованием ролевых игр в процессе профессиональной педагогической подготовки// Теоретические и прикладные проблемы психологии познания людьми друг друга. – Краснодар: 1975. – С.232-233.

7. Безносков С.П. Профессиональная деформация и воспитание личности// Психологическое обеспечение социального развития человека. – Л.: 1989. – С. 69-74.

*Xatamova Gulbahor Abdumo'min qizi,
Nizomiy nomidagi TDPU mustaqil tadqiqotchisi*

KURSANTLARNING KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Kommunikativ kompetensiya, zamonaviy ta'lim tizimida muhim ko'nikmalardan biri sifatida, shaxsning samarali muloqot qilish, o'z fikrlarini aniq ifoda etish, boshqa shaxslar bilan hamkorlikni tashkil etish va ijtimoiy muhitga moslashuvchanligini ta'minlaydi. Maqolada kommunikativ kompetensiyani shakllantirishda o'quv jarayonining tashkil etilishi, interfaol usullar va zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati yoritiladi.

Maqola pedagoglar, psixologlar va ta'lim sohasidagi mutaxassislar uchun foydali bo'lgan ilmiy-uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: kommunikativ kompetensiya, pedagogik xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, kursantlar, interfaol usullar, muloqot madaniyati, ijtimoiy intellekt, emotsional barqarorlik, ta'lim texnologiyalari, ijtimoiy-psixologik to'siqlar

Аннотация: В данной статье проводится анализ педагогических и психологических особенностей развития коммуникативных компетенций курсантов. Коммуникативная компетенция, как один из важных навыков в современной образовательной системе, обеспечивает эффективное общение, чёткое выражение собственных мыслей, организацию сотрудничества с другими и адаптацию к социальному окружению. В статье освещается значение организации учебного процесса, использования интерактивных методов и современных технологий в формировании коммуникативной компетенции.

Статья включает научно-методические рекомендации, полезные для педагогов, психологов и специалистов в области образования.

Ключевые слова: Коммуникативная компетенция, педагогические особенности, психологические особенности, курсанты, интерактивные методы, культура общения, социальный интеллект, эмоциональная стабильность, образовательные технологии, социально-психологические барьеры.

Annotation: This article analyzes the pedagogical and psychological features of developing communicative competencies among cadets. Communicative competence, as one of the essential skills in the modern education system, ensures effective communication, clear expression of one's ideas, the organization of collaboration with others, and adaptation to the social environment. The article highlights the importance of organizing the learning process, as well as the use of interactive methods and modern technologies in forming communicative competence.

The article includes scientific and methodological recommendations that are beneficial for educators, psychologists, and professionals in the field of education.

Keywords: Communicative competence, pedagogical features, psychological features, cadets, interactive methods, culture of communication, social intelligence, emotional stability, educational technologies, socio-psychological barriers.

Kirish. Bugungi kunda globallashuv va axborot texnologiyalarining tez rivojlanishi ijtimoiy muloqot va hamkorlik madaniyatiga yuqori talablarni qo'yimoqda. Bu jarayonda ta'lim muassasalarining vazifasi nafaqat nazariy bilimlarni berish, balki amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni shakllantirishdan iboratdir. Ayniqsa, kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyat qozonishlari uchun muhim ahamiyatga ega.

Kommunikativ kompetensiya shaxsning o'zaro muloqot qilish qobiliyatini, fikr va g'oyalarni aniq ifoda etish, boshqalarni tinglash va tushunish, shuningdek, jamoaviy muhitda samarali faoliyat yuritish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi. Kursantlar uchun bu ko'nikmalarni rivojlantirish jarayoni murakkab bo'lib, o'quv jarayonining pedagogik hamda psixologik jihatlarini chuqur o'rganishni talab qiladi.

Ushbu maqolada kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari, pedagogik texnologiyalar va psixologik omillari tahlil qilinadi. Shuningdek, mazkur jarayonda uchraydigan qiyinchiliklar va ularni bartaraf etish usullari bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar beriladi.

Jamiyatning har tomonlama rivojlanishi zamonaviy ta'lim tizimida yangi yondashuvlarni joriy etishni talab etmoqda. Xususan, shaxsning kasbiy va shaxsiy rivojlanishida kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetensiya shaxsning muloqot madaniyatini shakllantiruvchi, fikr almashish va hamkorlikda ishlash jarayonida zarur bo'lgan ko'nikmalar yig'indisidir. Bu ko'nikmalar kursantlar uchun professional tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi.

Kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish nafaqat o'quv jarayonining sifatini oshiradi, balki ularni kelajakda mehnat bozorida raqobatbardosh va jamoa muhitiga moslashuvchan mutaxassislar sifatida tayyorlashda ham muhimdir. Bu jarayonda pedagogik texnologiyalarning maqsadga muvofiq qo'llanilishi va kursantlarning psixologik xususiyatlariga mos yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi.

Mazkur maqola kursantlar orasida kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlarini tahlil qilish, zamonaviy ta'lim metodlarining samaradorligini o'rganish hamda bu borada amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni maqsad qilib qo'yadi.

Tadqiqotimiz davomida "Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda "Shaxs yo'nalganligini aniqlash" o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni aniqladik.

1-jadval

"Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda "Shaxs yo'nalganligini aniqlash" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=210)

Omillar	Hissiy boshqaruv	Moslashuvchanlik	Muloqotchanlik
O'ziga yo'nalganlik	0,41*	0,08	0,04
Odamlarga yo'nalganlik	0,09	0,36*	0,15
Faoliyatga yo'nalganlik	0,05	0,07	0,37*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

"Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda "Shaxs yo'nalganligini aniqlash" metodikasi o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «hissiy boshqaruv» omili «o'ziga yo'nalganlik» ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy aloqadorlik aniqlandi. "Hissiy boshqaruv" omilining "o'ziga yo'nalganlik" bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,41$; $p\leq 0,05$) kursantlarning o'z his-tuyg'ularini nazorat qilish qobiliyati ularning o'z shaxsiy ehtiyojlari va maqsadlariga yo'naltirilganligini ko'rsatadi. Bu bog'lanish shuni anglatadiki, o'ziga yo'nalgan kursantlar muloqotda o'z his-tuyg'ularini boshqarishga intilib, o'z maqsadlarini amalga oshirish uchun o'zaro aloqalarni to'g'ri yo'naltiradilar. Ular shaxsiy motivatsiyalarini boshqarib, muloqotda o'zlarini muvaffaqiyatli ifodalashga intiladilar, bu esa ularning individual yutuqlariga erishishda muhim rol o'ynaydi. Bunday kursantlar o'z-o'zini anglash va his-tuyg'ularni boshqarish orqali o'ziga ishonchni oshirishga muvaffaq

bo'ladilar, bu esa ularning muloqotda qat'iyat ko'rsatishlariga yordam beradi. Hissiy boshqaruv, o'ziga yo'nalganlik bilan bog'liq holda, shaxsiy maqsadlarga erishish jarayonida o'z hissiy holatlarini to'g'ri baholash va muloqotda o'z manfaatlarini himoya qilish ko'nikmasini rivojlantiradi. Shuningdek, bunday kursantlar o'z his-tuyg'ularini boshqarib, stressli vaziyatlarda sovuqqonlik bilan harakat qilishga va muloqotni to'g'ri boshqarishga qodir bo'ladilar. Bu xususiyat ularning o'ziga bo'lgan e'tiborini oshiradi va shaxsiy o'sishga yo'naltiradi, bu esa kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Hissiy boshqaruvning o'ziga yo'nalganlik bilan bog'liqligi kursantlarning o'z shaxsiy ehtiyojlarini anglash va o'zini o'zi boshqarish qobiliyatini mustahkamlash uchun pedagogik jarayonlarda e'tibor berish lozimligini ko'rsatadi. O'ziga yo'nalgan kursantlar o'z his-tuyg'ularini boshqarish orqali o'z oldiga qo'yilgan maqsadlariga erishishga muvaffaq bo'ladilar, bu esa ularning muloqot samaradorligini oshiradi. Shu bois, bunday bog'lanish shaxsning individual xususiyatlarini rivojlantirish uchun maxsus treninglar va psixologik qo'llab-quvvatlashni talab qiladi.

“Moslashuvchanlik” omilining “odamlarga yo'nalganlik” bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) esa shuni ko'rsatadiki, kursantlar turli vaziyatlarga tezda moslasha olish qobiliyatiga ega bo'lish orqali boshqalarga yordam berishga va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga intiladilar. Ushbu bog'lanish, ularning muloqotda boshqalarning fikrlarini hurmat qilish va turli ijtimoiy sharoitlarga moslashish ko'nikmasini rivojlantiradi, bu esa jamoada hamkorlikni kuchaytiradi. Odamlarga yo'nalgan kursantlar, o'z vazifalarini bajarish jarayonida boshqalarning ehtiyojlarini inobatga olib, muloqotda muvozanatni saqlashga qodir bo'ladilar. Bunday xususiyat, ularning muloqotda hamdardlik va o'zaro tushunishni kuchaytiradi, bu esa ijtimoiy aloqalarning samaradorligini oshiradi. Moslashuvchanlik va odamlarga yo'nalganlikning bog'liqligi, kursantlarning muloqot jarayonida boshqalarga moslashish va ularning fikrlariga e'tibor berish qobiliyatini oshiradi. Bu ularga turli xil ijtimoiy vaziyatlarda o'zini erkin tutish va muloqotni muvaffaqiyatli davom ettirishga imkon yaratadi. Kursantlarning moslashuvchanligi, ularning jamoada muammolarni hal qilishda boshqa ishtirokchilarning fikr-mulohazalarini hisobga olishiga yordam beradi, bu esa ijtimoiy muhitni yaxshilaydi. Bunday kursantlar muloqotda o'z vazifalarini bajarishda boshqalarning nuqtai nazarini tushunishga va ularning ehtiyojlarini qondirishga harakat qiladilar, bu esa muloqot samaradorligini oshiradi. Natijada, moslashuvchanlikning odamlarga yo'nalganlik bilan bog'liqligi kursantlarning muloqot qobiliyatlarini ijtimoiy jihatdan rivojlantirishga hissa qo'shadi.

“Muloqotchanlik” omilining “faoliyatga yo'nalganlik” bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,37$; $p\leq 0,05$) shuni anglatadiki, kursantlar o'z fikrlarini aniq va samarali ifodalash orqali o'z kasbiy maqsadlariga erishishga intilishadi. Bu bog'lanish kursantlarning faoliyat jarayonida muloqotdan samarali foydalanish va o'z vazifalarini bajarishda konstruktiv muloqot o'rnatish qobiliyatini ko'rsatadi. Ular o'z g'oyalarini erkin ifodalab, o'z faoliyatlarini muvaffaqiyatli boshqarishga harakat qiladilar, bu esa ularning kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlaydi. Faoliyatga yo'nalgan kursantlar muloqotda maqsadga muvofiq bo'lib, o'z harakatlarini oldindan rejalashtirish orqali samaradorlikni oshiradilar, bu esa ularning kasbiy o'sishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Muloqotchanlikning faoliyatga yo'nalganlik bilan bog'liqligi, kursantlarning o'z kasbiy maqsadlariga erishish uchun muloqot vositalaridan faol foydalanishini ta'minlaydi, bu esa ularga jamoaviy ishlarda yetakchilik qilish imkonini beradi. Bunday kursantlar, muloqotda aniqlik va samaradorlikka e'tibor berib, o'z maqsadlarini amalga oshirishda muloqot qobiliyatlaridan unumli foydalanadilar. Shuningdek, ular o'z faoliyatlari davomida jamoani boshqarish va boshqalarni ilhomlantirish uchun muloqotdan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'ladilar, bu esa ularning liderlik qobiliyatlarini rivojlantiradi. Kursantlarning muloqotchanligi, ularning faoliyat jarayonida aniq maqsadlarga erishish uchun o'z imkoniyatlarini maksimal darajada ishga solishga yordam beradi. Bunday bog'lanish,

kursantlarning kasbiy va shaxsiy hayotida muvaffaqiyat qozonish uchun zarur bo'lgan kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Navbatdagi bosqichda "Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda "Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi" o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlarni beramiz.

2-jadval

"Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda «Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahlili (n=210)

Omilar	Hissiy boshqaruv	Moslashuvchanlik	Muloqotchanlik
Yon bosuvchanlik	0,36*	0,14	0,19
Layoqatlilik	0,12	0,33*	0,15
Agressivlik	-0,35*	0,07	-0,33*

Izoh: *-p<0,05, **-p<0,01, ***-p<0,001

"Kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini o'rganish" so'rovnomasi hamda «Mexelsonning kommunikativ kompetentlikni baholash testi» o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishlar tahliliga ko'ra, «hissiy boshqaruv» omili «yon bosuvchanlik» ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) omili bilan ijobiy hamda «agressivlik» ($r=-0,35$; $p\leq 0,05$) omili bilan salbiy aloqadorlikda ekanligi kuzatildi. "Hissiy boshqaruv" omilining "yon bosuvchanlik" bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,36$; $p\leq 0,05$) shuni anglatadiki, kursantlarning o'z his-tuyg'ularini boshqarish qobiliyati ularning mojaroli vaziyatlarda murosaga kelishga moyilligini oshiradi. Bu xususiyat, kursantlarning muloqot jarayonida ziddiyatni kuchaytirish o'rniga murosaga yo'naltirilgan yondashuvni tanlashlarini ta'minlaydi, bu esa jamoaviy aloqalarni yaxshilashga xizmat qiladi. Hissiy boshqaruvning rivojlanganligi, kursantlarga turli vaziyatlarda sovuqqonlik saqlash va boshqalar bilan o'zaro muloqotda muloyim bo'lish imkoniyatini beradi, bu esa mojarolarni tinch yo'l bilan hal qilishga yordam beradi. Shuningdek, bu bog'lanish, kursantlarning nizoli vaziyatlarda o'z his-tuyg'ularini to'g'ri nazorat qilib, keskin reaksiyalar bermasdan murosaga yo'llarini qidirishlariga asos yaratadi. Pedagogik jihatdan, hissiy boshqaruv kursantlarda ijobiy muhitni yaratishga xizmat qilishi mumkin, chunki bu ko'nikma ularga turli nizoli sharoitlarda ham tinchlikni saqlashni o'rgatadi. Shunday qilib, murosaga moyil bo'lish qobiliyati, kursantlarning ijtimoiy o'zaro aloqalarni mustahkamlash va o'zini muloqotda tutishni yaxshilashga yordam beradi.

Boshqa tomondan, "hissiy boshqaruv" omilining "agressivlik" bilan salbiy bog'langanligi ($r=-0,35$; $p\leq 0,05$) shuni ko'rsatadiki, o'z his-tuyg'ularini nazorat qila olmagan kursantlar, mojaroli vaziyatlarda tajovuzkor reaksiyalar berishga moyil bo'lishadi, bu esa jamoaviy munosabatlarni yomonlashtirishi mumkin. Bu salbiy bog'lanish, kursantlarning muloqot jarayonida o'zini to'g'ri tutmaslik va stress holatlarida o'zini agressiv tarzda namoyon qilish ehtimolini oshiradi. Hissiy boshqaruv yetishmaganda, kursantlar ziddiyatni kuchaytirishi va jamoada salbiy muhit yaratishi mumkin, bu esa ularning muloqot samaradorligiga zarar yetkazadi. Bunday holat, ularning o'z his-tuyg'ularini idrok qilish va boshqarish qobiliyatlari rivojlanmaganligini ko'rsatadi, bu esa pedagogik jihatdan ularga maxsus treninglar o'tkazish zaruriyatini bildiradi. Agressiv xatti-harakatlar, o'zini to'g'ri ifodalash o'rniga salbiy reaksiyalarni namoyon qilishga olib keladi, bu esa muloqot jarayonida ziddiyatlarni ko'paytiradi. Shuning uchun, hissiy boshqaruvni rivojlantirish, kursantlarga agressivlikni kamaytirish va muloqotni samarali boshqarish uchun muhim omil hisoblanadi.

"Moslashuvchanlik" omilining "layoqatlilik" bilan ijobiy bog'langanligi ($r=0,33$; $p\leq 0,05$) esa shuni bildiradiki, turli sharoitlarga moslashish qobiliyatiga ega bo'lgan kursantlar o'z vazifalarini bajarishda yuqori mas'uliyat va samaradorlik ko'rsatishga moyil bo'ladilar.

Moslashuvchan kursantlar, kutilmagan vaziyatlarga tezda javob bera olish va faoliyat davomida yuqori darajada layoqat ko'rsatish orqali o'z kasbiy ko'nikmalarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu bog'lanish, ularning muloqot jarayonida turli xil aloqalarni muvaffaqiyatli boshqarishga yordam beradi, bu esa ularni jamoada ishonchli va samarali ishtirokchi qiladi. Shuningdek, moslashuvchanlik ularning muloqotda yangi sharoitlarga o'zlarini moslashtirib, o'z harakatlarini muvofiqlashtiradigan darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Pedagogik yondashuv bu ko'nikmani rivojlantirish kursantlarni kelajakda yanada malakali va faoliyatda yuqori samaradorlik ko'rsatuvchi shaxslarga aylantiradi. Moslashuvchanlik va layoqatlilik o'rtasidagi ijobiy bog'lanish, kursantlarning muloqot qobiliyatlarini mustahkamlash uchun zaruriy sharoitlarni yaratadi.

Shu bilan birga, "muloqotchanlik" omilining "agressivlik" bilan salbiy bog'langanligi ($r=-0,33$; $p\leq 0,05$) shuni ko'rsatadiki, o'z fikrlarini aniq va ravshan ifodalashga qodir bo'lmagan kursantlar, mojaroli vaziyatlarda tajovuzkor xatti-harakatlarga moyil bo'lishadi, bu esa jamoaviy ishlarda aloqalarni buzishi mumkin. Salbiy bog'lanish shuni anglatadiki, muloqot qobiliyatlari yetarlicha rivojlanmagan kursantlar, nizoli vaziyatlarda o'z nuqtai nazarlarini konstruktiv tarzda ifodalash o'rniga tajovuzkorlik ko'rsatish ehtimolini oshiradi. Bunday salbiy aloqadorlik, muloqotchanlik yetishmaganida kursantlarning stress yoki ziddiyatli sharoitlarda konstruktiv yo'ldan chiqib, vaziyatni yomonlashtirishi mumkinligini ko'rsatadi. Agressiv xatti-harakatlar muloqot jarayonida nizolarni kuchaytirib, jamoada salbiy muhit yaratadi, bu esa kursantlarning muloqot samaradorligiga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Buning oldini olish uchun muloqotchanlik ko'nikmalarini rivojlantirish zarur, chunki bu kursantlarga mojaroli vaziyatlarni tinchlik bilan hal qilish va boshqalar bilan ijobiy munosabatlarni saqlash imkoniyatini beradi. Shu ma'noda, muloqotchanlikni rivojlantirish, tajovuzkorlikni kamaytirish va ijtimoiy aloqalarni yaxshilash uchun muhim vosita hisoblanadi.

Xulosa. Bugungi kunda kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu kompetensiyalar shaxsning professional tayyorgarligini oshirish bilan birga, ularning jamoaviy ishga moslashuvchanligi, muammolarni hal qilish qobiliyati va samarali muloqot qilish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Maqolada kursantlarning kommunikativ kompetensiyalarini rivojlantirish jarayonida pedagogik va psixologik yondashuvlarning ahamiyati ko'rsatib berildi. Ta'lim jarayonida interfaol metodlar, innovatsion texnologiyalar, jamoaviy loyihalar va psixologik treninglardan foydalanishning samaradorligi tahlil qilindi. Shu bilan birga, muloqot jarayonida uchraydigan psixologik va ijtimoiy to'siqlarni bartaraf etishning yo'llari ham muhokama qilindi.

Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining yondashuviga, ta'lim muhitining tashkil etilishiga va kursantlarning individual xususiyatlarini hisobga olishga bog'liq. Shu sababli, bu jarayonda maxsus treninglar, motivatsion dasturlar va axborot texnologiyalaridan foydalanishni kengaytirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, kursantlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish ularni kelgusida raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirish uchun mustahkam asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu yo'nalishda ilmiy-uslubiy tadqiqotlar va amaliy tajribalarni kengaytirish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Graham Stanley. Language Learning with Technology (Cambridge Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013. P-275. Aisha Walker. Technology Enhanced Language Learning: Connecting Theory and Practice (Oxford Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013.

3. Aisha Walker. Technology Enhanced Language Learning: Connecting Theory and Practice (Oxford Handbooks for Language Teachers). – Cambridge University Press: 2013. Pérez Tornero, J.M. and Varis, T. (2010). Media Literacy and new Humanism. Moscow: UNESCO Institute for Information Technologies in Education.

Sultanov Alijon Quziyevich,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

UYUSHMAGAN YOSHLARNING IJTIMOIIY INTEGRATSIYASI VA KASB-HUNARGA YO'NALTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada uyushmagan yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish va kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik mexanizmlari o'rganilgan. Yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash, ularni motivatsiya qilish hamda zamonaviy trening dasturlari orqali ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlantirish jarayonlari tahlil qilinadi. Tadqiqotda global va milliy tajribalar, jumladan, Germaniya, Janubiy Koreya va O'zbekistonning ilg'or yondashuvlari muhokama qilinib, samarali usullar taklif etilgan. Ijtimoiy-psixologik yondashuvlar asosida qiziqishlar diagnostikasi, tajribaviy o'rganish, ijodiy va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish bo'yicha kompleks dasturlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: uyushmagan yoshlar, ijtimoiy integratsiya, kasb-hunarga yo'naltirish, psixologik mexanizmlar, motivatsiya, tajribaviy o'rganish, texnika va texnologiyalar, ijodiy rivojlanish, qobiliyat diagnostikasi, innovatsion trening dasturlari.

Аннотация: В данной статье изучены психологические механизмы социальной интеграции и профессиональной ориентации неорганизованной молодежи. Анализируются процессы выявления интересов и способностей молодежи, их мотивации, а также развития социальных и профессиональных качеств посредством современных тренировочных программ. В исследовании обсуждаются передовые подходы Германии, Южной Кореи и Узбекистана, а также предлагаются эффективные методы. На основе социально-психологических подходов разработаны комплексные программы диагностики интересов, опытного обучения, развития творческих и технических навыков.

Ключевые слова: неорганизованная молодежь, социальная интеграция, профессиональная ориентация, психологические механизмы, мотивация, опытное обучение, техника и технологии, творческое развитие, диагностика способностей, инновационные тренировочные программы.

Abstract: This article explores the psychological mechanisms of social integration and career guidance for disengaged youth. The processes of identifying youth's interests and abilities, motivating them, and fostering social and professional development through modern training programs are analyzed. The study discusses advanced approaches from Germany, South Korea, and Uzbekistan, proposing effective methods. Based on socio-psychological approaches, comprehensive programs for interest diagnostics, experiential learning, and the development of creative and technical skills have been developed.

Key words: disengaged youth, social integration, career guidance, psychological mechanisms, motivation, experiential learning, technology and engineering, creative development, ability diagnostics, innovative training programs.

Kirish. Dunyoda uyushmagan yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va kasb-hunarga yo'naltirilishi masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv, texnologik rivojlanish va pandemiya kabi omillar yoshlar hayotida katta o'zgarishlar keltirib chiqarib, ularga ijtimoiy hayotga moslashish va professional faoliyatni muvaffaqiyatli tashkil etish zaruratini yuklamoqda. Bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan qabul qilingan "Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiya" (2019) va YUNESKOning "Yoshlarning ta'lim va kasbiy rivojlanishi strategiyasi" (2020–2030) kabi hujjatlar asosida global siyosat yuritilmoqda. Ushbu qarorlar yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy hayotga faol jalb etishni rag'batlantiruvchi mexanizmlarni yaratishga qaratilgan.

Uyushmagan yoshlar ijtimoiy hayotga kam jalb etilgan va barqaror daromad manbaiga ega bo'lmagan guruhni tashkil etadi. Bu guruh vakillarining kasbiy yo'nalishlari

aniqlanmaganligi, ijtimoiy integratsiya darajasi pastligi ularni global mehnat bozorida raqobatbardosh bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Ushbu masala yuzasidan Jahon Bankining "2023 yilgi Yoshlar Bandlik Dasturi" doirasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, texnologiyalar sohasidagi tezkor o'zgarishlar yoshlar uchun yangi imkoniyatlarni yaratgan holda, ularga zamonaviy kasbiy mahorat talabini ham oshirgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash to'g'risidagi qonun" (2021) hamda "Yoshlar forumi" (2022) doirasida uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishning ijtimoiy va psixologik jihatlarini o'rganish dolzarb vazifalardan biri sifatida belgilandi. Ushbu hujjatlar yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash orqali ularni mehnat bozoriga moslashtirishni ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi.

Bugungi kunda psixologiya sohasi bu borada samarali mexanizmlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda yetakchi rol o'ynamoqda. Xususan, AQShning Milliy Yoshlar Ta'lim Tashkiloti tomonidan qabul qilingan "Ijtimoiy-emotsional rivojlanish dasturi" yoshlar o'rtasida stressni boshqarish, o'zini rivojlantirish va ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Bunday yondashuvlar ijtimoiy psixologiya va pedagogik psixologiya fanlarining yutuqlari asosida amalga oshirilmoqda.

Global tahlillar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning barqarorligini ta'minlashda yoshlarni jamiyatga integratsiya qilish va kasbiy yo'naltirish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Bu jarayon faqat yoshlarni mehnat bozoriga jalb qilish bilan cheklanmay, ularni o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga ko'maklashuvchi muhit yaratishni ham nazarda tutadi. Ayniqsa, xalqaro tashkilotlarning tavsiyalari, jumladan, Xalqaro Mehnat Tashkiloti (XMT) tomonidan ishlab chiqilgan "Yoshlar bandligini ta'minlash bo'yicha global strategiya" (2021) doirasidagi tashabbuslar ushbu muammoning kompleks yechimlarini taklif qilmoqda.

Ushbu izlanishning asosiy maqsadi – uyushmagan yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish va kasbiy yo'naltirishning samarali psixologik mexanizmlarini aniqlash, ushbu jarayonda xalqaro tajribalar va milliy yondashuvlardan foydalangan holda yangi yechimlarni taklif qilishdir. Shu nuqtai nazardan, uyushmagan yoshlar bilan ishlashda innovatsion psixologik usullarni qo'llash nafaqat individual darajada, balki butun jamiyat uchun muhim ijtimoiy ahamiyatga ega.

Ushbu tadqiqot natijalari, shubhasiz, uyushmagan yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va kasbiy rivojlanishining barqaror mexanizmlarini ishlab chiqishga hissa qo'shadi. Shu bilan birga, bu boradagi ilmiy-amaliy yondashuvlar mahalliy va xalqaro darajada ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Eriksonning rivojlanish bosqichlari nazariyasiga ko'ra, o'smirlik va erta yoshlik davri shaxsiy identifikatsiyani shakllantirish uchun muhim hisoblanadi. U ijtimoiy integratsiyani yoshlarning "identifikatsiya yoki rol chalkashligi" bosqichida o'z yo'lini topishiga yordam beruvchi jarayon deb ta'riflaydi. Kasb-hunarga yo'naltirish yoshlarning o'ziga bo'lgan ishonchini shakllantiradi va ijtimoiy adaptatsiyani kuchaytiradi. Bandura nazariyasiga ko'ra, yoshlar atrofidagi ijtimoiy muhit va kuzatish orqali bilim va ko'nikmalarni egallaydi. Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida namuna ko'rsatadigan shaxslar, mentorlar va treninglar orqali ijtimoiy ko'nikmalar shakllanadi. Bu, ayniqsa, uyushmagan yoshlar uchun samarali usul hisoblanadi. Vygotskiyning "yaqin rivojlanish zonasi" tushunchasi ijtimoiy o'rganish va qo'llab-quvvatlashning muhimligini ta'kidlaydi. Yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishda, ular qiziqishlariga mos keluvchi amaliy mashg'ulotlar va mentorlik muhim rol o'ynaydi. Hollandning kasbiy shaxs turlari nazariyasiga ko'ra, insonning kasbiy qiziqishlari va shaxsiy xususiyatlari o'zaro bog'liq. Ushbu nazariya asosida uyushmagan yoshlarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun maxsus diagnostik metodlarni qo'llash tavsiya etiladi. Ryan va Deci nazariyasi motivatsiya va ichki rag'batni rivojlantirishga qaratilgan. Kasb-hunarga yo'naltirishda, yoshlarning qiziqishlariga asoslangan sharoit yaratish, ularning ichki

motivatsiyasini rivojlantiradi va ijtimoiy faollikni oshiradi. Bronfenbrenner nazariyasiga ko'ra, shaxsning rivojlanishi u yashayotgan ijtimoiy tizimlarning ta'siriga bog'liq. Uyushmagan yoshlarning kasb-hunarga yo'naltirilishi ular joylashgan mikro-, mezo- va makro-muhitlarning o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda amalga oshirilishi kerak. Superning nazariyasi shaxsning kasbiy rivojlanishini turli bosqichlarda ko'rib chiqadi. Uyushmagan yoshlar uchun kasbiy yo'naltirish ularning "o'rganish" va "kasbiy yo'nalish tanlash" bosqichida ularga yo'l ko'rsatib, muvaffaqiyatli integratsiyani ta'minlaydi. Gardnerning nazariyasiga ko'ra, har bir inson turli intellektual qobiliyatlarga ega. Uyushmagan yoshlarning kasbiy yo'nalishini aniqlashda ularning intellektual kuchli tomonlarini aniqlash va mos kasblarga yo'naltirish zarur. Ushbu nazariyalar asosida, uyushmagan yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish va kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarini samarali tashkil etish mumkin. Har bir nazariya yoshlarning ehtiyojlari, qiziqishlari va imkoniyatlarini aniqlashda ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi: muammo va zaruriyat

Bugungi kunda uyushmagan yoshlar dunyo aholisining katta qismini tashkil etadi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuvi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Xalqaro mehnat tashkiloti (ILO)ning ma'lumotlariga ko'ra, global yoshlarning 13,6 foizi na ta'lim, na ish bilan band emas. Bu holat nafaqat iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatadi, balki yoshlarning o'zini anglash va rivojlanish imkoniyatlarini cheklaydi. Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi ularning jamiyatga to'liq moslashishini, mehnat bozorida o'z o'rnini topishini va shaxsiy qobiliyatlarini namoyon etishini ta'minlashga qaratilgan kompleks jarayondir.

BMTning "Yoshlar huquqlari bo'yicha xalqaro konventsia" (2019)da yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va bandligini ta'minlash davlat siyosatining asosiy yo'nalishi sifatida belgilangan. Shuningdek, YUNESKOning "Ta'lim va kasb-hunarga yo'naltirish strategiyasi" (2020–2030) yoshlarning ijtimoiy moslashuvini ta'minlash uchun innovatsion yondashuvlarni joriy etishni tavsiya etadi. Ushbu tashabbuslar yoshlar orasida ijtimoiy-iqtisodiy tenglikni kuchaytirishga qaratilgan.

Kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik mexanizmlari

Kasb-hunarga yo'naltirish jarayonida psixologik mexanizmlar muhim o'rin tutadi. Bu mexanizmlar yoshlarning individual xususiyatlarini aniqlash, ularning qiziqishlari va qobiliyatlariga mos yo'nalishlarni taklif etish orqali amalga oshiriladi. Quyidagi asosiy psixologik yondashuvlar bu jarayonning samaradorligini oshirishga xizmat qiladi:

1. Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash. Hollandning kasbiy tanlash nazariyasi asosida yoshlarning individual shaxs turlariga mos kasblarni aniqlash mumkin. Bu jarayonda diagnostik testlar, suhbatlar va kuzatishlar qo'llaniladi. Masalan, texnika va texnologiyaga qiziqadigan yoshlar uchun amaliy mashg'ulotlar tashkil etish ularning ushbu sohada muvaffaqiyatga erishish ehtimolini oshiradi.

2. Motivatsiyani shakllantirish. Ryan va Deci nazariyasiga ko'ra, ichki motivatsiyani rivojlantirish orqali yoshlarni o'z kasbiy yo'nalishini aniqlashga undash mumkin. Buning uchun treninglar, tadbirkorlik kurslari va real loyihalarda ishtirok etish muhim.

3. Tajribaga asoslangan o'rganish. Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasiga binoan, yoshlar amaliy tajribalar orqali yangi ko'nikmalarni egallaydi. Bu jarayonda o'quv-ishlab chiqarish amaliyotlari va mentorlik dasturlarini tashkil qilish muhim.

Uyushmagan yoshlar uchun trening dasturlari

Uyushmagan yoshlarni ijtimoiy va kasbiy jihatdan rivojlantirish uchun zamonaviy trening dasturlari yaratish zarur. Bunda quyidagi yo'nalishlar asosiy ahamiyatga ega:

• **Texnika va texnologiyalar sohasidagi treninglar:** Zamonaviy mehnat bozorida texnik ko'nikmalarga bo'lgan talab yuqori. Masalan, IT kurslari, robototexnika va dasturlash bo'yicha mashg'ulotlar tashkil etish yoshlarni yuqori maoshli ish o'rinlariga yo'naltiradi.

• **Ijodiy va madaniy to'garaklar:** San'at va madaniyat sohalariga qiziqadigan yoshlar uchun musiqa, rasm chizish va dizayn bo'yicha kurslar tashkil etilishi mumkin. Bu yoshlarning ijodiy salohiyatini rivojlantiradi va ularga o'z imkoniyatlarini ko'rsatish imkonini beradi.

• **Tadbirkorlik treninglari:** Yoshlarning biznes boshlash ko'nikmalarini rivojlantirish uchun biznes-reja tuzish, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha treninglar o'tkazilishi zarur.

• **Sport va salomatlik dasturlari:** Sport orqali ijtimoiylashuv jarayonini tezlashtirish va sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish mumkin.

• **Qishloq xo'jaligida innovatsion yondashuvlar:** Qishloq xo'jaligiga qiziqishni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga asoslangan treninglar o'tkazish lozim.

Milliy va xalqaro tajribalar

Dunyoning ko'plab mamlakatlarida uyushmagan yoshlar bilan ishlash bo'yicha muvaffaqiyatli tajribalar mavjud. Misol uchun:

• **Germaniya:** Dual ta'lim tizimi yoshlarning nazariy va amaliy ta'limni birgalikda o'zlashtirishiga imkon beradi.

• **Janubiy Koreya:** "Yoshlar va texnologiyalar markazi" dasturi orqali texnologik treninglar tashkil etilib, uyushmagan yoshlar mehnat bozoriga jalb qilinmoqda.

• **O'zbekiston:** "Yoshlar forumi" doirasida yoshlarni bandlikka yo'naltirish va kasbiy malaka berish bo'yicha maxsus dasturlar amalga oshirilmoqda.

Ijtimoiy-psixologik natijalar

Uyushmagan yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish nafaqat ularning individual rivojlanishiga, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligiga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu jarayon:

- Yoshlarning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligini oshiradi;
- Ijtimoiy moslashuvni kuchaytiradi;
- Yoshlar orasida ijtimoiy mas'uliyatni shakllantiradi.

Uyushmagan yoshlarning ijtimoiy integratsiyasi va kasb-hunarga yo'naltirishning psixologik mexanizmlari

1-jadval

Yo'nalish	Mazmuni	Kutilayotgan Natijalar
Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash	Holland nazariyasi asosida yoshlarning qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash.	Yoshlarning kasbiy qiziqishlari aniqlanadi.
Motivatsiyani shakllantirish	Ryan va Deci nazariyasi bo'yicha ichki motivatsiyani rivojlantirish.	Yoshlar o'z maqsadlarini belgilab, motivatsiya oshadi.
Tajribaga asoslangan o'rganish	Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasiga asoslangan amaliy mashg'ulotlar.	Amaliy tajriba orttirib, kasbiy ko'nikmalar shakllanadi.
Texnika va texnologiyalar bo'yicha treninglar	IT, dasturlash va texnik ko'nikmalarni rivojlantirish uchun treninglar.	Yoshlar mehnat bozorida talab qilinadigan kasbga ega bo'ladi.
Ijodiy va madaniy to'garaklar	Ijodiy salohiyatni rivojlantirish uchun san'at va madaniyat bo'yicha mashg'ulotlar.	Ijodiy salohiyat kuchayib, ijtimoiy moslashuv yaxshilanadi.
Tadbirkorlik treninglari	Biznes-reja tuzish, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha treninglar.	Tadbirkorlik ko'nikmalari shakllanadi va yangi bizneslar paydo bo'ladi.
Sport va salomatlik dasturlari	Sport faoliyati orqali ijtimoiylashuvni oshirish va salomatlikni yaxshilash.	Yoshlarning jismoniy holati yaxshilanadi va ijtimoiy ko'nikmalar rivojlanadi.
Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar	Zamonaviy texnologiyalarni qo'llash orqali qishloq xo'jaligiga qiziqishni oshirish.	Qishloq xo'jaligiga yoshlar jalb qilinadi va innovatsion yondashuvlar ommalashadi.

➤ **Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash**

• Mazmuni: Holland nazariyasi asosida yoshlarning kasbiy qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash uchun maxsus diagnostik metodlardan foydalaniladi. Bu jarayon yoshlarning qaysi yo'nalishlarda muvaffaqiyatli bo'lish ehtimolini belgilashga xizmat qiladi. Suhbatlar, testlar va kuzatishlar orqali har bir yoshning qiziqishlari aniqlanadi.

• Kutilayotgan natija: Ushbu yondashuv yoshlarning kasbiy yo'nalishlarini aniqlashga yordam beradi va ularning o'zlariga bo'lgan ishonchini oshiradi.

➤ **Motivatsiyani shakllantirish**

• Mazmuni: Ryan va Deci tomonidan ishlab chiqilgan o'zini o'zi belgilash nazariyasi asosida yoshlarning ichki motivatsiyasini rivojlantirish. Motivatsiyani kuchaytirish uchun maxsus treninglar va amaliy mashg'ulotlar o'tkaziladi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlar o'z maqsadlarini belgilashda aniqroq yondashuvga ega bo'lishadi, ular kasbiy rivojlanish uchun kuchliroq rag'batga ega bo'ladi.

➤ **Tajribaga asoslangan o'rganish**

• Mazmuni: Kolbning tajribaviy o'rganish nazariyasiga asoslangan holda amaliy mashg'ulotlar tashkil qilinadi. Yoshlar nazariy bilimlarni amalda qo'llash orqali ko'nikmalarni rivojlantiradi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlar amaliy tajriba orttirib, mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishlari uchun zarur ko'nikmalarni egallashadi.

➤ **Texnika va texnologiyalar bo'yicha treninglar**

• Mazmuni: Zamonaviy texnika va texnologiyalarni o'rgatuvchi kurslar, jumladan, IT, dasturlash, robototexnika va boshqa texnik yo'nalishlarda mashg'ulotlar tashkil etiladi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlar zamonaviy mehnat bozorida yuqori talabga ega bo'lgan texnik ko'nikmalarni egallaydi.

➤ **Ijodiy va madaniy to'garaklar**

• Mazmuni: San'at va madaniyat sohasidagi qiziqishlarini rivojlantirish uchun musiqa, rasm chizish, dizayn va boshqa ijodiy yo'nalishlardagi mashg'ulotlar tashkil qilinadi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlarning ijodiy salohiyati rivojlanadi, ular o'z qobiliyatlarini jamiyatda namoyon qilish imkoniyatiga ega bo'ladi.

➤ **Tadbirkorlik treninglari**

• Mazmuni: Yoshlarni tadbirkorlikka yo'naltirish uchun biznes-reja tuzish, moliyaviy savodxonlik va marketing bo'yicha treninglar o'tkaziladi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlar biznes ko'nikmalarini egallashadi va yangi tadbirkorlik tashabbuslarini amalga oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

• Sport va salomatlik dasturlari

• Mazmuni: Yoshlarning sog'lom turmush tarzini shakllantirish va ijtimoiylashuv darajasini oshirish uchun sport mashg'ulotlari va sog'lom turmush targ'iboti bo'yicha dasturlar tashkil etiladi.

• Kutilayotgan natija: Yoshlarning jismoniy sog'lomligi yaxshilanadi, ijtimoiylashuv jarayonlari tezlashadi va ular jamoat hayotiga faolroq jalb qilinadi.

• Qishloq xo'jaligida innovatsiyalar

• Mazmuni: Qishloq xo'jaligiga qiziqishni oshirish uchun zamonaviy texnologiyalarni qo'llashga asoslangan treninglar tashkil etiladi. Yoshlar uchun dronlardan foydalanish, gidroponika va aqlli texnologiyalar bilan tanishish imkoniyatlari yaratiladi.

• Kutilayotgan natija: Qishloq xo'jaligi sohasida yoshlar o'z bilim va qobiliyatlarini rivojlantirib, ushbu sohani rivojlantirishga hissa qo'shadi.

Xulosa. Uyushmagan yoshlarni ijtimoiy integratsiya qilish va kasb-hunarga yo'naltirish bugungi zamonaviy jamiyat uchun strategik ahamiyatga ega jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, yoshlarning o'z salohiyatini to'liq namoyish

etishiga ko'maklashish va mehnat bozoridagi raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki:

- Qiziqish va qobiliyatlarni aniqlash uchun psixologik diagnostika metodlari samarali natijalar beradi.
- Ichki motivatsiyani rivojlantirish yoshlarning kasbiy tanlov qilishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.
- Tajribaga asoslangan o'rganish va amaliy mashg'ulotlar yoshlarning ko'nikmalarini mustahkamlaydi.
- Texnika va texnologiyalar, ijodiy sohalar, sport va qishloq xo'jaligiga yo'naltirilgan treninglar yoshlarni turli sohalarida muvaffaqiyatga erishishiga zamin yaratadi.

Global tajriba va milliy dasturlar uyushmagan yoshlarni integratsiya qilishda kompleks yondashuvni qo'llash zarurligini tasdiqlaydi. Xalqaro va mahalliy tashabbuslar asosida innovatsion yondashuvlar samarali natijalarni ta'minlaydi.

Tavsiyalar: Psixologik diagnostika va monitoring tizimini rivojlantirish: Yoshlarning qiziqishlari va qobiliyatlarini aniqlash uchun psixologik diagnostika metodlarini keng qo'llash, shuningdek, individual rivojlanish monitoringini yo'lga qo'yish zarur. Motivatsiyani oshiruvchi dasturlarni joriy etish: Ryan va Deci nazariyasiga asoslangan ichki motivatsiyani rivojlantirishga qaratilgan trening va kurslarni tashkil etish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. (2021). *Yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularning bandligini ta'minlash to'g'risida*. Tashkent.
2. UNESCO (2020). *Education and Skills for the 21st Century: A Global Perspective*. Paris: UNESCO Publishing.
3. Erikson, E. H. (1968). *Identity: Youth and Crisis*. New York: W. W. Norton & Company.
4. Bandura, A. (1977). *Social Learning Theory*. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
5. Vygotsky, L. S. (1978). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
6. Holland, J. L. (1997). *Making Vocational Choices: A Theory of Vocational Personalities and Work Environments*. Odessa, FL: Psychological Assessment Resources.

Maxmudov Siroj Solik o'g'li,

Shaxrisabz davlat pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

O'SMIRLIK DAVRIDA TA'LIMGA NISBATAN EMOTSIONAL MUNOSABATIGA SHAXSNING EMOTSIONAL YO'NALGANLIGINING TA'SIRI

Annotatsiya: Maqolada o'smirlik davrida ta'limga emotsional munosabatiga shaxsning emotsional yo'nalganligining ta'siri muammosiga bag'ishlanadi. Ayniqsa, o'smirlik davrida o'quv faoliyatdagi emotsional holatlarni namoyon bo'lishining xususiyatlari ochib berilgan. Shuning bilan birga ta'limga nisbatan emotsional munosabatiga shaxsning emotsional yo'nalganligiga ta'siri emperik nuqtai nazardan tekshirishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: o'smir shaxs, emotsional holatlar, shaxs yo'nalganligi, emotsional munosabat, bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi, xavotirlanish, g'azab, "Men" obrazi, g'azab, qo'rquv, qayg'u, quvonch.

Аннотация: Статья будет посвящена проблеме влияния эмоциональной направленности личности на эмоциональное отношение к воспитанию в подростковом возрасте. Выявлены особенности проявления эмоциональных состояний в учебной деятельности, особенно в подростковом возрасте. Вместе с тем, влияние эмоциональной ориентации личности на эмоциональное отношение к обучению пытались исследовать с эмпирической точки зрения.

Ключевые слова: подростковая личность, эмоциональные состояния, направленность личности, эмоциональный отклик, познавательная активность, мотивация к успеху, тревога, гнев, образ "Я", гнев, страх, грусть, радость.

Annotation: The article will focus on the problem of the influence of the emotional orientation of the individual on the emotional attitude to education in adolescence. Especially in adolescence, the features of the manifestation of emotional states in educational activities are revealed. At the same time an attempt has been made to verify from an empirical point of view the influence of the individual on the emotional orientation towards education.

Key words: adolescent personality, emotional states, personality orientation, emotional attitude, cognitive activity, success motivation, anxiety, anger, "I" Image, anger, fear, sadness, joy.

Kirish. O'smirlik davrida aqliy faoliyat boshqa davrlarga nisbatan nihoyatda jadal rivojlanishi bilan tavsiflanadi. Bu esa o'smir shaxsida dunyoqarash, individual qadriyatlar tizimi va "Men-konsepsiyani" mazmunini qurishga imkon beradi. Bu vaqtda "Men" ning obrazi beqaror, boshlang'ich maktab yoshiga nisbatan kamroq ijobiy hamda bu o'zgarishlarning cho'qqisi taxminan 12-13 yoshda sodir bo'ladi. Aynan shu davrda "Men" bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni integratsiyalash va tushunish boshlanadi. E.Eriksonning epigenetik konsepsiyasi o'smirlik davrida markaziy o'rinni egallaydi. O'z navbatida o'smir nafaqat hozirgi rolni aniqlash tizimini, balki uning oldingi bosqichlarida to'plangan tajribani o'zlashtiradigan rolni o'ziga xosligini rivojlantirishning asosiy muammosini hal qiladi. Natijada rivojlanish, uni sintez qiladi va kattalar shaxsini yanada kamolga yetish uchun asos bo'ladi.

Inson hayotining o'smirlik davrida, albatta, hissiy soha ham sezilarli o'zgarishlarga uchraydi.

Yoshi bilan bog'liq o'smirlik davrida his-tuyg'ularni yaxshiroq anglay boshlashlari aniqlandi. Natijalarga ko'ra, "emotsional" tushunchalarning chegaralari aniq bo'ladi. Jumladan, yosh bolalar katta yoshdagi bolalarga qaraganda kengroq darajada hissiy hodisalarni anglashga yordam beradi. O'smirlar yoshi ulg'aygan sari his-tuyg'ular lug'atining sezilarli darajada kengayishini va hissiyotlar o'rtasida farq qiladigan parametrlar sonining ko'payishini qayd etdilar.

O'smirlar nafaqat kattalarga, balki bolalarga qaraganda turli xil hayotiy voqealar haqida ko'proq jonli va qizg'in tashvishlanadilar. Bu ijobiy va salbiy his-tuyg'ularga ham tegishli hisoblanadi.

P.Lafrenier tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, o'smirlar o'zlarining otalariga qaraganda olti marta, o'ta baxtsizlikni esa uch barobar ko'proq his qilishgan. Bundan tashqari, o'smirlar, ularning fikrlariga qaraganda kattalarga qaraganda ancha noqulay va tashvishli, shuningdek, zerikish va befarqlikni his qilishgan [2].

Ko'pgina mualliflar o'smirlarning emotsional hayotidagi bunday o'sishni, birinchi navbatda, asabiy jarayonlarning ikkita asosiy turi - qo'zg'alish va tormozlanishning muvozanati bilan bog'lashadi. O'smirlik davrida "o'rta bolalik" (7-11 yosh) va kattalar bilan taqqoslaganda, umumiy hayajon kuchayadi va tormozlanishning barcha turlari zaiflashadi.

Ayni paytda o'smirlarning his-tuyg'u va emotsiyalari ularning ichki hayoti bilan ko'proq bog'liq. Tashqi tomondan, ular bolalarga qaraganda kamroq darajada namoyon bo'ladi. Va hatto eng maxfiy suhbatlarda ham o'smirlar ko'pincha o'zlarining barcha tajribalari haqida gapirmaydilar.

O'smirlarning hissiy sohasining yana bir muhim xususiyati - qarama-qarshi yo'nalishdagi his-tuyg'u va emotsiyalarning birgalikda namoyon bo'lishi bilan belgilanadi. Jumladan, yoshlar bir vaqtning o'zida birovni sevishlari va yomon ko'rishlari mumkin va ikkala tuyg'u ham butunlay samimiy bo'lishi mumkin.

Ye.P. Ilinning fikrlariga ko'ra, o'smirlar g'azab, qo'rquv va qayg'udan ko'ra, quvonchni ifoda etishga ko'proq moyil. G'azabga moyillik qo'rquv va qayg'udan ko'ra, aniqroq ifodalanadi. Quvonch, g'azab va qayg'u 12-13 yoshda eng kuchli tarzda boshdan kechiriladi va bu davrda qo'rquvning og'irligi, aksincha, pasayadi [5].

Ijobiy va salbiy his-tuyg'ular bilan bir qatorda, "emotsional nol" - zerikish holati ham mavjud. Uning xavfi shundaki, o'smirlarda ijobiy his-tuyg'ularga yo'l qo'yish qiyin va salbiy his-tuyg'ularga juda oson. Agar zerikib qolgan o'smir tezda qiziqarli narsani topa olmasa, uning zerikishi g'azab, qahr yoki ohang bilan kuchayadi. Bunday holatda bo'lgan inson "sarguzasht izlashga" borsa, bu yaxshi narsaga olib kelmaydi. Bema'nilik va ma'nosizligi bilan hayratlanarli ko'plab tajovuzkor harakatlar zerikish ta'siri ostida amalga oshiriladi.

Ma'lumotlarga ko'ra (L.A.Regush, A.A.Rean) "qiyin" deb ataladigan disfunktsiyali o'smirlar (intizomni buzish, noqonuniy xatti-harakatlarga moyil) o'zlarining gullab-yashnagan tengdoshlaridan aniq farq qiladi. Shu jumladan ular ko'pincha zerikishni kuchli boshdan kechiradilar. Ya'ni, ular qanday qilib o'z hayotini yorqin, rang-barang va qiziqarli qilishni bilishmaydi [3].

O'smir o'g'il bolalarning hissiy rivojlanishi qizlarnikidan farq qiladi. Qizlar ko'proq his-tuyg'ularga ega va ular turli sabablarga ko'ra, o'g'il bolalarga qaraganda ko'proq tashvishlanadilar hamda ular o'z his-tuyg'ulari haqida gapirishni yaxshi ko'radilar; Shunchaki, bu bizning jamiyatimizda his-tuyg'u va emotsiyalarning namoyon bo'lishi o'g'il bolalarda emas, balki qizlarda yaxshi qabul qilinganligi bilan bog'liq.

Biroq, ular qiyin vaziyatlarda turli xil hissiy reaksiyalarga ega. Qizlar hissiy sohada "buzilishlari" boshdan kechirish ehtimoli ko'proq - ularning kayfiyati keskin o'zgaradi, ko'z yoshlari paydo bo'ladi va hokazo. O'g'il bolalar esa o'zlarining xatti-harakatlarini o'zgartirish orqali ko'proq reaksiyaga kirishadilar. Jumladan, ular qo'zg'alishlari yoki qo'pol bo'lishlari mumkin. Ular ko'pincha his-tuyg'ularni ko'rsatishdan qochishadi. Ammo ular o'zlarini ko'proq shovqinli tutishadi hamda ko'p harakatlari keraksiz harakatlar bilan birga keladi (ular bir joyda o'tira olmaydilar, qo'llarida nimanidir aylantiradilar va hokazo). Bunday zo'ravon reaksiyalar muvaffaqiyatsizliklar uchun javobgarlikni o'zlaridan atrofdagi holatlarga yoki oddiy jarayonga o'tkazishga urinish hisoblanadi. Shuning bilan birga qayta munosabatlarga kirishish qichqiriqlarda va keraksiz harakatlarni ichki kuchlanish bilan sodir bo'ladi.

L.A.Regushning fikrlariga ko'ra, o'g'il bolalarda hissiy beqarorlikning cho'qqisi 11-13 yoshda, qizlarda esa 13-15 yoshda bo'ladi. Ma'lum bo'lishicha, 13 yosh har ikkalasi uchun ham

hissiy beqarorlikning eng yuqori cho'qqisidir. Aynan shu yoshda o'smirlar va kattalar o'rtasidagi munosabatlar eng qiyin davrga to'g'ri keladi. Shunday qilib, o'qituvchilarning ta'kidlashicha, intizom ko'pincha 7-sinf o'quvchilari tomonidan buzilishi kuzatiladi. Shuningdek, ko'pginacha kattalar 13 yoshli o'smirlarda o'ziga xos boshqalarning ustidan kulish holatini kuchayishini ta'kidlashadi. Jumladan, ular boshqa insonlarning muammolarini kulgili deb bilishadi, qariyalar va nogironlarga nisbatan dushmanlik qilishadi va hokazo [2].

V.G.Kazanskayaning fikriga ko'ra, o'smirlar ijobiy va salbiy his-tuyg'ulariga yopishib olishadi. Natijada, o'smirlar, ayniqsa qizlar, ba'zan tom ma'noda "o'z his-tuyg'ularida cho'milishadi" va boshqalarning ularga yordam berishga, ularni biron bir muayyan faoliyatga qiziqitirishga urinishlariga unchalik ishtiyoqsiz munosabatda bo'lishadi [1].

O'smirlar uchun muammoli tajribalarning eng muhim sohalari orasida ota-onalar va tengdoshlar bilan munosabatlar mavjud. Dam olish va maktabdagi hayot sohalari ham garchi kamroq darajada ularni tashvishga solmoqda. Va o'z shaxsi va qarama-qarshi jins bilan bog'liq bo'lgan tajribalar, odatda, yuqorida qayd etilgan hayot sohalaridan pastroqdir. Bundan tashqari, tadqiqotlar ko'rsatganidek [4] (A.I.Podolskiy, O.A.Idobaeva), ko'pchilik o'smirlar uchun birinchi navbatda "kelajak" hayot sohasidan tashvishlanadi. Ularni kelgusida nima kutmoqda, kelajakdagi hayoti qanday bo'ladi, o'z rejalarini amalga oshira oladimi va orzularini ro'yobga chiqara oladimi? Bundan tashqari, ko'proq umumiy tashvishga ega bo'lgan va intellektual rivojlangan o'smirlar orasida kelajak bilan bog'liq ko'proq tajribalar qayd etilgan.

Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, hissiyot va emotsiyalarning kuchayishi bilan bir qatorda, hatto ularga qarama-qarshilikda ham, o'smirlik davrida ularni o'zini o'zi boshqarish qobiliyati rivojlanadi. Shiddatli va xilma-xil his-tuyg'ularga ko'proq qodir bo'lgan o'smir, shuningdek, ixtiyoriy harakatlar orqali ularni tormozlanish qobiliyatiga ega bo'ladi.

O'smirlik hissiyotlarning kuchayishi davri sifatida tavsiflanadi. Bu o'zini yengil qo'zg'aluvchanlik, kayfiyatning o'zgarishi, navbatma-navbat paydo bo'ladigan qutbli sifatning kombinatsiyasi bilan tavsiflanadi. Shuningdek, o'smirlik davridagi hissiy reaksiyalarning ba'zi xususiyatlari gormonal va fiziologik jarayonlar bilan bog'liqligini unutmaslik kerak. Ayniqsa, kamolga yetayotgan inson hayotining ushbu davrida tashvish, tajovuzkorlikning kuchayishi, turli qo'rquv va xavotirlarni osongina paydo bo'lishi mumkinligini taxmin qilish kerak. Shu bois, o'smirlik davrida emotsional holatlarning namoyon bo'lishi ularning o'quv faoliyatiga nisbatan munosabatlariga ta'sirini o'rganish muhim hisoblanadi.

Ma'lumki, ta'limga nisbatan emotsional munosabat va emotsional sohada shaxs yo'nalganligi o'rtasidagi aloqadorlikni tekshirish maqsadida A.D.Andreevaning "O'qishga nisbatan emotsional munosabat va o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish" metodikasi va B.I.Dodonovning "Shaxsning umumiy emotsional yo'nalganligini aniqlash" metodikalari o'tkazildi. Olingan natijalar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinib, jadvalda aks ettirildi.

1-jadval

O'smirlik davrida ta'limga emotsional munosabat va shaxs yo'nalganligi o'rtasidagi bog'liqlik

Emotsional soha yo'nalganligi	Ta'limga emotsional munosabat mezonlari			
	Bilish faolligi	Muvaffaqiyat motivatsiyasi	Xavotirlanish	G'azab
Altruist	0,13*	0,15*	0,09	0,10
Kommunikativ	-0,07	-0,07	-0,14*	-0,15*
Gloris	0,002	-0,04	-0,13*	-0,18*
Amaliy	0,07	0,11	0,05	-0,01
Punik	-0,01	-0,04	-0,07	0,01
Romantik	0,002	0,005	-0,08	-0,12*
Gnostik	0,09	0,05	0,02	0,007

Estetik	0,09	-0,07	-0,12*	- 0,15**
Gedonistik	0,09	-0,07	-0,10	-0,13*
Faollashtirish	0,07	0,09	0,02	-0,04

1-jadval natijalariga ko'ra, altruist bilish faolligi bilan ($r=0,13$; $p\leq 0,05$), muvaffaqiyat motivatsiyasi bilan ($r=0,15$; $p\leq 0,05$) ijobiy ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi kuzatiladi. Natijalariga ko'ra, altruist xavotirlanish, g'azab bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi qayd qilindi. Kommunikativ xavotirlanish bilan ($r=-0,14$; $p\leq 0,05$), g'azab bilan ($r=-0,15$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi aloqadorlikka ega ekanligi kuzatildi. Natijalariga ko'ra, kommunikativ bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi bilan o'zaro bog'liqlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi ma'lum bo'ldi. Gloris xavotirlanish bilan ($r=-0,13$; $p\leq 0,05$), g'azab bilan ($r=-0,18$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli bog'liqlikka ega ekanligi qayd etildi. Natijalardan ko'rinadiki, gloris bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi.

Romantik g'azab bilan ($r=-0,12$; $p\leq 0,05$) ontogenetik munosabatga ega ekanligi aniqlandi. Natijalariga ko'ra, romantik bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi, xavotirlanish bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi. Estetik g'azab bilan ($r=-0,15$; $p\leq 0,01$) yuqori darajada, xavotirlanish bilan ($r=-0,12$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli bog'liqlik mavjudligi aniqlandi. Natijalardan ko'rinadiki, estetik bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi bilan o'zaro aloqadorlikka ega bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd qilindi. Gedonistik g'azab bilan ($r=-0,13$; $p\leq 0,05$) qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi aniqlandi. Natijalariga ko'ra, gedonistik bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi, xavotirlanish bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi kuzatildi. Tajriba natijalariga ko'ra, shaxs emotsional soha yo'nalganligi bilish faolligi, muvaffaqiyat motivatsiyasi, xavotirlanish, g'azab bilan o'zaro bog'liq bo'lmasdan mustaqil hodisa ekanligi aniqlandi.

O'rganilgan nazariy va empirik ma'lumotlar tahliliga asoslanib, quyidagi xulosalarni shakllantirish mumkin:

1) Shaxsda emotsional holatlarini namoyon bo'lishida yoshga bog'liq farqli jihatlar ko'zga tashlanadi;

2) O'smirlik davrida hissiy holatlarni barqarorligi ularning o'quv faoliyatiga ijobiy samarali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

3) O'smirlik davrida emotsional shaxs yo'nalganligi ta'limga emotsional munosabatlaridan bilish va muvaffaqiyat bilan o'zaro aloqador bo'lmasdan mustaqil komponent ekanligi qayd qilindi.

4) O'smirlik davrida emotsional shaxs yo'nalganligi ta'limdan emotsional munosabat mezonlaridan xavotirlanish va g'azab bilan o'zaro qarama-qarshi ahamiyatli aloqadorlikka ega ekanligi ma'lum bo'ldi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Казанская В.Г. «Подросток. Трудности взросления. /2-е издание, дополненное»: Питер; СПб.; 2008

2. Ковалев А.Г. Возрастная психология / А.Г. Ковалева. – М.: Наука, 2000. – 316 с.

3. Крутецкий, В.А. Основы педагогической психологии / В.А. Крутецкий. – М.: Эксмо, 2001. – 270 с.

4. Подольский А.И., Идобаева О.А., Хейманс П. Диагностика подростковой депрессивности: Теория и практика. СПб., 2004

5. Фельдштейн Д.И. Психологические аспекты изучения современного подростка / Д.И. Фельдштейн // Вопросы психологии. 2005. - №1. – С. 34-36.

*Isroilova Saida Erkinovna,
Navoiy davlat universiteti tadqiqotchisi*

OILAVIY ZO'RAVONLIKNING AYOLLARNING PSIXOLOGIK SALOMATLIGIGA TA'SIRI VA REABILITATSIYA DASTURLARINING SAMARADORLIGI

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot oilaviy zo'ravonlikning ayollarning psixologik salomatligiga qanday ta'sir qilishini va reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotda kvantitativ va sifatli metodlarning integratsiyalangan yondoshuvi qo'llanilgan bo'lib, standartlashtirilgan psixologik testlar, so'rovnomalar, yarim strukturalangan intervyular va fokus-guruh muhokamalari asosida ma'lumotlar to'plangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, oilaviy zo'ravonlik jabrlanuvchilarda depressiya, anksiyete, stress va travmatik stress buzilishi holatlari sezilarli darajada yuqori bo'lib, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy sharoit va madaniy omillar ushbu munosabatlarni modulyatsiya qiladi.

Kalit so'zlar: oilaviy zo'ravonlik, psixologik salomatlik, reabilitatsiya dasturlari, travma, depressiya, stress, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, huquqiy yordam.

Аннотация: Данное исследование направлено на изучение влияния домашнего насилия на психологическое здоровье женщин, а также на определение эффективности реабилитационных программ. В исследовании использован интегрированный подход, включающий количественные и качественные методы, с применением стандартизированных психологических тестов, анкет, полуструктурированных интервью и обсуждений в фокус-группах. Результаты показали, что у жертв домашнего насилия значительно повышены уровни депрессии, тревожности, стресса и посттравматического стрессового расстройства (ПТСР). Социальная поддержка, экономические условия и культурные факторы модифицируют данные взаимосвязи.

Ключевые слова: домашнее насилие, психологическое здоровье, реабилитационные программы, травма, депрессия, стресс, социальная поддержка, юридическая помощь.

Annotation: This study aims to explore the impact of domestic violence on women's psychological health and evaluate the effectiveness of rehabilitation programs. The research employed an integrated mixed-method approach, combining quantitative and qualitative methods, using standardized psychological tests, surveys, semi-structured interviews, and focus group discussions. The results revealed that victims of domestic violence exhibited significantly higher levels of depression, anxiety, stress, and post-traumatic stress disorder (PTSD). Social support, economic conditions, and cultural factors were found to moderate these relationships.

Key words: domestic violence, psychological health, rehabilitation programs, trauma, depression, stress, social support, legal assistance.

Kirish. Oilaviy zo'ravonlik va uning oqibatlarini zamonaviy jamiyatning eng muhim ijtimoiy-psixologik muammolaridan biri hisoblanadi. Ushbu hodisa nafaqat ayollarning ruhiy va jismoniy salomatligiga, balki jamiyatning umumiy barqarorligiga ham jiddiy zarar yetkazadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) ma'lumotlariga ko'ra, dunyo bo'ylab har uch ayoldan biri hayot davomida oilaviy zo'ravonlikka duch keladi. Bu esa depressiya, xavotirlik, travmatik stress buzilishi (PTSD) va boshqa ruhiy kasalliklarning keng tarqalganligiga sabab bo'lmoqda. O'z navbatida, zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqish va joriy qilish ushbu muammoning oldini olish va oqibatlarini yengillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaviy zo'ravonlikning ta'sir doirasi keng bo'lib, bu nafaqat ayollarning shaxsiy hayotiga, balki iqtisodiy, ijtimoiy va ma'naviy jihatlariga ham ta'sir qiladi. Ruhiy jarohatlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi va iqtisodiy qaramlik zo'ravonlik qurbonlarining jamiyatga qayta integratsiyalashuvini murakkablashtiradi. Ayollarning zo'ravonlikka duch

kelishi ko'pincha ularning o'z-o'zini anglash darajasini pasaytiradi, ichki motivatsiyani yo'qotishiga va o'z hayotini o'zgartirishga bo'lgan intilishning susayishiga olib keladi.

Zo'ravonlikning ayollarning psixologik salomatligiga ta'siri bo'yicha ilmiy izlanishlar shuni ko'rsatadiki, ularning ruhiy holati va xulq-atvorida bir qator salbiy o'zgarishlar kuzatiladi. Jabrlanuvchilar orasida depressiya va xavotirlik yuqori darajada aniqlanib, bu ularning jismoniy va ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlikning ruhiy va emotsional oqibatlarini nafaqat jabrlanuvchi, balki uning atrofidagi oilaviy muhit, xususan, farzandlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bu esa zo'ravonlikning transgeneratsion tabiatda davom etish ehtimolini oshiradi.

O'zbekiston kontekstida oilaviy zo'ravonlik muammosi tobora dolzarb masalaga aylanmoqda. O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ayollarning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida qator chora-tadbirlar ko'rilgan bo'lsa-da, bu muammoning yechimi uchun faqat huquqiy choralar yetarli emas. Shu sababli, oilaviy zo'ravonlik qurbonlari uchun reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan amaliy yondashuvlarni ishlab chiqish zarur. Bunday dasturlar nafaqat zo'ravonlik oqibatlarini kamaytirishga, balki ayollarning psixologik barqarorligini tiklash va ularni jamiyatga qayta integratsiyalashuvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Reabilitatsiya dasturlarining dolzarbligi ayniqsa global tajribalar bilan uyg'unlashadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) tomonidan ayollarga qarshi zo'ravonlikka qarshi kurashda reabilitatsiya markazlari va psixologik yordam dasturlarining samaradorligi ta'kidlangan. Skandinaviya mamlakatlari va Janubiy Koreya tajribasi, xususan, jabrlanuvchi ayollar uchun iqtisodiy yordam va kasbiy tayyorgarlik dasturlarini joriy qilish orqali ijobiy natijalarga erishgan. Ushbu tajribalar ayollarni zo'ravonlikdan keyingi hayotga tayyorlash, ularda o'ziga bo'lgan ishonchni tiklash va iqtisodiy mustaqillikni ta'minlash imkonini beradi.

Tadqiqotning asosiy maqsadi oilaviy zo'ravonlikning ayollarning psixologik salomatligiga ta'sirini o'rganish va reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdir. Ushbu tadqiqotning ilmiy yangiligi zo'ravonlikning ruhiy, ijtimoiy va iqtisodiy oqibatlarini kompleks tahlil qilishda va milliy sharoitga mos reabilitatsiya dasturlarini ishlab chiqishda ko'rinadi. Mazkur ish nafaqat jabrlanuvchilar uchun samarali yordam ko'rsatishni ta'minlaydi, balki oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va zo'ravonlikning oldini olishda ham muhim o'rin tutadi.

Shunday qilib, oilaviy zo'ravonlik muammosining dolzarbligi va uni hal qilishning samarali usullarini ishlab chiqish nafaqat jabrlanuvchilarning salomatligini tiklashga, balki jamiyatdagi umumiy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi. Bu esa zo'ravonlikka qarshi kurashish borasida huquqiy, psixologik va ijtimoiy mexanizmlarning integratsiyalashuvini talab qiladi.

Mazkur tadqiqot oilaviy zo'ravonlikning oqibatlarini kamaytirish va jabrlanuvchi ayollarni yangi hayotga tayyorlashda ilmiy va amaliy asos sifatida xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Vygotskiy shaxs rivojlanishini ijtimoiy muhit va madaniy o'zaro ta'sir bilan bog'laydi. Oilaviy zo'ravonlik natijasida ayollar ijtimoiy munosabatlardan chetlashadi, bu esa ularning ruhiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Zo'ravonlik sharoitida ayollar uchun ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni tiklashni nazarda tutgan dasturlar Vygotskiyning nazariyasiga mos keladi. Bandura oilaviy zo'ravonlikni shaxsning atrof-muhitdan o'rganilgan xatti-harakatlari sifatida talqin qiladi. Zo'ravonlikka guvoh bo'lgan yoki unga duch kelgan ayollar kelajakda zo'ravonlikni davom ettirish ehtimoliga ega. Reabilitatsiya dasturlarida zo'ravonlikka qarshi yangi, sog'lom xatti-harakatlarni shakllantirish muhimdir.

Giddens zamonaviy oilada zo'ravonlikning paydo bo'lish sabablarini patriarxat tizim va gender tengsizlikda ko'radi. Reabilitatsiya jarayonida ayollarning huquqiy va ijtimoiy bilimlarini oshirish, iqtisodiy mustaqilligini tiklash muhim ahamiyatga ega.

Rogersning fikriga ko'ra, shaxs rivojlanishi uchun empatiya va qo'llab-quvvatlash muhim. Reabilitatsiya dasturlari zo'ravonlikka uchragan ayollar uchun xavfsiz va qo'llab-quvvatlovchi muhit yaratishga qaratilishi kerak. Guruh terapiyalari bu jarayonda samarali bo'lishi mumkin. Franklning fikriga ko'ra, shaxs hayotida ma'noli maqsadlar mavjud bo'lsa, u har qanday qiyinchiliklarni yengib o'tishi mumkin. Zo'ravonlikdan jabrlangan ayollarda ma'noli hayotga intilishni tiklash reabilitatsiya dasturlarining bir qismi bo'lishi kerak. Weiss oilaviy zo'ravonlikning posttravmatik stress buzilishi (PTSD) rivojlanishiga olib kelishini ta'kidlaydi. Reabilitatsiya jarayonida stressni boshqarish va travma terapiyasiga alohida e'tibor berish muhim.

Quyidagi jadval oilaviy zo'ravonlikning ayollarning psixologik salomatligiga ta'siri va reabilitatsiya dasturlarining samaradorligini o'rganishga qaratilgan tadqiqot metodologiyasining asosiy bosqichlari, qo'llaniladigan usullar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatib beradi. Har bir ustun va qatorda nima nazarda tutilganini to'liq izohlaymiz:

Bosqich	Faoliyat	Metod/Asbob	Natija/Chiqarilgan ko'rsatkichlar
1. Tayyorlov bosqichi	Tadqiqot rejasini ishlab chiqish, instrumentlarni tanlash va pilot tadqiqot o'tkazish	Adabiyot tahlili, pilot test	Instrumentlarning ishonchliligi va mosligi aniqlanadi
2. Namuna tanlovi	Ishtirokchilarni tanlash (demografik so'rovnoma orqali)	Tasodifiy/Stratifikatsiyalangan tanlov	Tadqiqot uchun 300 ta ayol ishtirokchi tanlanadi
3. Ma'lumot yig'ish	So'rovnomalar, psixologik testlar, intervyular, fokus-guruh muhokamalari o'tkazish	Standartlashtirilgan testlar, yarim strukturalangan intervyu	Psixologik salomatlik va zo'ravonlik tajribalari to'liq aks ettiriladi
4. Reabilitatsiya dasturi	Dasturdan oldingi (pre-test) va keyingi (post-test) o'lchovlarni amalga oshirish	Reabilitatsiya dasturining o'ziga xos metodlari	Dastur samaradorligi: o'zgarishlar (statistik va sifatli) ko'rsatiladi
5. Tahlil bosqichi	Kvantitativ va sifatli ma'lumotlarni tahlil qilish	Deskriptiv va inferensial statistik tahlil, tematik tahlil	Mustaqil o'zgaruvchilar va psixologik natijalar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanadi
6. Xulosa va tavsiyalar	Tadqiqot natijalarini talqin etish, nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish	Tadqiqot hisobotlarini yozish, vizualizatsiya (diagramma, grafik)	Ishonchli, asosli xulosalar va reabilitatsiya dasturlari bo'yicha tavsiyalar

 **Bosqich:** Ushbu ustunda tadqiqotning umumiy jarayoni yoki bosqichlari ko'rsatilgan. Har bir bosqich tadqiqotning muayyan bir qismini ifodalaydi, masalan – tayyorlov,

ishtirokchilarni tanlash, ma'lumot yig'ish, rehabilitasiya dasturini o'tkazish, tahlil qilish va yakuniy xulosa chiqarish.

✚ **Faoliyat:** Bu ustunda har bir bosqichda bajarilishi lozim bo'lgan asosiy faoliyatlar yoki jarayonlar keltirilgan. Ya'ni, tadqiqotning qaysi jihatlari amalga oshirilishi kerakligi haqida aniq ko'rsatmalar berilgan.

✚ **Metod/Asbob:** Har bir bosqichda foydalaniladigan tadqiqot metodlari va asbob-uskunalar bayon etilgan. Bu yerda aniq qaysi metodlar (masalan, adabiyot tahlili, pilot test, so'rovnomalar, intervyular, statistik tahlil usullari) qo'llanilishi haqida ma'lumot beriladi.

✚ **Natija/Chiqarilgan ko'rsatkichlar:** Jadvalning bu ustuni har bir bosqich yakunida erishilishi kutilayotgan natija yoki chiqish ko'rsatkichlarini ifodalaydi. Masalan, instrumentlarning ishonchligi aniqlanishi, tanlangan qatnashchilar soni, psixologik salomatlik va zo'ravonlik holatlari aks etilishi, dastur samaradorligining aniqlanishi, va nihoyat, asosiy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilishi kabilarni ko'rsatadi.

Xulosa.

1. **Psixologik salomatlikka salbiy ta'sir:** Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, oilaviy zo'ravonlik ayollarning psixologik salomatligiga sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatadi. Stress, depressiya, anksiyete va PTSD kabi psixologik holatlar aniqlanib, zo'ravonlik darajasi oshgan sari bu ko'rsatkichlarda sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan.

2. **Reabilitasiya dasturlarining muhimligi va samaradorligi:** Reabilitasiya dasturlarining samarali amalga oshirilishi ayollar ruhiy holatini tiklashda muhim rol o'ynaydi. Dasturga qatnashgan ayollarda pre-test va post-test o'lchovlarida ijobiy o'zgarishlar, psixologik ko'rsatkichlarning yaxshilanishi kuzatildi. Shu bilan birga, intervensiya jarayonida individual va guruh bo'yicha qo'llanilgan metodlar samaradorligini isbotladi.

3. **Ko'p omilli tahlil natijalari:** Multiregressiya va korrelatsion tahlillar orqali aniqlangan omillar shuni ko'rsatdiki, oilaviy zo'ravonlik darajasi, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, iqtisodiy sharoit va madaniy xususiyatlar ayollarning psixologik holatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar sanaladi. Shu jumladan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash himoya faktoriga aylanishi mumkinligi aniqlangan – ya'ni, kuchli ijtimoiy tarmoq va oilaviy qo'llab-quvvatlash ayollarning ruhiy salomatligini mustahkamlashda muhim omildir.

4. **Sifatli ma'lumotlarning ahamiyati:** Intervyu va fokus-guruh muhokamalari orqali to'plangan sifatli ma'lumotlar zo'ravonlik tajribalari va reabilitasiya jarayonining individual jihatlari yoritib, statistik tahlillar bilan qo'llab-quvvatlandi. Bu esa, nafaqat keng qamrovli raqamli ko'rsatkichlarga, balki insoniy tajribani hisobga olgan chuqur tahlilga asos yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. American Psychiatric Association. (2013). Diagnostic and Statistical Manual of Mental Disorders (5th ed.). Arlington, VA: American Psychiatric Publishing.
2. Lovibond, S.H., & Lovibond, P.F. (1995). Manual for the Depression Anxiety Stress Scales (DASS). Sydney: Psychology Foundation.
3. Foa, E. B., Cashman, L., Jaycox, L., & Perry, K. (1997). The validation of a self-report measure of posttraumatic stress disorder: The PTSD Checklist (PCL). Psychological Assessment, 9(4), 445-451.
4. Johnson, H., & Benotsch, E. G. (2018). The relationship between domestic violence and mental health outcomes: A systematic review. Violence Against Women, 24(12), 1584-1601.
5. Tashakkori, A., & Teddlie, C. (2010). Mixed Methodology: Combining Qualitative and Quantitative Approaches. Los Angeles, CA: SAGE Publications.

Elmurodova Aziza Suvon qizi,

Buxoro Innovatsiyalar universiteti "Ta'lim, psixologiya va san'at" kafedrası o'qituvchisi

TALABALARDA IJTIMOY-AXBOROT KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy muloqot va axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirish jarayonining psixologik mexanizmlari tahlil qilinadi. Talabalarning axborotni qabul qilish, uni tanqidiy tahlil qilish va samarali qo'llash qobiliyatlarini shakllantirish hozirgi raqamli transformatsiya davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot natijalari talabalar o'rtasida trening dasturlari yordamida ijtimoiy va axborot kompetentligini oshirish imkoniyatlarini ko'rsatadi. Tahlil jarayonida tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash va axborot xavfsizligiga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: ijtimoiy muloqot, axborot resurslari, ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish, psixologik mexanizmlar, tanqidiy fikrlash, axborot xavfsizligi, jamoaviy ishlash, raqamli transformatsiya, innovatsion ta'lim, talabalarning rivojlanishi.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические механизмы процесса развития навыков использования социального взаимодействия и информационных ресурсов у студентов. Формирование способностей студентов к восприятию информации, её критическому анализу и эффективному применению приобретает особое значение в условиях современной цифровой трансформации. Результаты исследования показывают возможности повышения социальной и информационной компетентности студентов посредством тренинговых программ. В процессе анализа уделено внимание критическому мышлению, командной работе и информационной безопасности.

Ключевые слова: социальное взаимодействие, информационные ресурсы, развитие социально-информационной компетентности, психологические механизмы, критическое мышление, информационная безопасность, командная работа, цифровая трансформация, инновационное обучение, развитие студентов.

Annotation: This article analyzes the psychological mechanisms of developing students' skills in social interaction and the use of information resources. Developing students' abilities to process information, critically analyze it, and apply it effectively is of particular importance in the era of digital transformation. The research results demonstrate the potential for improving students' social and informational competence through training programs. The analysis highlights critical thinking, teamwork, and information security.

Key words: social interaction, information resources, development of social-informational competence, psychological mechanisms, critical thinking, information security, teamwork, digital transformation, innovative education, student development.

Kirish. Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya davrida ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish talabalarning zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvi va kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik jarayonida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va ulardan foydalanish darajasi o'sib borayotgan sharoitda, talabalar nafaqat ma'lumotlarni qabul qilish, balki ularni tahlil qilish, saralash, qo'llash va ulardan oqilona foydalanish qobiliyatlarini shakllantirishga ehtiyoj sezmoqdalar.

Ijtimoiy-axborot kompetentlikni rivojlantirish nafaqat texnik bilimlarni, balki psixologik jihatlarni ham qamrab oladi. Talabalarning o'zaro muloqot, ijtimoiy mas'uliyat, tanqidiy fikrlash va jamoaviy ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish ushbu jarayonning muhim tarkibiy qismidir. Ayniqsa, raqamli axborotning ortiqcha oqimi va soxta ma'lumotlarning tarqalishi sharoitida, bu kompetentlik yosh avlodni himoya qilish va ularning axborotga bo'lgan mas'uliyatli yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi.

Dunyo bo'ylab olib borilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-axborot kompetentligi yuqori darajada rivojlangan shaxslar mehnat bozorida talabgir bo'lib, raqamli madaniyatni targ'ib qilishda va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashda yetakchi rol o'ynaydi. Shu sababli, ushbu mavzu nafaqat dolzarb, balki jamiyatning intellektual va iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash uchun strategik ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada talabalarda ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari tahlil qilinib, ushbu jarayonning nazariy asoslari va amaliy imkoniyatlari yoritiladi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim tizimida bu mexanizmlarni samarali joriy etish yo'llari taklif etiladi.

Shuningdek, ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonida talabalar o'rtasida sog'lom axborot madaniyatini shakllantirish masalasi alohida e'tiborga loyiqdir. Axborotning zamonaviy vositalar orqali uzatilishi nafaqat bilim olish, balki ijtimoiy munosabatlarning sifatiga ham ta'sir qiladi. Shu sababli, bu jarayon faqatgina texnologik vositalardan foydalanishni o'rgatish bilangina cheklanib qolmay, talabalar ongida axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvni, ijtimoiy mas'uliyatni va axborotni tahlil qilish qobiliyatini rivojlantirishni ham o'z ichiga olishi kerak.

Ta'lim jarayonida psixologik mexanizmlarni chuqur tushunish, talabalarni zamonaviy axborot muhitida faol va mas'uliyatli ishtirokchi sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan, motivatsiyani oshirish, o'z-o'zini rivojlantirishga yo'naltirilgan psixologik dasturlarni qo'llash, hamkorlikka asoslangan ta'lim metodlarini tatbiq etish orqali ijtimoiy-axborot kompetentligini samarali rivojlantirish mumkin. Shu bilan birga, talabalarining psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda, individual va guruhviy yondashuvlarni uyg'unlashtirish dolzarb hisoblanadi.

Hozirgi kunda ko'plab xalqaro va mahalliy tadqiqotlar ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish bo'yicha yangi innovatsion yondashuvlarni taklif qilmoqda. Ayniqsa, global miqyosdagi digitalizatsiya sharoitida talabalarni axborot xurujlari, soxta ma'lumotlardan himoyalash, axborotdan samarali foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshirish asosiy vazifalardan biriga aylangan.

Ushbu maqolada ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishning psixologik mexanizmlarini o'rganish orqali ushbu jarayonni takomillashtirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar taqdim etiladi. Talabalar uchun mo'ljallangan psixologik treninglar, o'quv dasturlari va innovatsion ta'lim vositalari orqali ijtimoiy-axborot kompetentligini shakllantirishning samarador yo'llarini ishlab chiqish, jamiyatning intellektual va madaniy salohiyatini oshirishga xizmat qilishi mumkinligi yoritiladi. Shu sababli, bu mavzu nafaqat ta'lim tizimida, balki jamiyat taraqqiyotida ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, dolzarb masala sifatida e'tiborni talab etadi.

Adabiyotlar tahlili: Talabalarda ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishning psixologik mexanizmlari. Ko'pgina xalqaro tadqiqotlar talabalar ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish masalasini global muammolar kontekstida ko'rib chiqadi. Masalan, UNESCOning raqamli kompetentlik bo'yicha hisoboti (UNESCO, 2020) ta'lim sohasida axborot savodxonligini oshirishni zamonaviy ta'lim tizimining asosiy ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etadi. Tadqiqotda axborot savodxonligi va raqamli madaniyatni rivojlantirish jarayonida ijtimoiy ko'nikmalarni mustahkamlash zarurligi ta'kidlangan. Shu bilan birga, talabalar uchun mo'ljallangan innovatsion ta'lim platformalari orqali ijtimoiy va axborot ko'nikmalarini shakllantirish jarayonining samaradorligi qayd etilgan.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvlar: Psixologik nuqtai nazardan, Vygotskiyning ijtimoiy rivojlanish nazariyasi axborot kompetentligini rivojlantirishda asos sifatida qabul qilinadi. Ushbu nazariyada ijtimoiy o'zaro ta'sir orqali axborotni o'zlashtirish va uni qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish jarayoni asosiy o'rin tutadi. Bundan tashqari, Bandura (1977) tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy o'rganish nazariyasi talabalar axborot kompetentligini

rivojlantirishda kuzatish, taqlid qilish va muhitga moslashish jarayonlarini qamrab oladi. Bu yondashuv, ayniqsa, talabalarni ijtimoiy muloqot va jamoaviy ish orqali axborot resurslaridan foydalanishga o'rgatishda dolzarbdir.

Mahalliy tadqiqotlar: O'zbekistonda talabalar axborot kompetentligini rivojlantirish masalasi milliy ta'lim tizimi doirasida ko'rib chiqiladi. Jumladan, Alimov (2021) axborot texnologiyalaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish va ijtimoiy-psixologik ta'sir mexanizmlarini tahlil qilgan. Uning tadqiqotlarida milliy qadriyatlarni hisobga olgan holda axborot savodxonligini rivojlantirish usullariga alohida urg'u berilgan. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan raqamli ta'lim platformalari (masalan, *Elektron ta'lim*) talabalarda axborot bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim vosita sifatida tan olinadi.

Axborot madaniyati va raqamli xavfsizlik: Tadqiqotlarda ta'kidlanishicha, axborot resurslaridan foydalanish madaniyatini shakllantirish raqamli xavfsizlik bilan chambarchas bog'liqdir. Hozirgi kunda talabalarni soxta axborot, axborot xurujlari va internet xavflaridan himoyalash masalalari Dolan va Conole (2019) kabi olimlar tomonidan keng tahlil qilingan. Ularning tadqiqotlarida talabalarni axborotga nisbatan tanqidiy yondashuvga o'rgatish, so'nggi texnologiyalardan oqilona foydalanishni targ'ib qilish zarurligi ta'kidlanadi.

Pedagogik yondashuvlar: Ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishda pedagogik metodlarning ahamiyati katta. Kolb (1984) tomonidan taklif etilgan tajribaga asoslangan ta'lim modeli bu jarayonda samarali yondashuv sifatida tan olinadi. Ushbu model talabalarni axborot resurslarini amaliy qo'llash orqali o'qitishga asoslanadi. Shuningdek, Mahmudova (2023) tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'quvchilarni ijtimoiy muloqotga yo'naltiruvchi interfaol metodlarning samaradorligi qayd etilgan.

Zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar: Axborot texnologiyalari va raqamli platformalarning rivojlanishi ijtimoiy-axborot kompetentligini shakllantirishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. Masalan, virtual o'quv muhiti, masofaviy ta'lim platformalari va onlayn resurslar orqali talabalarni ijtimoiy va axborot ko'nikmalariga o'rgatish global ta'lim jarayonining ustuvor yo'nalishi bo'lib qolmoqda.

Abu Nasr al-Farobiy (870-950). "Fozil odamlar shahri" asarida ijtimoiy muhit va insonning rivojlanishi o'zaro bog'liq ekanligini ta'kidlagan. Uning nazariyasida bilim va axborotni to'g'ri ishlatish madaniyatni rivojlantirishda asosiy omil sifatida ko'rsatilgan.

Ibn Sino (980-1037). Psixologik asarlarda axborotni qabul qilish va uni ongli ravishda qayta ishlash insonning intellektual taraqqiyotiga ijobiy ta'sir qilishi haqidagi qarashlarini ilgari surgan.

Al-Beruniy (973-1048). "Hindiston haqida kitob" asarida ijtimoiy munosabatlarda axborotning madaniy ahamiyatini va uni o'zlashtirishda milliy qadriyatlarning rolini ta'kidlagan.

Yusuf Xos Hojib (11-asr). "Qutadg'u bilig"da axborotni boshqarish va uni muloqot vositasi sifatida qo'llashda axloqiy me'yorlarni asosiy tamoyil sifatida keltirgan.

Al-G'azoliy (1058-1111). Ta'lim va tarbiya jarayonida axborotni tanqidiy tahlil qilish va ma'naviy qadriyatlar asosida ishlatishni rivojlantirishni ta'kidlagan.

1. Tadqiqot maqsadi. Talabalarda ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonini psixologik jihatdan asoslash va samarador usullarni ishlab chiqish.

2. Tadqiqotning vazifalari

1. Ijtimoiy-axborot kompetentligining nazariy asoslarini aniqlash.

2. Talabalarda ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishda psixologik mexanizmlarni tahlil qilish.

3. Axborot savodxonligini rivojlantirishga yo'naltirilgan trening dasturini ishlab chiqish va sinovdan o'tkazish.

4. Trening dasturi samaradorligini o'lchash uchun diagnostik metodlarni ishlab chiqish.

3. Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Obyekti: Talabalar o'quv jarayonidagi axborot bilan ishlash faoliyati. Predmeti: Ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi psixologik mexanizmlar.

Talabalarning ijtimoiy muloqot va axborot resurslaridan foydalanish tahlil natijalari.

Mazkur jadval talabalarning ijtimoiy muloqot va axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini baholash natijalarini aks ettiradi. Ushbu tahlil treningdan oldingi (dastlabki ko'rsatkichlar) va treningdan keyingi (yakuniy ko'rsatkichlar) holatlarni qiyoslash orqali amalga oshirilgan. Natijalar ko'nikmalarning o'sish dinamikasini foizlarda ko'rsatadi.

Faktorlar	Dastlabki ko'rsatkichlar (%)	Treningdan keyingi ko'rsatkichlar (%)	O'sish foizi (%)
Ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish	45	75	30
Axborotni tanqidiy tahlil qilish	38	68	30
Axborotdan samarali foydalanish	40	72	32
Axborotni boshqalarga yetkazish	35	65	30
Jamoaviy ishlash qobiliyati	50	80	30

1. Ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish. Talabalar o'zlariga kerakli ma'lumotlarni topish va ijtimoiy tarmoqlar orqali axborot olishda qanchalik faol ekanligini aks ettiradi.

o Natijalar: Treningdan oldin bu ko'rsatkich 45% bo'lgan bo'lsa, treningdan keyin 75% ga ko'tarilgan (30% o'sish).

2. Axborotni tanqidiy tahlil qilish. Bu ko'nikma talabalar axborotni qabul qilishda tanqidiy yondashish, uni haqiqatga mosligini tahlil qilish qobiliyatini o'lchaydi.

o Natijalar: Dastlabki daraja 38% ni tashkil etgan bo'lib, treningdan keyin bu ko'rsatkich 68% ga yetgan (30% o'sish).

3. Axborotdan samarali foydalanish. Bu ko'nikma talabalar o'zlashtirilgan axborotni samarali qo'llash, uni amaliy hayotga tatbiq etish qobiliyatini o'lchaydi.

o Natijalar: Ushbu faktor bo'yicha dastlabki ko'rsatkich 40% ni tashkil etgan, treningdan keyin esa 72% ga yetgan (32% o'sish).

4. Axborotni boshqalarga yetkazish. Bu faktor talabalar axborotni boshqalarga to'g'ri va samarali tarzda etkaza olish qobiliyatini baholaydi.

o Natijalar: Treningdan oldin ko'rsatkich 35% bo'lgan, treningdan keyin esa 65% ga oshgan (30% o'sish).

5. Jamoaviy ishlash qobiliyati. Ushbu ko'nikma talabalarning guruhda ishlash va jamoaviy muloqot qilishda qanchalik samarali ekanligini baholaydi.

o Natijalar: Treningdan oldin bu ko'rsatkich 50% ni tashkil etgan, treningdan keyin esa 80% ga ko'tarilgan (30% o'sish).

Xulosa. Mazkur tahlil natijalari talabalar o'rtasida ijtimoiy muloqot va axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan trening dasturining samaradorligini yaqqol ko'rsatdi. Har bir faktor bo'yicha ko'rsatkichlarning sezilarli darajada oshgani ushbu yo'nalishda olib borilgan ta'lim va tarbiya jarayonining dolzarbligini tasdiqlaydi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki:

1. Ijtimoiy tarmoqlardan axborot olish bo'yicha ko'nikmalarning rivojlanishi talabalarning zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanish darajasini oshirishda muhim qadam bo'ldi. Bu talabalarni raqamli savodxonlikka yo'naltirish bo'yicha amalga oshirilayotgan sa'y-harakatlarning muvaffaqiyatini ifodalaydi.

2. Axborotni tanqidiy tahlil qilish va samarali foydalanish bo'yicha ko'rsatkichlarning o'sishi talabalarda axborot oqimlariga nisbatan tanqidiy fikrlash va uni real hayotga tatbiq etish qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini berdi.

3. Jamoaviy ishlash qobiliyati va axborotni boshqalarga yetkazish ko'nikmalarining yaxshilangani talabalarning muloqot va hamkorlikda ishlashga bo'lgan qobiliyatlarini sezilarli darajada oshirdi. Bu esa talabalar o'rtasida ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishda ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

4. O'quv jarayoniga zamonaviy pedagogik va psixologik metodlarni joriy etish trening dasturining samaradorligini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, talabalar axborot resurslaridan samarali foydalanish, tanqidiy fikrlash va jamoaviy muloqotda faol ishtirok etish kabi muhim ko'nikmalarga ega bo'lishmoqda. Bu esa ularga nafaqat ta'lim jarayonida, balki kelajakdagi kasbiy faoliyatlarida ham muvaffaqiyatli bo'lish imkonini beradi. Shu sababli, ijtimoiy-axborot kompetentligini rivojlantirish jarayonini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlash va yanada takomillashtirish zarur.

Bundan kelib chiqib, bunday trening dasturlarini ta'lim tizimining ajralmas qismi sifatida muntazam o'tkazish, innovatsion pedagogik va psixologik yondashuvlarni joriy etish orqali talabalarning intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga hissa qo'shish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. UNESCO. (2020). Global Education Monitoring Report: Inclusion and education – All means all. UNESCO Publishing.

2. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Harvard University Press.

3. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Prentice Hall.

4. Dewey, J. (1938). Experience and Education. Kappa Delta Pi.

5. Castells, M. (2010). The Rise of the Network Society (2nd Edition). Wiley-Blackwell.

6. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Prentice Hall.

7. Alimov, B. (2021). "Axborot texnologiyalaridan foydalanishda madaniyatni shakllantirish." O'zbekiston pedagogika jurnalida maqola.

8. Dolan, J., & Conole, G. (2019). "The impact of digital technologies on teaching and learning in higher education." Education and Information Technologies Journal, 24(4), 2185-2200.

9. Mahmudova, Z. (2023). "Interfaol metodlar yordamida talabalarni jamoaviy muloqotga yo'naltirish." Innovatsion pedagogika konferensiyasi materiallari.

Radjabova Sanobar Davronovna,

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi

TALABALARDA TA'LIMGA NISBATAN KREATIVLIKNI ANIQLASH METODIKASI EMPERIK NATIJALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda ta'limga nisbatan kreativlikni aniqlash metodikasi emperik natijalari interfaol adaptiv o'qitish usullari hamda o'quv jarayoniga ta'sir qiluvchi psixologik xususiyatlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Ijodiy tafakkur, qiziquvchanlik, originallik, xayol, intuitsiya, emotsionallik, empatiya, yumor hissi, kasbga ijodiy munosabat.

Аннотация: В данной статье эмпирические результаты методики определения креативности в отношении обучения у учащихся раскрыты интерактивные адаптивные методы обучения, а также психологические особенности, влияющие на процесс обучения.

Ключевые слова: креативность, оригинальность, фантазия, интуиция, эмоциональность, эмпатия, чувство юмора, творческое отношение к профессии.

Abstract: This article presents empirical results of the methodology for determining creativity in relation to learning among students, reveals interactive adaptive teaching methods, as well as psychological features that affect the learning process.

Keywords: creativity, originality, fantasy, intuition, feeling, empathy, sense of humor, creative attitude to the profession.

Kirish. Hozirgi kunda ta'lim tizimida talabalar kreativligini rivojlantirish, ularning fikrlash tarzini kengaytirish va innovatsion yondoshuvlarni qo'llash muhim ahamiyatga ega. Kreativlik – bu yangi g'oyalar, yechimlar va yondoshuvlarni ishlab chiqish qobiliyati bo'lib, zamonaviy ta'lim jarayonida talabalar uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalaridan biridir. Ta'limga nisbatan kreativlikni aniqlash va uning darajasini baholash esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Ushbu maqolada talabalar orasida kreativlikni aniqlash metodikasining emperik natijalari tahlil qilinib, ularning ta'limga nisbatan yondoshuvini va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishga oid tavsiyalar beriladi.

Zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash bugungi oliy ta'lim tizimi oldida turgan dolzarb vazifadir. Bugun oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonini bosqichma-bosqich kreditmodul tizimiga o'tkazish, xalqaro tajribalardan kelib chiqib, oliy ta'limning ilg'or standartlarini joriy etish zarur. Shuningdek, oliy ta'lim mazmunini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarining barqaror rivojlanishiga munosib hissa qo'shadigan, mehnat bozorida o'z o'rnini topa oladigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash hamon ahamiyatini yo'qotmagan. Ta'lim va fan sohasiga investitsiyalarni yo'naltirish, ta'lim sohasida keng qamrovli va chuqur islohotlar o'tkazish, mamlakat intellektual salohiyatini rivojlantirish iqtisodiy va ijtimoiy masalalarni hal etishning muhim garovi hisoblanadi. Davlatimiz rahbarining ta'lim sohasiga alohida e'tibor bilan yondashgani, ta'lim tizimida tubdan islohotlarni amalga oshirish siyosati davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishi deb belgilangani mamlakatimizning iqtisodiy va ijtimoiy sohalaridagi muvaffaqiyatlarining kafolati bo'lishi shubhasiz.

Mamlakatimizda o'ziga xos izchillik bilan olib borilayotgan islohotlar jarayoni bosh qomusimiz konstitutsiyamizda, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa asosiy xalqaro hujjatlar talablariga to'la mos holda inson va fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklari, siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy huquqlarini kafolatlab berdi. Insonning ma'naviy kamol topishi va har tomonlama uyg'un rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratadi. So'nggi yillarda respublikada ilmiy va innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash, kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish bo'yicha amaliy ishlar olib borilmoqda. Jumladan, iqtidorli

yoshlarni nufuzli milliy hamda xalqaro olimpiadalar, musobaqalar va tanlovlarda salmoqli natijalarga erishishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

1-jadval

Kreativlikni aniqlash metodikasi (Vishnyakova N.F) bo'yicha olingan emperik natijalar tahlili
n=360

Omillar	Yigitlar (1-2 kurslar) n=95	%	Qizlar (1-2 kurslar) n=100	%	Yigitlar (3-4 kurslar) n=90	%	Qizlar (3-4 kurslar) n=75	%
Ijodiy tafakkur	13	12,4	15	15,0	9	10,0	7	9,3
Qiziquvchanlik	14	13,3	12	12,0	14	15,6	10	13,3
Orginallik	10	9,5	10	10,0	13	14,4	12	16,0
Xayol	15	14,4	15	15,0	11	12,2	7	9,3
Intuitsiya	2	5,3	12	4,0	11	12,2	11	14,7
Emotsionallik, empatiya	13	12,4	13	13,0	9	10,0	8	10,7
Yumor hissi	14	13,3	12	12,0	10	11,2	8	10,7
Kasbga ijodiy munosabat	14	13,3	11	11,0	13	14,4	12	16,0
Jami:	95	100	100	100	90	100	75	100

Maqolaning vazifalari talabalarda o'quv jarayonidagi hamkorlikda yuzaga keladigan psixologik omillar ta'siri va talabalarda ijodiylik motivatsiyasini belgilashda "Kreativlikni aniqlash metodikasi" (Vishnyakova N.F); natijalarini tahlil qilishdan iborat (1-jadval).

Jumladan, ushbu masalada talabalarining ushbu xususiyatlariga alohida to'xtalishimizga sabab shaxsning uzoq vaqt davomida biologik, ijtimoiy va individual xususiyatlarning o'zaro bog'liqligi asosida kamol topadigan ijtimoiy mavjudot ekanligidir. Emperik tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki (1-jadvalga qarang) talabalar ijodiy tafakkurining rivojlanganligi aksariyat hollarda tafakkur omillariga ham bog'liq bo'lishi mumkin ekan. Ijodiy tafakkur mezoni qizlar o'g'il bolalarga nisbatan ancha yuqori ekanligini ko'rsatmoqda (yigitlar13,3% (1-2 kurslar) n=95 qizlar 15,0% (1-2 kurslar) n=90 (yigitlar12,4% (3-4 kurslar) n=75 Qizlar 12,0% (3-4 kurslar) n=100)). Bu esa qizlarni o'g'il bolalarga qaraganda turli xildagi muammoli vaziyatda to'g'ri yechim topa olishlari va har vanda yangilikni osongina qabul qilishlaridan darak beradi. Shuningdek har qanday yangicha g'oyalarni nafaqat egallashlari balki bevosita uning ishtirokchisiga aylanishlari mumkinligini ta'minlaydi.

Qiziquvchanlik qobiliyati esa teskari natijani kurish mumkin. Ya'ni, o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan qiziquvchanlik birmuncha yuqori darajada aks etdi (yigitlar12,4% (1-2 kurslar) n=95 qizlar 12,0% (1-2 kurslar) n=100, n=90(yigitlar12,4% (3-4 kurslar) n=75, qizlar 12,0% (3-4 kurslar) n=100)). Bundan ko'rinib turibdiki, talabalar atrofdagi turli vaziyatlarni sezgirlik bilan kuzatishlari va tahlil qila olishlari, har qanday g'ayrioddiy tafsilotlarga o'ch ekanliklari, shaxslararo munosabatlarda qarama-qarshiliklarga yetarlicha irodaviy sifatleri shakllanganligini ko'rsatmoqda.

Talabalarda ijodiy faoliyat motivatsiyasini shakllantirishda “Kasbga ijodiy munosabat” omili yetakchilik qilar ekan (yigitlar 12,4% (1-2 kurslar) n=95, qizlar 12,0% (1-2 kurslar), n=90 (yigitlar 12,4% (3-4 kurslar), n=75 qizlar 12,0% (3-4 kurslar) n=100). Demak, talabalarda mustaqillik har bir jarayonga ijodiy yondashish hamkorlik ba'zi holatlarda qoidalarga e'tibor bermaslik, mustaqil qaror qabul qilishga moyillik shuningdek, hazil-mutoyiba qilish xususiyatlarini rivojlanganligidan darak beradi.

Orginallik mezonini bo'yicha natijalarda esa boshqa mezonlarga nisbatan talabalarda sezilarli farqni ko'rish mumkin (yigitlar 13,3% (1-2 kurslar) n=95, qizlar 15,0% (1-2 kurslar) n=90, (yigitlar 12,4% (3-4 kurslar) n=75, qizlar 12,0% (3-4 kurslar) n=100). Demak talabalar kelajakda kasbiy va shaxsiy faoliyatlarida original hukm chiqarish va ijtimoiy kutilmalarni bashoratlash qobiliyatlari ustida ishlasalar maqsadga muvofiq bo'lar ekan (1-jadval).

Shu o'rinda talabalarda «orginallik»ning yetarli darajada shakllanmaganligi oqibatida ularning xulq-atvori va u bilan bog'liq harakatlarni noto'g'ri tushinishlari hamkorlikni qabul qilmaslik, notipik vaziyatlarda uquvsizlikka, muloqotda so'zli ma'lumotlarga alohida e'tibor qarata olmayotganliklari, suhbatdoshning niyatini yaxshi ilg'amasliklari oqibatida original hukm chiqarishga qiynalayotganliklarini ifodalamoqda.

Talabalarda ta'lim bosqichlari o'zgarishi bilan ularning ijodiylik motivatsiyasi ko'rsatkichlarida ham o'zgarish kuzatildi. Ularning shaxs kamolotiga xizmat qiluvchi ijodiylik motivatsiyasi ko'rsatkichlarining o'zgarishi shaxslilik xususiyatlariga ham bevosita bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shaykhislamov, N. (2020). The Role of Lingvoculturology in Speech Culture. O'zbekistonda innovatsion ilmiy tadqiqodlar va metodlar, 136-140.
2. Latipova .U Y. Talabalarda ijodiy faollik motivatsiyasi shakllanishining psixologik xususiyatlari. Dissertasiya.Urganch -2021
3. Shaykhislamov, N. (2020). Lingvokulturologiyaning tarixiy va nazariy asoslari. O'zbekistonda ilm-fan va ta'lim, (2), 186-188.
4. Shayxislamov, N. (2020). Proverb as an object of linguistic analysis. Yoshlarning innovatsion faolligini oshirish, ma'naviyatini yuksaltirish va ilm-fan sohasidagi yutuqlari, 31-33.

Qoraboyev Fazliddin Faxriddinovich,

*Buxoro davlat universiteti Jismoniy tarbiya va sport fakulteti
Sport nazariyasi va metodikasi kafedrası o'qituvchisi*

**OG'IR ATLETIKACHILARNING JISMONIY TAYYORGARLIGINI
OSHIRISHDA UMUMIY VA MAXSUS TAYYORGARLIK VOSITALARIDAN
FOYDALANISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHDA PSIXOLOGIK
TAYYORGARLIKNI AHAMIYATI**

Annotatsiya: Og'ir atletika sporti olimpiya dasturidan joy olgan mamlakatimizda jadallik bilan rivojlanib borayotgan sport turi hisoblanadi. Bunday sport turlarida psixologik tayyorgarliksiz musobaqalarda ishtirok etish juda katta xato hisoblanadi chunki sportchiga berilgan urinishlardan foydalana olmaslik ularning ruhiyatiga katta tasir qiladi. Mazkur maqolada 13-17 yoshli og'ir atletikachilarning musobaqa va mashg'ulotlarida psixologiyaning o'rni va natijadorlikka ta'sirini kuzatamiz.

Kalit so'zlar: Psixologiya, trening, stress, motivatsiya, og'ir atletika, mashg'ulot, umumiy jismoniy tayyorgarlik, maxsus jismoniy tayyorgarlik, yuklama, sport takomillashuvi, tizimli tayyorlash.

Аннотация: Тяжелая атлетика - стремительно развивающийся в нашей стране вид спорта, входящий в программу олимпийских игр. Участие в соревнованиях по таким видам спорта без психологической подготовки является огромной ошибкой, поскольку неумение использовать предоставленные спортсмену возможности оказывает огромное влияние на его моральный дух. В данной статье мы рассмотрим роль психологии в соревнованиях и тренировках тяжелоатлетов 13–17 лет и ее влияние на их результаты.

Ключевые слова: Психология, тренировка, стресс, мотивация, тяжелая атлетика, тренировка, общая физическая подготовка, специальная физическая подготовка, нагрузка, спортивное совершенствование, систематические тренировки.

Abstract: Weightlifting is a rapidly developing sport in our country, included in the olympic games program. Participation in competitions in such sports without psychological preparation is a huge mistake, since the inability to use the opportunities provided to the athlete has a huge impact on his morale. In this article, we will consider the role of psychology in competitions and training of weightlifters aged 13-17 and its impact on their results.

Key words: Psychology, training, stress, motivation, weightlifting, training, general physical training, special physical training, load, sports improvement, systematic training.

Kirish. Bugungi kunda barcha sohalar singari ijtimoiy sohada ham keng islohotlar olib borilmoqda. Xususan, mamlakatimiz taraqqiyoti yo'lida olib borilayotgan islohotlardan biri o'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlantirish sanaladi. Bunda esa jismoniy tarbiya va sport muhim ahamiyat kasb etadi.

Mamlakatimizda og'ir atletika sporti jadallik bilan rivojlanib bormoqda. Olimpida dasturida mavjud ushbu sport turidan atletlarimiz muntazam sovrindor bo'lish bilan bir qatorda to'rt yillikni eng nufuzli musobaqasi rekordlarini ham yangilab borishmoqda. Ruslan Nuriddinov 2016-yil Rio Olimpidasida 105 kg vaznda oltin medal bilan bir qatorda 237 kg bilan Olimpiada rekordini ham yangiladi. Tokyo 2020 Olimpidasida esa Muattar Nabiyeva dast ko'tarishda Olimpiada rekordini yangilagan bo'lsa, Akbar Jo'rayev 109 kg vaznda Olimpiada chempionligi bilan bir qatorda siltab ko'tarisda rekord ham o'rnatdi. Bu natijalar Parij 2024 Olimpidasida ham davom etdi Akbar Jo'rayev kumush medalni qo'lga kiritdi.

Bu natijalar orqali yurtimizda og'ir atletika sporti bilan shug'ullanuvchi yoshlar sezilarli darajada oshdi. Xalqaro og'ir atletika federatsiyasi tomonidan musobaqalar rasman uchta yosh toifasida tashkil qilinishi belgilab berilgan:

1.O'smirlar – 13-17 yosh

2. Yoshlar – 15-20 yosh

3.Kattalar – 15 yosh va undan kattalar...

Mazkur yosh toifalaridan biz ish olib borayotgan guruh bu o'smirlar 13-17 yoshli og'ir atletikachilar, bu guruhni tanlashdan maqsad mazkur yosh toifasida o'smirlar Olimpadasida ham ishtirok etishlarini inobatga olib ularni faoliyatida psixologik tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Ishning maqsadi. Og'ir atletikachilarning musobaqa faoliyatini yaxshilashda psixologik yondashuvni o'rni oshirish psixologik testlar va suhbatlar o'tkazish orqali ularning natijasi yaxshilashga erishish maqsad qilingan.

Psixologik tayyorgarlik sportchi atletlarda o'z kuchga bo'lgan ishonchni oshirish stress va stressga qarshi choralarni rivojlantirish, diqqatni jamlash va motivatsiyani saqlab qolishda muhim omil hisoblanadi va musobaqalarda natijalar yaxshilanadi.

Tadqiqotning tashkil qilish usullari:

1. Og'ir atletikachilarning ko'p yillik tayyorgarligiga oid adabiyotlarni ilmiy-pedagogik tahlil qilib, o'rganib chiqish.

2. Og'ir atletikachilarning 13-17 yoshida psixologik o'zgarishlarning mashg'ulot tuzilishi va mazmunini ilmiy pedagogik jixatdan tashkil qilishdagi ahamiyati.

3. Og'ir atletikachilarning mashg'ulot tuzilishi unda yosh va jinsga doir psixologik o'zgarishlar.

Psixologik mashg'ulot uslublari.

1. Vizualizatsiya : *Kuzatuvlar*

2. Stressni boshqarish: *Nafas*

3. Motivatsiyani belgilash: *Shaxsiy maqsadlarni belgilash*

4. Diqqatni boshqarish: *Chalg'ituvchidan qochish*

Ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili. Ilmiy-uslubiy adabiyotlar ustida ishlash davomida mavzu bo'yicha 40 dan ortiq mahalliy va 15 ta xorijiy adabiyot manbalari tahlil qilindi. Ko'p yillik tayyorgarlik jarayonida og'ir atletikachilar mashg'ulotlarning tuzilishi va mashg'ulot mazmuni o'rganildi hamda ko'p yillik tayyorgarlik usuliyati va uning yosh jihatdan bolalar, o'smirlar va katta yoshdagi og'ir atletikachilar organizmiga ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

ShKS - shtangani ko'tarish soni;

- US - urinishlar soni;

- UTS - urinishda takrorlashlar soni;

- MS - mashg'ulotlar soni;

- NSh - nisbiy shiddat (shtanganing ushbu mashqdagi eng yaxshi natijaga nisbatan foizlardagi o'rtacha vazni);

- dast ko'tarish va siltab ko'tarish mashqlarida 90-100% li (og'irliklarni ko'tarish soni-musobaqa faoliyati tezligi va natijadorligi.


Tajriba va nazorat guruhi og'ir atletikachilarning tadqiqotdan oldingi musobaqa mashqlaridagi ikki kurash natijasi ko'rsatkichlari(n=12)

№	Nazorat guruhi sinaluvchilari	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi sinaluvchilari	Tajriba guruhi
		Dast va siltab ko'tarishda ikki kurash yig'indisi (kg)		Dast va siltab ko'tarishda ikki kurash yig'indisi (kg)
		T/O		T/O
1.	A-ev. V.	232	R-ov. S.	190
2.	CH-ov. Ye.	250	G'-ov. O.	245
3.	SH-ov. P.	250	SH-ov. V.	240

4.	F-ev. N.	235	T-ov. M.	300
5.	J-ev. SH.	250	R-ov. R.	220
6.	O-ev. A.	250	S-ov. U.	200
7.	M-ov. A.	234	M-ev. M.	330
8.	R-ov. I.	240	R-ov. M.	260
9.	I-ov. B.	230	R-ov. A.	227
10.	M-ov. J.	224	Q-ov. J.	205
11.	M-ov. K.	260	M-ov. Z.	290
12.	I-ov. SH.	240	N-ov. U.	220
$\bar{X}$		241,3	$\bar{X}$	243,9

Izoh; TO-tadqiqotdan oldin.

Tajriba va nazorat guruhi og'ir atletikachilarning tadqiqotdan keyingi musobaqa mashqlaridagi ikki kurash natijasi ko'rsatkichlari



Tadqiqot natijalari va muhokamasi: Tadqiqot davrida professional sport psixologlari tomonidan amalda qo'llangan juda ko'p tajribalardan yuqorida keltirilgan psixologik metodlar saralab olindi va tajriba guruhiga qo'llandi natijalar sportchilarni yani 13-17 yoshli og'ir atletikachilarning ikki kurash natijalari bo'yicha o'lchanganda tajriba guruhidagi sportchilar nazorat guruhidagilarga qaraganda sezilarni natijalar o'sishiga erishildi.

Ushbu ishda olib borilgan psixologik ishlar sezilarli natijalar yaxshilanishiga va sportchilar musobaqa jarayonida berilgan urinishlardan maksimal foydalanish darajasini oshirishga erishildi va bu metodlarni boshqa yosh toifalarida ham qo'llash mumkinligi takidlab o'tildi.

Xulosa. Nazorat va tajriba guruhidan olingan ko'rsatkichlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, biz tajribada tanlab ish olib borgan og'ir atletikachilar uchun tanlab yo'naltirilgan psixologik metodlar va vositalar sport natijalarini yaxshilashda ijobiy ta'sir ko'rsatib, nazorat testlari asosida tahlil qilingan natijalar samarali ekanligini tasdiqladi. Shu orqali kelajakda 13-17 yoshli og'ir atletikachilarni musobaqa natijalari xalqaro maydonda bundanda yaxshilanadi deb umid qilinmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Qoraboyev F. F. NEW WAYS OF WORKING WITH STUDENTS //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16. – C. 106-109.

2. Qoraboyev F. F. Creation of a national system of education //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 16 SPECIAL. – C. 102-105.
3. Shuhrat o'g'li Q. A., Qoraboyev F.F.Sportchilar uchun kuch mashqlarini qanday to 'g 'ri tanlash kerak //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2023. – Т. 1. – №. 8. – С. 279-283.
4. Qoraboyev F. F. Carrying games during sports training //MASTERS. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – C. 69-71.
5. Faxriddinovich.Q.F. Talaba kurashchilarda musobaqa mashqlari texnikasini o'rgatishda maxsus yordam beruvchi mashqlarni qo'llash samaradorligi //MASTERS. – 2024. – Т. 2. – №. 4. – C. 65-68.
6. Qoraboyev F. F. et al. The advantage of interactive methods in improving the quality of the educational system //pedagogical sciences and teaching methods. – 2023. – Т. 2. – №. 19. – C. 42-45.
7. Faxriddinovich Q. F. Importance of Weight Categories and History of Changes in Weightlifting //Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences. – 2023. – Т. 2. – №. 3. – C. 165-172.
8. Arslonov Q. et al. Experimental testing of the effectiveness of the Turan struggle in higher education //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – Т. 538. – C. 05040.
9. Mukhammadovich I. M. Increasing the Level of Physical, Functional and Willing Fitness of Boxers //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – C. 159-161.
10. Mukhammadovich I. M. Increasing the Level of Physical, Functional and Willing Fitness of Boxers //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – C. 159-161.
11. Mukhammadovich I. M., Ogli T. M. M. Control and Level of Rapid Forces in the Training of Boxers //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – C. 64-67.
12. Mukhammadovich I. M. Increasing the Level of Physical, Functional and Willing Fitness of Boxers //EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION. – 2024. – Т. 4. – №. 5. – C. 159-161.
13. Mukhammadovich I. M., Qizi S. F. O. Building Endurance Abilities of Young Boxers //European journal of innovation in nonformal education. – 2024. – Т. 4. – №. 3. – C. 170-173.
14. Mukhammadovich I. M. et al. Evaluation of quick-power of boxer in boxing competitions //International Journal of Formal Education. – 2024. – Т. 3. – №. 1. – C. 68-71.
15. Ilkhanovich K. R. Mukhammadovich IM Ways to Build Endurance in the Beginning Boxing Training Group //Best Journal of Innovation in Science, Research and Development. – 2023. – Т. 2. – №. 6. – C. 277-280.
16. Mukhammadovich I. M. The Main Methodological Instructions for the Development of Speed-Strength Qualities of Boxers //Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – C. 550-554.
17. IBRAGIMOV M. M. BOXING AS AN IMPORTANT MEANS OF FORMING A HEALTHY LIFESTYLE IN STUDENTS //Journal of Modern Educational Achievements. – 2023. – Т. 4. – №. 4. – C. 77-79.
18. Муниров Н. А. Роль физической культуры и спорта в развитии учащихся //Проблемы науки. – 2021. – №. 2 (61). – С. 47-49.

Алимова Елена Геннадьевна,

PhD, и.о. доцента кафедры «Психология»

Ташкентского государственного педагогического университета им. Низамий.

ОСОБЕННОСТИ ИССЛЕДОВАНИЙ ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ ПОДРОСТКОВ

Аннотация: В статье представлен всесторонний анализ особенностей исследования девиантного поведения подростков, уделяется внимание ключевым характеристикам, факторам, способствующим его развитию, и вызовам, с которыми сталкиваются исследователи. Девиантное поведение подростков является актуальной проблемой, учитывая его возможные долгосрочные последствия как для самого индивида, так и для общества в целом. В работе рассматриваются различные методологии, используемые в изучении этого поведения, и оценивается их эффективность. В результате исследования выявлены ключевые модели поведения и их социальные, психологические и экологические детерминанты.

Ключевые слова: Девиантное поведение, подростки, Узбекистан, родительский контроль, школьная успеваемость, влияние окружения, профилактика, психологические рекомендации, воспитание, социальные факторы.

Annotatsiya: Maqolada o'smirlarning deviant xulq-atvorini o'rganish xususiyatlari har tomonlama tahlil qilingan, asosiy xususiyatlar, uning rivojlanishiga yordam beruvchi omillar va tadqiqotchilar duch keladigan muammolarga e'tibor berilgan. O'smirlarning deviant xulq-atvori, uning shaxs uchun ham, butun jamiyat uchun ham uzoq muddatli oqibatlarini hisobga olgan holda dolzarb muammo hisoblanadi. Maqolada ushbu xatti-harakatni o'rganishda qo'llaniladigan turli metodologiyalar ko'rib chiqiladi va ularning samaradorligi baholanadi. Tadqiqot asosiy xulq-atvor modellarini va ularning ijtimoiy, psixologik va ekologik determinantlarini aniqladi.

Kalit so'zlar: Deviant xulq-atvor, o'smirlar, O'zbekiston, ota-ona nazorati, maktab faoliyati, atrof-muhitga ta'siri, oldini olish, psixologik tavsiyalar, tarbiya, ijtimoiy omillar.

Abstract: The article presents a comprehensive analysis of the characteristics of the study of deviant behavior in adolescents, paying attention to the key characteristics, factors contributing to its development, and the challenges faced by researchers. Deviant behavior of adolescents is a pressing problem, given its possible long-term consequences both for the individual and for society as a whole.

The paper examines the various methodologies used in the study of this behavior and evaluates their effectiveness. The study identified key behavioral patterns and their social, psychological and environmental determinants.

Key words: Deviant behavior, adolescents, Uzbekistan, parental control, school performance, environmental influence, prevention, psychological recommendations, education, social factors.

Введение: Девиантное поведение подростков вызывает значительный интерес в последние годы в связи с его растущей распространенностью и воздействием на общество. Подростковый возраст характеризуется быстрыми психологическими, социальными и физиологическими изменениями, которые могут способствовать развитию отклоняющегося поведения. В данном контексте девиантное поведение определяется как действия, нарушающие общественные нормы и считающиеся социально неприемлемыми. К примерам относятся употребление наркотиков, участие в преступной деятельности, прогулы и агрессия. Понимание факторов, влияющих на подобное поведение, является необходимым для разработки эффективных профилактических и интервенционных стратегий. Цель данной статьи - рассмотреть уникальные особенности девиантного поведения подростков, выявить факторы,

способствующие его возникновению, и проанализировать методы, применяемые для его исследования.

Методы: Для исследования девиантного поведения подростков был применен смешанный метод, сочетающий количественные и качественные подходы для получения наиболее полных данных о факторах, влияющих на данное поведение. Исследование проводилось в два этапа.

Первый этап включал количественное исследование с использованием анкеты, в котором приняли участие 500 подростков в возрасте 12-18 лет. Участники были отобраны методом случайной выборки из различных школ и образовательных учреждений, расположенных в городских и областных районах. Анкета была разработана для оценки частоты проявлений различных форм девиантного поведения, таких как употребление психоактивных веществ, агрессивное поведение, кражи, прогулы и нарушения общественных норм. Анкета также включала вопросы, касающиеся социально-демографических характеристик, семейного положения, успеваемости в школе и социального окружения подростков. Для анализа данных использовались статистические методы, такие как регрессионный анализ, корреляционный анализ и факторный анализ. Это позволило выявить взаимосвязи между различными переменными и определить ключевые факторы, влияющие на девиантное поведение.

Второй этап включал качественное исследование, основанное на углубленных полуструктурированных интервью с подростками, их родителями и педагогами. Были выбраны 30 подростков, проявляющих различные формы девиантного поведения, для более детального изучения их индивидуальных особенностей и факторов, влияющих на их поведение. Интервью были направлены на выявление личных, семейных и социальных причин девиантного поведения, а также на анализ влияния психологических и эмоциональных состояний подростков. Интервью с родителями и педагогами помогли выявить особенности семейного воспитания, уровень вовлеченности в школьную жизнь и влияние окружения подростков на их поведение.

Для качественного анализа интервью использовался метод тематического анализа, который позволил выявить повторяющиеся темы и паттерны в ответах участников. Это дало возможность лучше понять, как подростки воспринимают своё поведение, какие внутренние и внешние факторы способствуют его развитию, и как социальное окружение влияет на их поведенческие решения.

Этические аспекты исследования были тщательно учтены. Все участники исследования, включая подростков и их родителей, подписали информированное согласие на участие. Исследование проводилось с соблюдением конфиденциальности данных, и участникам был предоставлен доступ к результатам исследования по их запросу.

Таким образом, сочетание количественных и качественных методов дало возможность получить комплексное представление о девиантном поведении подростков и факторах, его определяющих.

Результаты: Анализ полученных данных позволил выявить несколько ключевых тенденций, касающихся девиантного поведения подростков. В результате количественного исследования было установлено, что наиболее распространенными формами девиантного поведения среди подростков в Узбекистане являются прогулы и систематические нарушения школьных правил (55% участников), что часто связано с отсутствием интереса к учебе и недостаточной мотивацией. Около 30% подростков признались в агрессивном поведении по отношению к сверстникам, что может быть связано с семейными проблемами и недостатком эмоциональной поддержки. Употребление психоактивных веществ и алкоголя встречается значительно реже — всего у 15% подростков, что отражает влияние традиционных семейных ценностей и

социальной осуждаемости подобных действий в узбекском обществе. Вместе с тем, около 20% подростков признались в участии в мелких кражах и вандализме, что может свидетельствовать о скрытом протесте против существующих социальных норм и ограничений.

Статистический анализ показал, что на девиантное поведение подростков в Узбекистане оказывают значительное влияние несколько факторов. Регрессионный анализ выявил, что недостаточный уровень родительского контроля и вовлеченности родителей в жизнь подростка был одним из главных предикторов девиантного поведения (коэффициент корреляции $r=0.63$, $p<0.01$). При этом наблюдается явная взаимосвязь между низкой успеваемостью в школе и проявлением девиантных наклонностей ($r=0.57$, $p<0.01$). Также негативное влияние друзей, склонных к антисоциальному поведению, существенно влияет на выбор подростков ($r=0.54$, $p<0.01$). Эти данные подчеркивают важность активного участия родителей в воспитании и образовании своих детей, а также значимость формирования позитивного окружения для предотвращения девиантного поведения.

Таблица 1. Влияние факторов на девиантное поведение подростков в Узбекистане

Факторы влияния	Коэффициент корреляции (r)	Уровень значимости (p)
Недостаточный уровень родительского контроля и вовлеченности	0.63	< 0.01
Низкая успеваемость в школе	0.57	< 0.01
Негативное влияние антисоциальных друзей	0.54	< 0.01

Таблица наглядно демонстрирует наиболее значимые факторы, влияющие на девиантное поведение подростков в Узбекистане.

1. Недостаточный уровень родительского контроля и вовлеченности оказался наиболее значимым предиктором девиантного поведения подростков ($r=0.63$, $p<0.01$). Это подчеркивает ключевую роль родителей в формировании поведения ребенка. Недостаток внимания и контроля может создавать условия для развития проблемного поведения.

2. Низкая успеваемость в школе также имеет сильную корреляцию с девиантным поведением ($r=0.57$, $p<0.01$). Это свидетельствует о важности академической среды для социализации подростков. Успехи в учебе не только укрепляют самодисциплину, но и способствуют формированию положительной самооценки.

3. Негативное влияние антисоциальных друзей ($r=0.54$, $p<0.01$) подчеркивает, как важно для подростков иметь здоровое и поддерживающее окружение. Друзья с девиантным поведением могут становиться ролевыми моделями, подталкивая к антисоциальным действиям.

Таким образом, данные из таблицы указывают на необходимость разработки комплексных программ профилактики. Это может включать обучение родителей методам эффективного воспитания, поддержку подростков в образовательной среде и работу с их окружением для формирования позитивных социальных связей.

Качественное исследование, основанное на интервью, позволило более глубоко понять мотивацию и восприятие подростков, проявляющих девиантное поведение в Узбекистане. Многие из них отмечали, что девиантные поступки зачастую совершались под давлением сверстников и в стремлении получить одобрение группы. Около 65% участников интервью подчеркнули, что недостаток эмоциональной поддержки со стороны родителей или учителей способствовал их негативному поведению. Подростки также часто выражали чувство одиночества и непонимания со стороны окружающих, что

усиливало их стремление протестовать против существующих социальных норм и традиций.

В ходе интервью было выявлено, что подростки с девиантным поведением испытывали значительные трудности в самоконтроле и управлении своими эмоциями, что подтверждается их склонностью к агрессивным и импульсивным поступкам. Педагоги и родители также отмечали нехватку эффективных программ по профилактике девиантного поведения в школах и отсутствие доступа к специализированной психологической помощи для подростков, испытывающих трудности в адаптации.

Таким образом, результаты исследования подтверждают многофакторную природу девиантного поведения подростков, которая обусловлена как семейными, так и образовательными и социальными факторами. Это подчеркивает необходимость комплексного подхода к решению проблемы девиантного поведения, включая активное участие родителей, педагогов и общества в целом.

Обсуждение результатов: Полученные результаты согласуются с предыдущими исследованиями девиантного поведения подростков и подтверждают, что данное явление формируется под воздействием множества социальных, психологических и экологических факторов. Один из ключевых выводов нашего исследования заключается в том, что семейные отношения оказывают значительное влияние на поведение подростков. Подростки, происходящие из семей, характеризующихся конфликтами, пренебрежением или насилием, с большей вероятностью демонстрируют девиантное поведение. Это подчеркивает необходимость внедрения семейных интервенций, направленных на решение внутренних проблем в семье, что может снизить уровень девиаций.

Влияние сверстников также играет важную роль, что свидетельствует о необходимости профилактических мер, направленных на формирование положительных социальных связей среди подростков и создание среды, которая не способствует девиантному поведению. В этом контексте важную роль играют школы, которые должны активно участвовать как в выявлении девиантного поведения, так и в осуществлении мер по его предотвращению, включая программы по развитию социальных навыков и эмоциональной компетентности.

Кроме того, исследование подтвердило, что социально-экономические неравенства являются значительными факторами риска. Подростки, живущие в неблагополучных районах, сталкиваются с большим количеством стрессоров, имеют меньше возможностей для саморазвития и чаще наблюдают криминальное поведение, что в совокупности способствует развитию девиантности. Учитывая эти факторы, профилактические программы и программы реабилитации должны разрабатываться с учётом социального и экономического контекста, учитывая также доступ к ресурсам и поддержке.

Дополнительно необходимо учитывать индивидуальные психологические черты, такие как импульсивность и недостаток саморегуляции, которые требуют корректировки через психологическое консультирование и поведенческую терапию. Понимание этих индивидуальных особенностей может помочь в создании более целенаправленных и эффективных интервенций для подростков с девиантным поведением.

Несмотря на ценные результаты, данное исследование имеет свои ограничения. Использование самодекларативных данных может вносить искажения, так как подростки могут недооценивать или преувеличивать своё поведение в ответах. Кроме того, исследование носило поперечный характер, что ограничивает возможность делать выводы о причинно-следственных связях между факторами. В будущем исследования могли бы извлечь пользу из продольных дизайнов, позволяющих отслеживать изменения в поведении подростков с течением времени и более глубоко анализировать динамику факторов, способствующих девиантному поведению.

Выводы. Исследование подчеркивает сложность девиантного поведения подростков, на формирование которого влияют множество взаимосвязанных факторов: социальные, семейные, психологические и экономические. Результаты нашего исследования показывают, что для эффективной борьбы с девиантным поведением необходим многоаспектный подход, включающий взаимодействие с семьями, школами и сообществами.

Профилактические и интервенционные стратегии должны учитывать особенности подростков, находящихся в группе риска, и разрабатываться с учетом различных факторов, способствующих девиациям. Это может включать программы по повышению уровня родительского контроля, развитию социальных навыков и эмоционального интеллекта, а также создание поддерживающей среды в учебных заведениях.

Дальнейшие исследования необходимы для изучения долгосрочных последствий девиантного поведения и совершенствования существующих моделей вмешательства. Необходимо также обращать внимание на индивидуальные особенности подростков, такие как личные и эмоциональные факторы, что позволит создавать более целенаправленные программы поддержки.

Политики и педагоги должны работать совместно, чтобы создать благоприятную среду, способствующую здоровому развитию подростков и минимизирующую риск отклоняющегося поведения. Это включает в себя развитие доступных ресурсов и программ поддержки для семей и подростков, а также активное участие сообществ в профилактике девиантного поведения. Совместные усилия всех участников образовательного процесса способны значительно повысить эффективность мероприятий, направленных на решение этой актуальной проблемы.

Рекомендации психолога.

На основе приведенного анализа и выявленных факторов, влияющих на девиантное поведение подростков, можно предложить следующие рекомендации:

1. Повышение родительского контроля и вовлеченности:
2. Родителям необходимо больше времени уделять общению с детьми, интересоваться их жизнью, школьными успехами, увлечениями и кругом общения.
3. Создавать доверительные отношения в семье, где подросток может открыто делиться своими переживаниями.
4. Укрепление школьной мотивации:
 - Организовать дополнительные занятия или консультации для подростков, испытывающих трудности в обучении.
 - Применять индивидуальный подход в образовательном процессе, стимулируя развитие сильных сторон подростков.
5. Формирование позитивного окружения:
 - Поощрять участие подростков в кружках, секциях и других коллективных активностях, где они смогут развивать свои способности и общаться со сверстниками, настроенными на созидание.
 - Проводить занятия и тренинги, направленные на развитие навыков критического мышления, чтобы подростки могли противостоять негативному влиянию со стороны.
6. Профилактика девиантного поведения:
 - Регулярно проводить профилактические беседы в школах с привлечением психологов, педагогов и социальных работников.
 - Организовать доступ к индивидуальной и групповой психологической помощи для подростков и их семей.
7. Поддержка со стороны общества:
 - Создавать программы социальной поддержки для семей, находящихся в сложных жизненных ситуациях.

-Развивать сотрудничество между школами, родителями и местными сообществами для создания благоприятной среды для подростков.

Эти рекомендации помогут снизить риск девиантного поведения у подростков и способствовать их гармоничному развитию.

Использованная литература:

1. Барабанов, А. П., & Сидоренко, И. В. (2018). Психология девиантного поведения подростков. Москва: Издательство РГУП.
2. Зверева, Н. А. (2019). Социальные факторы девиантного поведения: Теория и практика. Санкт-Петербург: Издательство СПбГУ.
3. Ильин, Е. П. (2016). Психология поведения: Введение в психологию девиаций. Екатеринбург: Издательство Урал. университета.
4. Коновалова, Т. Ю. (2020). Роль семьи в формировании девиантного поведения подростков. Вестник психологии, 12(4), 25-30. doi:10.14489/vp.2020.12.04.25.
5. Лебедев, А. Г. (2017). Девиантное поведение в подростковом возрасте: причины и пути преодоления. Психологические исследования, 10(1), 15-22. doi:10.1016/j.psychres.2017.01.003.
6. Неверов, В. Н. (2021). Психология девиантного поведения: Подходы и методы. Москва: Издательство Академия.
7. Рогов, Е. И. (2018). Социальные сети как фактор влияния на девиантное поведение подростков. Психология и право, 14(3), 57-65. doi:10.21564/2078-7538.2018.03.07.
8. Тарасова, М. И. (2019). Превентивные меры против девиантного поведения: опыт и перспективы. Социология и право, 16(2), 42-50. doi:10.21564/2078-7503.2019.02.06.
9. Федорова, О. Н. (2020). Девиантное поведение: Психологические аспекты и пути коррекции. Вопросы психологии, 13(2), 33-40. doi:10.21564/0201-8888.2020.02.03.
10. Шмидт, В. Л. (2017). Девиантное поведение подростков: Социологические и психологические аспекты. Новосибирск: Издательство НГПУ.

*Jumayeva Gulnoza Tursunpo'latovna,
Turon universiteti o'qituvchisi*

IJTIMOY MUNOSABATLARDA AGRESSIVLIK MUAMMOSI

Annotatsiya: Maqolada ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'luvchi shaxs xulq-atvoriga xos individual tiplarni tadqiq qilishning pedagogik ahamiyati, shaxs xulq-atvoriga xos agressiv holatlarni tadqiq qilishning ijtimoiy zarurati, kishilar o'rtasidagi turli kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan turli darajadagi xulq-atvor modellari yoritilgan.

Tayanch tushunchalar: agressiya, jismoniy agressiya, ruhiy agressiya, ijtimoiy agressiya, motivli agressiya, spontan agressiya, verbal agressiya, nostandart agressiya, autoagressiya, negativizm.

Абстрактный: В статье подчеркивается педагогическая значимость исследования отдельных типов личностного поведения, проявляющихся в социальных отношениях, социальная необходимость исследования агрессивных ситуаций, свойственных личностному поведению, различных уровней поведенческих моделей, возникающих в результате различных разногласий между людьми.

Основные понятия: агрессия, физическая агрессия, психическая агрессия, социальная агрессия, мотивированная агрессия, спонтанная агрессия, вербальная агрессия, нестандартная агрессия, аутоагрессия, негативизм.

Abstract: The article highlights the pedagogical importance of researching individual types of personal behavior manifested in social relations, the social necessity of researching aggressive situations specific to personal behavior, different levels of behavioral models that arise as a result of various disagreements between people.

Basic concepts: aggression, physical aggression, mental aggression, social aggression, motivated aggression, spontaneous aggression, verbal aggression, non-standard aggression, autoaggression, negativism.

Kirish. Bugungi axborot asrida ijtimoiy munosabatlarda namoyon bo'luvchi shaxs xulq-atvoriga xos individual tiplarni tadqiq qilish zamonaviy olimlarning diqqatini o'ziga tortmoqda. Tadqiq qilinishi zarur bo'lgan fenomenal xulq-atvor tiplaridan biri, bu - agressiya tushunchasidir. Inson agressiyasini o'rganish ko'plab fanlarning, xususan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, huquqshunoslik, tibbiyot va falsafa kabi fanlarning tadqiqot obekti bo'lib tushuncha mohiyatini o'rganish zamonaviy shaxsning psixologik qiyofasini ochib berishga xizmat qiladi.

Oddiy kundalik hayotda agressiya - zo'rvonlik yoki raqibni yengish uchun vosita sifatida qo'llaniladi. Agressiya - kishilar o'rtasidagi turli kelishmovchilik oqibatida kelib chiqadigan turli darajadagi xulq-atvor modellaridir. Tushunchaning o'ziga izoh berish qator qiyinchiliklarni tug'diradi, chunki, bu termin ko'plab xatti-harakat shakllarini o'zida qamrab olgan. Odamlar biron-bir kimsani agressiv shaxs sifatida tavsiflaganlarida, uni boshqalarni haqorat qiluvchi, badfe'l, barcha narsani o'zi istaganidek qilishni istaydigan, o'z g'oyalarni qat'iy himoya qiladigan, yechimi yo'q muammolar girdobiga o'zini giriftor qiladigan inson, deb ta'riflashlari mumkin. Agressiyaga nisbatan berilgan bunday ta'rif to'g'ri yo noto'g'riligini bilish uchun bu tushunchaga oydinlik kiritish lozim[1].

Agressiyaga aloqador eng birinchi va balki eng mashhur nazariy tushunchaga asosan bunday fe'l-atvor o'z tabiatiga ko'ra ko'p jihatdan instinktivdir. Bu yondashuv juda keng tarqalgan bo'lib, unga ko'ra insonda genetik va konstitutsional jihatdan shunday harakatlar «programmalashtirilgan»ligi tufayli uning xulq-atvorida agressiya sodir bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Insonning agressiv xatti-harakatlarga moyilligini turlicha tushuntirishga qaratilgan nuqtayi nazarlar ichida eng mashhuri Z. Freyd, G. Marrey va boshqa olimlarning «inson va hayvonlarda agressiyaning tug'ma instinkti mavjud bo'ladi» degan qarashlaridir[2].

Agressiv xulq-atvor haqidagi fikr-mulohazalar XX asr boshlarida yuzaga keldi. Bu nazariya agressiya haqidagi dastlabki nazariya bo'lib, unda agressiyaning sababi frustratsiya nazariyasi bilan bog'liq ravishda tahlil etilgan. Unga ko'ra agressivlik frustratsiyaning oqibatidir. Bunday qarash birinchi marta Dollard tomonidan ilgari surilgan. Ammo ushbu nuqtayi nazar amaliyotda o'z tasdig'ini topmadi.

Agressiv xulq-atvor xususidagi ikkinchi nuqtayi nazar L.Berkovichning Ijtimoiy bilish nazariyasida keltiriladi. Unga ko'ra, maqsadga yo'naltirilgan faoliyat davomida vujudga keladigan to'siq shaxsda agressiv xatti-harakatlarni hosil qiladi. Nihoyat, agressiv xulq-atvorning kelib chiqish sabablari haqidagi eng zamonaviy nuqtayi nazar bilishning kognitiv nazariyasi bilan bog'liq holda ifodalanadi. Bu konsepsiyada agressiv harakatlar quyidagi jarayonlarning natijasi sifatida baholanadi:

Subyektning o'z agressiv xulq-atvorini ijobiy deb baholashi.

Frustratsiyaning mavjudligi.

Affekt yoki stress tipidagi emotsional qo'zg'alishning kuchliligi[2].

R. Kratchfeld va N. Livson agressiyaning bir-birini inkor etmaydigan ikki xil tavsifni ishlab chiqqanlar. Birinchisi, xulq-atvorning tashqi alomatlariga asoslanadi va unga ko'ra «Agressiya kimgadir ziyon yetkazuvchi xulq-atvorning har qanday ko'rinishidir». Ikkinchisi, odamning ichki niyatlari bilan bog'liq bo'lib, insonni harakatga undovchi kuchlarni o'rganish bilan anglash mumkin bo'lgan holatlar bilan mushtarakdir, Ya'ni, «Agressiya boshqa bir insonga ziyon yetkazishni maqsad qilib olgan har qanday xatti-harakatdir». Agressiyaning yuqorida zikr etilgan tavsiflariga monand tushunchalarga tayangan ko'plab psixologlar agressiyaning jonli olamning yashash uchun ko'rash bilan bog'liq o'zviy tavsifsi deb hisoblaydilar.

Jozef Bass tomonidan taklif etilgan mulohazalardan biriga asosan, agressiya - boshqalar uchun xavf tug'diruvchi va ularga ziyon yetkazuvchi har qanday fe'l-atvor ko'rinishidir[3].

Bir qancha taniqli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan agressiyaning ikkinchi ma'nosi esa quyidagini o'z ichiga oladi: u yoki bu harakatlar agressiya sifatida kvalifikatsiyalanishi uchun ular kimnidir oxir-oqibat xafa qilish yoki haqoratlashga olib kelishi shart emas, balki xafa qilish va haqoratlashni maqsad qilib qo'yish ham agressiyadir. Va nihoyat uchinchi nuqtayi nazar N. Zilman tomonidan bildirilib, unga ko'ra agressiya - boshqalarga tan jarohati va jismoniy jarohatlar yetkazish demakdir.

Agressiya tushunchasini talqin qilishdagi kelishmovchiliklarga qaramasdan, Ijtimoiy fanlar sohasidagi ko'plab mutaxassislar uning ikkinchi nuqtayi nazarda bayon etilgan ma'nosini ma'qullashga ko'proq moyillik bildiradilar.

Tadqiqot metodologiyasi. Agressiyaning ijtimoiy ma'qul va ijtimoiy agressiv xulq-atvor turlari farqlanadi. Ijtimoiy ma'qul agressiya turida frustratsiya, affekt, stress va nizo natijasida kelib chiquvchi zo'riqish hamda xavotirlanish ijtimoiy me'yorlarga mos keluvchi harakatlar orqali hal qilinadi. Agressiyaning turli: bevosita jismoniy kuch ishlatishdan, raqibni so'z bilan haqoratlab unga tahdid qilishdan tortib, boshqa bir insonni yashirincha boshqarishga, kelgusida kutilayotgan noxushliklarga shama qiluvchi bilvosita ta'sir ko'rsatish shakllari ko'zatiladi. Shuningdek, agressiyaning ijtimoiylashuvga bo'ysunmaydigan dardmandlik darajasiga boruvchi shakllari ham ma'lum.

Psixologiyada agressiv xulq-atvor quyidagicha klassifikatsiya qilinadi:

1. Agressiyaning dardmandlik darajasidagi alomatlar (tutaqib ketish, jahl kelganda o'zini yo'qotib qo'yish).

2. Agressiyaning jismoniy og'zaki va boshqa butun jamiyat uchun nomaqbul sanalgan axloq qonun-qoidalar bilan bog'liq shakllari (odatda, ular ijtimoiylashuv xususiyatlari, aksilijtimoiy xulq-atvor me'yorlarining mustahkamlanishi bilan bog'liq bo'ladi).

3. Jamiyatda qabul qilingan axloq qonun-qoidalarini yetarlicha o'zlashtirilmaganligi yoki xatti-harakatlarini idora qilish imkonini beruvchi xususiy sifatlarni to'liq shakllanganligi bilan bog'liq agressiyaning turli ko'rinishlari (ta'lim-tarbiya ko'rmaganlik).

4. Ayrim ko'zatuvchilar tomonidan agressivlik haq-huquqlarini poymol qilish, birovga ziyon yetkazish gumonini paydo qiladigan, boshqa bir ko'zatuvchilar tomonidan qat'iylik, faollik sifatida talqin qilinadigan barcha xatti-harakatlar[4].

Tahlil va natijalar.

Agresiyaning tashqi ko'rinishlari quyidagi shakllarda namoyon bo'lishi mumkin:

Jismoniy agresiya – qasddan og'riq etkazish istagi;

Ma'naviy agresiya – boshqa insonlarni so'zlar yoki harakatlar bilan kamsitish;

Motivli agresiya – boshqalarga qasddan zarar etkazish uchun harakat qilish;

Spontan agresiya – boshqalarning harakatlari yoki so'zlariga kutilmagan va nomantiquiy shaklda reaksiya qilish.

Verbal agresiya – baqirish, tahdid qilish yoki yomon so'zlar bilan ifoda etiladi.

To'g'ridan-to'g'ri agresiya - g'azab aniq bir inson yoki ob'ektga qaratilgan bo'ladi.

Nostandart agresiya - reaksiya qarshilik ko'rsata olmaydigan ob'ekt yoki insonlarga nisbatan ifodalanadi.

Yo'q qilish agresiyasi – qasddan zarar etkazish uchun qaratilgan.

Negativizm – umumqabul qilingan normalarni va qoidalarni rad qilish, qarshi bo'lish.

Autoagressiya – insonning o'ziga qaratilgan salbiy harakatlar, o'z-o'zini jazolash[1].

Tadqiqot jarayonida respondentlarning agressiv hodisalarga uchraganligi yoki shunday holatga guvoh bo'lganligini o'rganish maqsadida so'rovnoma o'tkazildi. So'rovnoma natijalariga ko'ra respondentlar guvoh bo'lgan agressiya turlari ichida yuqori foizni "verbal agressiya" va "ma'naviy agressiya" turlari tashkil qildi. Tahlillarga ko'ra 95 % respondentlar guvoh bo'lgan hodisalar atrofidagi insonlarning boshqa insonlarni so'zlar yoki harakatlar bilan kamsitishiga va tengdoshlarining o'z oilasida baqirish, tahdid qilish yoki salbiy so'zlar bilan munosabatda bo'lish agresiyasini boshdan kechirganidir. Shuningdek, respondentlarning 60 % motivli agressiyaga, 45 % to'g'ridan – to'g'ri agressiyaga 40 % jismoniy agressiyaga 10 % negativizm va spontan agressiyaga 5 % autoagressiya, yo'q qilish agresiyasi va nostandart agressiyaga guvoh bo'lishgan.

Agressiv xulq-atvor bu inson bilan vaziyatning o'zaro ta'siri natijasidir. Agressivlik sifat va miqdor tavsiflariga ega bo'lib, barcha xossalar kabi u ham turli darajalarda ifodalanadi. Deyarli to'liq nomavjudlikdan to yetarlicha rivojlangan agressivlikkacha namoyon bo'ladi. Agressivlik har bir shaxsda ma'lum miqdorda mavjud bo'ladi. Agressivlik darajasi yuqori bo'lgan kishilar boshqalarga nisbatan agressiv reaksiyalarni namoyon etishga ko'proq moyil bo'ladi. Agressiv reaksiyalarga boshqa odamlarni qoralash, haqoratlash yoki ularga jismoniy zarar yetkazishga yo'naltirilgan reaksiyalarni kiritishimiz mumkin.

Xulosa va tavsiyalar. Agressiv xulq-atvor asosini agressivlik motivi tashkil etadi. Agressiv xatti-harakatlar shaxsga ma'naviy, moddiy yoki jismoniy zarar yetkazishi, destruktiv xulq-atvorning yuzaga kelishiga ta'sir ko'rsatishi bilan xarakterlanadi. Bunday xatti-harakatlarni bartaraf etishning psixologik jihatdan qiyin tomoni shundaki, agressiv xatti-harakat qiluvchi shaxs o'z xatti-harakatlarini oqlash uchun turli xil dalillarni keltiradi va o'z aybini soqit qilishga urinadi. Aggressiyaning tez-tez ifodalanishi shaxsning emotsional holati bo'lib, uning asosini quyidagilar tashkil etadi:

- nerv-psixik kasalliklar, inson nerv sistemasining nihoyatda charchaganligi;
- oiladagi psixologik muhitning nosog'lomligi va ota-onalarda pedagogik-psixologik bilimlarning yetishmasligi;
- shaxsning karakter, xislati, ijtimoiy muhitning yomonlashuvi.

Agressivlikning me'yordan ortishi natijasida shaxsda asab tizimining buzilishi, nerv-psixik kasalliklar, kommunikativ malakalarning pasayishi, o'z-o'ziga adekvat baho bera olmaslik, ishonch hissining yo'qolishi, o'z-o'zini boshqara olmaslik, xavotirlanish darajasining ortishi, frustratsiya, depressiya, stress kabi salbiy oqibatlar ko'zatiladi.

Hozirgi kunda insonlarda ko'zatilayotgan agressiv xatti-harakatlarning namoyon bo'lish sabablarini aniqlash, destruktiv xulq-atvorni oldini olish yoki nazorat qilish muammolarini

ilmiy o'rganish shuni ko'rsatadiki, inson tabiatdagi bu ko'rinishni chuqur o'rganish psixologiya fanining bugungi kun talabiga aylanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Зайцев А. К. Социальный конфликт на предприятии. - Калуга: КИСИ. 1993.
2. F.Mo'minov, Sh.Barotov va boshq. Ochiq axborot tizimlarida axborot-psixologik xavfsizlik. Darslik. – T.: “Fan va texnologiya”, 2013. B. 46.
3. Castells, Manuel. End of Millennium. Vol. 3 of Information Age: Economy, Society and Culture. Oxford: Blackwell. 1998. – B. 338.
4. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasini takomillashtirish. Ped.fan.fal.dok. ...dis. - Qarshi: QarDU, 2021. – B. 99.

Sherimbetova Zamira Shalabayevna,

*Nukus innovatsion instituti "Pedagogika, psixologiya va xorijiy tillar" kafedrası professori,
psixologiya fanlari nomzodi*

TALABALAR O'QITISH SIFATINI OSHIRISHNING IJTIMOY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar o'qitish sifatini oshirish jarayonining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida ijtimoiy muhit, psixologik omillar va shaxsiy motivatsiyaning roli yoritilgan. Shuningdek, talabalar motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va psixologik farovonligining ta'lim jarayoniga bo'lgan ta'siri o'rganilib, ta'lim samaradorligini oshirish borasida ilmiy-nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Ijtimoiy muhit, ta'lim jarayoni, motivatsiya, psixologik faravonlik, tarbiya.

Аннотация: В данной статье анализируются социально-психологические особенности процесса повышения качества обучения студентов. Освещается роль социальной среды, психологических факторов и личностной мотивации в образовательном процессе. Также изучается влияние мотивации, социальной активности и психологического благополучия учащихся на учебный процесс, приводятся научно-теоретические данные по повышению эффективности обучения.

Ключевые слова: социальная среда, учебный процесс, мотивация, психологическое благополучие, воспитание.

Annotation: This article analyzes the socio-psychological characteristics of the process of improving the quality of teaching students. The social environment, psychological factors and the role of personal motivation are covered in the educational process. Also, the impact of student motivation, social activity and psychological well-being on the educational process is studied and scientific-theoretical data is presented on improving educational efficiency.

Key words: social environment, educational process, motivation, psychological well-being, upbringing.

Kirish. Talabalarni o'qitish sifatini oshirish bugungi kundagi ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon faqatgina bilim berishga qaratilgan mexanik yondashuvdan iborat bo'lmay, balki talabalar shaxsining har tomonlama rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan ijtimoiy-psixologik omillarni ham o'z ichiga oladi. Ta'lim jarayonida ijtimoiy muhitning ahamiyati katta, chunki talabalar nafaqat nazariy bilimlarni, balki jamiyatda samarali muloqot qilish, jamoada ishlash va mas'uliyatli qarorlar qabul qilish ko'nikmalarini ham egallashlari zarur.

Ijtimoiy-psixologik omillar ta'lim sifati va uning natijadorligida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Jumladan, talabalar o'rtasidagi sog'lom raqobat muhiti, ularning ichki motivatsiyasi, o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishi va psixologik farovonligi ta'lim jarayonini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi. Shu bilan birga, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va psixologik yondashuvlar talabalarni mustaqil fikrlashga, innovatsion g'oyalarni ilgari surishga hamda o'z bilimlarini amaliyotga tatbiq etishga yo'naltiradi. Talabalar motivatsiyasi, ijtimoiy muhitning ta'siri, shaxsiy mas'uliyat hissini shakllantirish va jamoaviy hamkorlikning rivojlanishi masalalari o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda yangi yondashuvlar va innovatsion usullarni joriy etishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalik davri shaxsning hayotida muhim bosqich hisoblanadi va oliy ta'lim tizimining rivojlanishi bilan uzviy bog'liqdir. K.D.Ushinskiy bu davrni "eng muhim va hal qiluvchi" deb atagan, chunki bu davr insonning kelajakdagi yo'nalishini belgilaydi va o'zini rivojlantirish uchun yuqori darajada samarali bo'ladi.

L.D.Stolyarenko talabalar jamoasini oliy ta'lim muassasasi tomonidan tashkiliy jihatdan birlashtirilgan va o'ziga xos ijtimoiy guruh sifatida tasvirlagan. Bu guruh o'ziga xos maqsadlar

va muayyan ijtimoiy funksiyalar bilan ajralib turadi. I.A.Zimnaya esa talabalarni jamiyatning yuqori darajadagi ta'lim va madaniy ehtiyojlarini qondiruvchi hamda bilim va kasbiy ko'nikmalarni egallashga yo'naltirilgan odamlar toifasi sifatida ta'riflaydi [6].

B.G.Ananyevning tadqiqotlariga ko'ra, 17 yoshdan 25 yoshgacha bo'lgan davr shaxsiy rivojlanishning yakuniy bosqichidir. Bu davrda shaxsning o'z-o'zini tarbiyalash ko'nikmalari shakllanadi va professionallashtirish jarayoni o'zining muhim bosqichiga kiradi. Shu davrda shaxs o'zining intellektual va ijodiy salohiyatini yanada rivojlantirish uchun keng imkoniyatlarga ega bo'ladi [1].

Oliy o'quv yurtining zamonaviy talabasi – o'z oldiga aniq maqsadlar qo'ygan, ammo hayotiy tajribani to'plashga ehtiyoj sezadigan yosh shaxsdir. Ayniqsa, birinchi kurs talabalarida maktab va oliy o'quv yurtidagi o'quv jarayonlari o'rtasidagi farqlarga moslashish muhim o'rin tutadi. Bu davr yangi sharoitlarga moslashish, yangi ijtimoiy rollar va shaxsiy sifatlarni shakllantirishni talab qiladi. Masalan, mustaqillik, tashabbuskorlik va o'zini-o'zi boshqarish kabi xususiyatlar bu davrda rivojlanadi.

Talabalar hayotida o'quv jarayonining o'zni juda katta. L.S.Vygotskiyning ta'kidlashicha, rivojlanish va ta'lim jarayonlari bir-biriga mos kelmaydi, balki rivojlanish ta'limga ergashadi. U "yaqin rivojlanish zonasi" konsepsiyasini ilgari surib, talabaning o'quvchi bilan birgalikda bajaradigan vazifalari vaqt o'tishi bilan mustaqil bajarilishini ta'kidlagan. Bu esa bilim va ko'nikmalarni egallash uchun qulay sharoit yaratadi [5].

B. G. Ananyev va boshqa tadqiqotchilarning tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, insonning psixofizik rivojlanishi heterojen bo'lib, turli jarayonlarning murakkab uyg'unligidan iborat. Bu davrda insonning shaxsiy xatti-harakatlari va aqliy faoliyatining barqaror shakllari rivojlanib, ijtimoiy va psixologik o'sish jarayonlari sodir bo'ladi [1].

Shuning uchun talabalar faoliyatini yo'naltirish va ularga o'z o'quv jarayonlarining mohiyatini tushuntirish muhimdir. Bu faoliyat nafaqat imtihonlarni muvaffaqiyatli topshirishga, balki bilim, ko'nikma va tajriba o'ttirishga qaratilgan bo'lishi kerak. Bunday yondashuv orqali talabalar nafaqat o'z kelajagini muvaffaqiyatli quradi, balki jamiyatga foydali shaxs sifatida shakllanadi.

Talabalik yillari shaxsning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi, ayniqsa shaxslararo munosabatlar va ijtimoiy moslashuv jarayonlari alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu bosqichda talabalarda ko'proq reflektivlik, chuqur hissiy tajribalar, va shaxsiy mazmunli muloqotga moyillik shakllanadi. Tushunish, hamdardlik, va ishonchli munosabatlar o'rnatishga bo'lgan ehtiyoj bu yoshda kuchayadi, bu esa tengdoshlar bilan muloqotning ahamiyatini oshiradi va shaxsiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, V.S.Ilyin va V.A.Nikitin kabi olimlar talabaning yangi yashash sharoitlariga qanchalik tez moslasha olishi o'qitish jarayonlarining samaradorligi hamda talabaning axloqiy va ruhiy salomatligini tiklash bilan uzviy bog'liqligini ta'kidlaydilar. Bu jarayon o'quv faoliyatiga moslashish, kognitiv usullarni o'zlashtirish va kognitiv qadriyatlarga yo'naltirish orqali amalga oshadi [4].

Shu bilan birga, yangi muhitga moslashish o'quv natijalaridan norozilik, guruhdagi tanish maqomning yo'qolishi va kelajakdagi kasbga oid tashvishlar bilan birga, stress va asabiy charchoqqa sabab bo'lishi mumkin. Noto'g'ri moslashish holatlari psixikaga salbiy ta'sir qilib, o'zini o'zi yo'q qilishga moyil xatti-harakatlar va tajovuz shaklida namoyon bo'lishi mumkin.

Ba'zi talabalar uchun yangi sharoitlarda xulq-atvorni qayta shakllantirish jarayoni murakkab kechsa, boshqalari uchun bu jarayon nisbatan barqaror o'tadi. Ushbu jarayonning xususiyatlari asosan talabaning yuqori asabiy faoliyat turi va ijtimoiy omillarga bog'liq.

Shuning uchun, talabaning individual xususiyatlarini chuqur o'rganish va ular asosida yangi faoliyat turlariga moslashish tizimini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv noto'g'ri moslashish sindromini kamaytirishga va talabaning psixologik jihatdan qulay va samarali rivojlanishiga ko'maklashadi. Shu orqali talabalarning o'qitish sifatini oshirish ham ijtimoiy, ham psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlanadi.

Muhokama. Talabalik yillari shaxs rivojlanishida muhim davr hisoblanadi. Bu bosqichda talabalar yangi yashash sharoitlariga moslashish, o'zlarini turli ijtimoiy rollarda sinab ko'rish va professional rivojlanishga qaratilgan faoliyatlarni amalga oshirish imkoniga ega bo'ladilar. Shu bilan birga, talabaning o'qitish jarayonlaridagi samaradorligini oshirish va uning shaxs sifatida shakllanishini qo'llab-quvvatlash ijtimoiy-psixologik omillar bilan chambarchas bog'liqdir.

Talaba yangi muhitga kirganida, uning shaxslararo munosabatlari sezilarli darajada o'zgaradi. Bu davrda talabalar ko'proq shaxsiy va mazmunli muloqotga intilishadi, his-tuyg'ularni boshdan kechirish manbaiga aylanadilar. Yangi ijtimoiy sharoitlarda muloqot qilish, do'stlik o'rnatish va hamdardlik ko'rsatishga ehtiyoj kuchayadi. Ayniqsa, tengdoshlar bilan o'zaro aloqalar o'ziga xos ahamiyat kasb etib, shaxsiy rivojlanishning asosiy omillaridan biriga aylanadi.

Moslashuv jarayonida talabaning shaxsiy xususiyatlari va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash darajasi muhim ahamiyatga ega. Yangi muhitga o'rganish jarayoni oson kechadigan talabalar bilan bir qatorda, bu holat murakkabroq kechadigan talabalar ham uchraydi. Moslashuvning muvaffaqiyatsiz kechishi o'quv natijalarining pasayishi, shaxslararo munosabatlardagi qiyinchiliklar va kelajakdagi kasbiy faoliyatga oid xavotirlar bilan birga stress va charchoqqa olib kelishi mumkin. Bu holatlar noto'g'ri moslashuv sindromiga sabab bo'lishi, shuningdek, shaxsning ichki muvozanatini buzishi ehtimoli mavjud.

Talabalar o'qitish sifatini oshirish uchun ularning psixologik va ijtimoiy ehtiyojlarini chuqur tahlil qilish zarur. Yangi faoliyat turlariga qiziqish uyg'otish, kognitiv qadriyatlarni shakllantirish va ularga mos keluvchi sharoitlarni yaratish o'qitish jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Talabaning individual xususiyatlariga mos keluvchi moslashuv dasturlarini ishlab chiqish, ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini joriy qilish orqali ularning shaxsiy va professional rivojlanishi ta'minlanadi.

Shunday qilib, talabaning o'qitish jarayonidagi samaradorligi va yangi sharoitlarga moslashish qobiliyatini oshirish, uning o'zini ijtimoiy muhitda qulay his qilishi va rivojlanishiga ko'maklashish maqsadida ijtimoiy-psixologik xususiyatlarni hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuv nafaqat ta'lim jarayonini yaxshilash, balki shaxsning barkamol rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

Xulosa. "Talabalar o'qitish sifatini oshirishning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusida olib borilgan tadqiqotlar, ta'lim jarayonida ijtimoiy va psixologik omillarning o'rni va ahamiyatini ko'rsatdi. O'qitish sifatini oshirish faqat o'qituvchilarning bilim darajasi va metodik mahorati bilan cheklanmaydi, balki talabalar bilan samarali muloqot o'rnatish, ularning psixologik holatini hisobga olish va o'zaro hurmat va ishonch asosida ta'lim jarayonini tashkil etish ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologik jihatdan talabalar o'qitish jarayonida faol ishtirok etishlari, o'z fikrlarini erkin ifoda etishlari va o'qituvchi bilan doimiy muloqotda bo'lishlari zarur. Ijtimoiy jihatdan esa, talabalar o'rtasidagi o'zaro yordam va hamkorlik, guruhda ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish, ularning o'zaro raqobatbardoshlikni va muammolarni hal qilishda ishtirok etishlari talab etiladi.

Shuningdek, o'qitish sifatini oshirishda talabalarni o'quv jarayoniga faol jalb etish, ularning o'zini o'zi baholash qobiliyatini rivojlantirish, motivatsiya va shaxsiy yuksalishning ijtimoiy-psixologik tomonlarini tushunish muhimdir. O'qituvchilarga talabalar bilan psixologik jihatdan muvozanatli va samarali munosabatda bo'lishni o'rgatish, o'quv jarayonining sifatini oshirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim sifatini oshirish ijtimoiy-psixologik omillarga to'liq e'tibor qaratish, talabalar va o'qituvchilar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni yaxshilash orqali mumkin. Bu esa o'z navbatida talabalarni yuqori bilim va ko'nikmalarga ega, ma'naviy jihatdan rivojlangan shaxslar qilib tarbiyalashga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ананьев Б.Г. К психофизиологии студенческого возраста / Современные психолого-педагогические проблемы высшей школы / Под ред. Б.Г. Ананьева, Н.В. Кузьминой. - Вып. 2. - Л.: ЛГУ, 1974. - С. 3-15.
2. Ильин В.С. О повышении системности в педагогической подготовке студентов к работе в школе / Современные задачи общеобразовательной школы и проблемы подготовки педагогических кадров: Сб. науч. тр. АПН СССР НИИ общей педагогики. - М., 1978. - С. 24-36. 6.
3. Никитин В.А. Начало социальной педагогики: уч. пос. - М.: Флинта, 1999. - С. 72.
4. Столяренко Л.Д. Основы психологии. - Р /наД.: Феникс, 1997. - С. 736.
5. Выготский Л.С. Собр. соч. в 6 т. / Под ред. А.М. Матюшкина. - М.: Педагогика, 1982-1984. - Т. 3. - С. 673.
6. Зимняя И.А. Педагогическая психология: уч. для студентов по пед. и психол. направ. и спец. — М.: Логос, 2000. — С. 384.

Razzoqova Shaxnoza Jo'rayevna,

Buxoro innovatsion ta'lim va tibbiyot universiteti o'qituvchisi

NODAVLAT TA'LIM TASHKILOTLARI TALABALARI O'QUV JARAYONIGA MOSLASHUVINING EMPERIK NATIJALARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarni nodavlat ta'lim tashkilotlariga tayyorlashni o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni nodavlat ta'lim tashkilotlariga moslashishi dolzarb muammolari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Natijadorlik, konseptual g'oya, dunyoqarash, bunyodkorlik, moslashuvchanlik, fikrlashning ravonligi.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психо-логические особенности подготовки студентов к частным образовательным учреждениям, а также анализируются актуальные проблемы их адаптации в этих учреждениях путем развития данного процесса.

Ключевые слова: Результативность, концептуальная идея, мировоззрение, созидательность, адаптивность, логичность мышления.

Annotation: This article analyzes the urgent problems of focusing on the specific psychological aspects of preparing students for non-governmental educational organizations, adapting them to non-governmental educational organizations through the development of this process.

Key words: Consequentialism, conceptual idea, worldview, creativity, flexibility, fluency of thinking.

Kirish. Jahonda talabalarni o'quv faoliyatiga moslashuviga oid bir qator tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabani ta'limga har tomonlama mukammal tarzda ayyorlash, ta'lim va amaliyot orasidagi bog'liqlikni bartaraf etish yo'lida «Tajriba asosida ta'lim olish» (Experimental learning) g'oyasi ustuvor bo'lib qolmoqda. Ushbu jarayon har tomonlama tafakkuri boy, intellekti yuqori talabalarni nodavlat ta'lim tashkilotlariga tayyorlashni talab etmoqda. Xususan, TIMSS, STEAM, PIRLS kabi xalqaro dasturlar barcha davlatlar ta'lim tizimida talabalarni nodavlat ta'lim tashkilotlari hayotiga moslashish jarayonlarini o'rganish, ularni o'quv faoliyatiga munosabat motivatsiyasini shakllanganlik darajalari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishmoqda. Qolaversa bugungi kunda ilm-fan va texnologiyalarning tez sur'atlar bilan rivojlanishi sharoitida uzluksiz ta'limning barcha bosqichlari, jumladan, oliy ta'limning samaradorlik, natijadorlik va sifatini ta'minlashda ta'lim oluvchilarning o'quv faoliyatiga moslashish darajalarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratilmoqda. Buning uchun talabalarni nodavlat ta'lim tashkilotlariga tayyorlashni o'ziga xos psixologik jihatlariga e'tibor berish, bu jarayonni rivojlantirish orqali ularni nodavlat ta'lim tashkilotlariga moslashishi dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda talabalarni nodavlat ta'lim tashkilotlariga moslashish jarayonlarini takomillashtirish davlat siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan etib belgilangan bo'lib, zarur huquqiy-me'yoriy asoslari yaratildi.

Taraqqiyot strategiyasining birinchi ustuvor yo'nalishida «Inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish» va «iqtidorli yoshlarning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni yanada jonlantirish, mamlakatda amalga oshiriluvchi innovatsion g'oyalar, loyihalar va texnologiyalarni ishlab chiquvchi barkamol avlodni tarbiyalash» konseptual g'oya negizida ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy-siyosiy islohotlarni amalga oshirishga qaratilgan davlat siyosati strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi

ularni amalga oshirishda talabaning individual qiyofasini to'laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida inson kapitalini rivojlantirish, sog'lom dunyoqarash va bunyodkorlikni umummilliy harakatga aylantirish muhim vazifalar belgilanganligi ularni amalga oshirishda shaxsning individual qiyofasini to'laqonli namoyon etishga xizmat qiluvchi omillarning ahamiyatini o'rganishga yo'naltirilgan tadqiqotlarni amalga oshirishga yetarli asos yaratilganidan dalolat beradi.

Biz maqola maqsadiga mos ravishda tanlagan metodikalarimizni o'ziga xos mezonlarini o'rtacha qiymatlarda ham empirik natijalarini tahlili qilishni maqsad qilgandik va mazkur maqsadni amalga oshirdik (1-jadval)

1- jadval

Vilyamsning “Ijodiy fikrlash” testi bo'yicha o'rtacha qiymat bo'yicha empirik natijalar (n=180)

Omillar	O'rtacha qiymat (M)	
	1- bosqich	3- bosqich
Fikrlashning ravonligi	20,4	11,3
Moslashuvchanlik	10,6	7,2
Tafakkurning o'ziga xosligi	18,3	25,6
Tafakkurning rivojlanish darajasi	5,4	9,7
Usullarni nomlash darajasi	13,9	15,8
Jami	63,7	69,6

1-jadval tahliliga nazar tashlaydigan bo'lsak, olingan empirik ma'lumotlardan shuni ta'kidlash mumkinki, “Fikrlashning ravonligi” va “Moslashuvchanlik” omillari 3 bosqich talabalariga nisbatan 1- bosqichda ustuvorlik qilarkan. Ya'ni 1- bosqichda talabalar orasida ko'plab g'oyalarni yaratish, fikrlarning rang-barangligi, muammolarni hal qilishning yangi strategiyalarini tez va oson topish kabi sifatlarini ustuvorlik qilishi bilan izohlash mumkin. Mazkur jarayonlar esa ularni nodavlat ta'lim tashkiloti hayotiga bo'lgan munosabati, o'quv faoliyati motivlarini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Talabalar yoshining ortishi bilan esa “Tafakkurning o'ziga xosligi” omili ko'rsatkichlarining birmuncha oshganiligini kuzatishimiz mumkin. Ammo bu o'zgarishni faqat sifat deb hisoblash mumkin, ko'rsatkichlar orasidagi farqlarni qat'iy tahlil qilish ishonchsiz. Ya'ni, 1-bosqichdan 3-bosqichga o'tish jarayonida talabalarning malaka va ko'nikmalari ortishi bilan “Fikrlashning ravonligi”, “Moslashuvchanlik” “Tafakkurning o'ziga xosligi” omillari taxminan bir xil darajaga ega bo'lar ekan, ya'ni, yosh xususiyatlarini oshishi talabalaridagi yuqorida keltirib o'tilgan sifatlar bir muncha ko'p ortmasligini kuzatishimiz mumkin. Ushbu empirik ma'lumotlardan shu narsani aytish mumkinki nodavlat ta'lim tashkiloti talabalarida 1-3-bosqich oraliq diapazonida ijodiy fikrlash sifatleri deyarli o'zgarmas ekan.

2- jadval

Vilyamsning "Ijodiy fikrlash" testi bo'yicha standart og'ishlar

Omillar	O'rtacha qiymat (M)	
	1-bosqich	3- bosqich
Fikrlashning ravonligi	1,5	1,7
Moslashuvchanlik	1,8	2,1
Tafakkurning o'ziga xosligi	4,6	5,0
Tafakkurning rivojlanish darajasi	4,6	5,5
Usullarni nomlash darajasi	6,1	7,4

2-jadval natijalariga e'tiboringizni qaratadigan bo'lsak, ya'ni Vilyamsning "Ijodiy fikrlash" testi bo'yicha standart og'ishlar quyidagicha emperik natijalarni qayd qildi. Rivojlanishga ko'ra, yosh ortishi bilan ushbu omillar bo'yicha o'rtacha qiymat oshadi (Student t-mezoni, 0,01 qiymatdagi ishonchlilik).

Bu shundan dalolat beradiki, Vilyams metodikasi bo'yicha talabalarni yoshi, malaka va ko'nikmalari ortishi bilan ularning ularning bajargan mashqlarini assimetriyasi va murakkabligi ham ortib borar ekan, bu esa albatta kreativlik darajasi bilan bog'liq. Usullarni nomlash darajasi omili bo'yicha statistik ko'rsatkichlar biroz o'sganligi ko'rishimiz mumkin. Buni talabalar yoshi, tassavurlari ortganligi, ulardagi nutq komponentlarining rivojlanishini so'z boyligini ortishi va so'zlar bilan ko'nikmalarning yashirin ma'nosini ifoda qilish qobiliyati bilan belgilash mumkin (2-jadval). Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi jadallik bilan yangilanib borayotgan jamiyat hayoti uchun ijobiy holda moslashuvchan va ijtimoiy muhitda belgilangan me'yorlardan kelib chiqib o'z-o'zini erkin namoyon etuvchi talabalar faoliyati, ularning ijtimoiy ong, ijtimoiy bilim hamda ijtimoiylashuvga oid ko'nikmalari zaruriy ahamiyatga egadir. Nodavlat ta'lim tashkilotlarining ijodkorlik sifatleri ularni nafaqat ta'lim-tarbiya olish jarayonlarida, balki, ularning o'quv faoliyatiga moslashishida ham alohida ahamiyat kasb etar ekan.

Maqolada talabalarni maktabga moslashish jarayonlarini psixologik omillarini har biri o'ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi va bunga alohida uslubni tashkil etishi qayd etildi va bu uslub, o'z navbatida, psixologiya fanidagi maktabga psixologik moslashish samaradorligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etishi tabiiy.

Har bir tadqiqot usulining ishlab chiqilishi va qo'llanilishi nodavlat ta'lim tashkiloti talabalari uchun xarakterli bo'lgan oliy ta'limga moslashish motivatsiyasi ko'rsatkichlarini va uning o'ziga xos yosh va dinamik xususiyatlar bilan bog'liq ijtimoiy-psixologik jihatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси" ПФ-4947- сон Фармони. - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами. 2017 йил, 6-сон (766). – Б.236.
2. Винникот Д.В. Разговор с родителями. М., 1998. С. 32-88; Обухов Я.Л. Значение первого года жизни для последующего развития ребенка// Обзор концепции Винникота Д., 1997. 216 с
3. Ғозиев Э.Ғ. Онтогенез психология: Дарслик. -Т.: "Ношир",2010.-360 б.
4. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2002.1-2 kitob.
5. Шамсиев Ў.Б. "Боланинг ўзини-ўзи англаш муаммоси" Ўқув-услубий қўлланма "Тафаккур" нашриёти, 2012 йил, 48-бет.

6. Шамсиев Ў.Б. “Оилавий ҳолдинг – бола ижтимоийлашувининг психологик механизми”: монография// “Тошкент кимё-технология институти”. Ташкент: Наврўз, 2018. 124 с
7. Шоумаров Ғ.Б. Никоҳдан ташқари алоқаларнинг келиб чиқиш сабаблари ва унинг олдини олиш чоралари// Ўзбек оиласининг этнопсихологик муаммолари. – Респ. илмий-амалий анжумани маърузалари қисқача баёни. – Т., 1993. – Б. 160-168.
8. Madaminova Ғ.Б. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli// "Science and Education" Scientific Journal / Impact Factor 3,848 (SJIF) February 2023 / Volume 4 Issue 2. – Б. 978-980.
9. Berdiyeva D.R. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli// "Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences" SJIF 2022:– Б. 1043-1049.

*Akbarova Muazzam Jaloliddinovna,
Farg'ona davlat universiteti, Psixologiya kafedrası o'qituvchisi*

OILALARDAGI DESTRUKTIV MUNOSABATLAR XUSUSIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING QARASHLARI

Annotatsiya: Maqolada oila to'g'risida, uning insoniyat tarixining barcha davrlarida jamiyatning eng muhim bo'g'ini bo'lganligi, hamda, muqaddas dargoh ekanligi, har qanday taraqqiyot va rivojlanish oila manfaatlarini bilan bog'liqligi, oilaning mustahkamligiga ta'sir etuvchi destruktiv omillar xususida qator Sharq mutafakkirlarining qarashlari yoritilgan.

Kalit so'zlar: oila, destruksiya, destruktiv munosabatlar, oilaviy qadriyatlar, oiladagi psixologik iqlim.

Аннотация: В статье речь идет о семье, о том, что она является важнейшим звеном общества во все периоды человеческой истории, и что она является священным местом, что любой прогресс и развитие связаны с интересами семьи, влияние на устойчивость семьи. Освещены взгляды ряда мыслителей Востока относительно деструктивных факторов.

Ключевые слова: семья, деструкция, деструктивные отношения, семейные ценности, психологический климат в семье.

Abstract: The article is about the family, the fact that it is the most important link of society in all periods of human history, and that it is a sacred place, that any progress and development is related to the interests of the family, the impact on the stability of the family. The views of a number of Eastern thinkers regarding destructive factors are highlighted

Key words: family, destruction, destructive relationships, family values, psychological climate in the family.

Kirish. Oila-insoniyat tarixining barcha davrlarida jamiyatning eng muhim bo'g'ini, asosi, markazi bo'lgan eng muqaddas dargohdir. Oila-jamiyatning ajralmas qismi bo'lib, biror bir xalq, millat mavjud emaski, o'zining rivojlanishida tarixida, shaxsiy taraqqiyot yo'lini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarni, munosabatlarni chetlab o'tolmagan bo'lsa. Har qanday istiqbol, rivojlanish, taraqqiyot, oldinga siljishni oilani manfaatlaridan alohida tarzda tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila-bu hayotning ilk boshlang'ich nuqtasi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zida to'laqonli baxtiyorlikni his etadi.

Oila psixologiyasi zamonga xos holatda mutlaqo yanggi bilimlar bilan tezlik bilan rivojlanib kealyotgan, jamiyat taraqqiyoti va ma'naviy barqarorlik uchun kerak bo'lgan ilmiy fanning eng muhim amaliy sohasidir.

Oilaviy munosabatlar psixologiyasi sohasi bo'yicha qarashlar tarixidan shu narsa ayon bo'ldiki, inson uning kim bilan va qanday yashashi muammosiga qiziqish qanchalik uzoq o'tmishga borib taqalsa, oilaviy munosabatlarning shakllanishi shunchalik navqiron va yosh bo'lib, uning shakllanishi yanggi davrga to'g'ri keladi.

Dunyodagi barcha millatlar qatori o'zbek millati ham o'zining tarixiy rivojlanish davrida va taraqqiyot istiqbolini belgilashda oila va u bilan bog'liq muammolarni o'rganib kelgan. Zero, oila ajdodlar tomonidan meros bo'lib kelinayotgan qadriyatlar, xususan, xalqning madaniy merosi, axloqiy qarashlarining asl negizi hisoblanadi. Oila bolaning ilk ijtimoiy munosabatlarga kirishadigan maskanidir. Shunday ekan, oila deb atalmish mo'jaz uyushmada bolaning ota-onasi bilan bir qatorda uning aka-uka, opa-singillari va yaqin qarindoshlari bilan bo'ladigan muloqoti bolaning ijtimoiylashuv jarayoniga o'ta kuchli ta'sir etuvchi va kelajagi uchun zamin hozirlovchi poydevor vazifasini bajaradi.

Ayniqsa, ona zaminimizning yillar davomida avloddan-avlodga o'tib sayqallanib borayotgan maqol, matal, ertak, doston, afsona, hikmatli so'zlar, hadislar va iboralarda ijtimoiy

hayotning eng murakkab va dolzarb muammolaridan tortib oilaviy hayot munosabatlarigacha o'z ifodasini topgan.

O'zbek xalqi, ajdodlarimiz oilada farzandlar o'rtasida ijobiy munosabatlarning yuzaga kelishi va saqlanib qolinishi uchun yuqoridagi bebaho manbalardan juda unumli foydalanib kelishgan. Masalan, xalqimizning ming yillik tarixiga ega bo'lgan Alpomish, Go'ro'g'li, xind xalqining ajoyib dostonlari "Maxabhorat", "Ramayana" kabi yodgorliklarda zamonaviy yosh oilalardagi er-xotin munosabatlari va shu maskanda kamol topayotgan farzandlarning o'zaro munosabatlari qanday tartibda bo'lishi juda chiroyli tarzda ifodalab, ko'rsatib berilgan.

Muqaddas islom dinimiz esa, Qur'oni karim va Hadisi shariflarda ham ota-ona, farzand munosabatlari muhim o'rinni egallaydi. Dinimizda ota-ona farzandni dunyoga kelishiga sababchi, odob-axloqni o'rgatuvchi, hayotda bilmaganlarini o'rgatib ezgulik sari yetaklovchi, oila deb atalmish buyuk qo'rg'onning ma'naviy ustozlari sanaladi. Farzand kamoloti va uning tarbiyasida, ma'naviy olamida, jamiyatda qay tartibda o'rin tutishida, aka-uka, opa-singillari bilan bo'ladigan ahil munosabatlarida zamonaviy yosh oila asoschilarining, jumladan, ota-onaning o'rni qay darajada ekanligini va bevosita farzandlarni kelajakda jamiyat uchun manfaat keltiradigan kasb tanlashlaridagi ularning vazifalari to'g'risida Sharq mutafakkirlari o'zlarining nodir asarlari orqali fikrlarini aytib o'tishgan.

Jumladan, Imom Ismoil al-Buxoriy, at-Termiziy, Samarqandiyning ijodlarida hamda tasavvuf falsafasining yirik namoyondalari bo'lmish Ahmad Yassaviy, Baxovuddin Naqshbandiy, Najmiddin Kubro, Burxoniddin Marg'iloniy kabi allomalar o'z fikrlari orqali xalqni mustahkam va ruhan sog'lom oila, o'zaro yakdil munosabatlar, go'zal axloq, chiroyli tarbiya, silayi rahm va ma'rifatga targ'ib qilishgan.

Buyuk faylasuf Abu Nasr Forobiy "Mantiqqa kirish", "Aql to'g'risida", "Baxt-saodatga erishuv haqida", "Fozil shahar odamlari qarashlari", "Urush va tinch turmush haqida kitob" kabi 160 dan ortiq qimmatli asarlarida shaxslararo munosabatlarga alohida to'xtalib, aynan hozirgi zamonaviy yosh oilalarda uchraydigan, destruktiv munosabatlarga olib boradigan munosabatlarni oldini olish, munosabatlarni mo'tadil tarzda olib borilishi to'g'risida yo'nalishlar ko'rsatilgan.

Farobiy inson hayotida shaxslararo munosabatlar o'rnini alohida ta'kidlar ekan, u insonlarni o'zaro do'st-inoq, hamjihat, qon-qarindosh bo'lib hayot kechirishiga, mehr-muhabbat ko'rsatishiga da'vat etgan. Shu sababli yashash uchun zarur bo'lgan, kishilarni o'zaro yetkazib beruvchi va yordamlashuvchi ko'p kishilarning birlashuvi orqaligina inson o'z tabiati bo'yicha intilgan yetuklikka yerishishi mumkin" degan fikrlar bilan izohlaydi.

Farzand tarbiyasini homila shakllangan davridanoq boshlash kerakligini Beruniy shunday ta'riflaydi: "Bolaning yuz tuzilishi ona qornidaligida ato qilinadi. Ko'rinishidagi go'zallik va tuzilishidagi kamol-bular ikkovi ham har bir inson uchun sevimlidir".

Ya'ni bola tabiat in'om yetadigan husnga ega bo'lishi va sog'lom, baquvvat tug'ilishi uchun ona qornidaligidanoq zamin hozirlanishi darkor. Bolani yaxshi xulqli qilib tarbiyalash uchun zarur va kerakli sharoit yaratish lozimligini aytadi. Oilada farzandlar ahloqini shakllanishida, deb yozadi ibn Sino "Er-xotinning o'zaro ahil munosabati, bir-birini hurmat qilishlari ijobiy ta'sir ko'rsatadi". Alloma onalarga bola tarbiyasini turli sharoitlarda ma'lum izchillik va tartib bilan olib borish haqida maslahatlar berib, shu bilan birga u otalarni ham burch va vazifalarini belgiab beradi. Ibn Sinoning fikricha, erkak kishi oilaning boshlig'i bo'lgani uchun, u oilaning eng zarur talablarini bajarishi lozim, nimaiki va'da qilgan bo'lsa, o'z va'dasi ustidan chiqishi shart. Ibn Sinoning ta'kidlashicha, hamma vaqt bolaning istagan narsasini muhayyo qilishga, istamagan narsasini uzoqlashtirishga tayyor turish kerak.

Jamiyatda xalqni, mamlakatni idora qilishni, oilani boshqarishni va oilaviy munosabatlarni tartibga solish, kishilarning o'z-o'ziga qanday munosabatda bo'lishlari haqidagi jami amaliy bilimlarga Abu Ali ibn Sino ma'naviyat, ma'rifat, odob-axloq haqidagi bilim deb e'tirof yetadi.

Allomaning ma'naviyat va ma'rifatga oid qarashlarida insonni tarbiyalash bilan birga, odamlar orasida o'zaro hamkorlik va hamjihatlikni kuchaytirish, kishilarni to'g'ri yo'lga solish, insonlarni o'zaro ahil, do'st-birodar bo'lib yashashga undash, do'stlikni qadriga yetish zarurligi borasida qimmatli ma'lumotlar berilgan.

Milliy ma'naviyatimiz dahosi, g'azal mulking sultoni Alisher Navoiy (1441-1501) asarlarida oila va unda farzandlar tarbiyasi, oilaviy munosabatlar borasida ko'plab fikrlarga duch kelish mumkin. Navoiy inson uchun kelajak avlodni yaratishdan, uni tarbiyalab yetuk inson qilib yetishtirishdan ko'ra xayrli va lazzatliroq narsa yo'qdir, deb hisoblaydi. Shuning uchun farzand ko'rgan har bir inson uni sevishi va tarbiyalashi kerak. Navoiy bolaning rivojlanishida unga beriladigan tog'ri tarbiyaning ahamiyatiga alohida to'xtaladi. Tarbiya orqali bolaning kelajakda foydali va mukammal kishi bo'lib yetishishiga ishonadi. Alloma bolaning yoshligidan kamol toptirishda ayniqsa shakllanib kelayotgan zamonaviy yosh oilalarning, jumladan, ota-onalarning roliga alohida to'xtalib, ularning o'z farzandlari ta'lim-tarbiyasiga ta'sir ko'rsatuvchi omillariga, jumladan oilaviy munosabatlar tizimiga alohida e'tibor berishlar lozimligini ta'kidlaydi.

Ahmad Donish farzand tarbiyasida ota-onalar mas'uliyati bilan birga, ota-onalar huquqini belgilash haqida to'xtaladilar. U: Barcha oilaviy kelishmovchiliklarni ota-ona huquqi bilan farzandlar huquqining chegarasi aniq bo'lmaganligidan, gohida esa ota-onalarning farzandlarning barchasini bir xilda ko'rmaganliklaridan", -degan fikrni bildiradi.

Ahmad Donishning ilg'or falsafiy g'oyalari, ma'naviy-ma'rifiy qarashlari, ta'lim-tarbiya borasidagi tavsiyalari davrlar o'sha ham o'z kuchini yo'qotmaydi.

O'zbek ilmiy tarbiyashunoslik fani rivojiga ulkan hissa qo'shgan Mahmudxo'ja Behbudiyini ham ota-ona va farzandlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar, oilada bola tarbiyasi, ta'lim-tarbiya sohasida ota-onaning roli kabi muammolar qiziqtirib kelgan.

Sharq mutafakkirlarining ma'naviy merosidan bunday misollarni uzoq davom ettirish mumkin. Ko'rinib turibdiki, oila va uning atrofidagi muammolar masalasiga Sharq mutaffakirlari va ma'rifatparvar ziyolilari alohida e'tibor bilan qaraganlar. Ularning asarlarida oilaning muqaddasligi, uning jamiyat hayotida tutgan o'rni, oilaning tinchligi va farovonligini belgilovchi muhim milliy-madaniy va milliy-psixologik omillar ko'rsatib o'tilgan.

Ayniqsa, oilaning asosini tashkil etuvchi zamonaviy yosh oila vakillari hisoblangan yosh ota va onada yuksak insoniy fazilatlar shakllangan bo'lishi, ularning oilaviy burch va vazifalarini sadoqat bilan ijro etishlari, o'zaro mehribon va kechirimli bo'lishlari oilada tarbiya topayotgan farzandlar kamolini belgilovchi eng muhim qadriyat sifatida e'zozlanadi.

Bugungi globallashuv va axborot xuruji harbiy poligonlardan ham havfli bo'lgan kunda ota-onalarning o'tmish mutaffakirlarimizning adabiy merosidan baxramand bo'lib, undan farzandlar tarbiyasida foydalanishlari, oilalarda ijobiy psixologik iqlimning hukm surishiga, farzandlar o'zaro munosabatlarining maqsadga muvofiq tarzda shakllanishi hamda rivojlanishiga ahamiyatli ta'sir ko'rsatadi.

Yuqorida e'tirof etilgan izlanishlardagi ilmiy va nazariy ma'lumotlar zamonaviy yosh oilala vakillarining, jumladan, yosh ota-onalarning psixologik savodxonligini oshirishga va kelajakda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan destruktiv munosabatlarning oldini olish va bartaraf etish uchun xizmat qiladi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlashimiz mumkinki, oilalardagi destruktiv munosabatlar hususida Sharq mutafakkirlarining qarashlari hozirgi kundagi oilaviy mojarolarning oldini olish, kelajakda kutilayotgan har qanday destruktiv, nizoli vaziyatlarni oldindan ko'ra olish sog'lom munosabatlarni shakllantirilishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak.

Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni yechimi bo'lib qolmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Abu Nasr Forobiy „Fozil odamlar shahri”.-Toshken.: A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.-1993. -224b.
2. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy. Hadis; 4-kitob.-T,: Qobuslar bosh tahriyati, 1997.-528 b. B 85.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar: 2 jildlik. 2 nashri. 2 jild.Pandlar, ibratlar, hikoyalar, nabiyar hayoti, dramalar, maqolalar, sayohat xotiralari.- T.:„Ma'naviyat”, 1998.- 112 b.
4. Karimova V. „ Murosa qilish madaniyati”.-T.:Fan va texnologiyalar, 2008.-64-b.
5. Karimova V. „Oila psixologiyasi:Pedagogika va oliy o'quv yurtlari talabalari uchun darslik”.-T.;Fan va texnologiya, 2008-152-b.
6. Schachter, S. The psychology of affiliation: Experimental studies of the sources ofgregariousness. Stanford, CA: Stanford University Press. 1959
7. Sulloway F.J. Born to rebel: Birth order, family dynamics, and creative lives/ New York: Pantheon Books, 1996.
8. W. Toman. «Family Constellation». Springer Publishing Company, 1993.

Qosimova Sarvinoz Baxtiyorovna,
Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrası v/b dotsenti
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

YOSHLARNI MANIPULYATSION TA'SIRLARGA BERILIB KETISHINI OLDINI OLIISHNING ITIMOIIY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada manipulyatsiya boshqalarning ongiga va his-tuyg'ulariga yashirin ta'sir ko'rsatish orqali ularni manipulyator foydasiga qaror qabul qilishga undash jarayoni ekanligi, ushbu usulda ko'pincha manipulyatorning haqiqiy niyatlari yashirilgan holda amalga oshirilishi, natijada, odamlar o'zlari istamagan holda noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majbur bo'lishlari mumkinligi, manipulyatsiya turlari, manipulyatsiya usullari, hissiyotlarga ta'sir qilish, axborotni buzib ko'rsatish, ijtimoiy bosim, manipulyatsiyaning oqibatlari, manipulyatsiya qurbonlari vaqt o'tishi bilan o'ziga yoki boshqalarga bo'lgan ishonchini yo'qotishi, manipulyatsiya stress va ruhiy charchoqni yuzaga keltirishi, bugungi kunda deviant xulqning zamonaviy shakllaridan biri – axborot va axborotni uzatuvchi vositalarga moyillik va uning oqibatida behuda sarflanayotgan katta miqdordagi vaqt bo'lib qolayotganligi, shu tariqa insonlar xulq-atvoridagi asosiy o'zgarishlar shaxsiy va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarini qamrab olgan axborot kommunikativ texnologiyalar paydo bo'lishi bilan sodir bo'layotganligi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Manipulyatsiya, giperkompensatsiya, kompensatsiya, proyeksiya, regressiya, intellektualizatsiya.

Аннотация: В этой статье объясняется, что манипуляция-это процесс побуждения других к принятию решений в пользу манипулятора путем неявного воздействия на их разум и чувства, в этом методе часто используются скрытые истинные намерения манипулятора, в результате чего люди могут быть вынуждены принимать неверные решения, не желая этого, типы манипуляций, методы манипуляции, эмоциональное воздействие, искажение информации и т. д. последствия проявления, социального давления, манипуляций, поскольку жертвы манипуляций со временем теряют уверенность в себе или других, манипуляции вызывают стресс и психическое истощение, одной из современных форм девиантного поведения сегодня остается склонность к информации и средствам передачи информации и, как следствие, большое количество потраченного впустую времени, так что основные изменения в поведении людей охватывают все аспекты личной и социальной жизни. говорят о том, что получение информации происходит с появлением коммуникативных технологий.

Ключевые слова: манипуляция, гиперкомпенсация, компенсация, проекция, регресс, интеллектуализация.

Annotation: In this article, it is argued that manipulation is a process of encouraging others to make decisions in favor of the manipulator by implicitly influencing the minds and feelings of others, this method is often done with the real intentions of the manipulator hidden, as a result, people may be forced to make wrong decisions unwillingly, types of manipulation, methods of manipulation, it is said that the victims of manipulation lose confidence in themselves or others over time, manipulation creates stress and mental fatigue, one of the modern forms of deviant behavior today – a tendency to information and information transmitters and a large amount of time wasted in its aftermath, thus, the main changes in human behavior occur with the emergence of information communicative technologies covering all aspects of manipulation.

Key words: manipulation, hypercompensation, compensation, projection, regression, intellectualization.

Kirish. Inson yaralibdiki, unga aql berilib, ongi charxlanibdiki, fikr yuritadi, tasavvur va tafakkur qiladi. Ayni paytda yoshlarning idrok etilayotgan materiallarga nisbatan munosabati,

ularni tahlil qilish va oqibatlarini ko'ra olish qobiliyati ham shaxs shakllanishidagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Internet va xorij OAVlari, turli radiostansiyalardagi bir yoqlama va buzib talqin qilingan axborotlar kuchli destruktiv targ'ibot xarakteriga ega hamda respondentlardan rivojlangan tanqidiy tafakkur, tahlil malakasini talab etadi. Axborot olish borasidagi aholining eng faol qismi yoshlar hisoblanadi. Ma'lum darajada ijtimoiy foyda keltirayotgan axborotlarning iste'molchilar, ya'ni yoshlar tomonidan izlanishi yaxshi, ammo hech qanday asosga ega bo'lmagan, odamlarga zarar yetkazishga, o'z-o'zini o'ldirishga, hattoki, insoniyatga qarshi qurol ko'tarishga undovchi axborotlarga ham aynan yoshlar sababli bo'lmoqda. Gohida beozorgina bo'lib ko'ringan oddiy reklama ham muayyan mafkuraviy maqsadlarni o'zida ifoda etadi. Shuning uchun yuqorida ta'kidlanganidek, axboriy savodxonlik, ma'lumotlarni maqsadga muvofiq idrok etish, manipulyativ ta'sir mexanizmlarini anglash, o'z nuqtayi nazarini himoya qila olish malaka va ko'nikmalarini har bir shaxsda shakllantirish dolzarb, kun tartibidagi asosiy masalalardan hisoblanadi.

Manipulyatsiya – bu boshqalarning ongiga va his-tuyg'ulariga yashirin ta'sir ko'rsatish orqali ularni manipulyator foydasiga qaror qabul qilishga undash jarayonidir. Ushbu usul ko'pincha manipulyatorning haqiqiy niyatlari yashirilgan holda amalga oshiriladi. Natijada, odamlar o'zlari istamagan yoki noto'g'ri qarorlar qabul qilishga majbur bo'lishlari mumkin. Manipulyatsiya ochiq va yashirin bo'lishi mumkin. Ochiq manipulyatsiya qo'rqitish, tanbeh yoki tahdid bilan bo'ladi. Yashirin manipulyatsiya esa maqtov, yolg'on ma'lumot yoki shubha uyg'otish orqali sezdirmay boshqarishdan iborat. Ikki holatda ham manipulyator faqat o'z manfaatini ko'zlaydi.

Manipulyatsiya usullari quyidagilardan iborat[1]:

1. Hissiyotlarga ta'sir qilish: Manipulyator qo'rquv, aybdorlik yoki minnatdorchilik hissini uyg'otib, odamlarni o'z foydasiga ish qilishga majbur qiladi. Masalan, "Agar shunday qilmasang, hamma narsani yo'qotasan" kabi tahdidlar yoki "Sen buni qilishga majbursan, chunki men uchun shunday qilib kelding" kabi ayblovlar bunga misol bo'ladi.

2. Axborotni buzib ko'rsatish: Manipulyator haqiqatni yashiradi yoki noto'g'ri ma'lumot beradi. Bu orqali u o'z fikrini to'g'ri deb ko'rsatadi. Misol uchun, ma'lumotlarning faqat ijobiy tomonlarini ko'rsatish va salbiylarini yashirish ko'p uchraydi.

3. Ijtimoiy bosim: "Hamma buni qilyapti" yoki "Agar sen ham shunday qilmasang, ajralib qolasan" kabi fikrlarni singdirish orqali ta'sir ko'rsatadi. Odamlar ijtimoiy moslashishga moyil bo'lgani uchun bu usul ko'p hollarda samarali bo'ladi.

Manipulyatsiyaning oqibatlari jiddiy bo'lishi mumkin. Masalan, manipulyatsiya qurbonlari vaqt o'tishi bilan o'ziga yoki boshqalarga bo'lgan ishonchini yo'qotadi. Stress va ruhiy charchoqni yuzaga keltiradi. Bunday ta'sirlarga doimiy duch kelish insonni ruhiy charchashga olib keladi.

Tadqiqot obyekti. Biz o'z ilmiy izlanishimizda tadqiqot obyekti sifatida Buxoro davlat universiteti talabalalaridan 140 nafarini jalb etdik. Bizning maqsadimiz talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini aniqlashdan iborat edi. Ta'kidlash joizki, manipulyatsiyani tushunish va undan himoyalaniish ko'nikmasi har bir inson uchun zarur. Bu nafaqat boshqalarning ta'siridan ozod bo'lishga yordam beradi, balki, insonning o'z fikrlari va qarorlariga asoslangan mustaqil hayot kechirish imkonini ham yaratadi. Axborotni tanqidiy tahlil qilish, hissiyotlarni boshqarish va chegaralarni belgilash manipulyatsiyadan himoyalaniishda eng muhim omillardir. Manipulyatsiya inson ongiga bilvosita ta'sir ko'rsatish va uning qarorlariga yashirincha ta'sir qilish usulidir. Bu atama turli vaziyatlarda boshqalarning fikrini, qaror qabul qilish jarayonini, hatto harakatlarini o'zgartirishga undaydigan psixologik texnikalarni anglatadi. Manipulyator odatda o'z maqsadiga erishish uchun boshqalarning hissiy holatini, psixologik zaifliklarini yoki bilim yetishmovchiligini ekspluatatsiya qiladi[2]. Bu shunchalik nozik amalga oshadiki, odamlar ko'pincha manipulyatsiyaga uchraganini sezmay ham qoladi. Sotuvchi mijozni qimmatbaho mahsulotni sotib olishga undash uchun "bu chegirma faqat bugun amal qiladi" degan iboradan

foydalanishi mumkin. Bu xaridorda vaqt yetishmovchiligi hissini uyg'otadi va u mahsulot zarur yoki unchalik zaruratsiz ekani haqida aniqroq o'ylab ko'rmasdan sotib olishga harakat qiladi. Bunday yashirin ta'sirni odamlar deyarli sezmaydi va uni oddiy hodisa sifatida qabul qiladi. Ko'pincha odamlar o'z xatti-harakati va qarorlarini o'zim boshqaryapman, deb o'ylaydi. Aslida esa manipulyatorning rejasi bo'yicha harakat qiladi. Manipulyator shunday vaziyat yaratadiki, siz o'zingizni aybdor yoki noqulay his qilib, uning talablariga rozi bo'lasiz. U boshqalarning mehribonlik, e'tirofga ehtiyoj, qo'rquv yoki mavhum his-tuyg'ularini ustalik bilan o'z foydasiga ishlatadi.

Qo'llanilgan metodlar: biz buning uchun psixologiya sohasida keng qo'llaniladigan metodlar: suhbat, anketa, kuzatish, metodlaridan, shuningdek, Plutchik-Kellerman-Konte tomonidan ishlab chiqilgan "Hayot tarzi indeksi" (Life Style Index, LSI) so'rovnomasidan foydalandik. Plutchik-Kellerman-Konte so'rovnomasi 1979-yilda R. Plutchikning nazariy psixo-evolyutsion bazasida va Kellermannning tarkibiy shaxsiyat nazariyasi metodologiyasi tasvirlangan. Bugungi kunda deyarli barcha olimlar psixologik himoya mexanizmlarini tashxislashda eng aniq va nozik vosita deb hisoblashadi, bu tadqiqotchilarga barcha asosiy mexanizmlar bilan ham, har biri bilan alohida ishlashga imkon beradi, kuchlanish darajasini baholaydi. Ushbu Plutchik-Kellerman-Konte so'rovnomasi mualliflari tomonidan psixologiya va psixopatologiya bo'yicha ilmiy ishlar va boshqa materiallarning turli manbalaridan foydalangan holda tuzilgan. 16 himoya mexanizmining taxminiy xususiyatlari tanlangan bo'lib, ular "men"himoyasining asosini tashkil etadi. Sinaluvchilar taklif qilingan bayonotlar variantlaridan o'zi uchun hayotida eng yaqin bo'lganlarni tanlaydi va shu bilan uning shaxsiy himoya modelining tavsifini tuzadi, deb ishonilgan. Dastlab, so'rovnoma ro'yxatga olingan 16 ta himoya mexanizmlarining har birini aniqlash uchun tuzilgan va uning tasdiqlari soni o'sha paytda 224 bandni tashkil etgan. Birinchi sinov o'tkazilganda va natijalar ko'rib chiqilganda, tasdiqlashlar soni 184 taga qisqartirildi. Xo'sh, omillarni tahlil qilgandan so'ng, psixologik himoya mexanizmlari soni 8 tagacha kamaydi. Bugungi kunda, yuqorida aytib o'tilganidek, bayonotlar soni 92 punktni tashkil etadi va psixologik himoya mexanizmlarining 8 turi o'lchanadi: almashtirish, proektsiyalash, rad etish, kompensatsiya, reaktiv ta'lim, kompensatsiya, giperkompensatsiya, regressiya, ratsionalizatsiya. Ma'lumotlar korrelyatsion tahlil usuli va farqlarning ishonchliligini aniqlash uchun talabaning t-testi yordamida statistik ishlov berildi.

Kompensatsiya-bu psixikaning himoya mexanizmi bo'lib, u ongsiz ravishda ma'lum bir tuyg'uni bu tuyg'uni yo'q qiladigan munosabat yoki xatti-harakatlar bilan muvozanatlashga urinishdan iborat.

Giperkompensatsiya - bu maxsus kompensatsiya, uni amalga oshirishda nafaqat pastlik tuyg'usidan xalos bo'lish, balki, boshqalarga nisbatan ustun pozitsiyani egallashga imkon beradigan qandaydir natijaga erishiladi. Mazkur so'rovnomada turli xil hayotiy vaziyatlarni tavsiflovchi 92 ta bayonot jamlangan bo'lib, ushbu bayonotlarni sinaluvchilar o'z shaxsi bilan taqqoslashi va agar ularning biron bir aloqadorlikni sezsa, o'sha elementga "+" belgisi qo'yilishi ko'rsatmasi beriladi. Anketaning oxirida siz "plyuslar"soniga qarab natijalar haqida bilib olinadi. Bayonotlarga respondentlarning iloji boricha samimiy javob berishlari natijaning sifati yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Plutchik-Kellerman-Konte so'rovnomasi sinaluvchilarga 8 ta asosiy psixologik himoyaning kuchlanish darajasini, shuningdek, psixologik himoya tizimining butun ierarxiyasini batafsil o'rganish imkoniyati beriladi. Bundan tashqari, barcha o'lchangan himoya vositalarining umumiy kuchlanishini aniqlash mumkin. Kalitdan foydalanib, himoya kuchi darajasi o'lchanadi. Plutchik-Kellermann-Konte so'rovnomasi bo'yicha barcha "ijobiy" javoblarning yig'indisi. Ushbu texnikadan foydalanib, bir hil guruh respondentlarida 8 ta himoyaning har birining eng yuqori kuchlanish indeksini aniq hisoblash, individual himoyalar intensivligi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini yoki yo'qligini aniqlash, shuningdek, ushbu ko'rsatkichlarni boshqa mustaqil guruh ko'rsatkichlari bilan taqqoslash mumkin. Turli olimlarning bayonotlariga asoslanib (masalan, Granovskaya R.M., Kamenskaya

V.G. va boshqalar) shuni aytishimiz mumkinki, eng konstruktiv psixologik himoya bu kompensatsiya va ratsionalizatsiya, eng halokatli esa – proyeksiya va repressiyadir. Konstruktiv himoya vositalaridan foydalanish mojaro yoki uning kuchayishi xavfini kamaytiradi.

Olingan natijalar tahlili:

Ma'lumotlarning birlamchi qayta ishlanishi

1. Test talablari asosida har bir respondent uchun xarakterli bo'lgan ballar miqdori ta'kidlar raqamlariga mos yoki mos emasligiga qarab aniqlanadi.

2. Aniqlangan shartli ballar miqdori test shkalasidagi kalitlar bo'yicha joylashtiriladi.

3. Har bir obyekt respondentlaridan olingan ballar miqdori yuqori, o'rtacha, past ko'rsatkichlar majmuasiga birlashtirilib, o'rtacha-umumiy foizlar miqdorining tipik ko'rinishlari belgilanadi.

4. Har bir empirik jihatdan o'rganilgan obyektlar uchun xarakterli bo'lgan oraliq diapazonlari hamda umumiy ko'rsatkichlar ko'lamini qiyosiy tarzda tahlil qilinadi.

Ma'lumotlarning ikkilamchi qayta ishlanishi.

1. Uzluksiz ta'lim tizimida tahsil olayotgan talaba yoshlar misolida olingan psixologik himoya mexanizmlarining ustunligiga qarab manipulyatsion ta'sirlarga qarshi immunitet shakllanishiga zamin hozirlaydigan yoki unga to'sqinlik qiladigan himoya mexanizmlari ko'rsatkichlari maxsus korrelyatsion tahlil talablari asosida qaytadan ko'rib chiqiladi va maxsus belgilangan jadvallarga kiritiladi.

2. Yig'ilgan keng ko'lamli ma'lumotlarning matematik-statistik natijalariga tayanib, tadqiqot maqsadiga mos umumiy qonuniyatlar aniqlanadi va shu asosda tegishli empirik xulosalar chiqariladi. Tadqiqotimizdan olgan natijalarni quyidagi 1-jadvalda keltirib o'tganmiz:

1-jadval:

Plutchik–Kellerman–Konte so'rovnomasi himoya mexanizmi namoyon etilishining gender tafovutlari bo'yicha ko'rsatkichlari

Shkalalar	Jinsi	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	t	Ishonch darajasi
Regressiya	O'g'il bolalar	80	8,1333	2,14844	-,577	,564
	Qiz bolalar	60	8,203	2,14844	6,513	,000
Reaktiv ta'lim	O'g'il bolalar	80	8,2037	1,70853	6,513	,468
	Qiz bolalar	60	4,7981	2,02983	,727	,000
Proyeksiya	O'g'il bolalar	80	5,6688	2,19570	6,513	,000
	Qiz bolalar	60	8,2037	2,45211	,727	,000
Intellektualizatsiya	O'g'il bolalar	80	4,7981	2,02983	6,513	,468
	Qiz bolalar	60	5,6688	1,89723	-,577	,000

Giperkompensatsiya	O'g'il bolalar	80	6,3462	2,28246	,727	,468
	Qiz bolalar	60	6,6473	2,19570	-,577	,897
Kompensatsiya	O'g'il bolalar	80	6,2374	2,45211	-,129	,000
	Qiz bolalar	60	6,3462	2,19570	,727	,897
Siqib chiqarish	O'g'il bolalar	80	6,6473	1,89723	-,129	,897
	Qiz bolalar	60	6,3462	2,19570	-,577	,468
Inkor etish	O'g'il bolalar	80	6,6617	1,56493	,727	,897
	Qiz bolalar	60	6,6473	1,89723	,727	,468

Mazkur himoya mexanizmidagi ham o'g'il bolalarga nisbatan qizlarda yuqori ko'rsatkichlar qayd qilinganligini kuzatishimiz mumkin. Bu mexanizm o'zi ikki bosqichda amalga oshiriladi. Birinchi istalmagan holatlari siqib chiqariladi so'ngra inkor qilinadi, masalan himoyani kuchaytirish inkor etish holatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Qiz bolalarda bu holatlar o'g'il bolalarga nisbatan yaqqolroq ko'rinar ekan. Ma'lumotlar tahlil qilinganida qiz bolalarda psixologik himoya o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lishi ma'lum bo'ldi, bu asosan qizlarga nisbatan yuqori nazorat bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'g'il bolalar va qizlarning natijalarini tahlil qilganda boshqa shkalalar bo'yicha ishonch darajasidagi farqlar kuzatilmadi, ya'ni psixologik himoya, tayanch e'tiqodlari, tahdidlardan xabardorlik holatlari jins bilan farqlanmas ekanligini ko'rsatdi, ya'ni o'g'il bolalar ham qizlar ham bu fikrlarga birdek munosabatda bo'lar ekanlar.

Xulosa. G'arbda odamlar ongining manipulyatsiya qilinayotgani haqida ko'p yozishgan. Bu "ommaviy madaniyat" ning ilk ta'siridan boshlangan. Bu haqida ispan faylasufi Ortega Gasett: "Ko'pchilik odamlarda fikr yo'q. Xalq hech qachon, hech qanday fikrga ega bo'lmagan. Chunki u borliqni nazariy anglay olmaydi. Bu esa uning to'g'ri qarorlar qabul qilishiga xalaqit beradi. Shunday ekan, fikr odamlarning miyasiga tashqaridan, xuddi mashinaga moy quyilganiday bosim bilan kiritilishi kerak", degan edi. Olim jamiyatga fikrni bosim ostida, zo'rlab singdirish yaxshi emasligini biladi. "Biroq, – deydi u, – odamlar manipulyatsiya qilinmasa, jamiyatda anarxiya paydo bo'ladi. Bu esa jamiyatni inqirozga olib keladi. Jamiyat nuraydi, yemiriladi". Shunday ekan, manipulyatsion ta'sirlardan himoyalaniish uchun shaxs o'z prinsiplarini bilishi va ularga rioya qilishi lozim. O'zini noqulay holatga soladigan yoki majburlaydigan takliflarga "yo'q" deyishni o'rganishi darkor. Shundagina manipulyatsiya ta'siriga berilish holati kamroq uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. S.B.Qosimova. Talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlari. "Oriental Art and Culture" Scientific-Methodical Journal - Volume 2 Issue 2 / June 2022.438-442 bet.

2. S.B.Qosimova. Семейные конфликты и способы их разрешения. Вестник интегративной психологии. Выпуск 26 Россия 2022 г.115-119 bet.
3. S.B.Qosimova. Talabalarni manipulyatsion ta'sirlardan himoya qilishning o'ziga xos ijtimoiy-psixologik determinantlari. "Zamonaviy dunyoda innovatsion tadqiqotlar: Nazariya va amaliyot" Respublika ilmiy amaliy-amaliy konferensiyaning 2023 10(38) son.38-42.
5. S.B.Qosimova. Психологическая защищенность личности от манипулятивных воздействий как функция психологической культуры студентов. "Zamonaviy psixologiyada ilmiy tadqiqotlar: muammolar, yutuqlar, innovatsiyalar" xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 19.05.2023 56-60 bet.
6. Кара-Мурза С.Г. Манипуляция сознанием/ - М.: "Алгоритм", 2000, 15 с
7. R.S.Nuriddinov. "Information as a social-psychological problem". "Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества" (pp. 380-382)

Asrarxanova E'tibor Abduvaxob qizi,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika Universiteti
"Psixologiya" kafedrası dotsenti v.b., PhD
[E-mail:asrarxonova@gmail.com](mailto:asrarxonova@gmail.com)

IJTIMOIIY HAYOTDA AUTIZM SPEKTRIDA BUZILISH ANIQLANGAN BOLALARNING O'RNINING O'ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada autizm sindromli bolalarning psixologik jihatdan taraqqiy etishi hamda ularni maxsus terapiyalar yordamida xulq-atvoridagi kamchiliklarini bartaraf etish usullari keltirib o'tilgan. Autizmning asosiy belgisi reallikni qabul qilishning buzilishidir. Autizmga chalingan bola tashqi olam bilan aloqani uzadi, va uni hayotga qaytarish esa psixolog, psixiatr, defektolog kabi mutaxassislarning vazifasidir.

Tayanch tushunchalar: Autizm, stereotip, sindrom, kasallik, yolg'izlik, exolaliya, psixolog, defektolog metod, terapiya, korreksiya.

Аннотация: В данной статье упоминается психологическое развитие детей с синдромом аутизма и пути устранения их поведенческих дефицитов с помощью специальной терапии. Основным признаком аутизма является нарушение восприятия действительности. Ребенок с аутизмом теряет контакт с окружающим миром, и вернуть его к жизни - задача таких специалистов, как психологов, психиатров, дефектологов.

Ключевые слова: аутизм, стереотип, синдром, болезнь, одиночество, эхолалия, психолог, метод дефектолога, терапия, коррекция.

Annotation: This article discusses the psychological development of children with autism spectrum disorder and methods of addressing their behavioral challenges through specialized therapies. The main characteristic of autism is a disruption in the perception of reality. A child with autism isolates themselves from the external world, and reintegrating them into society is the responsibility of specialists such as psychologists, psychiatrists, and defectologists.

Key words: Autism, stereotype, syndrome, illness, loneliness, echolalia, psychologist, defectologist methods, therapy, correction.

Kirish. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 2-aprel sanasi autizm sindromi haqidagi ma'lumotlarni xalqaro miqyosda ommalashtirish kuni sifatida belgilangan. 2008-yildan beri bu kunda autizmning erta tashxislanishi, autist bolalarning davolanishiga yordam ko'rsatish, jamiyatni mazkur sindrom haqida boxabar qilish masalalariga e'tibor qaratiladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, ayni kunda dunyoda 10 milliondan ziyod bolaga autizm tashxisi qo'yilgan. Har yili bu ko'rsatkich 11 foizga ortib bormoqda. Ya'ni o'tgan asrning 90-yillarida har 5000 nafar boladan bittasiga autizm tashxisi qo'yilgan bo'lsa, hozirda bu ko'rsatkich har 50 bolaga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi vaqtda bolalik autizmi psixikaning rivojlanishidagi buzilishining alohida turi sifatida qaraladi. Autizm sindromlilari barcha bolalarda muloqot va ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanishi buzilgan bo'ladi va bu holat rivojlanishdan orqada qolishga, o'zlashtirishdagi qiyinchiliklarga sabab bo'lmoqda. Ular uchun umumiy xususiyat affektiv muammolar va dinamik o'zgaruvchan muhit bilan faol munosabatlarni o'rnatishdagi qiyinchiliklar bo'lib, ular atrof-muhitdagi doimiylikni saqlashga bo'lgan munosabatini va o'z xatti-harakatlarining stereotipini belgilaydi.

Shu bilan birga, bunday bolalar, shu jumladan maktab yoshidagilar soni juda xilma-xildir. Shu munosabat bilan, hozirgi vaqtda tobora ko'proq odamlar autizm haqida emas, balki autizm spektrining buzilishi "chiziqli" haqida gapirishmoqda.

Bugungi kunga qadar autizmning sabablari haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shu bilan birga, genetik va neyrofiziologik anomaliyalar autizm rivojlanishining faqat zaruriy sharti bo'lishi ehtimoli yuqori ekanligini ko'rsatadi, tashqi omillar, masalan, atrof-muhit sharoitlari,

yuqumli kasalliklar, zaif immunitet, erta tug'ilish va boshqalar autizmning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin degan farazlar ham hali o'z isbotini topmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. U yoki bu tarzda autizimli odamlarga duch kelgan har birimiz, ularning xatti-harakati va muloqotining o'ziga xos xususiyatlariga e'tibor qaratganmiz. E'tibor bering, autizm juda xilma-xildir. "Agar siz bitta autizm odamni bilsangiz, demak siz ... faqat bitta autizimli odamni bilasiz" degan gapni eshitganmisiz? Bu to'g'ri. Rivojlanishning umumiy turidagi autizm tashqi tomondan juda boshqacha shakllarni oladi. U aqliy rivojlanishi past bo'lgan chuqur sozlangan nutqsiz bolani ham, yorqin "kattalar" nutqiga ega bo'lgan va bilimning erta va mavhum sohalari, tanlangan iqtidorli bolalarni o'z ichiga oladi.

Psixologlar buzilgan rivojlanishning namoyon bo'lishini umumlashtirib va yetakchi belgilarni ajratib ko'rsatib quyidagicha tasniflaganlar:

- ijtimoiy o'zaro ta'sirning buzilishi, boshqa odamlarning his-tuyg'ulariga reaksiyaning yo'qligi, ijtimoiy vaziyatning o'zgarishi;

- aloqa buzilishlari (aloqa qilmaslik, odam bilan suhbatni boshlashga urinishda hissiy reaksiyaning yo'qligi, o'ziga qaratilgan nutq);

- nutqni rivojlantirishning bir turi (nutqning to'liq yo'qligidan tortib "kattalar" nutqi, nutqni ifoda etishning yetarli darajada moslashuvchan emasligi, intonatsiyadan foydalanishning buzilishi, atipik tovushlardan foydalanish, nutqda yig'lash);

- barcha turdagi kontaktlar uchun periferik ko'rishni qo'llash (otistik ko'zlarga qaramaydi, "orqali" yoki yon tomondan qaramaydi);

- qoliplash, xatti-harakatlarning takrorlanishi;

- kundalik hayotda qat'iy bir marta va umuman tartibga moyillik, bu tartibdagi o'zgarishlarga og'riqli munosabat;

- cheklangan doiradagi manfaatlar (yuqori ixtisoslashgan, ustun manfaatlar);

- funksional bo'lmagan xarakterdagi marosimlarga bog'lanish (sanalar, marshrutlar, jadvallar bilan mashg'ullik);

- oziq-ovqat mahsulotlarini iste'mol qilish, kiyim-kechak, o'yinchoqlar, mashg'ulotlar tanlashda buzilishlar va selektivlik;

- o'z-o'zini himoya qilish tuyg'usining buzilishi;

- qo'rquv, uyqu buzilishi, g'azab va tajovuzkorlik portlashlari.

Shunday qilib, autizm asosiy simptomlar uchliki - muloqot, ijtimoiy o'zaro ta'sir va stereotipik xatti-harakatlarning buzilishi, shuningdek, boshqa rivojlanish buzilishlarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ixtiyoriy xususiyatlar bilan tavsiflanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Hozirgi kunga kelib ko'pgina pedagog-psixologlarni birgina muammo qiynamoqda. Autizm sindromli bolalarga ta'lim berishning qaysi usullaridan foydalanish kerakligini va ularning samarasi haqida ko'pgina ilmiy tadqiqot ishlarini olib bormoqdalar. Bu savol ota-onalarni ham, ushbu toifadagi bolalar bilan ishlaydigan o'qituvchilarni ham qiziqtiradi. Bugungi kunda autizm sindromli bolalar bilan ishlashning turli xil yondashuvlari mavjud. Amaliy xulq-atvor tahlili (ABA) yoki amaliy xulq-atvor tahlili ("kuzatilgan xatti-harakatlar", stimul-javob nazariyasi) eng keng tarqalgan va autizimli shaxslarga nisbatan insoniyat nuqtai nazaridan qizg'in muhokama qilinmoqda. U ijtimoiy ahamiyatga asoslangan holda inson xatti-harakatlarining o'zgarishiga olib keladigan muhit omillariga ta'sirini rejalashtirish, qo'llash va baholashni o'z ichiga oladi. Ushbu yondashuv tavsiya etiladigan odamlar toifalariga og'ir autizm, og'ir aqliy zaiflik va Daun sindromi bo'lganlar kiradi. ABA maqsadi - o'rganish va ijtimoiy o'zaro ta'sirga xalaqit beradigan istalmagan xatti-harakatlarni oshirish va kamaytirishdir. Boshqacha aytganda, bu "ijobiy mustahkamlash" va "xulq-atvorni funktsional baholash" strategiyasidir.

Autizimli bolalarning oilalari talab qiladigan navbatdagi yondashuv Ayres sensorli integratsiya (ASI), Jan Ayresning hissiy integratsiya usulidir. Uning mohiyati boshqa odamlar bilan adekvat munosabatlarni o'rnatish, kundalik hayotda ob'ektlar bilan o'zaro ta'sir

qilishning turli usullarini o'zlashtirish imkoniyati uchun barcha hissiy tizimlarning o'zaro ta'sirini o'rnatishdan iborat.

TEACH usuli yoki tuzilmaviy o'qitish hozirda dunyoda ma'lum va keng qo'llaniladi. Quyidagi tuzilish turlarini o'z ichiga oladi:

Jismoniy tashkilot;

Jadval-Kundalik jadval;

Ish jarayonini tashkil etish - Ish tizimi.

Ushbu ishning maqsadi bolalarga uy-ro'zg'or ko'nikmalarini o'rgatish va autizimli bolalarni ijtimoiylashtirishdir. Texnikaning afzalliklari shundan iboratki cheklangan makonda bolaning nazorat qilinishiga erishish qobiliyati va ota-onalarni ishga 100% jalb qilish zarurati yo'qligidir. Eng og'ir va ko'p rivojlanish buzilishlari bo'lgan bolalar uchun javob beradi. Ushbu texnikaning elementlari - vizual jadval, taklif qilingan tadbirlar asosida xonani rayonlashtirish, shovqin va stimulyatsiyani minimallashtirish ko'rinishida bo'ladi. Bu defektologlar ishida keng qo'llaniladi.

Autizm spektrining buzilishini tuzatishga zamonaviy hissiy-semantik yondashuv rus psixologlari (K.S.Lebedinskaya, O.S.Nikolskaya, E.R. Baenskaya, M.M.Liebling va boshqalar) tomonidan ishlab chiqilgan. U autizmdagi ruhiy disontogeneznining o'ziga xos xususiyatlarini ochib beradigan tadqiqotlarga asoslangan. U gumanistik ildizlarga ega va defektologlar tomonidan autizm bilan kasallangan bolalar bilan ishlashda faol foydalaniladi.

Ma'lumki, autizmda ruhiy rivojlanish buzilishlarining xususiyati uning bola psixikasining barcha sohalariga tarqalishi, uning affektiv va kognitiv rivojlanishi hisoblanadi. Affektiv soha insonning o'zi va tashqi dunyo bilan munosabatlarini rivojlantirishga rahbarlik qiluvchi ma'nolar tizimi sifatida qaraladi. Autizmda ma'nolar tizimi ko'proq himoya tizimiga o'xshaydi va bu bolaning aqliy rivojlanishida buzilishlarni keltirib chiqaradi.

Bunday bolaga dunyo bilan munosabatlarda yanada faol va konstruktiv pozitsiyani shakllantirishga yordam berish uchun uning rivojlanishini normallashtirish mumkin emas, hissiy-semantik yondashuv ishlab chiqiladi va qo'llaniladi. Semantik yondashuvni afzalliklari shundaki, uning asosiy vazifasi bolaning individual ta'sirchan tajribasini to'plash va mazmunli tartibga solish bo'lib, u atrof-muhit bilan faol va differentsial munosabatlarni rivojlantirish uchun yordamga aylanishi mumkin. Hissiy, chunki bolaga yordam berishning asosiy vositasi birgalikda yashash va nima bo'layotganini hissiy tushunishdir. Hissiy aloqani o'rnatish qiyinligiga qaramay, autizimli bolalarda unga bo'lgan ehtiyoj mavjud bo'ladi, autizmdagi aqliy rivojlanish buzilishlarining o'ziga xosligini tushungan holda, bu vazifani mutaxassis juda ishonchli hal qiladi.

Autizimli bola bilan hissiy aloqa usuli, agar u uchun mavjud bo'lgan aloqani tashkil qilish parametrlarini hisobga olgan holda o'rnatilsagina bu usul kafolatlanadi: masofa, davomiylik, ritm, intensivlik va shakl, jalb qilingan taassurotlarning hissiy modalligini o'z ichiga oladi. Birinchi, barqaror takrorlanadigan aloqalar mutaxassisning bolani egallagan yoqimli taassurotlarga qo'shilishi, bolaning odatiy zavqini o'z hissiy reaksiyasi bilan bo'lishish va mustahkamlash asosida yuzaga keladi. Ularning maqsadi bolaga umumiy zavq, umumiy manfaatdorlik tajribasini berish, uni muloqotga bo'lgan ehtiyojini rivojlantirib, mustahkamlanadigan birgalikdagi umumiy tajribaga jalb qilishdan iboratdir.

Hissiy yuqumli kasallik bolani ruhiyatini ko'tarishga imkon beradi va bu unga noqulayliklarga dosh berishni osonlashtiradi, aloqalarda faollikni oshiradi va taqlid ko'rinishini rag'batlantiradi, odatdagi yoqimli taassurotlarga rang-baranglik qo'shish istiqbollari ochadi. Kattalar boshidanoq hissiy ma'noga ega bo'lgan umumiy zavqli faoliyatda birlashish ularni doimiy, takrorlanuvchi o'zaro ta'sir epizodlarini o'z ichiga olgan o'yinga aylantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Ushbu epizodlar bola tomonidan afzal ko'rgan yoqimli hissiy stimulyatsiya asosida quriladi va rivojlanadi, lekin ayni paytda ular haqiqiy hayotning tanish va yoqimli daqiqalarini o'ynash sifatida tushuniladi. Ushbu epizodlarning birgalikdagi hissiy hayotida bolaning kundalik hayotiy tajribasi yangilanadi, ijobiy tushuniladi va mazmunli

tashkil etiladi, bu uning atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarining yanada faol va murakkab shakllarini rivojlantirish uchun asos va yordamga aylanadi. Bola tomonidan himoyalangan hayotning stereotipi asta-sekin mazmunli ravishda farqlanadi va boyitiladi, kamroq jizzaki bo'ladi, ya'ni oddiy va farovon uy hayotining mazmunli yo'liga yaqinlashadi va uning dunyosi tasviri yanada uyg'un va yashashga yaroqli bo'ladi.

Bu doimiy va uzoq muddatli ish. U maxsus sinflarda, qo'shma o'yinda, rasm chizishda, o'qishda, multfilmlar va filmlarni tomosha qilishda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlarning maqsadi o'yin yoki vizual faoliyatni rivojlantirish emasligi va bolaga shunchaki taassurotlarni "tashqariga chiqarish" imkoniyatini bermasligi aniq. Bu, birinchi navbatda, bola bilan muloqot bo'lib, u juda boshqacha asosda tashkil etilishi mumkin. Uning maqsadi bir xil - uy hayotida, bolalar bog'chasida, sayrda, hayvonot bog'ida, sirkda, klinikada qabulda va hokazolarda sodir bo'lgan voqealarni birgalikda tushunishdan iborat. Xuddi shu ish bolaning qarindoshlari yelkasiga tushadi, kundalik hayotning birgalikdagi hayotida, hissiy sharhlar yordamida ular bola uchun sodir bo'layotgan voqealar taassurotlarini mazmunli tashkil qiladi.

Bu, shuningdek, bolalar bog'chasida va maktabda bolaga hamroh bo'lgan tarbiyachi ishining asosiy vazifasi sifatida qaraladi. Ijobiy tajribani to'plash bolaga individual hayotning yanada faol va murakkab shakllarini o'zlashtirishga bosqichma-bosqich yordam berish imkoniyatini ochadi. To'siqsiz, balki uni dunyo bilan bog'laydigan selektivlikni rivojlantirishda, vahima qo'ymaslik va kutilmagan to'siqni yengib o'tish mumkin deb hisoblash qobiliyatiga erishishda, ya'ni hal qilinadigan vazifaning sharti sifatida, vaziyatlar bilan suhbatga kirishishda boshqa odamning hissiy bahosiga e'tibor berishda namoyon bo'ladi.

Birgalikda yashash va boshdan kechirishda kattalar autizm sindromli bolaga yordam beradilar, u his qilgan noqulaylik yoki qo'rquvni yengishga yordam beradi, agar kerak bo'lsa, yoqimsiz, qo'rqinchli taassurotning hissiy ma'nosini o'zgartiradilar. Va bunday bolaning affektiv rivojlanishini normallashtirishdagi har bir muvaffaqiyatli qadam bizga uning intellektual va ijtimoiy rivojlanishida yordam berish uchun yangi imkoniyatlar beradi, chunki bolaning aqliy funksiyalarining rivojlanishi yaqin odam bilan faol muloqot qilish uchun haqiqiy talablar bilan tashkil etila boshlaydi.

Tahlil va natijalar. Nima uchun autizm darajasi 1990-yillardan beri doimiy ravishda oshib borayotgani haqida ko'p munozaralar bo'di. Buning sabablaridan biri 1994-yilda diagnostika nomenklaturasining o'zgarishi bilan bog'liq. O'sha paytda autizmning diagnostik mezonlari ilgari "spektrda" hisoblanmagan bolalarni ham qamrab oldi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, diagnostika mezonlarining o'zgarishiga qaramay, autizm spektrining buzilishi tashxisi qo'yilgan holatlar soni kutilganidan ancha yuqori (Jonson va Myers, 2007). Ko'pgina tadqiqotchilar dunyo bo'ylab autizm holatlarining ko'payishi genetik va atrof-muhit omillarining kombinatsiyasi bilan bog'liq deb hisoblashadi. Tadqiqotchilar autizm sabablari haqida oilalar uchun javob izlash uchun astoydil ishlamoqda.

- Bu butun mamlakat bo'ylab 1:59 bolalarga ta'sir qiladi (Kasalliklarni nazorat qilish va oldini olish markazlari).

- Bu dunyoning barcha madaniyatlarida uchraydi va irqi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, otalarning ma'lumoti yoki boshqa demografik o'zgaruvchilarga qarab kamsitmaydi (Wong, Hui va Li, 2004; Howlin & Asgarian, 1999).

- O'g'il bolalarda qizlarga qaraganda deyarli to'rt baravar ko'proq uchraydi.

- Autizm spektrida buzilish aniqlangan bolalarning taxminan 10 foizida aniqlanishi mumkin bo'lgan genetik yoki xromosoma kasalliklari (ya'ni, mort X yoki tuberous skleroz) mavjud.

- Hozirda uning ma'lum sababi yoki davosi yo'q.

Autizmning tarqalishi turli mamlakatlarda sezilarli darajada farq qiladi, ammo rivojlangan mamlakatlarda odatda yuqoriroq deb qabul qilinadi. Dunyo miqyosida autizm taxminan 168 million bola va kattalarga ta'sir qiladi deb ishoniladi, ammo bu raqam ancha yuqori, chunki mavjud resurslar va xabardorlikning yetishmasligi tufayli ko'plab holatlar

aniqlanmagan. Bundan tashqari, barcha autizmli odamlarning uchdan bir qismi diagnostika va davolanish imkoniyati cheklangan yoki umuman mavjud bo'lmagan past va o'rta daromadli mamlakatlarda yashaydi. Shu sababli, global tarqalishning haqiqiy darajasi deyarli noma'lum bo'lib qolmoqda, ammo shuni tan olish mumkinki, bu ko'rsatkichlar butun dunyo bo'ylab tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda va autizm spektrida buzilish aniqlanganlarning barchasi geografik joylashuvi yoki ijtimoiy-iqtisodiy holatidholatidan qat'iy nazar, to'g'ri parvarish qilinishini ta'minlash uchun ko'proq ish qilish kerak. Autizmning tarqalishi ham vaqt o'tishi bilan o'zgarib, butun dunyo bo'ylab so'nggi bir necha o'n yilliklarda sezilarli darajada oshdi. Misol uchun, Qo'shma Shtatlarda autizm tarqalishi 2000 yilda 150 boladan 1 tadan 2018 yilda 44 boladan 1 tagacha oshdi. Autizm darajasining bunday o'sishining sabablari to'liq aniq emas, ammo tashxisning yaxshilanishi, xabardorlikni oshirish va diagnostika mezonlarining o'zgarishi yordam beruvchi omillar deb hisoblanadi. Autizm darajasining oshishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan genetik, ekologik va boshqa omillarning mumkin bo'lgan roli bo'yicha tadqiqotlar davom etmoqda.

Dunyoda autizm darajasi eng yuqori bo'lgan o'nta mamlakat Buyuk Britaniya, Shvetsiya, Yaponiya, AQSh, Niderlandiya, Irlandiya, Bruney, Kanada, Singapur va Andorradir. Ro'yxatning boshida Buyuk Britaniya joylashgan bo'lib, uning 100 ming kishiga 700,07 ko'rsatkichi har qanday mamlakatda qayd etilgan eng yuqori ko'rsatkichlardan biridir. 100 ming kishiga 661,85 ko'rsatkich bilan Shvetsiya, ikkinchi o'rinda esa Yaponiya 604,72 ga teng. Amerika Qo'shma Shtatlari, shuningdek, autizm darajasi 100 ming kishiga 603,38, Niderlandiya esa 100 ming kishiga 591,54 ni tashkil qiladi. Ushbu guruhning orqasida Irlandiya va Bruney joylashgan bo'lib, ikkalasi ham 100 ming kishiga mos ravishda 583,69 va 572,01 to'g'ri keladi. Ulardan keyin Kanada 100 ming kishiga 565,85 autizm darajasi bilan keyingi o'rinda turadi, Singapur va Andorra esa 100 ming kishiga 547,02 autizm darajasi bilan o'ninchi o'rinni egallab turibdi. Buyuk Britaniya dunyodagi eng yuqori autizm darajasiga ega bo'lgan mamlakat bo'lib, uning tarqalishi 100 ming kishiga 700,07 ni tashkil qiladi. Buyuk Britaniya autizm bilan yashovchi odamlarni tushunish va ularga g'amxo'rlik qilishda ajoyib yutuqlarga erishdi, ammo hali ko'p ish qilish kerak. Masalan, Buyuk Britaniyadagi Autizm Alyansining so'nggi hisobotida autizmli kattalarning faqat uchdan bir qismi mahalliy hokimiyat tomonidan biron bir mazmunli yordam yoki xizmatlar olishini taklif qildi. Bundan tashqari, erta aralashuv va spektrdagi bolalar uchun maxsus xizmatlardan foydalanish imkoniyati yo'q. Ta'limni ta'minlash nuqtai nazaridan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, autizmli bolalarning yarmidan ko'pi beshta yaxshi GCSEga erishmasdan maktabni tark etadi. Bu raqamlar autizm haqida tushunchaga qo'shimcha sarmoya kiritish va sinf ichida va tashqarisida qo'llab-quvvatlash zarurligini ko'rsatadi.

Dunyoda autizm darajasi eng past bo'lgan o'nta davlat: Tayvan, Shimoliy Koreya, Tunis, Liviya, Suriya, Turkiya, Marokash, Shimoliy Mariana orollari, Hindiston va Tailand. Ushbu mamlakatlarning har birida autizmning global tarqalish darajasi 100 ming kishiga 300 yoki undan kam. Tayvan dunyodagi eng past autizm darajasiga ega - har 100 ming kishiga 199. Shimoliy Koreya 100 ming kishiga 251,67 autizm darajasi bilan yaqindan orqada. Tunis uchinchi o'rinda, autizm darajasi biroz yuqoriroq, har 100 ming kishiga 284,45. Liviya, Suriya, Turkiya, Marokash, Shimoliy Mariana orollari, Hindiston va Tailandda autizm darajasi har 100 ming kishiga 285,55 yoki undan yuqori. Tayvan autizmning kam tarqalishi bo'yicha dunyoda yetakchi hisoblanadi, chunki u dunyodagi eng past ko'rsatkichga ega - har 100 mingga 199. Tayvan darajasi va boshqalar o'rtasidagi keskin farqni mamlakatning autizm spektrining buzilishi (ASD) bo'lgan shaxslarni erta aniqlash, tashxis qo'yish va aralashuvga bo'lgan qat'iy sodiqligi bilan bog'lash mumkin. 2015 yilda barcha maktabgacha yoshdagi bolalar uchun muntazam rivojlanish skrininglarini talab qiladigan qonunchilik joriy etilganidan beri Tayvan autizmning tarqalish ko'rsatkichlarining sezilarli darajada kamayganini ko'rdi. Ushbu tashabbus, boshqa dalillarga asoslangan aralashuvlar qatorida, Tayvanga ASD bilan yashovchi

odamlar va ularning oilalari uchun hayot sifati eng yuqori bo'lgan mamlakatlardan biriga aylanish yo'lini ochishga yordam berdi.

Bu yo'nalishda O'zbekistoda autism sindromi har 100 ming boladan 384 tasida uchraydi. O'zbekiston dunyo mamlakatlari ichida 78 pog'onada qayd etilgan. Respublika bolalar ijtimoiy moslashuv markazi hozirgi kunda autist bolalarga bepul xizmat ko'rsatayotgan asosiy davlat muassasasi hisoblanadi. 2004-yilda Vazirlar Mahkamasining qarori bilan tashkil qilingan bu markazda surunkali kasalliklar, nogironlik, psixofiziologik rivojlanishning buzilishi mavjud bo'lgan bolalarga yordam ko'rsatiladi. Uning qamrovi juda keng bo'lib, autism uning bir tarmog'i, xolos. U yerda massaj, basseyn, davolovchi gimnastika mashg'ulotlari, logoped, psixolog, defektolog yordami yo'lga qo'yilgan. Davolanuvchilar umumiy tibbiy ko'rikdan ham o'tishlari mumkin.

Xulosa. Xulosa qilib shuni ta'kidlash kerakki, autizmli bolaning har bir ota-onasi uning keyingi ijtimoiylashuvi istiqbollariга bo'lgan nuqtai nazaridan kelib chiqib, uni tarbiyalash va rivojlantirish usullari va usullarini mustaqil ravishda tanlash huquqiga ega. Ammo shuni unutmasligimiz kerakki, autizmli har bir bola o'z qiziqishlari, sevimli mashg'ulotlari, iste'dodlari, ko'nikmalari, qiyinchiliklari va imkoniyatlariga ega bo'lgan "Shaxs"dir, shuning uchun bolaga zarar bermaslik, uning rivojlanishiga to'sqinlik qilmaslik juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Манелис Н.Г., Волгина Н.Н., Никитина Ю.В. и др. Организация работы с родителями детей с расстройствами аутистического спектра: Методическое пособие. Москва: ФРЦ ФГБОУ ВПО МГППУ, 2017. 94 с. ISBN 978-5- 94051-164-9.
2. Морозов С.А. К вопросу о коморбидности при расстройствах аутистического спектра // Аутизм и нарушения развития. 2018. Т. 16. № 2. С. 3—8. DOI:10.17759/autdd.2018160201
3. Морозов С.А. Комплексное сопровождение лиц с расстройствами аутистического спектра: учебно-методическое пособие. Москва, 2015. 540 с. ISBN 978-5-9907171-8-3.
4. Global prevalence of autism: A systematic review update. Zeidan Jetal. Autism Research 2022 March.
5. Wakefield's affair: 12 years of uncertainty whereas no link between autism and MMR vaccine has been proved. Maisonneuve H, Floret D. Presse Med. 2012 Sep; French <https://pubmed.ncbi.nlm.nih.gov/22748860/>
6. Расстройства аутистического спектра. Елена Григоренко Лаборатория междисциплинарных исследований развития человека Санкт-Петербургского государственного университета. Москва, 2018
7. Autism in History: The Case of Hugh Blair of Borgue. Rab Houston, Uta Frith. 2000

Saidova Ozoda Tohirovna,

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IMIDJNI SHAKLLANTIRISHNING NAZARIY MODELLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola ta'lim tizimida pedagogik jarayonning samaradorligini oshirishda o'qituvchining shaxsiyati, kasbiy mahorati va pedagogik imidjining ahamiyatini yoritib beradi. Pedagogik imidjni shakllantirishning turli nazariy modellari, jumladan, psixologik-pedagogik, kompetensiya, integratsion va professional o'sish modellari tahlil qilinadi. Har bir modelning o'ziga xos jihatlari, o'qituvchining kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga qo'shadigan hissiy batafsil ko'rib chiqilgan. Maqola bo'lajak o'qituvchilarning ta'lim jarayonidagi rolini kuchaytirish, ularni jamiyatda yuqori imidjga ega shaxs sifatida shakllantirish bo'yicha nazariy asos yaratadi.

Kalit so'zlar: Pedagogik imidj, o'qituvchi shaxsiyati, kasbiy mahorat, psixologik-pedagogik model, kompetensiya modeli, integratsion model, professional o'sish, stereotip modeli, innovatsion ta'lim texnologiyalari, shaxsiy rivojlanish.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность личности учителя, его профессионального мастерства и педагогического имиджа для повышения эффективности педагогического процесса в системе образования. Анализируются различные теоретические модели формирования педагогического имиджа, включая психологико-педагогическую, компетентностную, интеграционную и модель профессионального роста. Детально рассматриваются особенности каждой модели и ее вклад в профессиональное и личностное развитие учителя. Статья создает теоретическую основу для усиления роли будущих учителей в образовательном процессе и формирования их имиджа как высоко оцененного специалиста в обществе.

Ключевые слова: Педагогический имидж, личность учителя, профессиональное мастерство, психологико-педагогическая модель, компетентностная модель, интеграционная модель, профессиональный рост, стереотипная модель, инновационные образовательные технологии, личностное развитие.

Annotation: This article highlights the importance of the teacher's personality, professional skills, and pedagogical image in enhancing the effectiveness of the educational process. It analyzes various theoretical models of forming a pedagogical image, including psychological-pedagogical, competence, integration, and professional growth models. The unique aspects of each model and their contribution to the teacher's professional and personal development are discussed in detail. The article provides a theoretical foundation for strengthening the role of future teachers in the educational process and shaping their image as highly regarded individuals in society.

Key words: Pedagogical image, teacher's personality, professional skills, psychological-pedagogical model, competence model, integration model, professional growth, stereotype model, innovative educational technologies, personal development.

Kirish. Pedagogik imidj - bu o'qituvchining kasbiy obrazini va uning ta'lim jarayonidagi shaxsiy va professional xususiyatlarini aks ettiruvchi muhim omil hisoblanadi. Bo'ladigan o'qituvchilarni tayyorlash jarayonida pedagogik imidjni shakllantirish nafaqat o'qituvchining tashqi ko'rinishi, balki uning ta'lim uslubi, pedagogik texnikasi, shaxsiy mahorati va o'quvchilarga nisbatan munosabati orqali ham shakllanadi. Shunday ekan, bo'ladigan o'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirish nazariy jihatdan juda muhim va ko'plab ta'lim tizimlarida o'rganilayotgan mavzulardan biridir.

Pedagogik imidjning shakllanishi o'qituvchining kasbiy muvaffaqiyatini ta'minlashda va o'quvchilarda ijobiy ta'sir uyg'otishda alohida ahamiyatga ega. Bu jarayon nafaqat shaxsiy qobiliyatlar, balki o'qituvchining jamiyatdagi obro'si, pedagogik ma'naviyati va ta'lim

tizimidagi yuksak kasbiy me'yorlarga muvofiqligi bilan ham bog'liqdir. O'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik imidjni shakllantirishning nazariy modellarini ishlab chiqish, ta'lim jarayonini yanada samarali qilishga yordam beradi.

Mazkur maqolada bo'ladigan o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning nazariy modellariga e'tibor qaratiladi va bu modellarni amaliyotga qanday tadbiiq etish mumkinligi haqida so'z yuritiladi. Bu, o'z navbatida, ta'lim tizimidagi sifatni oshirishga, o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishiga xizmat qiladi. Pedagogik imidj shakllantirish jarayoni ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, bu omillar o'qituvchining pedagogik faoliyatining muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchi, kommunikativ qobiliyati, pedagogik bilim va ko'nikmalari, shuningdek, ijtimoiy faolligi va ta'lim muhitiga moslashuvchanligi uning imidjini yaratishda muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi, shuningdek, o'quvchilarga ma'naviy va axloqiy qadriyatlarni o'rgatishda o'zining shaxsiy xislatlari va xulq-atvorini namoyon etishi kerak. Bu omillar o'quvchilarga o'qituvchi sifatida qanchalik ishonchli va ma'naviy jihatdan yetuk ekanligini ko'rsatadi.

Pedagogik imidjni shakllantirishning nazariy modellari bir nechta yondashuvlarni o'z ichiga oladi. Bular orasida o'qituvchining shaxsiy xususiyatlarini rivojlantirish, uning kasbiy mahoratini oshirish va ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan ijobiy munosabatlar o'rnatish kabi ko'plab jihatlar mavjud. O'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishda uning metodik ishlanmalari, o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash usullari, sinfda boshqaruv va o'qitish uslublarining samaradorligi ham alohida ahamiyatga ega. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish, kommunikatsiya ko'nikmalarini rivojlantirish va o'quvchilarga yo'l-yo'riq ko'rsatish ham o'qituvchining imidjini yaxshilashga yordam beradi.

Shu nuqtada, pedagogik imidjni shakllantirish jarayonini yanada samarali qilish uchun nazariy modellarni o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega. Bu modellar orqali o'qituvchilarning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga yordam berish, o'quvchilarga o'zini namoyon etish va ta'lim muhitida muvaffaqiyatli faoliyat yuritish imkoniyatlarini yaratish mumkin. Natijada, bo'ladigan o'qituvchining imidji, nafaqat uning professional ko'nikmalari, balki uning ta'lim tizimidagi o'rni va roli bilan ham belgilanadi.

Ta'lim tizimida pedagogik jarayonning muvaffaqiyati bevosita o'qituvchining shaxsiyati, kasbiy mahorati va pedagogik imidji bilan bog'liqdir. Bugungi globallashuv sharoitida ta'lim sifatini oshirish uchun o'qituvchilarning nafaqat bilim darajasini, balki ularning imidjini shakllantirishga ham katta e'tibor qaratilmoqda. Pedagogik imidj o'qituvchining tashqi ko'rinishi, nutqi, muloqot uslubi va psixologik barqarorligi kabi jihatlarni o'z ichiga oladi.

Pedagogik imidj bu o'qituvchining shaxsiy va kasbiy fazilatlarini aks ettiruvchi, ta'lim jarayonida samaradorlikni ta'minlovchi obrazdir. Pedagogik imidj nafaqat o'quvchilar va ularning ota-onalari, balki jamiyat tomonidan ham baholanadi.

Komponent	Tavsifi
Tashqi ko'rinish	- Professional kiyinish uslubi- Tana tili va yuz ifodalari
Nutq madaniyati	- Aniq va ravon so'zlash- Ovozning ohangi va intonatsiyasi
Muloqot qobiliyati	- Interaktiv va samimiy muloqot o'rnatish- O'quvchilar bilan empatiya
Shaxsiy fazilatlar	- Mas'uliyat, qat'iyat, mehribonlik- O'ziga ishonch va barqarorlik
Kasbiy salohiyat	- Innovatsion texnologiyalardan foydalanish- Ta'limni samarali tashkil etish

Psixologik-pedagogik modelga ko'ra, pedagogik imidjning shakllanishi shaxsning ichki va tashqi xususiyatlari uyg'unligi orqali amalga oshadi. Bu model quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- **Ichki xususiyatlar:** shaxsiy o'ziga ishonch, o'z-o'zini anglash va rivojlanishga intilish.
- **Tashqi omillar:** tashqi ko'rinish, nutq va xulq-atvorning ijobiy qirralari.

Psixologlardan A. Adlarning qarashlariga ko'ra, shaxsning rivojlanishi uning ijtimoiy muhit bilan o'zaro aloqasiga bog'liq. Adler ta'kidlashicha, pedagogik imidj shakllanishida insonning ichki motivatsiyasi va maqsadga erishishdagi qat'iyati muhim ahamiyatga ega.

Kompetensiya modeli pedagogik imidjni kasbiy kompetensiyalar orqali shakllantirishni nazarda tutadi. Bu model quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- **Kasbiy bilimlar:** pedagogik va psixologik nazariyalarni o'zlashtirish.
- **Amaliy ko'nikmalar:** dars jarayonini tashkil qilishda samarador usullarni qo'llash.
- **Shaxsiy kompetensiyalar:** stressni boshqarish, muloqot uslublarini rivojlantirish.

Lev Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasiga asoslanib, kompetensiya modelida o'qituvchi shaxsini rivojlantirishda uning bilimlarini ijtimoiy tajriba bilan bog'lash zarurligi ko'rsatilgan. Vygotskiy fikricha, shaxsning rivojlanishi uning ijtimoiy o'zaro ta'sir jarayonida shakllanadi.

Integratsion model pedagogik imidjni shakllantirishda turli sohalar, masalan, psixologiya, madaniyat va texnologiyalarning uyg'unlashuviga asoslanadi.

- **Psixologik komponent:** o'ziga ishonch va psixologik chidamlilik.
- **Madaniy komponent:** milliy va mintaqaviy qadriyatlarni hisobga olish.
- **Texnologik komponent:** zamonaviy ta'lim vositalaridan foydalanish.

Abraham Maslouning ehtiyojlar ierarxiyasi nazariyasiga binoan, o'qituvchi faqat o'zining asosiy ehtiyojlari qondirilgandan keyingina yuqori darajadagi o'zini anglash va kasbiy o'sishga erishishi mumkin. Bu model imidjning turli jihatlarini uyg'unlashtirishga qaratilgan.

Stereotip modeli o'qituvchining pedagogik imidjini ijtimoiy stereotiplarga asoslangan holda shakllantirishni nazarda tutadi. Bu yerda asosiy e'tibor ideal o'qituvchi obraziga qaratiladi.

- **Ideal obraz:** bilimdon, halol, intizomli va mehribon o'qituvchi sifatida qabul qilinadi.
- **Cheklovlar:** shaxsiy o'ziga xoslik va ijodiy yondashuvga imkoniyat cheklanishi mumkin.

Albert Bandura ijtimoiy o'rganish nazariyasida shaxsning xatti-harakatlari ijtimoiy kuzatish va taqlid qilish orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Ushbu yondashuv o'qituvchi imidjining stereotiplar orqali shakllanishini tushuntirishga yordam beradi.

Mazkur model pedagogik imidjni ijtimoiy muloqot va jamiyat bilan aloqalar orqali shakllantirishni taklif etadi.

- **Muloqot usullari:** ochiq darslar, ijtimoiy tarmoqlarda faoliyat.
- **Jamoatchilik bilan aloqalar:** ota-onalar va mahalliy hamjamiyat bilan hamkorlik.

Erik Eriksonning psixososial rivojlanish nazariyasida shaxsning ijtimoiy munosabatlar orqali shakllanishi jarayoni muhim ahamiyat kasb etadi. Eriksonning qarashlariga ko'ra, o'qituvchi o'zining ijtimoiy aloqalari orqali imidjini boyitishi va takomillashtirishi mumkin.

Professional o'sish modeli o'qituvchining kasbiy rivojlanishini pedagogik imidj shakllanishining asosiy mezon sifatida belgilaydi.

- **Bosqichlar:**
 - Boshlang'ich: nazariy bilimlarni egallash.
 - Rivojlanish: amaliy tajribani kengaytirish.
 - Yetuklik: pedagogik innovatsiyalarga hissa qo'shish.
- **Natijalar:** doimiy o'zini rivojlantirish orqali ta'lim jarayonida liderlik.

Donald Shonning reflektiv amaliyot nazariyasiga ko'ra, o'qituvchi o'z tajribasini doimiy tahlil qilib, ulardan xulosa chiqarib, kasbiy mahoratini oshirishi lozim.

Ushbu model gumanistik psixologiya asoschilaridan biri Karl Rojersning qarashlariga asoslanadi. Rojers fikricha, o'qituvchi o'zining haqiqiy "Men"ini anglab, o'zining shaxsiy o'sish va rivojlanish yo'lini topishi kerak. Bu yondashuvga ko'ra:

- **Individuallik:** har bir o'qituvchining o'ziga xosligi qadrlanadi.
- **O'zini rivojlantirish:** o'qituvchi doimiy o'z ustida ishlashi lozim.

Maslow va Rojers ta'kidlashicha, pedagogik imidjni shakllantirishda shaxsning o'zini anglash va o'z imkoniyatlarini to'liq amalga oshirish muhim ahamiyatga ega.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish murakkab va ko'p qirrali jarayondir. Bu jarayonda nafaqat shaxsiy va kasbiy fazilatlar, balki psixologik, ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada keltirilgan nazariy modellarning har biri pedagogik imidjning turli jihatlarini tushuntirishga yordam beradi. Kelgusida ushbu yo'nalishda amaliy tadqiqotlar olib borish, o'qituvchilarni pedagogik imidjni rivojlantirish bo'yicha qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Adler, A. (1930). The Science of Living. London: Allen & Unwin.
2. Bandura, A. (1977). Social Learning Theory. Englewood Cliffs, NJ: Prentice-Hall.
3. Erikson, E. H. (1963). Childhood and Society. New York: W. W. Norton & Company.
4. Maslow, A. H. (1943). "A Theory of Human Motivation," Psychological Review, 50(4), 370–396.
5. Rogers, C. R. (1961). On Becoming a Person: A Therapist's View of Psychotherapy. Boston: Houghton Mifflin.
6. Schön, D. A. (1983). The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. New York: Basic Books.
7. Vygotsky, L. S. (1978). Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. Cambridge, MA: Harvard University Press.
8. Dewey, J. (1938). Experience and Education. New York: Macmillan.
9. Kolb, D. A. (1984). Experiential Learning: Experience as the Source of Learning and Development. Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall.
10. Senge, P. M. (1990). The Fifth Discipline: The Art and Practice of the Learning Organization. New York: Doubleday/Currency.

Zikirova Fotima Murtazoyevna,
Buxoro davlat universiteti,
Matematika-fizika va axborot texnologiyalari
fakulteti 3-bosqich talabasi
fotimazikirova5@gmail.com

SUN'IY INTELEKTNING INSON PSIXOLOGIYASIGA TA'SIRI

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun'iy intellektning (SI) inson psixologiyasiga ta'siri tahlil qilinadi. Maqolada sun'iy intellektning ijobiy va salbiy ta'sirlari keltirilgan, shu jumladan stressni kamaytirish, psixologik yordam, o'qitish va rivojlantirish kabi ijobiy ta'sirlar va yolg'izlik, qaramlik, qiyoslash, ish joyida xavotir kabi salbiy ta'sirlar muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada sun'iy intellekt va inson psixologiyasi o'rtasidagi muvozanatni saqlash uchun texnologiyadan oqilona foydalanish, axloqiy nazorat qilish va raqamli sog'liqni saqlashni kuchaytirish kabi takliflar berilgan. Maqola sun'iy intellektidan samarali foydalanish uchun zarur bo'lgan me'yorlar va ehtiyot choralarini belgilaydi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, psixologiya, stress, yolg'izlik, qaramlik, ijtimoiy aloqalar, psixologik yordam, axloqiy nazorat, raqamli sog'liqni saqlash, texnologik muvozanat.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние искусственного интеллекта (ИИ) на психологию человека. В статье рассматриваются как положительные, так и отрицательные воздействия ИИ, включая такие положительные аспекты, как снижение стресса, психологическая поддержка, обучение и развитие, а также такие негативные аспекты, как одиночество, зависимость, сравнение и беспокойство на рабочем месте. Кроме того, в статье предложены рекомендации по сохранению баланса между искусственным интеллектом и психологией человека, включая рациональное использование технологий, этическую регуляцию и улучшение цифрового здоровья. Статья определяет необходимые нормы и меры предосторожности для эффективного использования искусственного интеллекта.

Ключевые слова: Искусственный интеллект, психология, стресс, одиночество, зависимость, социальные связи, психологическая поддержка, этическая регуляция, цифровое здоровье, технологический баланс.

Abstract: This article analyzes the impact of Artificial Intelligence (AI) on human psychology. It discusses both the positive and negative effects of AI, including positive influences such as stress reduction, psychological support, education, and development, as well as negative impacts such as loneliness, addiction, comparison, and workplace anxiety. Additionally, the article offers suggestions for maintaining a balance between artificial intelligence and human psychology, including the rational use of technology, ethical regulation, and enhancing digital health. The article establishes necessary standards and precautionary measures for effective use of AI.

Keywords: Artificial Intelligence, psychology, stress, loneliness, addiction, social connections, psychological support, ethical regulation, digital health, technological balance.

Kirish. Zamonaviy texnologiyalar, xususan, sun'iy intellekt (SI), inson hayotining barcha sohalariga kirib kelmoqda. U nafaqat iqtisodiyot, ta'lim va sog'liqni saqlash kabi sohalarda inqilob yasamoqda, balki insonlarning psixologik holatiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada sun'iy intellektning inson psixologiyasiga qanday ijobiy va salbiy ta'sir ko'rsatishi, uning imkoniyatlari va xavflari haqida batafsil so'z yuritiladi.

Sun'iy intellektning ijobiy ta'sirlari

1. Stress va tashvishlarni kamaytirish

Sun'iy intellekt asosida yaratilgan texnologiyalar, masalan, virtual yordamchilar, insonlar uchun kundalik vazifalarni osonlashtiradi. Bunga misol sifatida uy vazifalarini avtomatlashtirish, ish jarayonlarini boshqarish va ma'lumotlarni tezkor tahlil qilishni keltirish

mumkin. Ushbu imkoniyatlar insonlarning ortiqcha stress va tashvishlarini kamaytiradi, chunki ular ko'proq vaqtni o'zlari uchun sarflash imkoniga ega bo'ladilar.

2. Psixologik yordam

SI asosida yaratilgan ilovalar insonlarning ruhiy holatini kuzatishga yordam beradi. Masalan:

- **Replika** kabi chatbotlar yordamida foydalanuvchilar o'z his-tuyg'ularini ifodalashadi va yolg'izlik hissidan qutulishadi.

- Ruhiy salomatlikni kuzatish uchun ishlab chiqilgan Wysa kabi ilovalar insonlarning his-tuyg'ularini aniqlaydi va ularga maslahatlar beradi.

3. O'qitish va rivojlantirish

Sun'iy intellekt insonning shaxsiy ehtiyojlariga moslashtirilgan o'quv dasturlarini yaratish imkonini beradi. Bu o'z navbatida insonlarda o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va ularni ruhiy jihatdan qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, til o'rganish uchun ishlatiladigan Duolingo kabi ilovalar har bir foydalanuvchining o'zlashtirish darajasiga moslashadi, bu esa insonda muvaffaqiyat hissini kuchaytiradi.

Sun'iy intellektning salbiy ta'sirlari

1. Yolg'izlik va ijtimoiy aloqalarning yo'qolishi

SI texnologiyalari insonlarni virtual dunyoga tobora chuqurroq bog'lamoqda. Masalan, odamlar real insonlar bilan muloqot qilish o'rniga chatbotlar bilan gaplashishni afzal ko'rmoqda. Bu esa ijtimoiy aloqalarning kamayishi va yolg'izlik hissining kuchayishiga olib keladi.

2. Qaramlik

Texnologiyaga haddan tashqari bog'lanish psixologik qaramlikni kuchaytiradi. Sun'iy intellekt asosida ishlaydigan ijtimoiy tarmoqlar va mobil ilovalar insonlarda vaqtni nazoratsiz sarflashga olib keladi. Buning oqibatida insonlarning mahsuldorligi pasayadi va ular o'zlarini ruhan charchagan his qilishadi.

3. Qiyoslash va o'z-o'zidan norozi bo'lish

Sun'iy intellekt yordamida ishlab chiqilgan ijtimoiy media algoritmlari insonlarni boshqalar bilan qiyoslashga undaydi. Masalan, Instagram va TikTok kabi platformalarda doimiy ravishda ideal hayot tarzini targ'ib qiluvchi kontentlarni ko'rish insonlarda o'ziga nisbatan norozilikni kuchaytirishi mumkin. Bu esa o'z navbatida depressiya va o'zini past baholash kabi muammolarni keltirib chiqaradi.

4. Ish joyida xavotir va stress

Sun'iy intellektning rivojlanishi tufayli ko'plab sohalarida ishchi kuchiga bo'lgan talab kamaymoqda. Bu esa ish o'rnini yo'qotishdan qo'rquvni kuchaytirib, insonlarda stress va xavotirni oshiradi. Ayniqsa, avtomatlashtirish texnologiyalaridan foydalaniladigan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida bu holat yaqqol ko'zga tashlanadi.

Sun'iy intellekt va inson psixologiyasi o'rtasidagi muvozanat

1. Texnologiyadan oqilona foydalanish

Insonlar sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanishda muvozanatni saqlashi muhim. Texnologiya foydasidan ortiqcha foydalanish o'rniga, insonlar o'zlarining real hayotdagi ijtimoiy aloqalarini mustahkamlashga e'tibor qaratishlari kerak.

2. Sun'iy intellektni axloqiy nazorat qilish

Sun'iy intellektning inson psixologiyasiga zarar yetkazmasligini ta'minlash uchun dasturiy ta'minot ishlab chiquvchilari axloqiy me'yorlarga rioya qilishlari kerak. Masalan, ijtimoiy tarmoqlarda zararli kontentni nazorat qilish algoritmlarini ishlab chiqish orqali salbiy psixologik ta'sirlarni kamaytirish mumkin.

3. Raqamli sog'liqni saqlash

Ruhiy salomatlikni mustahkamlash uchun sun'iy intellekt asosida ishlab chiqilgan tibbiy texnologiyalar kengaytirilishi lozim. Bu insonlarga o'z psixologik muammolarini erta aniqlash va hal qilishga yordam beradi.

Sun'iy intellektni inson psixologiyasiga ta'sirini o'rganishdagi metodologiyalar

Sun'iy intellektning psixologik ta'sirini o'rganish uchun bir nechta metodologiyalar ishlatiladi. Bu metodologiyalarni to'liq anglash uchun ilmiy tadqiqotlarda va amaliy ishda ularning qanday qo'llanilishi muhimdir.

- **Eksperimental tadqiqotlar:** Eksperimental metodlar orqali sun'iy intellektning psixologik ta'siri haqidagi gipotezalarni tekshirish mumkin. Masalan, insonlar bilan interaktiv robotlar yoki virtual yordamchilarning muloqoti orqali ularning hissiy holatiga ta'sirini o'rganish.

- **So'rovnomalar va psixologik testlar:** So'rovnomalar va testlar yordamida insonlarning psixologik holatlari va hissiy reaksiyalari o'lchanadi. Bu metodologiya orqali sun'iy intellektidan foydalangan shaxslarning ruhiy holatlari haqida ma'lumot to'plash mumkin.

- **Kuzatuv usullari:** Boshqa bir usul esa insonlarni real vaqt rejimida kuzatish orqali sun'iy intellektning ular ustida qanday psixologik ta'sir ko'rsatishini aniqlashdir. Ushbu usul, ayniqsa, virtual yordamchilar bilan muloqot qilgan foydalanuvchilarning kayfiyati va xulq-atvorini o'rganishda samarali hisoblanadi.

Sun'iy intellekt yordamida yangi psixologik yordam va terapiya usullari

Sun'iy intellekt texnologiyalari psixoterapiya va ruhiy salomatlikni yaxshilashda katta o'rin tutmoqda. Onlayn terapiya va maslahatlar foydalanuvchilarga qulay va samarali yordam taqdim etadi.

- **AI asosidagi ruhiy salomatlik dasturlari:** Sun'iy intellekt asosidagi ruhiy salomatlik dasturlari, masalan, CBT (Cognitive Behavioral Therapy) yordamida onlayn terapiya imkoniyatlarini taqdim etadi. Ushbu dasturlar orqali foydalanuvchilar o'z hissiy holatlarini boshqarish va psixologik salomatlikni yaxshilash uchun maxsus mashqlarni bajarishlari mumkin.

- **Terapistlar uchun virtual yordamchilar:** Psixologlar va terapevtlar uchun virtual yordamchilar sun'iy intellekt yordamida samarali yordam taqdim etadi. Bu tizimlar terapevtning ish yukini kamaytirish, tashxis qo'yishda yordam berish va foydalanuvchilar bilan muloqot qilish imkoniyatlarini yaratadi.

Ai va psixologik holatni o'lchashdagi yangi texnologiyalar

AI yordamida insonlarning psixologik holatini aniqlash uchun ilg'or texnologiyalar mavjud. Bu texnologiyalar yordamida his-tuyg'ular va psixologik holatlar real vaqtda aniqlanishi mumkin.

- **Yuzni tanish texnologiyalari:** Yuzni tanish texnologiyalari orqali insonlarning hissiy holatlarini aniqlash imkoniyati mavjud. Bu texnologiya orqali yuz ifodalaridan, masalan, kulish yoki qattiq yig'lashdan, insonning kayfiyatini aniqlash mumkin.

- **Mikro ifodalarni aniqlash:** Mikro ifodalarning tahlili sun'iy intellekt yordamida ruhiy holatni o'lchashda ishlatiladi. Ushbu texnologiya yordamida insonlarning ichki tuyg'ulari va hissiy holatlari aniq aniqlanadi.

- **Real vaqt hissiyotlarini kuzatish:** Sun'iy intellekt yordamida real vaqtda insonlarning hissiyotlarini tahlil qilish imkoniyati mavjud. Masalan, onlayn muloqot orqali insonlarning psixologik holati va kayfiyatini o'lchash mumkin.

Hukumat va jamiyat uchun etik tavsiyalar

Sun'iy intellektning psixologik ta'sirini o'rganishda etik masalalar juda muhim ahamiyatga ega. Hukumatlar va kompaniyalar sun'iy intellekt texnologiyalarini ishlab chiqishda etik me'yorlarga rioya qilishlari kerak.

- **Maxfiylik va xususiy hayotga hurmat:** Sun'iy intellektning ishlatilishida maxfiylik va xususiy hayotni himoya qilish eng muhim jihat hisoblanadi. Foydalanuvchilarning shaxsiy ma'lumotlari va hissiy holatlari xavfsiz va yashirin bo'lishi kerak.

- **Inson huquqlari va nazorat mexanizmlari:** Hukumatlar va kompaniyalar sun'iy intellektning psixologik ta'sirini kuzatish uchun nazorat mexanizmlarini ishlab chiqishlari kerak. Bu mexanizmlar axloqiy va qonuniy cheklovlar asosida amalga oshirilishi lozim.

Texnologiyaning psixologik ta'siri va ularning so'nggi tendensiyalari

Sun'iy intellekt texnologiyalarining inson psixologiyasiga ta'siri so'nggi yillarda kuchli ravishda o'sdi. Kelajakda bu ta'sirni yanada kuchaytirish va yaxshilash mumkin.

• **Psixologik jihatdan sog'lom texnologiyalar:** Yangi texnologiyalarni ishlab chiqishda psixologik jihatdan sog'lom va xavfsiz usullarni qo'llash muhimdir. Yaqin kelajakda sun'iy intellekt foydalanuvchilarining psixologik holatiga yaxshiroq mos keladigan innovatsion texnologiyalar ishlab chiqilishi kutilmoqda.

• **Kelajakdagi innovatsiyalar:** Sun'iy intellektning psixologiyaga ta'sirini o'rganish va yangi texnologiyalarni ishlab chiqish orqali kelajakda inson ruhiy salomatligi va kayfiyatini yaxshilash imkoniyatlari paydo bo'ladi.

Xulosa. Sun'iy intellektning inson psixologiyasiga ta'siri murakkab va ko'p qirrali masaladir. U bir tomondan insonlarning kundalik hayotini yengillashtirib, ularga ruhiy barqarorlik bag'ishlasa, boshqa tomondan, yolg'izlik, qaramlik va norozilik kabi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Shuning uchun sun'iy intellektdan foydalanishda muvozanatni saqlash, axloqiy me'yorlarga rioya qilish va uning imkoniyatlarini insoniyat manfaatiga yo'naltirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Faqat shu yo'l bilan biz sun'iy intellektning psixologik ta'sirini boshqarishimiz va uning salbiy oqibatlaridan saqlanishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shkurupiy V.A. "Psikhologiya i tekhnologii: perspektivy razvitiya". - M.: Nauka, 2018.
2. Turing, A.M. "Computing Machinery and Intelligence". Mind, 1950.
3. Kasyanov, I. M., & Shagimuratova, R. (2020). "The Influence of Artificial Intelligence on Human Psychology". *Journal of Psychological Studies*, 12(3), 45-58.
4. Smith, J. (2019). *Artificial Intelligence and the Future of Human Interaction*. Cambridge University Press.
5. Wysa Health. (2022). *Digital Health and Artificial Intelligence: Impact on Mental Health*. Wysa Inc. Retrieved from www.wysa.com.

Muhamedova Muxayyo Karimovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi

TALABALARDA EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRISHDA XULQ-ATVOR OMILLARINING O'RNI VA AHAMIYATI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarning ekologik ongi shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar tahlil qilinadi. Ijtimoiy-psixologik, kognitiv, emotsional-motivatsion va xulq-atvor omillari ekologik ongning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik ta'lim, oilaviy tarbiya, jamiyatdagi ekologik qadriyatlar va shaxsiy motivatsiya talabalar ekologik mas'uliyatini oshirishga xizmat qiladi. Ekologik muammolarga nisbatan ongli munosabat shakllantirish uchun ta'lim tizimi va jamiyatning birgalikdagi sa'y-harakatlari muhim ahamiyat kasb etadi. Maqolada shuningdek, talabalarning ekologik ongi rivojlanishini ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so'zlar: ekologik ong, psixologik omillar, talabalar ekologik madaniyati, ijtimoiy-psixologik omillar, kognitiv jarayonlar, emotsional-motivatsion omillar, ekologik xulq-atvor, ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, ekologik mas'uliyat.

Аннотация: В данной статье анализируются психологические факторы, влияющие на формирование экологического сознания студентов. Социально-психологические, когнитивные, эмоционально-мотивационные и поведенческие факторы играют важную роль в развитии экологического сознания. Результаты исследования показывают, что экологическое образование, семейное воспитание, экологические ценности в обществе и личная мотивация способствуют повышению экологической ответственности студентов. Для формирования осознанного отношения к экологическим проблемам важна совместная работа системы образования и общества. В статье также представлены практические рекомендации по развитию экологического сознания студентов.

Ключевые слова: экологическое сознание, психологические факторы, экологическая культура студентов, социально-психологические факторы, когнитивные процессы, эмоционально-мотивационные факторы, экологическое поведение, экологическое образование, экологическое воспитание, экологическая ответственность.

Annotation: This article analyzes psychological factors influencing the formation of students' ecological awareness. Socio-psychological, cognitive, emotional-motivational, and behavioral factors play a crucial role in the development of ecological consciousness. The research results indicate that environmental education, family upbringing, societal ecological values, and personal motivation contribute to increasing students' ecological responsibility. To develop a conscious attitude toward environmental issues, a joint effort of the education system and society is essential. The article also provides practical recommendations for enhancing students' ecological awareness.

Key words: ecological awareness, psychological factors, students' ecological culture, socio-psychological factors, cognitive processes, emotional-motivational factors, ecological behavior, environmental education, ecological upbringing, ecological responsibility.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar tobora keskinlashib borayotgan sharoitda, ekologik ongning shakllanishi va rivojlanishi jamiyat uchun muhim vazifaga aylanmoqda. Ekologik ong, atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni tejash va barqaror rivojlanish tamoyillariga rioya qilish kabi qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Talabalar, kelajakda jamiyatning faol a'zolari sifatida, ekologik ongning yuqori darajada shakllanishi ularning shaxsiy va professional hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Psixologik omillar, ekologik ongning shakllanishida asosiy rol o'ynaydi. Insonning atrof-muhitga munosabati, uning psixologik xususiyatlari, qadriyatlari, e'tiqodlari va motivatsiyasi

bilan chambarchas bog'liq. Talabalarning ekologik ongini shakllantirishda ularning psixologik jihatdan tayyorligi, atrof-muhit muammolarini anglash darajasi va ularni hal qilishga bo'lgan intilishi muhim ahamiyatga ega.

Ushbu mavzuni o'rganish orqali talabalarda ekologik ongni shakllantirishga ta'sir etuvchi psixologik omillarni aniqlash, ularni ekologik mas'uliyatni oshirish va atrof-muhitni muhofaza qilishga qaratilgan faoliyatga jalb qilish imkoniyati yaratiladi. Psixologik omillarni to'g'ri tushunish va ularni qo'llash orqali ekologik ongni shakllantirish jarayonini samarali tashkil etish mumkin.

Keyingi qismlarda talabalarda ekologik ongni shakllanishiga ta'sir etuvchi asosiy psixologik omillar, ularning atrof-muhitga munosabatdagi ahamiyati va bu jarayonni yanada samarali qilish yo'llari muhokama qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Ekologik ong va uning shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar haqidagi adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bu mavzu zamonaviy psixologiya, ekologiya va pedagogika sohalarida keng qamrovli o'rganilmoqda. Quyida ushbu mavzuga oid adabiyotlarning asosiy yo'nalishlari va ularning tahlili keltirilgan.

A.N. Leontyev va S.L. Rubinshteyn kabi sovet psixologlari insonning atrof-muhit bilan munosabatini shaxsning faoliyati va ongi orqali tushuntirishga harakat qilishgan. Ularning fikricha, ekologik ong shaxsning atrof-muhitni idrok etishi va unga munosabatini belgilovchi ichki jarayonlardan iborat.

T.A. Babayevaning tadqiqotlarida ekologik ongning shakllanishida shaxsning qadriyatlar tizimi, ehtiyojlari va motivatsiyasi muhim rol o'ynashi ta'kidlangan.

E. Deci va R. Ryan tomonidan ishlab chiqilgan "O'zini o'zi rag'batlantirish nazariyasi" (Self-Determination Theory) talabalarning ekologik ongini shakllantirishda ichki va tashqi motivatsiyaning ahamiyatini ta'kidlaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ichki motivatsiya (masalan, tabiatni muhofaza qilishga bo'lgan shaxsiy qiziqish) tashqi rag'batlantirishdan (mukofotlar, tan olinish) ko'ra uzoq muddatli ta'sir ko'rsatadi.

J. Geller va L.Thøgersen kabi tadqiqotchilar ekologik xulq-atvorni rag'batlantirishda ijtimoiy normalar va qadriyatlar muhim rol o'ynashini ta'kidlashgan.

A. Banduraning "Ijtimoiy o'rganish nazariyasi" (Social Learning Theory) bo'yicha tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, talabalar atrof-muhitga munosabatda o'z atrofidagi odamlarni (o'qituvchilar, oila a'zolari, do'stlar) namuna qilib oladi. Shuning uchun, ekologik ongni shakllantirishda ijtimoiy muhitning ta'siri katta ahamiyatga ega.

H. Heft va L. Chawla kabi tadqiqotchilar bolalik davrida tabiat bilan yaqin aloqada bo'lgan shaxslarning katta yoshda ekologik ongning yuqori darajada bo'lishini aniqlashgan.

S. Schwartzning "Qadriyatlar nazariyasi" (Theory of Basic Human Values) bo'yicha tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, universal qadriyatlar (masalan, tabiatni muhofaza qilish, boshqalarga g'amxo'rlik qilish) ekologik ongni shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

R. Inglehartning "Postmaterialistik qadriyatlar nazariyasi" (Postmaterialist Theory) bo'yicha tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, rivojlangan jamiyatlarda odamlar moddiy qadriyatlarga qaraganda ekologik barqarorlik kabi nomoddiy qadriyatlarni afzal ko'rishadi.

J. Piagetning "Kognitiv rivojlanish nazariyasi" (Cognitive Development Theory) bo'yicha tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, bolalar va o'smirlar atrof-muhitni tushunish va unga munosabatda bo'lish jarayonida bosqichma-bosqich rivojlanadi. Shuning uchun, ekologik ongni shakllantirishda yoshga mos bilimlar va tushunchalarni yetkazish muhimdir.

D. Orrning "Ekologik ta'lim" (Ecological Education) bo'yicha ishlari shuni ko'rsatadiki, ekologik ongni shakllantirishda an'anaviy ta'lim usullaridan ko'ra amaliy faoliyat va tajribalar samaraliroqdir.

Talabalarda ekologik ongni shakllantirishda psixologik omillarning roli juda katta. Bu omillar talabalarning atrof-muhitga bo'lgan munosabatini, ularning ekologik mas'uliyatni qabul qilish darajasini va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan intilishlarini belgilaydi. Quyida ushbu omillarning ba'zilarini ko'rib chiqiladi:

1. Motivatsiya. Talabalarning ekologik ongini shakllantirishda ichki va tashqi motivatsiya muhim rol o'ynaydi. Ichki motivatsiya, masalan, atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan shaxsiy qiziqish yoki tabiatga mehr qo'yish, talabalarni ekologik faoliyatga undashda kuchli omil hisoblanadi. Tashqi motivatsiya esa, ijtimoiy e'tirof, mukofotlar yoki tan olinish kabi omillar orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Qadriyatlar va e'tiqodlar. Talabalarning qadriyatlar tizimi ularning ekologik ongini shakllantirishda asosiy omillardan biridir. Agar talaba tabiatni qadrlash, uning ahamiyatini tushunish va atrof-muhitni muhofaza qilishni o'zining shaxsiy qadriyati sifatida qabul qilsa, bu uning ekologik ongini mustahkamlaydi.

3. Ijtimoiy ta'sir. Talabalar ijtimoiy muhitda yashaydilar va ularning atrof-muhitga bo'lgan munosabati ko'pincha o'z atrofdagi odamlar (o'qituvchilar, oila a'zolari, do'stlar) ta'sirida shakllanadi. Ijtimoiy normalar va qadriyatlar talabalarning ekologik xulq-atvorini belgilashda muhim rol o'ynaydi.

4. Psixologik tayyorgarlik va bilim darajasi. Talabalarning atrof-muhit muammolari haqidagi bilim darajasi va ularni hal qilish yo'llarini bilishi ekologik ongini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Psixologik jihatdan tayyor bo'lish, ya'ni atrof-muhit muammolarini o'zining shaxsiy mas'uliyati sifatida qabul qilish, talabalarni ekologik faoliyatga undashda katta ahamiyatga ega.

5. Emotsional bog'lanish. Tabiatga bo'lgan emotsional bog'lanish (masalan, tabiatni sevish, uning go'zalligini qadrlash) talabalarning ekologik ongini mustahkamlaydi. Emotsional jihatdan tabiatga yaqin bo'lgan talabalar uning muhofazasi uchun ko'proq mas'uliyat his qilishadi.

6. Ijtimoiy-madaniy muhit. Talabalarning yashayotgan ijtimoiy-madaniy muhiti ham ekologik ongini shakllantirishga ta'sir qiladi. Masalan, qishloq joylarda yashovchi talabalar tabiatga yaqin bo'lib ulg'ayganligi sababli, ularning ekologik ongi shaharlarda yashovchi talabalarga qaraganda yuqori bo'lishi mumkin.

Tahlil va natijalar. Ekologik ongini shakllantirishda qo'llaniladigan usullar

1. Ta'lim va targ'ibot. Talabalarga ekologik masalalar bo'yicha bilim berish, ularning atrof-muhit muammolarini tushunishlariga yordam beradi. Targ'ibot faoliyati orqali ularning ekologik ongini oshirish mumkin.

2. Amaliy faoliyat. Talabalarni ekologik loyihalarda (masalan, daraxt ekish, chiqindilarni saralash) qatnashishga jalb qilish ularning ekologik ongini mustahkamlaydi.

3. Ijtimoiy namunalar. O'qituvchilar, oila a'zolari va boshqa ijtimoiy namunalar talabalarga ekologik mas'uliyatni namoyish etishlari orqali ularning ongiga ijobiy ta'sir ko'rsatishlari mumkin.

4. Psixologik qo'llab-quvvatlash. Talabalarning ekologik faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini qadrlash va ularni rag'batlantirish ularning motivatsiyasini oshiradi.

Talabalarning ekologik ongi shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar

Talabalarning ekologik ongi shakllanishiga turli omillar ta'sir qiladi. Ushbu jarayonda psixologik omillar muhim rol o'ynaydi. Ular shaxsning ekologik muammolarni anglash darajasini, tabiatga bo'lgan munosabatini va ekologik xulq-atvorini belgilaydi. Quyida ekologik ongini shakllantirishga ta'sir qiluvchi asosiy psixologik omillarni tahlil qilamiz.

1. Ijtimoiy-psixologik omillar

Bu omillar insonning ijtimoiy muhit va jamiyatdagi o'rni bilan bog'liq bo'lib, quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

- Oilaviy tarbiya – Insonning tabiatga bo'lgan munosabati asosan bolalikda shakllanadi. Agar ota-onalar va oila a'zolari ekologik mas'uliyatni anglab, uni bolaga o'rgatsa, u ham tabiiy ravishda ekologik ongini shaxs sifatida shakllanadi.

- Ijtimoiy muhit va jamiyatning ta'siri – Talabalarning ekologik ongi atrofdagi odamlarning xulq-atvori, jamiyatda ekologik muammolarga bo'lgan e'tibor darajasi bilan

bog'liq. Agar universitet va jamiyat ekologik qadriyatlarni targ'ib etsa, talabalar ham bu borada mas'uliyatli bo'lishadi.

- Ta'lim tizimi – Universitet va ta'lim muassasalarida ekologiya fanlarining o'qitilishi, ekologik loyihalar va tadbirlarga jalb etish talabalar ongining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

2. Kognitiv (bilish jarayonlari bilan bog'liq) omillar

Bu omillar ekologik ongning shakllanishida insonning tafakkuri, bilimi va fikrlash qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

- Ekologik bilimlar – Agar talabalar ekologik muammolar, iqlim o'zgarishi va ekologik inqirozlar haqida yetarlicha bilimga ega bo'lsa, ular atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabatda bo'lishadi.

- Tafakkur va mantiqiy fikrlash – Talabalar ekologik muammolarni tahlil qilish, sabab-oqibat aloqalarini tushunish orqali ekologik ongni rivojlantiradilar. Masalan, plastik chiqindilar tabiatga qanday zarar yetkazishini tushungan inson ularni kamaytirishga harakat qiladi.

- Ekologik masalalar bo'yicha tanqidiy fikrlash – Talabalar jamiyatda keng tarqalgan ekologik muammolar va ularni hal qilish yo'llarini tahlil qilish orqali o'z pozitsiyalarini shakllantiradilar.

3. Emotsional-motivatsion omillar

Bu omillar ekologik ong shakllanishida hissiyotlar va motivatsiyaning rolini ifodalaydi.

- Ekologik hissiyotlar – Atrof-muhitga muhabbat, tabiatni sevishtirish va unga daxldorlik hissi ekologik ongning shakllanishiga xizmat qiladi. Agar talaba tabiat bilan bog'liq ijobiy tajribaga ega bo'lsa (masalan, bolalikda tabiat qo'ynida ko'p vaqt o'tkazgan bo'lsa), u ekologik masalalarga befarq bo'lmaydi.

- Motivatsiya – Agar talabalar ekologik faoliyatga jalb qilinsa va bu orqali ma'lum natijalarga erishish imkoniyatini ko'rsa, ularning ekologik ongi yanada shakllanadi. Masalan, ekologik loyihalar va ijtimoiy tashabbuslar talabalarni ekologik muammolarni hal qilishga undaydi.

- Shaxsiy manfaatdorlik – Odamlar ekologik muammolarga o'z hayotlariga ta'siri darajasida qiziqish bildiradilar. Masalan, suv va havoning ifloslanishi sog'liqqa zarar yetkazishini tushungan talaba ekologik faoliyatga ko'proq e'tibor qaratadi.

4. Xulq-atvor omillari

Ekologik ong nafaqat bilim va hissiyotlar, balki amaliy harakatlar orqali ham shakllanadi.

- Ekologik xatti-harakatlar – Shaxsning ekologik ong darajasi uning amaliy faoliyati orqali namoyon bo'ladi. Masalan, chiqindilarni saralash, ekologik mahsulotlardan foydalanish, resurslarni tejash kabi odatlar ekologik ongli shaxs sifatida shakllanishga yordam beradi.

- Atrof-muhitga do'stona odatlar – Talabalar ekologik ongni kundalik hayotda qo'llay boshlaganda, ularning ekologik xulq-atvori doimiy ravishda shakllanib boradi. Masalan, qog'oz va plastmassadan kamroq foydalanish, energiya tejankor texnologiyalardan foydalanish ekologik madaniyatni oshiradi.

- Ekologik faoliyatda ishtirok etish – Talabalar ekologik tadbirlarda qatnashish orqali o'z shaxsiy mas'uliyatini yanada chuqur anglaydilar. Masalan, daraxt ekish aksiyalari, suv va havo tozaligini saqlash bo'yicha loyihalar ekologik ong shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Talabalarining ekologik ongi shakllanishiga ta'sir etuvchi psixologik omillar

1-jadval

Psixologik omillar	Tavsif	Ekologik ongga ta'siri
Ijtimoiy-psixologik omillar	Oilaviy tarbiya, ijtimoiy muhit, ta'lim tizimi	Ekologik qadriyatlar va ongni shakllantiradi
Kognitiv omillar	Bilim, tafakkur, tanqidiy fikrlash	Ekologik muammolarni tushunishga yordam beradi

Emotsional-motivatsion omillar	Ekologik hissiyotlar, motivatsiya, manfaatdorlik	Ekologik mas'uliyatni oshiradi, ijobiy munosabat shakllantiradi
Xulq-atvor omillari	Ekologik odatlar, ekologik faoliyatda ishtirok	Amaliy ekologik xatti-harakatlarni shakllantiradi

1. Ijtimoiy-psixologik omillar

Bu omillar insonning oilasi, jamiyat va ta'lim tizimi orqali shakllanadigan ekologik ongi bilan bog'liq. Agar inson oilasida yoki ta'lim muassasasida ekologik madaniyat targ'ib qilinsa, u ham ekologik mas'uliyatli shaxs sifatida shakllanadi.

- Agar ota-onalar bolalariga chiqindilarni saralashni o'rgatsa yoki atrof-muhitni toza saqlashni uqtirsa, bu bolada ekologik odat sifatida shakllanadi.

- Universitetlarda ekologiya fanining o'qitilishi yoki ekologik tadbirlarga talabalarni jalb qilish ekologik ongni mustahkamlaydi.

- Jamiyatda ekologik muammolarga e'tibor berilmasa, talabalar ham bu masalaga befarq bo'lib qolishi mumkin.

2. Kognitiv (bilish) omillar

Bu omillar insonning bilim, tafakkur va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari bilan bog'liq.

- Agar talaba ekologik muammolar haqida yetarlicha bilimga ega bo'lsa, u atrof-muhitga zarar yetkazuvchi harakatlardan tiyiladi.

- Masalan, talaba plastik chiqindilar tabiatga 500 yil davomida zarar yetkazishini bilsa, u plastik mahsulotlardan foydalanishni kamaytiradi.

- Tanqidiy fikrlash orqali talaba ekologik muammolarni tahlil qiladi va yechim izlaydi. Masalan, iqlim o'zgarishining sabablarini tushungan talaba energiya tejash yoki havo ifloslanishini kamaytirish yo'llarini izlaydi.

3. Emotsional-motivatsion omillar

Bu omillar ekologik ong shakllanishida hissiyotlar va motivatsiyaning roli bilan bog'liq.

- Inson tabiatga muhabbat qo'ysa yoki ekologik muammolarga daxldorlik hissini his qilsa, u ekologik jihatdan mas'uliyatli shaxsga aylanadi.

- Masalan, bir talaba daraxtlar kesilayotganini ko'rib, tabiatga achinish hissini sezsa, u atrof-muhitni asrashga harakat qiladi.

- Motivatsiya – ekologik harakatlarga undovchi ichki yoki tashqi turtki. Agar talabalar ekologik aksiyalarda qatnashib, natija ko'rsa (masalan, chiqindilarni saralash natijasida toza hudud hosil bo'lsa), ular yanada faolroq bo'lishadi.

- Shaxsiy manfaatdorlik ham muhim: agar talaba havo ifloslanishi sog'lig'iga zarar yetkazishini tushunsa, u ekologik muhitni saqlash uchun harakat qiladi.

4. Xulq-atvor omillari

Bu omillar insonning ekologik ongini amaliyotda qanday qo'llashi bilan bog'liq.

- Agar inson ekologik ongga ega bo'lsa, lekin amaliy harakat qilmasa (masalan, chiqindilarni saralamasa, plastikdan foydalanishni kamaytirmasa), bu yetarli emas.

- Ekologik odatlar – doimiy ravishda bajariladigan ekologik foydali xatti-harakatlar (masalan, suvni tejash, elektrni behuda ishlatmaslik).

- Talabalarining ekologik loyihalarda ishtirok etishi ekologik madaniyatni oshiradi. Masalan, daraxt ekish, ekologik tozalik aksiyalarida qatnashish ekologik xulq-atvorni shakllantiradi.

Umumiy xulosa

Talabalarining ekologik ongi turli psixologik omillar ta'sirida shakllanadi. Bu omillar ijtimoiy-psixologik, kognitiv (bilish), emotsional-motivatsion va xulq-atvor omillari bo'lib, har biri ekologik ong shakllanishida muhim rol o'ynaydi.

1. Ijtimoiy-psixologik omillar – oila, ta'lim muassasalari va jamiyat tomonidan berilgan tarbiya orqali ekologik qadriyatlar shakllanadi. Ijtimoiy muhit ekologik ongga yetaklovchi asosiy omildir.

2. Kognitiv omillar – talabaning ekologik bilim va tafakkur darajasi, ekologik muammolarni tushunish va ularga tanqidiy yondashish qobiliyatini oshiradi. Bilimli talaba ekologik muammolarga yechim topishga intiladi.

3. Emotsional-motivatsion omillar – ekologik hissiyotlar va motivatsiya talabalarni ekologik harakatlarga undaydi. Agar shaxs ekologik muammolarni chuqur his qilsa va atrof-muhitga daxldorlikni sezsa, u faol ekologik xulq-atvorni namoyon qiladi.

4. Xulq-atvor omillari – ekologik ongni real hayotda amalga oshirish orqali mustahkamlanadi. Talabalarning ekologik loyihalarda ishtirok etishi, ekologik odatlar hosil qilishi ekologik madaniyatni shakllantirishga xizmat qiladi.

Talabalarning ekologik ongini rivojlantirish uchun ta'lim tizimi, jamiyat va oilaning birgalikdagi sa'y-harakatlari talab etiladi. Ekologik savodxonlikni oshirish, ekologik targ'ibot ishlarini kuchaytirish va amaliy ekologik loyihalarga jalb qilish orqali ekologik madaniyatni yuksaltirish mumkin.

Tavsiyalar. Ekologik ta'limni kuchaytirish – universitet va maktablarda ekologiya bo'yicha maxsus kurslarni joriy etish.

- Ekologik motivatsiyani oshirish – talabalarni ekologik muammolarga jalb qilish uchun loyihalar va mukofot tizimlarini ishlab chiqish.

- Amaliy harakatlarni rag'batlantirish – ekologik aksiyalar, chiqindilarni ajratish tizimi, yashil hududlarni ko'paytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Aristov, A.V. (2017). Ekologiya va psixologiya: asoslar va muammolar. Moskva: Ekologiya Nashriyoti.

2. Ibragimov, T. (2019). Ekologik ong va ta'lim. Toshkent: O'zbekiston ta'lim nashriyoti.

3. Kamilov, B. (2020). Ijtimoiy-psixologik omillar va ekologik ong. Toshkent: Akademiya.

4. Kuzmin, L.V. (2018). Psixologiya va ekologik xulq-atvor. Sankt-Peterburg: Sankt-Peterburg universiteti nashriyoti.

5. Mirzaev, A. (2021). Ekologik ta'lim va yoshlarning ekologik ongini shakllantirish. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

6. Petrov, V. (2019). Ekologiya va inson psixologiyasi. Moskva: Nauchniy Mir.

7. Sirojiddinov, S. (2022). Talabalar ekologik madaniyatini rivojlantirishning psixologik asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya.

8. Yusufov, U. (2018). Ekologik muammolarni psixologik tahlil qilish. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.

9. Zaviyov, F. (2020). Emotsional-motivatsion omillar va ekologik xulq-atvor. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim vazirligi.

10. Choriev, M. (2023). Ekologik ongni shakllantirishda ijtimoiy-psixologik omillar. Tashkent: Oliy o'quv yurtlari nashriyoti.

*Hafizova Firuza Baxtiyorovna,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

TALABALARDA KONFLIKTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Maqolada talabalar o'rtasida konfliktologik madaniyatni shakllantirish masalasi ko'rib chiqiladi, bu hozirgi paytda ta'limdan oldin juda dolzarbdir. Bo'lajak mutaxassisni shakllantirish jarayoni nafaqat kasbiy bilimlarni o'zlashtirishga, balki jamoadagi ziddiyatli vaziyatlarni bag'rikenglik bilan hal qilish qobiliyatiga ham asoslanadi. Biz talabalar o'rtasida konfliktologik madaniyatni shakllantirishda alohida rol o'ynashi mumkin bo'lgan psixologik va badiiy yo'nalishdagi to'garaklarda ishlashga e'tibor qaratamiz.

Kalit so'zlar: konstruktiv muloqot, konfliktologik muloqot, konfliktologik madaniyat, ijtimoiy taraqqiyot, munosabat, agressivlik, o'jarlik, tortinchoqlik, ijtimoiy psixologik moslashuv, o'zini chetga olish.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос формирования конфликтологической культуры у учащихся, которая в настоящее время очень актуальна до образования. В основе процесса формирования будущего специалиста лежит не только овладение профессиональными знаниями, но и умение толерантно справляться с конфликтными ситуациями в коллективе. Ориентируемся на работу в кругах психологической и художественной направленности, которые могут сыграть особую роль в формировании конфликтологической культуры у учащихся.

Ключевые слова: конструктивное общение, конфликтологическое общение, конфликтологическая Культура, Социальное развитие, установки, агрессивность, упрямство, робость, социально-психологическая адаптация, самоограничение.

Annotation: in this article, will consider the issue of the formation of a conflict culture among students, which is currently very relevant before education. The process of forming a future specialist is based not only on the assimilation of professional knowledge, but also on the ability to deal with conflict situations in the team with tolerance. We focus on working in circles of psychological and artistic orientation, which can play a special role in the formation of a conflict culture among students.

Keywords: psychocorrection, constructive communication, correctional disorder, social development, attitude, aggression, stubbornness, shyness, social psychological adaptation. obstinacy, stubbornness, self-conformity, self-absorption, cooperation.

Kirish. Jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida, murakkab jarayonlar ya'ni davlatimizda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy shakllanish va rivojlanish jadal borayotgan bir davrda ta'limga qo'yiladigan asosiy vazifalaridan biri XXI asrning madaniy shaxsini shakllantirishdir. Raqobatbardosh xodimni shakllantirish-bu ta'limning yangi paradigmasi mavjud bo'lgan vaqt talabidir, bu nafaqat kelajakdagi mutaxassislar tomonidan bilimlarni o'zlashtirishga, balki ularning mehnat faoliyati jarayonida zarurligini tushunishga, ijtimoiy va madaniy hodisalarga shaxsiy munosabatni shakllantirishga, nafaqat o'zini namoyon qilish qobiliyatiga, balki murakkab, ziddiyatli vaziyatlardan chiqish qobiliyatiga ham asoslanadi.

Konfliktologiya, yoki konfliktlar yechimi sohasi yangi rivojlanib kelayotgan va taraqqiy etayotgan fan sohalaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shu bois, konfliktologiya sohasining nazariy asoslari, uning milliy xususiyatlari, ijtimoiy o'ziga xosliklari, konfliktlarning jamiyat hayoti bilan aloqadorligi, shaxslararo konfliktlar, konfliktlarning huquqiy aspektlari, mehnat jamoasidagi konfliktlar masalalari ko'pchilik tadqiqotchilarni qiziqtiradi. Ko'rinib turibdiki, konfliktologiyaning o'z ichki yo'nalishlari ko'p. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishga ko'mak beradi. Ammo bu sohadagi tadqiqotlar unchalik ko'p bo'lmay, mazkur qo'llanmani yozishda konfliktologiya asoslari bo'yicha ingliz, rus va o'zbek tillaridagi ba'zi ma'lum manbalarga tayanildi.

O'quvchilarda konfliktologik madaniyatni shakllantirish o'quv ishlarining asosiy yo'nalishlari va vazifalaridan biri hisoblanadi. Xo'sh, avval boshidan biz konfliktologik madaniyat tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, "Konfliktologik madaniyat" tushunchasi "konflikt" va "madaniyat"ning ikkita ta'rifidan kelib chiqadi. "Konflikt" tushunchasi ham ilmiy, ham oddiy. Kundalik tilda u turli kontekstlarda va hatto metafora sifatida ishlatiladi. Ular, masalan, fikrlar to'qnashuvi, ranglar kombinatsiyasi, she'riyat va hayot nasrining to'qnashuvi va boshqa fanlar doirasida ham uchraydi. Ilm-fan sohasida u turli sohalarda turli xil talqinlari mavjud. "Mojarro" atamasi lotincha "conflictus" dan kelib chiqqan bo'lib, so'zma-so'z "to'qnashuv, jiddiy kelishmovchilik, nizo" degan ma'noni anglatadi. Maxsus adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, "mojarro" tushunchasi, uning keng tarqalishi va dolzarbligiga qaramay, aniq va ozmi-ko'pmi universal ta'rifga ega emas. A. Bandura ning ta'kidlashicha: "mojarro ilmiy kategoriya sifatida uning kashf etilishining mutlaq xususiyatiga ega va hayotning barcha shakllarida uchraydi"

1956 yilda L. Kozer "ijtimoiy ziddiyat funksiyalari" kitobini nashr etadi, unda nizoga o'z ta'rifini beradi. U ziddiyatli munosabatlarsiz ijtimoiy guruhlar yo'qligini va mojarolar ijtimoiy tizimlar va ularning faoliyati uchun salbiy va ijobiy ahamiyatga ega ekanligini isbotladi. Uning ta'kidlashicha, bir-biridan mustaqil bo'lgan mojarolar qanchalik ko'p bo'lsa, jamiyat uchun shuncha yaxshi bo'ladi. Olim mojaroni qadriyatlar va da'volarni qondirish uchun zarur bo'lgan kuch, maqom yoki vositalar yetishmasligidan kelib chiqadigan va qarsgi tomon maqsadlarini zararsizlantirish, buzish yoki yo'q qilishni o'z ichiga olgan nizo sifatida izohlaydi. Shunday qilib, chuqur ildizlarga ega bo'lgan mojarro hayotning turli sohalari bilan aloqada bo'lib, shaxsning shakllanishiga ta'sir qiladi. "Madaniyat" tushunchasini hisobga olgan holda, biz S. Ikonnikovaning tadqiqotlariga e'tibor qaratamiz, u madaniyat insonning ma'naviy energiyasini to'playdi, o'zini o'zi bilish va o'zini anglash uchun turtki beradi, xulq-atvor chegaralarini belgilaydi, deb yozadi.


U insoniyatning ijtimoiy xotirasini boyitadi, madaniy merosini saqlaydi, avlodlar davomiyligi jarayonida qadriyatlar va yutuqlarni muhokama qiladi. Dastlab "madaniyat" tushunchasining yagona ta'rifi bo'lmagan, XIX asr oxiridan XX asrning birinchi choragigacha madaniyatning 10 ga yaqin ta'rifi mavjud bo'lgan, birinchi chorak oxiridan XX asrning 60-yillariga qadar shakllantirilgan keyinchalik 150 dan ortiq ta'riflar paydo bo'ldi, endilikda ilmiy va monografik adabiyotlarda 500 dan ortiq ta'riflar taqdim etildi. "Madaniyat" tushunchasiga birinchi bo'lib ta'rif bergan olim bu E. Teylor hisoblanib (ingliz madaniyat tarixchisi, 1832-1917) u "ibtidoiy madaniyat" fundamental asarida taqdim etgan. "Madaniyat-bu bilim, e'tiqod, san'at, axloq, qonunlar, shuningdek, inson tomonidan jamiyat a'zosi sifatida o'rganilgan boshqa qobiliyat va ko'nikmalarni o'z ichiga olgan kompleks" deb aytadi.

Madaniyat-lotincha "cultura" so'zi - Evropa tafakkurining qo'llanilishiga faqat 18-asrning ikkinchi yarmida, lotin tili o'lik til bo'lishni to'xtatganda kirgan. "Madaniyat" atamasi sifatida odamlar o'zlarining hayotiy faoliyatini tashkil etadigan ijtimoiy jihatdan orttirilgan va avloddan-avlodga tarjima qilinadigan muhim g'oyalar, qadriyatlar, urf-odatlar, urf-odatlar, me'yorlar va xulq-atvor qoidalarining ma'lum bir to'plamidir. Madaniyat nazariyasi va tarixining taniqli tadqiqotchisi A. Gurevich madaniyat deganda nafaqat inson ruhining yutuqlari majmui, balki insonning hayotiy yo'nalishlari tizimi ham jamiyatning har bir a'zosi ongining haqiqiy mazmuni sifatida tushuniladi deb aytadi. L. Berejnovaning fikriga ko'ra esa madaniyat inson faoliyatining moddiy, ma'naviy va ijtimoiy ifodasining murakkab uyushgan, tarixiy rivojlangan tizimi bo'lib, uning mazmuni, morfologiyasi va funktsiyalarida rivojlanish jarayonini aks ettiradi.

Madaniyat insonga katta ta'lim va tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishi, shuningdek nizolarni hal qilish endi aksioma sifatida qabul qilinishi mumkin. "Mojarro" va "madaniyat" ning ikkita ta'rifi inson shakllanishining bir-birini to'ldiruvchi asoslari hisoblanadi. "Konfliktologik madaniyat" tushunchasi birinchi marta N. Samsonova o'z asarida tahlil qilgan bo'lib, u konfliktologik madaniyatni kasbiy madaniyat deb atash mumkin bo'lgan kengroq, hajmli va yaxlit hodisaning

bir qismi deb biladi. Muallif "shaxsning konfliktologik madaniyati" va "mutaxassisning konfliktologik madaniyati" tushunchalarini farqlash zarur deb hisoblaydi. Shaxsning konfliktologik madaniyati ijtimoiy mojarolarning oldini olish va hal qilish istagi (ehtijoj, istak) va qobiliyatiga mos keladi: shaxslararo, millatlararo deb hisoblaydi. Nizoli vaziyatlar borasida bir qator metodikalar mavjud. Aynan talaba yoshlar o'rtasida Tomas Kilman ning Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor stilini baholash metodikasini o'tkazdik. Tomas-Kilmannig "Nizoli vaziyatlarda xulq-atvor stilini baholash" so'rovnoma ham subyektiv metodlar tarkibiga kiradi. So'rovnoma shaxslararo munosabatlar jarayonida insonlar o'rtasidagi manfaatlar to'qnashuvi oqibatida yuzaga keluvchi nizoli vaziyatlarda shaxsning xulq-atvor stilini baholovchi metodlardan biri hisoblanadi. Mazkur so'rovnoma orqali insonning nizoli vaziyatlarga bo'lgan munosabatini, uning samaradorlik xususiyatlarini hamda ushbu vaziyatlar oqibatida yuzaga keluvchi tushunmovchiliklarni boshqarish stillarini aniqlash mumkin.

Tomas Kilman ning "Nizoli vaziyatlarda xulq - atvor stilini baholash" metodikasi natijalari:



Buxoro davlat universitetida 100 nafar ikkinchi bosqich talaba yoshlar miqyosida:

1. Nizodan qochish
2. Qarama qarshilik
3. Moslashish
4. Hamkorlik
5. Tortinchoqlik

Natijalarga ko'ra talabalar o'rtasida nizoli vaziyatlardan qochish va qarama qarshiliklar o'zlarini boshqara olmasliklari va bunday vaziyatlarda ulara irodasining sustligini ko'rishimiz mumkin. Xo'sh, bunday vaziyatlarda nima qilish mumkin. Avvalambor, qarama-qarshilik nima o'zi va bunga atroflicha yondashadigan bo'lsak, zamonaviy sharoitda ijtimoiy munosabatlardagi qarama-qarshilikning kuchayishi mazmunli hayotiy faoliyatga ega bo'lib, ijtimoiy ziddiyatlarni ijtimoiylashuvning eng muhim omili sifatida hal qiladi. "Mutaxassisning konfliktologik madaniyati" ostida olim yuqorida aytib o'tilgan tadqiqotda konfliktogen kasbiy muhitda mutaxassisning kasbiy hayotining sifat tavsifi sifatida tushunadi. Mutaxassisning konfliktologik madaniyatining kasbiy madaniyat tarkibidagi o'rni va rolini aniqlash ushbu turdagi kasbiy madaniyatning ob'ektivligini va uning boshqa turlari bilan o'zaro bog'liqligini

o'rnatishni talab qiladi: axborot, kommunikativ, kasbiy faoliyat, madaniyatlarning mohiyatini aks ettiradigan uslubiy va maxsus.

Yuqoridagi fikrlarni inobatga olib shuni aytishimiz mumkinki, o'quv jarayonida "shaxsning konfliktologik madaniyati" va "mutaxassisning konfliktologik madaniyati" kabi tushunchalarni umumlashtirish kerak, chunki mutaxassisning konfliktologik madaniyati shaxsning konfliktologik madaniyatining tarkibiy qismidir, chunki, birinchi navbatda, biz talabalarda ta'lim paytida ham takomillashtirishni talab qiladigan shaxsiy fazilatlarini tarbiyalashimiz. Bolgariyaliklar har bir o'quv predmetining mazmuni insoniyat madaniyatining bir qismini tashkil qiladi va ushbu tarkibni tanlash, birinchi navbatda, o'quv jarayonining maqsadi bilan belgilanadi, O'quvchilar madaniy bo'lish qiziqarli, obro'li va foydali ekanligini tushunishlari kerak. Va yuqori ma'naviyatga intilish hayotning ma'nosiga aylanishi kerak deb hisoblashar ekanlar.

Konfliktlar va ularning yechimi bo'yicha ma'lum bilimlar va ko'nikmalarni egallamasdan turib, zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarda faoliyat olib borib hamda ularni boshqarib bo'lmaydi. Konfliktlarni o'rganish, ularni ilmiy anglash, konfliktlar bo'yicha zamonaviy bilimlarni egallagan mutaxassislarni tarbiyalab – voyaga yetkazish davr bilan hamnafas bo'lishni anglatadi. Konfliktologik kayfiyat va xususiyatlarni o'rganish, jamiyatdagi inqirozlarning kelib chiqishi va ijtimoiy to'qnashuvlarning oldini olishda "Pedagogik va psixologik konfliktologiya" fani o'z oldiga maqsad va vazifalarni belgilab oldi. Pedagogik va psixologik konfliktologiya fanini o'qitishdan maqsad – bo'lajak o'qituvchilarni zamonaviy pedagogik konfliktologiya asoslariga doir bilimlar bilan qurollantirishdir. Shu bilan birga yoshlarga hayotdagi konfliktlar bo'yicha keng nazariy va amaliy bilimlar berish orqali yoshlarni jamiyatda mustaqil va faol fuqaro sifatidagi ishtiroki uchun zamin yaratish, boshqa insonlar bilan tabiiy bo'lgan turli ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy-ruhiy, psixologik muloqotlarda ular ongi, tafakkuri va axloqida kamtarlik, mehribonlik, halollik, to'g'riso'zlik, samimiylik, vijdoniylik, o'z so'zida turish kabi hislatlarni tarbiyalashdan iboratdir.

Darhaqiqat, aksiologik ko'rsatmalar orasida professionallik va turli xil vakolatlar albatta mavjud bo'ladi. Yoshlar Madaniyat odami bo'lishni maqsad qilib qo'yishlari juda muhimdir. Bu nafaqat makrosotsiumga, balki ko'p jihatdan ijtimoiy-pedagogik tizim ishtirokchilarining o'zini o'zi tashkil etish, o'zini rivojlantirish qobiliyatiga bog'liq. Talabalarda konfliktologik madaniyatni shakllantirishda badiiy yo'nalishdagi to'garaklar alohida rol o'ynashi mumkin. San'at badiiylikning eng yuqori namoyishi sifatida shaxsni shakllantirish, dunyoni yaxlit idrok etish, madaniyat yutuqlari va insoniyatning hayotiy tajribalarini saqlash va o'zgartirish imkoniyatini beradi. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, nizolarning 80% o'z ishtirokchilarining xohishidan qat'i nazar sodir bo'ladi. Bu bizning psixikamizning o'ziga xos xususiyati tufayli sodir bo'ladi, chunki ko'pchilik odamlar bu haqda bilishmaydi yoki mojarolarga ahamiyat bermaydilar. Konfliktlarning paydo bo'lishida asosiy rol ni konfliktogenlar o'ynaydi. Bu so'z "mojaroga hissa qo'shadigan narsa" degan ma'noni anglatadi. Konfliktogenlarga mojarolar yoki nizoli vaziyatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan so'zlar, harakatlar (harakatsizlik) deyiladi

Hozirgi zamon psixologlari mahalliy va jahon san'ati namunalari tufayli talabalarning badiiy yo'nalishdagi to'garaklardagi ishlari talabalar o'rtasidagi ziddiyat darajasini kamaytirishga imkon beradi deb hisoblashadi. Talabalarni teatr to'garagida ishlashga jalb qilishga alohida e'tibor qaratamiz. Teatr-ko'plab san'atlarning sintezi, xususan, rasm, arxitektura, musiqa, vokal, raqs va boshqalar. barcha san'atlarga nisbatan birlashtiruvchi funktsiyani teatrda adabiyot bajaradi. Shu sababli, talabalarni ushbu san'at turiga jalb qilish ayniqsa muhimdir, chunki teatr to'garagiga tashrif buyurish paytida ular nafaqat ma'naviy jihatdan boyitibgina qolmay, balki u yoki bu san'at asarini tahlil qilishni, muallif bilan eng muhim daqiqalarni boshdan kechirishni, jismoniy rivojlanishni va sahna va tomoshabin qo'rquvidan xalos bo'lishni o'rganadilar.

Teatr to'garagining asosiy vazifasi talabalarning teatr va teatr san'ati haqidagi bilimlarini chuqurlashtirish, mahalliy va jahon klassikalarini idrok etish va o'zbek milliy mumtoz adabiyotining durdonalariga qiziqish istagini shakllantirish, spektakl va teatrdagi tomosha qilish paytida madaniy xulq-atvor ko'nikmalarini egallash, hayotda aktyorlik mahoratiga ega bo'lishdir. Bunday to'garakda ishlash talabalarga erkin suhbatlashish, o'qish, improvizatsiya qilish, adabiy asarlarga nisbatan o'z fikrlarini bildirish, dunyoqarashni kengaytiradi, bu esa og'zaki mojarolardan qochib, keyingi hayotda muloqot qilishni o'rganishga imkon beradi. Teatr san'ati hali yoshlar orasida mashhur emas, shuning uchun talabalar bunday to'garaklarga katta ishtiyoq bilan tashrif buyurishmaydi.

Odatda talabalar o'z tanlovlarini tanlagan doiraga kelishadi. To'garakka turli yoshdagi turli guruhlardagi talabalar tashrif buyurishadi, shuning uchun ish paytida turli xil ziddiyatli vaziyatlar yuzaga keladi: rolni tanlashda tortishuvlar, o'qish paytida, pantomimani ijro etish, musiqa, kostyumlar va spektakl uchun rekvizitlarni birgalikda muhokama qilish paytida. Bunday ziddiyatli vaziyatlarda o'qituvchining vazifasi ularning rivojlanishiga va o'quvchilarning kundalik hayotiga o'tishiga yo'l qo'ymaslikdir. O'qituvchi rahbar emas, balki mojaroni hal qilishda vositachi bo'lishi kerak. Talabalar mojaroni mustaqil ravishda hal qilishlari kerak. Teatr to'garagi rahbari o'quvchilarga sahnada paydo bo'lgan, ammo o'yin nuqtai nazaridan, ya'ni vaziyatni hayotdan olib, uni, masalan, hammaga ma'lum bo'lgan har qanday ertakga o'tkazish yoki ziddiyatli vaziyatni kulgili tarzda yengishga harakat qilish imkoniyatini berishi mumkin. Bu o'quvchilarga vaziyatni boshqa tomondan ko'rib chiqish imkoniyatini beradi.

Xulosa va tavsiyalar. O'zbekiston konfliktologiyasi bugungi kunda mustaqil fan sifatida shakllanishning yakuniy bosqichini boshidan kechirmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida konfliktologiyaga oid bilimlar fanlararo paradigmasining konturlari belgilanib, ular asosi sifatida tizimli evolyusion yondashuv olindi. So'nggi paytda konfliktologiya tarmoqlarini tashkil qilgan xususiy (alohida) konfliktologiya fanlarida bu fan muammosining ko'p sonli qiziqarli va muhim tadqiqotlari o'tkazildi. Ammo mahalliy konfliktologlar hozircha konfliktlar mohiyatini anglash, ularning tasnifi, genezisi, tuzilmasi kabilarga nisbatan umumiy yondashuv ishlab chiqa olmadilar. Bunday yondashuv ko'pchilik konfliktologlar tomonidan konfliktologiya fanining mazmun-mohiyati to'g'risidagi tizimli tasavvur(qarash)larning bitta, yaxshisi bir necha variantini muhokama qilish asosida ishlab chiqilishi mumkin. Sohaning bugungi kundagi dolzarb ahamiyatini inobatga olib, nafaqat maxsus maktablar balki, mavjud ilmiy markazlar o'rtasida hamkorlikning dasturiy omillari ham jadallik bilan yo'lga qo'yilmoqda. 1989 yili konfliktologiya bo'yicha Rossiya-Amerika dasturi yaratildi. Ushbu dastur doirasida konfliktlarni o'rganish va hal qilish instituti (CRI) ko'magida Peterburg konfliktlarni hal etish markazi yaratilib, u ham bilishga oid nazariy, ham utilitar-amaliy muammolarni hal qilishga qaratilgan, ya'ni odamlarga konfliktlar bilan nima qilish kerakligini anglatishi, tushuntirishi, yordam berishi kerak edi. Mahalliy olimlar fikriga ko'ra, konflikt va undan himoyalaniish davrning eng dolzarb muammosi bo'lib, uni hal qilish (echish) nafaqat muayyan bilim, balki u odamlarning masalalarni amalda konfliktless hal qilishga xohishi, istagini ifoda etadi.

Darslardagi o'yin faoliyati yoki treninglar talabalar o'rtasida o'zaro muloqot qilish jarayonini yaratadi, bu jarayon esa albatta talabalarning konfliktologik madaniyati rivojlanishiga bir sabab va turtki bo'ladi. Talabalarda konfliktologik madaniyatini rivojlantirishda albatta ularning psixologik portretlarini, temperament va xarakter xususiyatlarini o'rgangan holda ularga konfliktologik madaniyatini rivojlantirish yo'llarining har bir turlarini qo'llab ko'rish kerak. Har bir talabaning individual xususiyatlari har xil ularning motivlari ya'ni faoliyatga undovchi kuchlari ham turlichadir. Shuning uchun konfliktologik madaniyatini rivojlantirish mashqlari va treninglarining hammasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Sh.M.Mirziyoyev "Milliy Taraqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz "(Toshkent Uzbekiston 2019y).
2. Sh.M.Mirziyoyev "Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir"(Toshkent Uzbekiston 2018y) СИЁСИЙ ХАТО.....
3. G'oziyev E.Yosh davrlar psixologiyasi (Toshkent 2010 y)
4. Barotov Sh.R. Psixologik xizmat (Toshkent 2018y)
5. Anastazi A. Differentsial'naya psixologiya M.; EKSMO-Press,-2001.
6. Kilmann R.H., Thomas K.W. (1977) Developing a Forced-Choice Measure of Conflict-Handling Behaviour: The "Mode" Instrument // Educational and Psychological Measurement.
7. Piren.M.I.. Конфликтология: Учебник. — К.: МАУП Barotov Sh.R.Psichologik xizmat (Toshkent 2018y)
8. Hakimova Fazolat Khoshimovna Психические и эмоциональные состояния у детей вестник 23 (79), 358-361
9. Hakimova Fazolat Khoshimovna Психология: происхождение и структура научного факта Вестник интегративной психологии 19 (2), 115-119
10. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ёшдаги болаларнинг ижтимоий психологик мослашув шаклланишида психокоррекция методларининг гурни Психология илмий журналы 4 (5), 128-130
11. Hakimova Fazolat Khoshimovna Мактабгача ва кичик мактаб ёшидаги болаларда мослаша олмасликнинг турли куринишларини психологик хусусиятлари. "Тафаккур ва талқин" 5 (2), 776-779
12. Hakimova Fazolat Khoshimovna Бола шахсининг шаклланишида оиланинг урни "Тафаккур ва талқин" 3 (2), 452-455

Abduvohidova Sabina Zokir qizi,

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA O'ZINI-O'ZI BOSHQARISHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Maqolada bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zini-o'zi boshqarish (self-regulation) qobiliyatining ahamiyati tahlil qilinadi. O'zini-o'zi boshqarish shaxsning o'z faoliyatini maqsadli ravishda rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi jarayoni sifatida ta'riflanadi. Maqolada Albert Banduraning o'z-o'zini boshqarish nazariyasi, Edward Deci va Richard Ryanning ichki motivatsiya nazariyasi, Edwin Locke va Gary Lathamning maqsadlar nazariyasi kabi taniqli psixolog va pedagog olimlarning nazariyalari asosida o'zini-o'zi boshqarishning pedagogik-psixologik jihatlarini ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: o'zini-o'zi boshqarish, kasbiy kompetensiya, bo'lajak o'qituvchilar, ichki motivatsiya, refleksiya, pedagogik mahorat.

Аннотация: В статье анализируется важность способности саморегуляции (self-regulation) для развития профессиональных компетенций будущих учителей. Саморегуляция определяется как процесс планирования, контроля и оценки своей деятельности с целью достижения определённых результатов. В статье рассматриваются педагогико-психологические аспекты саморегуляции на основе теорий известных психологов и педагогов, таких как теория саморегуляции Альберта Бандуры, теория внутренней мотивации Эдварда Деси и Ричарда Райана, теория целей Эдвина Лока и Гэри Лэтема.

Ключевые слова: саморегуляция, профессиональная компетенция, будущие учителя, внутренняя мотивация, рефлексия, педагогическое мастерство.

Annotation: The article analyzes the importance of self-regulation ability for the development of professional competencies of future teachers. Self-regulation is defined as the process of planning, controlling, and evaluating one's activities in a goal-oriented manner. The article discusses the pedagogical-psychological aspects of self-regulation based on the theories of prominent psychologists and educators, such as Albert Bandura's self-regulation theory, Edward Deci and Richard Ryan's intrinsic motivation theory, and Edwin Locke and Gary Latham's goal theory.

Key words: self-regulation, professional competence, future teachers, intrinsic motivation, reflection, pedagogical skills.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish jarayoni ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ta'lim jarayonida o'qituvchilarning shaxsiy va professional rivojlanishi, ular tomonidan ko'rsatilayotgan pedagogik xizmatning sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shunday ekan, o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini oshirishda o'zini-o'zi boshqarish (self-regulation) qobiliyatining ahamiyati alohida e'tiborga molikdir. O'zini-o'zi boshqarish, o'qituvchining o'z faoliyatini maqsadli ravishda rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi jarayonlarini o'z ichiga oladi. Bu qobiliyat nafaqat o'qituvchining ish samaradorligini oshirishga yordam beradi, balki uning pedagogik mahoratini rivojlantirishda ham katta rol o'ynaydi.

O'zini-o'zi boshqarish nafaqat shaxsiy rivojlanishning asosiy mexanizmi sifatida, balki o'qituvchilarning o'quvchilar bilan samarali muloqot o'rnatishi, ta'lim jarayonida yuqori natijalarga erishishi uchun zarur bo'lgan psixologik vosita sifatida ham qaraladi. Ushbu qobiliyat bo'ladigan o'qituvchilarda nafaqat ta'lim uslublarini muvaffaqiyatli qo'llashni, balki o'z-o'zini tahlil qilish, o'z kuchli va zaif tomonlarini anglashni o'rgatadi. O'qituvchilarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati nafaqat o'z ishida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi, balki ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishini ham ta'minlaydi.

Mazkur maqolada bo'ladigan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zini-o'zi boshqarishning ahamiyati, uning pedagogik-psixologik jihatlari va ta'lim jarayoniga ta'siri batafsil tahlil qilinadi.

Adabiyotlar tahlili. Bo'ladigan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zini-o'zi boshqarish (self-regulation)ning ahamiyati, ayniqsa, o'qituvchining shaxsiy va professional rivojlanishida katta o'rin tutadi. O'zini-o'zi boshqarish qobiliyati o'qituvchining o'z faoliyatini maqsadga yo'naltirilgan tarzda boshqarishi, nazorat qilishi va tahlil qilishi orqali kasbiy kompetensiyasini oshirishga yordam beradi. Shu bilan birga, pedagogik jarayonda o'qituvchining ta'lim metodlari va yondashuvlaridagi samaradorlikni ta'minlaydi.

Albert Bandura (1986) o'zining ijtimoiy o'rganish nazariyasida o'zini-o'zi boshqarishni o'rgatishning psixologik asoslarini ko'rsatgan. U o'z-o'zini boshqarish jarayonini o'rgatishda o'qituvchilarning ichki motivatsiyasi va o'z faoliyatiga bo'lgan javobgarlikni oshirishga e'tibor qaratgan. Bandura, o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish orqali o'qituvchilar o'z pedagogik faoliyatlarini samarali tashkil etishi mumkinligini ta'kidlagan. Bu jarayon o'qituvchilarga o'z bilim va ko'nikmalarini o'z vaqtida baholash va samarali tarzda tahlil qilish imkoniyatini beradi.

Edward Deci va Richard Ryan (1985) ichki motivatsiya nazariyasida o'zini-o'zi boshqarish va ichki motivatsiyaning o'zaro bog'liqligini o'rgangan. Ular, o'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirish orqali, o'qituvchining o'z ishiga bo'lgan qiziqish va motivatsiyasini oshirish mumkinligini ko'rsatgan. Ichki motivatsiya va o'zini-o'zi boshqarishning o'zaro aloqasi o'qituvchining ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi. Shu o'rinda, o'qituvchilarni ichki motivatsiya orqali o'zlarini rivojlantirishga undash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatini kuchaytirish zarurligi muhimdir.

Edwin Locke va Gary Latham (2002) maqsadlar nazariyasida o'zi-o'zi boshqarishning maqsadlarni belgilash va ularga erishishdagi ahamiyatini yoritib o'tganlar. Ular maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish jarayonida o'zini-o'zi boshqarishning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydilar. O'qituvchilar o'z maqsadlarini to'g'ri belgilab, ularga erishish uchun zarur bo'lgan qadamlarni rejalashtirgan holda o'z faoliyatlarini samarali boshqarishi mumkin. Bu esa, o'z navbatida, o'qituvchining professional rivojlanishini ta'minlaydi.

Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalari va innovatsion pedagogik yondashuvlar o'qituvchilarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi. Internet va raqamli vositalar yordamida o'qituvchilar o'z faoliyatlarini yanada samarali boshqarish va tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari o'qituvchilarni o'z faoliyatini boshqarishda ilg'or usullar va metodlardan foydalanishga undaydi.

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchilardan nafaqat yuqori darajadagi bilim va ko'nikmalarni, balki ularning o'zini-o'zi rivojlantirish qobiliyatini ham talab qiladi. Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda o'zini-o'zi boshqarish (self-regulation) asosiy omillardan biridir. Ushbu maqolada o'zini-o'zi boshqarishning pedagogik-psixologik jihatlari, shuningdek, taniqli olimlarning nazariyalari asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga qaratilgan usullar ko'rib chiqiladi.

O'zini-o'zi boshqarish (self-regulation) deganda shaxsning o'z faoliyatini maqsadli ravishda rejalashtirishi, nazorat qilishi va baholashi tushuniladi. Bu jarayon shaxsning ichki motivatsiyasi, maqsadlari va qadriyatlariga asoslanadi. Albert Banduraning "o'z-o'zini boshqarish nazariyasi" (self-regulation theory) shaxsning o'z xatti-harakatlarini tartibga solishda ichki va tashqi omillarning o'zaro ta'sirini ta'kidlaydi. Bandura ta'kidlashicha, shaxs o'z faoliyatini nazorat qilish orqali o'zini samarali boshqarishi mumkin.

Pedagogik faoliyatda o'zini-o'zi boshqarish quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi:

✓ Maqsadlarni belgilash – o'qituvchi o'zining kasbiy rivojlanish yo'nalishlarini aniq ko'rsatib, ularga erishish uchun chora-tadbirlarni ishlab chiqadi.

✓ Vaqtni boshqarish – pedagogik faoliyatni samarali tashkil etish va vaqtni tejash.
 ✓ O'z faoliyatini baholash – o'qituvchi o'zining yutuqlari va kamchiliklarini tahlil qilib, ularni bartaraf etish yo'llarini izlaydi.

O'zini-o'zi boshqarishning psixologik jihatlari asosan quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

✓ Ichki motivatsiya – Edward Deci va Richard Ryanning *Ichki motivatsiya nazariyasi* (Self-Determination Theory) shaxsning o'z faoliyatiga bo'lgan shaxsiy qiziqishi va mas'uliyatini ta'kidlaydi. Bu nazariya bo'yicha, shaxsning o'zini-o'zi boshqarishi uning ichki motivatsiyasi bilan chambarchas bog'liq.

✓ Maqsadga yo'naltirilganlik – Edwin Locke va Gary Lathamning *Maqsadlar nazariyasi* (Goal-Setting Theory) shaxsning aniq maqsadlarni belgilashi va ularga erishish uchun harakat qilishini ta'kidlaydi.

✓ O'zini nazorat qilish – Lev Vygotskyning *Ijtimoiy-kognitiv nazariyasi* (Sociocultural Theory) shaxsning o'z xatti-harakatlarini tahlil qilishi va ularni to'g'ri yo'naltirishida ijtimoiy muhitning rolini ta'kidlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun ularning shaxsiy va kasbiy motivatsiyasini oshirish, ularga aniq maqsadlar ko'rsatish va ularni o'z faoliyatini baholashga o'rgatish zarur.

O'zini-o'zi boshqarish qobiliyati bo'lajak o'qituvchilarning quyidagi kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga yordam beradi:

✓ Pedagogik mahorat – Lee Shulmannning *Pedagogik kontent bilimi nazariyasi* (Pedagogical Content Knowledge) o'qituvchilarning bilim va metodik ko'nikmalarini integratsiyalashishini ta'kidlaydi.

✓ Innovatsion yondashuvlar – John Deweyning *Tajriba asosidagi ta'lim nazariyasi* (Experiential Learning) o'qituvchilarning yangi pedagogik texnologiyalarni o'rganish va qo'llashini ta'kidlaydi.

✓ Muloqot qobiliyatlari – Carl Rogersning *Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv nazariyasi* (Person-Centered Approach) o'qituvchilarning o'quvchilar bilan samarali muloqot qilishini ta'kidlaydi.

Bo'lajak o'qituvchilarning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini rivojlantirish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

✓ Maqsadlarni belgilash – Locke va Lathamning nazariyasiga asoslanib, o'qituvchilarga qisqa va uzoq muddatli maqsadlarni belgilashni o'rgatish.

✓ Refleksiya – Donald Schönning *Refleksiv amaliyot nazariyasi* (Reflective Practice) asosida o'z faoliyatini muntazam ravishda tahlil qilish va natijalarni baholash.

✓ Treninglar va mashqlar – Albert Ellisning *Ratsional-emosional xulq-atvor terapiyasi* (REBT) asosida stressni boshqarish va samarali rejalashtirish bo'yicha treninglar o'tkazish.

✓ Mentorlik – Lev Vygotskyning *Yaqin rivojlanish zonasi nazariyasi* (Zone of Proximal Development) asosida tajribali o'qituvchilarning yordami orqali bo'lajak o'qituvchilarni qo'llab-quvvatlash.

O'zini-o'zi boshqarishning psixologik va pedagogik jihatlari, nazariyalar va ularning o'qituvchilarning kasbiy rivojlanishiga ta'siri ko'rsatilgan.

1-jadval

Jadval	O'zini-o'zi boshqarishning jihatlari	Taniqli nazariyalar	O'qituvchining kasbiy rivojlanishiga ta'siri
1. Ichki motivatsiya	O'qituvchining o'zini rivojlantirishga bo'lgan ichki ehtiyojini oshirish	Edward Deci va Richard Ryanning ichki motivatsiya nazariyasi	O'qituvchining o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish va samarali o'qitish jarayoniga motivatsiya berish

2. Maqsadlarni belgilash va ularga erishish	Aniq maqsadlar qo'yish va ularga erishishning yo'lini rejalashtirish	Edwin Locke va Gary Lathamning maqsadlar nazariyasi	O'qituvchilar maqsadlarni aniq belgilash orqali o'z faoliyatini yanada samarali boshqarishi mumkin
3. O'zini tahlil qilish va refleksiya	O'qituvchining o'z faoliyatini tahlil qilish va o'zgarishlarga moslashish	Albert Banduraning o'z-o'zi boshqarish nazariyasi	O'qituvchilarning o'z faoliyatini o'rganib, yangi yondashuvlarni kiritishga yordam beradi
4. Pedagogik mahoratni oshirish	Ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatli o'qituvchining kasbiy va shaxsiy o'sishiga yordam berish	P. Hersey va K. Blanchardning o'qituvchilikni boshqarish nazariyasi	O'qituvchining pedagogik mahoratini va kommunikativ qobiliyatlarini oshiradi
5. Innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish	Yangi texnologiyalarni o'z faoliyatiga joriy etish	Zamonaviy pedagogik texnologiyalar	O'qituvchilarga o'zini-o'zi boshqarish va ta'limni modernizatsiya qilish imkonini beradi
6. Shaxsiy rivojlanish va o'zgarishlarga moslashish	O'qituvchining shaxsiy o'sishiga qaratilgan boshqaruv	Shaxsiy rivojlanish nazariyasi	O'qituvchilarning o'zini-o'zi rivojlantirishga bo'lgan yondashuvini kuchaytiradi

Jadvalda har bir jihat va uning ta'siri o'qituvchining kasbiy rivojlanishiga qanday yordam berishi ko'rsatilgan. O'zini-o'zi boshqarishning turli tomonlari o'qituvchining pedagogik faoliyatining sifatini oshirish va samarali ta'lim jarayonini tashkil etish uchun zarur vosita sifatida qaraladi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatining ahamiyati juda katta. Ushbu qobiliyat ularga nafaqat o'zlarini rivojlantirish, balki o'quvchilarni ham samarali boshqarish imkoniyatini beradi. O'zini-o'zi boshqarishni rivojlantirish uchun maqsadli yondashuv, refleksiya va doimiy o'rganish zarur. Ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarni o'zini-o'zi boshqarishga o'rgatishga qaratilgan dasturlarni joriy etish orqali ularning kasbiy rivojlanishini yanada yaxshilash mumkin.

Xulosa. Bo'ladigan o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda o'zini-o'zi boshqarishning ahamiyati katta. O'zini-o'zi boshqarish o'qituvchilarga o'z faoliyatlarini maqsadli ravishda rejalashtirish, nazorat qilish va baholash imkonini beradi. Bu jarayon, o'qituvchining kasbiy rivojlanishini ta'minlab, uning pedagogik mahoratini oshirishga yordam beradi. Shuningdek, o'zini-o'zi boshqarish qobiliyati o'qituvchining ichki motivatsiyasini oshiradi, maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish jarayonida muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Bandura, A. (1997). Self-efficacy: The exercise of control*. New York: Freeman.
2. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (1985). *Intrinsic motivation and self-determination in human behavior*. New York: Plenum.

3. Locke, E. A., & Latham, G. P. (2002). Building a practically useful theory of goal setting and task motivation. **American Psychologist**, 57(9), 705-717.
4. Vygotsky, L. S. (1978). **Mind in society: The development of higher psychological processes**. Cambridge, MA: Harvard University Press.
5. Shulman, L. S. (1986). Those who understand: Knowledge growth in teaching. **Educational Researcher**, 15(2), 4-14.
6. Dewey, J. (1938). **Experience and education**. New York: Macmillan.
7. Schön, D. A. (1983). **The reflective practitioner: How professionals think in action**. New York: Basic Books.

Qodirova Dilnoza Murtazoyevna,

Buxoro davlat universiteti Psixologiya kafedrası o'qituvchisi

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

BO'LAJAK PSIXOLOGLAR KOMMUNIKATIV KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada, bo'lajak psixologlar kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik determinantlari nazariy jihatdan o'rganilgan. Bundan tashqari, bo'lajak psixologlar kommunikativligini oshirishning o'ziga xos bo'lgan psixologik jihatlari ilmiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Kommunikativlik, kompetentlik, muloqot, diqqat, individuallik, determinant.

Аннотация: В данной статье теоретически исследованы психологические детерминанты развития коммуникативной компетентности будущих психологов. Кроме того, был проведен научный анализ психологических аспектов, характерных для повышения коммуникативности будущих психологов.

Ключевые слова: Коммуникативность, компетентность, общение, внимание, индивидуальность, детерминантность.

Annotation: In this article, prospective psychologists theorize psychological determinants of the development of communicative competence. In addition, there is a scientific analysis of the psychological aspects inherent in increasing the communicativeness of future psychologists.

Key words: Communicativity, competence, communication, attention, individuality, determinant.

Kirish. Psixologik kommunikativ kompetentlik – bu psixologlarning samarali va maqsadga muvofiq muloqot qilish qobiliyati bo'lib, ularning professional faoliyatida muhim rol o'ynaydi. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ularning bilim va ko'nikmalarini oshirish, muammolarni hal etish va mijozlar bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega.

Bunday kompetentlikni shakllantirishda bir qator psixologik determinantlar ta'sir ko'rsatadi. Ular orasida shaxsiy xususiyatlar, emotsional intellekt, empatiya darajasi, muloqot tajribasi va o'z-o'zini anglash kabi omillar mavjud. Har bir psixolog ushbu determinantlarni hisobga olib, o'zining muloqot strategiyalarini ishlab chiqishi va samarali muloqotda bo'lishi zarur.

Bu mavzuda bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni, uning psixologik asoslari va amaliy tadbirlari haqida muhokama qilinadi. Shuningdek, kommunikativ kompetentlikning professional faoliyatdagi ahamiyati va uning psixologlar o'rtasida o'zaro munosabatlarni yaxshilashga qanday yordam berishi ko'rib chiqiladi. Bu jarayonda psixologlar o'z bilim va ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun kerakli metod va yondashuvlarni o'rganishlari zarur.

Adabiyotlar tahlili. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda bir qator olimlar va tadqiqotchilar muhim nazariyalar va metodologiyalar ishlab chiqqan. Ularning ishlarida psixologik determinantlar, muloqot ko'nikmalari va shaxsiy xususiyatlar o'rtasidagi bog'liqlik o'rganilgan.

Jumladan: Daniel Goleman - emotsional intellekt nazariyasi asoschisi sifatida, shaxsning o'zini anglash, boshqalarni tushunish va emotsional munosabatlarni boshqarish ko'nikmalarining ahamiyatini ta'kidlaydi. Ushbu tushunchalar bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda asosiy rol o'ynaydi.

Karl Rogersning "gumanistik psixologiya" yondashuvi muloqotdagi empatiya va faol tinglash kabi elementlarni muhim deb hisoblaydi. Uning ishlari psixologlar o'rtasidagi ishonchli va ochiq muloqot o'rnatishning zarurligini ko'rsatadi.

Albert Bandura o'zining ijtimoiy o'rganish nazariyasida muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda o'z-o'zini nazorat qilish va modellashtirish jarayonlarini ta'kidlaydi. Bu psixologlar uchun samarali muloqot strategiyalarini o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Jon Deveyning ta'lim va o'z-o'zini anglash haqidagi g'oyalari bo'lajak psixologlarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda amaliy tajriba va o'zaro faoliyatning ahamiyatini ko'rsatadi.

Vilgelm Vundtning "psixologik eksperimentlar" metodologiyasi psixologlar uchun muloqotda analitik yondashuvni shakllantirishda yordam beradi. U, shuningdek, kommunikativ qobiliyatlarni nazorat qilish va o'lchash uchun asosiy tamoyillarni ishlab chiqdi.

Ushbu olimlarning ishlarni tahlil qilish va ularning nazariyalarini amaliyotga tatbiq etish, bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bu yondashuvlar nafaqat nazariy, balki amaliy ko'nikmalarni ham o'z ichiga oladi, bu esa psixologlarning professionallik darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga ega. Kommunikativ kompetentlik psixologning mijozlar bilan samarali muloqot qilish, ularning ehtiyojlarini tushunish va mos ravishda javob berish qobiliyatini anglatadi. Bu kompetentlikni shakllantirishda psixologik determinantlar, ya'ni shaxsiy xususiyatlar, motivatsiya, emotsional intellekt va boshqa omillar muhim rol o'ynaydi.

Psixologik determinantlar. Shaxsiy xususiyatlar: O'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatlari psixologning kommunikativ kompetentligini oshiradi. Shaxsiy xususiyatlar, masalan, empatiya, o'zini anglash va o'z-o'zini boshqarish qobiliyatlari psixologning mijozlar bilan samarali muloqot qilishiga yordam beradi.

Motivatsiya: Ichki motivatsiya psixologning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini va ishtiyoqini oshiradi, bu esa uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi. Ichki motivatsiya psixologning o'z kasbiga bo'lgan qiziqishini va ishtiyoqini oshiradi, bu esa uning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishga yordam beradi.

Emotsional intellekt: O'z va boshqalarning emotsiyalarini tushunish va boshqarish qobiliyati psixologning mijozlar bilan samarali muloqot qilishiga yordam beradi. Emotsional intellekt psixologning o'z va boshqalarning emotsiyalarini tushunish va boshqarish qobiliyatini rivojlantiradi, bu esa uning kommunikativ kompetentligini oshiradi.

Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda turli pedagogik texnologiyalar va metodikalar qo'llaniladi. Masalan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv o'qitish metodlari va amaliy mashg'ulotlar orqali kommunikativ kompetentlikni oshirish mumkin. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish, interaktiv o'qitish metodlari va amaliy mashg'ulotlar orqali kommunikativ kompetentlikni oshirish mumkin.

Muhokama. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda psixologik determinantlar muhim ahamiyatga ega. Ushbu determinantlar muloqot ko'nikmalarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi bir qator omillarni o'z ichiga oladi. Quyida ularning asosiy jihatlari muhokama qilinadi:

1. Shaxsiy xususiyatlar. Psixologlarning shaxsiy xususiyatlari, masalan, ochiqlik, emotsional barqarorlik va introversiya, ekstroversiya darajasi kommunikativ kompetentlikni belgilovchi asosiy omillardir. Ochiq va ijtimoiy shaxslar muloqot qilishda osonlikka erishadilar, bu esa ularga mijozlar bilan yaxshi munosabat o'rnatishga yordam beradi.

2. Emotsional intellekt. Emotsional intellekt, ya'ni o'zi va boshqalarning emotsiyalarini anglash va boshqarish qobiliyati, kommunikativ kompetentlik uchun juda muhimdir. Psixologlar, mijozlarning emotsional holatini tushunib, ularga mos ravishda javob bera olishlari zarur. Bu ko'nikma, o'zaro ishonch va samimiy munosabatlar o'rnatishda asosiy rol o'ynaydi.

3. Empatiya. Empatiya – bu boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish va ularga mos ravishda munosabat bildirish qobiliyati. Psixologlar uchun empatiya nafaqat muloqotni samarali qilish, balki mijozlar bilan chuqur va ishonchli aloqalar o'rnatishda ham zarurdir. Empatiya darajasini oshirish, psixologlar uchun muloqotdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi.

4. Muloqot tajribasi. Muloqot tajribasi psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishda asosiy omil hisoblanadi. Amaliyotda olingan tajribalar, psixologlarga turli vaziyatlarda qanday qilib samarali muloqot qilishni o'rganish imkonini beradi. Bu, o'z navbatida, muammolarni hal qilishda yanada muvaffaqiyatli bo'lishga yordam beradi.

5. O'z-o'zini anglash. O'z-o'zini anglash, psixologlar o'zining kuchli va zaif tomonlarini tushunishlariga yordam beradi. Bu, o'z navbatida, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan refleksiv yondashuvni shakllantiradi. Psixologlar o'z xatolaridan o'rganib, muloqot strategiyalarini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Quyidagi jadvalda bo'ladigan psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning psixologik determinantlari ko'rsatilgan:

1-jadval

Psixologik determinantlar	Ta'rifi	Ta'siri	Misollar
Shaxsiy xususiyatlar	O'zini anglash, o'z-o'zini boshqarish va o'zgarishlarga moslashish qobiliyatlari.	Psixologning o'z faoliyatini samarali boshqarishi va muloqotda yuqori darajadagi moslashuvchanlikka ega bo'lishi.	Empatiya, o'zini anglash, stressni boshqarish qobiliyati.
Motivatsiya	Psixologning o'z ishiga bo'lgan qiziqish va ichki rag'bat.	Psixologning ishga bo'lgan ishtiyoqi, kasbiy rivojlanishga intilishi.	Ichki motivatsiya, kasbiy maqsadlar.
Emotsional intellekt	O'z va boshqalarning emotsiyalarini tushunish va boshqarish qobiliyati.	Muloqotda hissiy aloqalarni yaxshilash, stressli vaziyatlarda samarali ishlash.	O'zini boshqarish, boshqalarning his-tuyg'ularini tushunish, stressni boshqarish.
Kommunikativ ko'nikmalar	O'z fikrlarini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash va muloqot qilishdagi samaradorlik.	Psixologning muloqotga bo'lgan tayyorligi va mijozlar bilan samarali aloqada bo'lishi.	Verbal va non-verbal kommunikatsiya ko'nikmalari, tinglash va so'zlash.
Pedagogik texnologiyalar va metodlar	Ta'lim jarayonida foydalaniladigan interaktiv yondashuvlar va metodikalar.	Psixologning muloqot va pedagogik faoliyatini yaxshilashga yordam beradi.	Rol o'ynash, interaktiv treninglar, guruh ishlari.

Jadvalda ko'rsatilgan psixologik determinantlar va ularning kommunikativ kompetentlikka ta'siri o'qituvchi psixologning samarali muloqot qilishidagi asosiy omillarni yoritib berilgan. Har bir determinantning o'ziga xos ta'siri psixologning muloqotdagi muvaffaqiyatini oshiradi.

Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish jarayoni bir qator psixologik determinantlarga bog'liq. Ushbu determinantlarni chuqur o'rganish va ularni amaliyotga tadbiiq etish, psixologlarning professional darajasini oshirish va mijozlar bilan samarali aloqalarni o'rnatish uchun zarurdir. Shuningdek, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirishda ta'lim tizimi, mentorlik va tajribali psixologlardan o'rganish muhim rol o'ynaydi.

Xulosa. Bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish, ularning professional faoliyatida muvaffaqiyatga erishish uchun zaruriy shartdir. Ushbu kompetentlik bir qator psixologik determinantlar, jumladan shaxsiy xususiyatlar, emotsional intellekt, empatiya, muloqot tajribasi va o'z-o'zini anglashga bog'liq.

Shaxsiy xususiyatlar, masalan, ochiqlik va emotsional barqarorlik, psixologlarning muloqotda erishadigan natijalarini belgilaydi. Emotsional intellekt va empatiya esa, mijozlar bilan chuqur va ishonchli aloqalar o'rnatishga yordam beradi. Muloqot tajribasi, olingan amaliyot orqali, psixologlarga turli vaziyatlarda samarali muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini yaratadi.

O'z-o'zini anglash, psixologlar uchun refleksiv yondashuvni shakllantirib, ularga o'z kuchli va zaif tomonlarini tushunishga yordam beradi. Bu jarayonda ta'lim tizimi va tajribali psixologlarning qo'llab-quvvatlashi muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, bo'lajak psixologlarning kommunikativ kompetentligini rivojlantirish nafaqat ularning professional faoliyatini, balki mijozlar bilan o'zaro munosabatlarini ham yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jarayon, psixologlarning o'zlarining shaxsiy va professional o'sishlariga ham olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Гоулман Д. Эмоциональный интеллект. Emotional Intelligence. - М.: «АСТ», 2009. - 480 с.
2. Гоулман Д. Сила добра: Далай-лама о том, как сделать свою жизнь и мир лучше. A Force for Good: The Dalai Lama's Vision for Our World. - М.: Альпина Паблишер, 2017. - 293 с.
3. Xalilova N.I. O'smirlik davrida o'zini o'zi nazorat qilish shakllanishining psixologik xususiyatlari. Psixologiya fanlari nomzodi ilmiy darajacini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. Toshkent – 2010. - 156 b.
4. Бандура А. Подростковая агрессия. Изучение влияния воспитания и семейных отношений. – М.: Апрель Пресс, Изд-во ЭКСМО-Пресс, 1999. – 346 с.
5. Бандура А, Уолтерс Р Подростковая агрессия: Изучение влияния воспитания и семейных отношений. М: «Эксмо пресс» 2000г.
6. Karimova V.M. Kasbiy psixologiya.- T.: "Fan va texnologiya", 2013.- 106 b.

*Karimjonov Otabek Abdug'affor o'g'li,
Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti
mustaqil tadqiqotchisi, PhD*

**BOSHQARUV VA TASHKILOTCHILIK FAOLIYATIDA
PSIXOLOGIK OMILLAR TA'SIRI
(R.B.Kettell so'rovnomasi natijalari asosida)**

Annotatsiya: Ushbu maqolada oliy ta'lim tizimidagi harbiy kursantlarning R.B.Kettell so'rovnomasidan foydalanilib, boshqaruv faoliyatidagi muloqotga moyillik, samimiylik, hissiy barqarorlik, hukmronlikka intilish kabi ko'rsatkichlari tahlili berilgan.

Kalit so'zlar: boshqaruv, harbiy soha kursantlari, muloqotga moyillik, hissiy barqarorlik, hukmronlikka intilish, samimiylik ko'rsatkichi, harbiy xizmatchilar.

Аннотация: В данной статье проведен анализ показателей курсантов высших военных учебных заведений с использованием опросника Р.Б. Кеттелла. Рассмотрены такие аспекты, как склонность к общению в управленческой деятельности, искренность, эмоциональная стабильность, стремление к доминированию и другие характеристики.

Ключевые слова: управление, курсанты военной сферы, склонность к общению, эмоциональная стабильность, стремление к доминированию, показатель искренности, военнослужащие.

Annotation: This article presents an analysis of the indicators of military cadets in higher education using the R.B. Cattell questionnaire. The study examines aspects such as communication tendency in managerial activities, sincerity, emotional stability, dominance striving, and other characteristics.

Key words: management, military cadets, communication tendency, emotional stability, dominance striving, sincerity indicator, military personnel.

Kirish. Zamonaviy dunyoda boshqaruv va tashkilotchilik faoliyati tobora murakkablashib borayotgan sharoitlarda psixologik omillarning ahamiyati kundan-kunga ortib bormoqda. Boshqaruv jarayonlarida inson omilining asosiy rolini hisobga olgan holda, rahbarlar va xodimlarning psixologik holati, xulq-atvori, motivatsiyasi va o'zaro munosabatlari tashkilot samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Psixologik omillar nafaqat individual ishchi yoki rahbar sifatida shaxsning rivojlanishiga, balki butun tashkilotning umumiy natijasiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda boshqaruv va tashkilotchilik sohasida psixologik yondashuvlarni qo'llash orqali xodimlarning ishga bo'lgan munosabatini oshirish, jamoa ichidagi muloqotni yaxshilash, hissiy barqarorlikni ta'minlash va rahbarlarning qaror qabul qilish qobiliyatini oshirish mumkin. Bunday yondashuvlar tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni uzoq muddatli muvaffaqiyatga olib chiqishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqolada boshqaruv va tashkilotchilik faoliyatida psixologik omillarning ta'siri, ularning samaradorlikka ta'siri, shuningdek, zamonaviy tashkilotlarda psixologik yondashuvlarni qo'llashning dolzarb masalalari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlovchi tashkilotlar o'z faoliyatida yuqori natijalarga erishish imkoniyatiga ega bo'ladi. Jahonda boshqaruv faoliyati samaradorligini oshirish, rahbar xodimlarning faoliyatini takomillashtirish, zamonaviy boshqaruv uslubi va qaror qabul qilishda rahbarlarga xos xarakterologik sifatlar, boshqaruvchi shaxsiga quyiladigan talablar va ularning ijtimoiy-psixologik jihatlari kabi masalalar dolzarb muammolardan bo'lib qolmoqda. Bu borada psixologiya fani nuqtai nazaridan zamonaviy boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik jihatlarini tadqiq etish hamda boshqaruv sohasida kadrlar tizimini qayta isloh qilish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon ta'lim va ilmiy tadqiqot markazlarida boshqaruv faoliyatining ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini o'rganish, boshqaruv tizimini takomillashtirish, boshqaruv tizimidagi rahbar kadrlarni tanlash, saralash, tayyorlash, malakasini oshirish, boshqaruvchilarning kasbiy kompetentsiyalarini rivojlantirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada zamonaviy rahbar shaxsini shakllantirishda ijtimoiy-psixologik xususiyatlarini ilmiy tadqiq etish, boshqaruv faoliyati samaradorligini ko'tarish, «rahbar-xodim» munosabatlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor berilmoqda.

Boshqaruv va tashkilotchilik faoliyatida psixologik omillarning ta'sirini tushunish uchun birinchi navbatda insonning psixologik xususiyatlari, uning xulq-atvori, motivatsiyasi va muhit bilan o'zaro munosabatlarini tahlil qilish zarur. Psixologik omillar tashkilot ichidagi munosabatlarni shakllantirish, qarorlar sifatini oshirish va umumiy ish samaradorligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

1. Muloqot va psixologik muhit. Tashkilotlarda muloqot samaradorligi boshqaruvning asosiy omillaridan biridir. Samarali muloqot xodimlarning bir-biri bilan hamkorligini, ma'lumot almashinuvini va ish jarayonlarini yaxshilaydi. Psixologik muhit esa xodimlarning ruhiy holatiga, ularning ishga bo'lgan munosabatiga va umumiy ish natijalariga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, ochiq va ishonchli muhitda ishlovchi xodimlar o'z fikrlarini erkin bildirishlari va yangi g'oyalarni kiritishlari mumkin.

2. Hissiy barqarorlik va stressni boshqarish. Boshqaruvda hissiy barqarorlik rahbarlarning qaror qabul qilish qobiliyatini oshiradi. Hissiy jihatdan barqaror rahbarlar murakkab vaziyatlarda ham o'zini tuta biladi va xodimlarga ishonch bag'ishlaydi. Shuningdek, stressni to'g'ri boshqarish orqali xodimlarning ish unumdorligini saqlash va ularning sog'lig'ini himoya qilish mumkin.

3. Motivatsiya va maqsadlarni belgilash. Psixologik omillarning eng muhim jihatlaridan biri bu xodimlarning motivatsiyasini oshirishdir. Raqobatbardosh sharoitda xodimlarni rag'batlantirish uchun ularning shaxsiy va kasbiy ehtiyojlarini hisobga olish zarur. Maqsadlarni aniq belgilash va ularga erishish uchun kerakli sharoitlarni yaratish xodimlarning ishga bo'lgan sodiqligini oshiradi.

4. Rahbarlik uslublari va psixologik ta'sir. Rahbarlarning psixologik xususiyatlari ularning boshqaruv uslubiga katta ta'sir ko'rsatadi. Masalan, demokratik rahbarlik uslubi xodimlarning ijodiy qobiliyatini oshiradi, ularni qaror qabul qilish jarayonlarida ishtirok ettirish orqali ularning mas'uliyat hissini oshiradi. Aksincha, avtoritar uslub esa xodimlarning mustaqil fikrlash qobiliyatini pasaytirishi mumkin.

5. Jamoa ruhi va psixologik hamjihatlik. Tashkilotlarda jamoa ruhini shakllantirish va psixologik hamjihatlikni ta'minlash muvaffaqiyatli faoliyatning asosiy shartlaridan biridir. Xodimlar o'rtasida ishonch va hamjihatlik mavjud bo'lganda, ular birgalikda murakkab vazifalarni samarali bajarishlari mumkin.

6. Psixologik omillarni boshqarishda zamonaviy yondashuvlar. Zamonaviy tashkilotlar psixologik omillarni boshqarishda yangi metodlardan foydalanmoqda. Masalan, xodimlarning ruhiy salomatligini qo'llab-quvvatlash dasturlari, stressni kamaytirish uchun treninglar, muloqotni yaxshilash uchun o'quv dasturlari va boshqa psixologik yondashuvlar qo'llanilmoqda.

Kursantlarda boshqaruv va tashkilotchilik ko'nikmalari rivojlanishi, qarorlarni qabul qilishdagi muhim ahamiyatga ega ekanligini hisobga olib, psixologik omillarni o'zaro bog'liq jihatlarini tadqiq etildi. Buning uchun tadqiqot jarayonida kursantlarning boshqaruv va tashkilotchilik ko'nikmalari rivojlanishida psixologik omillarini ahamiyatini aniqlash maqsadida R.B.Kettell so'rovnomasidan foydalanildi, natijalar 1-jadvalda berilgan.

1. Muloqotga moyillik. O'tkazilgan tadqiqotlarimiz natijalari shundan dalolat beradiki, kursantlarda boshqaruv bilan muloqotda, ular bilan hamkorlik qilishga moyillik bor, muloqotga kirishayotgan odamlarga diqqat-e'tiborli, ularni tushunadigan, ulardan g'azablanish yoki xursand bo'lish holatini yuzaga chiqarmaydigan, muloqot jarayonida o'z xatti-harakatlarini, xulq-atvorini

boshqara olish va samimiylik xususiyatiga ega ekanliklari namoyon bo'ldi. Shu bilan birgalikda ular nafaqat o'zlariga, boshqalarga ham talabchanliklari, ichki hayajonlari va ehtiroslarini nazorat qila olishlarini ko'rsatadi.

1-jadval

R.B.Kettel so'rovnomasiga ko'ra IIA kursantlarining boshqaruv va tashkilotchilik ko'nikmalari rivojlanishida psixologik omillarni aniqlash natijalari, n=75

T/r.	Omillar	Kursantlar (n=71)		
		X	σ	t
1	Muloqotga moyillik	6,6316	1,4798	-1,594
2	Hissiy barqarorlik	5,8421	1,6163	-2,106*
3	Hukmronlikka intilish	5,8158	1,4644	-2,729**
4	Ijtimoiy yetuklik, onglilik	5,4737	1,3891	0,000
5	Ijtimoiy mardlik	5,6842	1,6600	0,093
6	Ishonuvchanlik	5,8421	1,6334	-1,587
7	O'ziga ishonch – ishonchsizlik	5,6053	1,6379	-4,228***
8	Mustaqillik – tobelik	4,8684	1,0116	0,000
9	O'zini nazorat qilish	6,2105	1,5121	1,277
10	Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-ruhiy zaiflik	6,6338	1,0247	1,345

Izoh: * $r \leq 0,05$; ** $r \leq 0,01$; *** $r \leq 0,001$

2. Hissiy barqarorlik. O'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish mumkinki, kursantlarda hissiy barqarorlik va beqarorlik faktori o'zgaruvchan bo'lib, ularda injiqlik, qat'iylik, o'z obro'si haqida qayg'urish, jiddiylik, barqarorlikdan beqarorlikka o'zgarish kuzatiladi, javobgarlikda tajribasizlik, muammolarda vazminlik holatlarini ko'rish mumkin. O'z «Men» ini namoyon bo'lishida ulardagi tajribaning shakllanmaganligi bilan izohlash mumkin.

3. Hukmronlikka intilish. Olingan natijalar kursantlarda hukmronlikka intilish darajasi o'rtacha ballni tashkil qilmoqda, bu holat ularda atrofdagi odamlar ta'siriga to'liq tushmaslik, o'z fikriga egalik, o'zini himoya qilishda bosiq, boshqalarga tobe bo'lishni xohlamaydigan, atrofdagi odamlarni fikrlari va talabini ham inobatga olish kabi xususiyatlarda namoyon bo'lar ekan. Shuningdek ularda hukmronlikka intilishga da'vogarlik, o'ziga ishonch, o'zining fikrini o'tkazishga intilish nisbatan biroz ko'proq namoyon bo'lgani bilan izohlash mumkin. Demak, ular dadillik, faollik, bo'ysunmaslik, murosasizlik xususiyatlari ko'proq yuzaga chiqishi bilan xarakter xususiyatlarini namoyon etishadi.

4. Ijtimoiy yetuklik, onglilik. O'tkazilgan tadqiqotdan olingan natijalar shundan dalolat beradiki, tadqiqot obe'kti bo'lgan kursantlarning ijtimoiy yetuklik omili o'rtasida katta tafovut aniqlanmadi. Ular ko'rsatgan natijalar umumiy ballning o'rtachasini tashkil qiladi. Demak, ulardagi ijtimoiy yetuklik omili hali to'liq shakllanmagan bo'lsa-da, ularda hayotga va faoliyatga jiddiy qarash, javobgarlikni his etish, o'z xulqini boshqara olish va qat'iylikni qaror toptirish zaruratini o'z zimmasiga olishini bildiradi.

5. Ijtimoiy mardlik. Tadqiqot jarayonida olingan natijalar ijtimoiy mardlik omilining umumiy ballning o'rtacha balliga to'g'ri kelmoqda. Olingan natijalarga tayangan holda aytish joizki, kursantlarda ijtimoiy omilning quyidagi xususiyatlari namoyon bo'ldi: ular yetarli darajada jasurlik xislatiga ega, ko'p hollarda ehtiyotkorlikni unutib qo'yishi, yangi holatlarga qiziquvchan, hissiy qo'zg'alishga moyilligi bor, turli vaziyatlarga tayyor turuvchi, o'zini

birmuncha erkin tutuvchi, muloqotga moyilligi yuqori, uddaburonlik, liderlikka intilish kabi xususiyatlar bilan xarakterlanishlarini ko'rsatdilar.

6. Ishonuvchanlik. O'tkazilgan tadqiqot natijalari umumiy ballning o'rtacha ko'rsatkichiga tengligini namoyon qildi. Bu esa shundan dalolat beradiki, kursantlarda ishonuvchanlik omilining quyidagi jihatlari, ya'ni «boshqalarga ishon, lekin o'z aqlingga tayanib fikrla» qabilida faoliyat yuritishlarini ko'rish mumkin. Ular o'z aql-idrokklariga tayangan holda fikrlaydilar, mulohaza qiladilar, taxlil qiladilar va so'ngra bir qarorga kelar ekanlar.

7. O'ziga ishonch-ishonchsizlik. Kursantlarda o'ziga bo'lgan ishonch hissi ulardagi muvaffaqiyatsizliklarini boshqara olish imkoniyatini, faoliyatida bo'layotgan voqealarni to'g'ri baholash va unga munosib javob bera olish, o'z imkoniyatlarini yuzaga chiqara olishga bo'lgan ishonchni namoyon etadi. Shuning bilan birga ulardagi kayfiyat va o'ziga baho berish xususiyati atrofidagi odamlarning munosabatiga ham bog'liq bo'ladi, ba'zan o'ziga bo'lgan ishonch hissi pasayishi kuzatiladi, biroq bu his tezda yo'qoladi, ularning irodasi kuchli bo'lib, bu holatni yenga olish xususiyatini ko'rsata oladilar.

8. Mustaqillik-tobellik. Qo'lga kiritilgan natijalar asosida aytish mumkinki, kursantlar hamma narsani o'zlari hal qilishni, mustaqil qaror qabul qilishni ma'qul ko'rishadi, biroq atrofdegilarni fikrlarini, taklif va tavsiyalarini ham rad etishmaydi, ular mustaqil bo'lishni xohlashadi, shu bilan birga, atrofdegilarni qo'llab-quvvatlashini hamda ularga tayanishni ham istaydilar.

9. O'zini nazorat qilish. Olingan natijalar asosida aytish mumkinki, kursantlarda ijtimoiy va axloq normalariga rioya qilishda o'ziga talabchanligi, ko'pgina holatlarda o'z harakatlarini tartibli ravishda va rejali tarzda tashkil etishga harakat qilishlari namoyon bo'lganligini ta'kidlash lozim.

10. Qo'zg'aluvchanlik, zo'riqish-bo'shashish. Tadqiqot natijalarini kursantlarda hissiy holat bilan bog'liq holda izohlash ham mumkin, ya'ni, ulardagi ehtiyojlarining yuqori miqdori tufayli ulardagi zo'riqishni, xarakteridagi notinchlik, asabiylik hamda ichki kechinmalarini yuzaga chiqishiga sabab bo'lishi mumkin. Bu holatga ularning temperament tiplarining o'ziga xos xususiyatlari ham ma'lum darajada o'z ta'sirini o'tkazadi. Lekin, aytish joizki, tarbiyalanuvchilarning ushbu ko'rsatkichlari, ya'ni qo'zg'alish va zo'riqishni namoyon bo'lgan darajasi ularda «tolerantlik»ni shakllanganligidan dalolat beradi.

Demak, kursantlarning shaxs xususiyatlari, shaxslararo munosabatlarga tayyorlash, xizmatda bajariladigan ijtimoiy rollarga moslashuvchanlikni oshirish, ularda boshqaruv va tashkilotchilik ko'nikmalari rivojlanishi, qarorlarni qabul qilishdagi muhim ahamiyatga ega masalalarining yechimini topish muhim bo'lib, bu borada mazkur muammo dolzarb hisoblanadi.

Xulosa. Boshqaruv va tashkilotchilik faoliyatida psixologik omillarni hisobga olgan holda ishlash tashkilotning umumiy samaradorligini oshirishga yordam beradi. Xodimlarning psixologik holati, ularning motivatsiyasi, muloqot qobiliyati va hissiy barqarorligi tashkilotning uzoq muddatli muvaffaqiyatini ta'minlashda muhim omillardir. Zamonaviy sharoitda boshqaruvda psixologik yondashuvlarni qo'llash orqali tashkilotlarning raqobatbardoshligini oshirish va ularni rivojlantirish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003-yil 9-dekabrdagi «Respublika davlat boshqaruvi organlari tizimini takomillashtirish to'g'risida» PF-3358-son Farmoni // <https://lex.uz/docs/173163>.

2. Aliyeva K.S. Umumta'lim muassasalari rahbar xodimlari menejerlik sifatlarining ijtimoiy psixologik xususiyatlari: Psixol. fan. bo'y. fal. dok-ri (PhD) dis-ya: 19.00.05. – Toshkent: TDPU, 2023. – 121 b.

3. Baybayeva M.X. Ta'lim muassasasi rahbarining boshqaruv faoliyatida sog'lom va

ijodiy muhitni yaratish mexanizmlarini takomillashtirish: Ped. fan. dok-ri (DSc) ... dis-ya avtoreferati: 13.00.07. – Toshkent: PKRYaMO'MTI, 2022. – 75 b.

4. Davlat boshqaruvi. Darslik. // Mas'ul muharrirlar: Adham Bekmurodov, Djexo Li, Chjonxun Che. – Toshkent: «Akademiya», 2021. – 416 b.

5. G'oziyev E., Toshimov R. Menejment psixologiyasi: O'quv qo'llanma. – Toshkent: «Universitet», 2001. – 143 b.

6. Karimova V.M., Hayitov O.E., Umarova N.Sh. Boshqaruv sohasidagi professional kompetensiya asoslari. Monografiya. / Prof. V.M. Karimova tahriri ostida. – Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2008. – 128 b.

7. Maxmudov A.M. Yosh rahbarlarda boshlang'ich boshqaruv ko'nikmalari shakllanib borishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari (harbiy va harbiy bo'lmaganlar misolida): Psixol. fan. bo'y. fal. dok-ri (PhD) dis-ya: 19.00.03. – Toshkent: TDPU, 2020. – 140 b.

8. Михеев, С.С. Развитие управленческой компетентности государственного служащего: Дис. канд. психол. наук: 19.00.13. – Москва: РАНХГС при Президенте РФ, 2011. – 258 с.

Fozilova Sabohat Nodir qizi,
Ma'mun universiteti "Psixologiya va tibbiyot" kafedrası o'qituvchisi
sabohatfozilova202@gmail.com

EKOLOGIK ONGNI SHAKLLANTIRUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLARNING AHAMIYATLI JIHATLARI

Annatsiya: Maqolada ekologik ongni rivojlantirish va ekologik toza xulq-atvorni shakllantirishda ijtimoiy va psixologik omillarning roli o'rganildi. O'tkazilgan tadqiqotlar asosida qadriyatlar va atrof-muhit muammolariga munosabat o'rtasidagi bog'liqlik o'rganib chiqildi. Ushbu tadqiqotlar natijalari o'z-o'ziga g'amxo'rlik (egoistik), boshqa odamlar uchun tashvish (ijtimoiy-altruistik) va o'simliklar va hayvonlar uchun tashvish (biosfera) asosida ekologik munosabatlarni farqladi.

Kalit so'zlari: Ekologik ong, qadriyat, ekologik tashvish, egoistik, biosfera, altruistik, xavotir, stress.

Аннотация: В статье рассмотрена роль социальных и психологических факторов в развитии экологического сознания и формировании экологически безопасного поведения. На основе проведенного исследования была рассмотрена взаимосвязь ценностей и отношения к экологическим проблемам. Результаты этих исследований позволили дифференцировать экологические установки, основанные на заботе о себе (эгоистические), заботе о других людях (социально-альтруистические) и заботе о растениях и животных (биосферные).

Ключевые слова: Экологическое сознание, ценность, экологическая забота, эгоистический, биосферный, альтруистический, тревожность, стресс.

Annotation: The article examines the role of social and psychological factors in the development of environmental awareness and the formation of environmentally friendly behavior. Based on the conducted research, the relationship between values and attitudes to environmental problems was studied. The results of these studies distinguished ecological attitudes based on self-care (egoistic), concern for other people (social-altruistic), and concern for plants and animals (biosphere).

Key words: Ecological consciousness, value, ecological concern, egoistic, biosphere, altruistic, anxiety, stress.

Kirish. Zamonaviy dunyoda ekologik muammolar tobora keskinlashib borayotgan sharoitda ekologik ongni shakllantirish insoniyat uchun eng dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Ekologik ong atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslarni oqilona ishlatish va kelajak avlodlar uchun yashash uchun qulay sharoitlarni saqlab qolish uchun zarur bo'lgan psixologik va ijtimoiy omillarni o'z ichiga oladi.

Ijtimoiy-psixologik omillar ekologik ongni shakllantirishda asosiy rol o'ynaydi. Bu omillar orqali insonlarning atrof-muhitga bo'lgan munosabati, ularning ekologik xulq-atvori va atrof-muhitni muhofaza qilishga bo'lgan intilishlari shakllanadi. Jamiyatda ekologik masalalar haqida xabardorlikni oshirish, ekologik qadriyatlarni rivojlantirish va har bir shaxsning atrof-muhitga bo'lgan mas'uliyatini oshirish orqali ekologik ongni shakllantirish mumkin.

Ushbu maqolada ekologik ongni shakllantiruvchi ijtimoiy-psixologik omillarning ahamiyati, ularning atrof-muhitni muhofaza qilishdagi roli va zamonaviy jamiyatda ekologik ongni oshirish yo'llari ko'rib chiqiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-psixologik omillarni hisobga olgan holda ekologik ongni shakllantirish atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim qadam hisoblanadi. Inson hayoti to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita ekologiyaga bog'liq, chunki u oziq-ovqat ishlab chiqarish, o'zgaruvchan iqlim sharoitida biologik xilma-xillikni saqlash va toza havo va suvni saqlash uchun muhim bo'lgan odamlar va tabiat o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik to'g'risida yangi bilimlarni beradi. XX asr boshida sayyoramizdagi aholi soni 1mlrd bo'lsa asr oxiriga kelib 6 baravarga oshdi. So'nggi

50 yil ichida inson iste'moli, global savdo va urbanizatsiyaning tez o'sishi kuzatildi, natijada insoniyat yer resurslaridan tabiiy ravishda to'ldirishdan ko'ra ko'proq foydalandi. Buning natijasida ekologik muvozanat buzulishiga olib keldi.

Bugungi kunda sayyoramiz duch keladigan eng katta ekologik muammolardan biri bo'lib, bu 2020 yil yozida harorat Grenlandiyadan 60 milliard tonna muz yo'qotilishiga olib kelganini hisobga olsak, global dengiz sathi ikki oy ichida 2,2mm ga ko'tarildi. 2024-yil bir necha oy ketma-ket rekord darajadagi haroratlar eng issiq yoz va eng issiq kundan so'ng, tarixdagi eng issiq yil sifatida tasdiqlandi. Global o'rtacha harorat 0,12 C (2023-yildan) yuqori darajani ko'rsatdi. 2021-yilgi tahlil shuni ko'rsatdiki, yer yuzida yovvoyi hayot yo'qolib borishi tezlashmoqda. Quruqlikdagi hayvonlarning 500 dan ortiq turlari yo'q bo'lib ketish arafasida va 20 yil ichida yo'qolishi mumkin; xuddi shu raqam butun o'tgan asrda yo'qolgan. 2030 -yilga kelib, sayyorada o'rmonlarning atigi 10% bo'lishi mumkin; agar o'rmonlarni yo'q qilish to'xtatilmasa, ularning barchasi bir asrdan kamroq vaqt ichida yo'q bo'lib ketishi mumkin.

BMT Bosh kotibi Anttekatnio Guterres 2020-yilda bo'lib o'tgan yuqori darajadagi virtual yig'ilishda ta'kidlaganidek, "Agar zudlik bilan choralar ko'rilmasa, yuz millionlab kattalar va bolalarga uzoq muddatli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan global oziq-ovqat xavfsizligi favqulodda holati mavjudligi tobora yaqinlashmoqda". Dunyo aholisi asrning o'rtalariga kelib 9 milliard kishiga yetishi kutilayotgan holda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) global oziq-ovqat talabi ortishi mumkin bo'lgan loyihalarni amalga oshirishni va Guterres mamlakatlarni oziq-ovqat tizimlarini qayta ko'rib chiqishga chaqirdi.

Yuqoridagi tahlillarga ko'ra aholi sonining ortishi va iste'moli ekologiyada katta miqdorda o'zgarishlar ro'y berishiga ta'sir ko'rsatadi. Ushbu muommolar umuman jamiyat va shaxslar psixologik holatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Atrof-muhit muammolarining psixologik jihatlarini o'rganish hal qiluvchi ahamiyatga ega ekologik muammolar tobora keskinlashib borayotgan bugungi dunyodagi ekologik inqirozlar, ayniqsa, stress va xavotirga olib kelishi mumkin. Psixologik yordam orqali ekologik muammolarga qanday munosabatda bo'lish, ruhiy salomatlikka qanday ta'sir qilishini, moslashish strategiyalarini ishlab chiqish va o'zgarishlarga moslashish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Ekologik muommolarni inson ruhiyatiga ta'sirini o'rganish maxsus dasturlar ishlab chiqishga yordam beradi va ekologik muommolarni hal qilishda jamoatchilik ishtirokini rag'batlantirish mumkin bo'lgan usullar va xulq atvorni ekologik jihatdan barqaror tarzda o'zgartirishga xissa qo'shadi.

Aksariyat odamlar ekologik muammodan xabardor bo'lishlari va insoniyatning undagi aniq roliga qaramay, ko'p odamlar hali ham barqaror xatti-harakatlar bilan shug'ullanmaydilar. Biz insonlarning harakatlarimiz oqibatlarini atrof-muhit va kelajak avlodlar farovonligiga tobora ko'proq ta'sir qilmoqda. Garchi bu muammolarning ko'lami hududiy, mintaqaviy katta bo'lsa ham har birimiz kundalik tanlovimiz va harakatlarimiz orqali o'zgarishlarni amalga oshirishga qodirmiz. Ekologik ongni shakllantirish muammosi, ayniqsa, XX asrda, insoniyat o'z faoliyatining ekologik inqirozga olib kelgan zararli oqibatlarini anglay boshlaganida keskin paydo bo'ldi. ekologik ongning asosiy xususiyatlari yoki belgilariga quyidagilarni kiritadi:

- ma'lum bir jamiyatda qabul qilingan normalar, qadriyatlar, shakllangan an'analar tufayli ekologik ongning ijtimoiy tabiati;

- ramzlar, belgilar, shu jumladan inson tomonidan tabiat dunyosini idrok etish;

- o'z-o'zini aks ettirish;

- ichki his-tuyg'ular va boshqalar.

Shuni ta'kidlash kerakki, ekologik ongni shakllantirish shaxsning qadriyatlar yo'nalganligi bilan bog'liq.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili: Mamlakatimiz olimlaridan ekologik ta'limga oid bir qancha ishlar Z.Taylonova, R.H.Jurayev, O.Turdikulov, B.Ziyomammedov, S.K.Annamuratova, S.X.Fayzulina, R.Xasanov, Y.Sh.Shodimetov, Y.G.Maxmudov, S.A.Mamatov, V.N.Sattorovlar, ekologik ongning psixologik xususiyatlarini

A.K.Shamshetova, M.R.Akramov tatqiqotlarida o'rganishgan. Xorijlik olimlaridan ekologik ong muammosini S.D.Deryabo va V.A. Yasvin, V. I. Panov, V. V. Rubtsov va T. G. Ivoshina, A. V. Gagarin, S. O. Novikov, D. N. Kavtaradze, I.V.Tsvetkova, N. V. Lapchinskaya, A.Aldasheva, V.I.Medvedov va boshqalar ekologik ong muammosiga epistemologik va ekopsixologik yondashuv, bolalar va kattalardagi ekologik ongni shakllantirish va tuzatish masalalarida ilmiy tatqiqot ishlari olib borilgan.

Tadqiqot metodologiyasi: Atrof-muhitga bo'lgan munosabat bizning qabul qilingan narsalardan foydalangan holda baholanadi. Ekologik munosabatlarning tuzilishi bo'yicha Stern va Dietz (1994) atrof-muhitga bo'lgan munosabat uchun qiymat asoslari nazariyasiga asoslanib, tatqiqotda P.Shultzning "Ekologik tashvish shkalasi" (ECG) metodikasidan foydalandik. Metodikada ishtirokchilardan 12 ta elementni baholash so'ralgan: dengiz hayoti, qushlar, hayvonlar, o'simliklar, mening salomatligim, kelajagim, turmush tarzim, men, bolalarim, yurtimdagi odamlar, barcha odamlar va farzandlarim (tasodifiy tartib). Natijalar asosida sinaluvchilarni 3 shkala asosida o'rganamiz. Alturistik, egoistik, biosfera shkalalari orqali qadriyatlar va atrof-muhit muammolari o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi. Ekologik tashvish, qadriyatlar, tabiat bilan bog'liqlik va ijtimoiy-demografik o'zgaruvchilar shkalasi natijalari ko'rib chiqiladi.

Alturistik-(lot. Alter – boshqa, boshqalar) - boshqalarning farovonligi uchun fidokorona g'amxo'rlik bilan bog'liq faoliyatni tushunadigan kontsepsiya; fidoyilik tushunchasi bilan bog'liq - ya'ni boshqa shaxsning, boshqalarning yoki umuman olganda umumiy manfaatlar uchun o'z foydasini qurbon qilish bilan bog'liq.

Egoistik- Bu o'z manfaati uchun harakat qilish tushunchasidir va tavsiflovchi yoki normativ pozitsiya bo'lishi mumkin. Psixologik egoizm, eng taniqli tavsif pozitsiyasi, biz doimo o'zimizning qiziqishimiz bilan harakat qilamiz.

Biosfera- atrof-muhit haqida g'amxo'rlik bilan bog'liq faoliyatni tushunish va tashvishlanish.


Tahlil va natijalar: Tatqiqot jarayoni Xorazm viloyati Urganch shahar Ma'mun universiteti Psixologiya faoliyat turlari yo'nalishi 3-kurs sirtqi 160 nafar talabalarida o'tkazildi.

Tadqiqot jarayonida "Ekologik tashvish shkalasi" metodikasida 160 nafar sinaluvchi qatnashdi. Sinaluvchilarni 123 nafar ayol, 37 nafar erkaklar tashkil etdi. Sinaluvchilarning atrof-muhitga bo'lgan qiziqishning ifodalanish darajasi ko'proq shaxsiy va ijtimoiy omillar ekanligi aniqlandi. (1-jadval)

№	Mezon	Jami soni	Jins		Ko'rsatkich
			erkak	ayollar	
1	Alturistik	47	11	36	29%
2	Egoistik	74	17	57	47%
3	Biosfera	39	9	30	24%
	Jami:	160	37	123	100%

Birinchi omil "Atrof-muhitni boshqarish", "O'z-o'zini qabul qilish", "Boshqalar bilan ijobiy munosabatlar" va "Hayotdagi maqsad" shkalalari, "Ekzistensiallik" ekzistensial ko'rsatkichi, kasbiy motivlar, shakllangan kasbiy muvofiqlik maqomi va "Shaxsiy o'sish" shkalasi kabi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. O'ziga va boshqalarga ijobiy munosabat mavjudligi, yetakchilik va mas'uliyatga tayyorlik, kasbiy yo'nalganlik va o'quv faoliyatida kasbiy motivlarning ustunligi bilan birgalikda o'z hayotiy maqsadlarini tushunish ushbu omilni "Internallik va kasbiy rivojlanishga intilish" deb atashga imkon berdi.

Ikkinchi omil nufuz motivlari, kommunikativ motivlar, "muvaqqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik" va "o'z-o'zini ijodiy ro'yobga chiqarish" motivlari, manfiy belgisi "Avtonomiya" shkalasi va ijtimoiy motivlar kabi psixologik xususiyatlar bilan shakllanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy maqomi va pozitsiyasi bilan bog'liq bo'lgan motivlarning mavjudligi, ta'limda o'z-o'zini ijodiy ro'yobga chiqarishga intilish hamda mustaqil bo'lmagan, ya'ni boshqalarga bog'liq bo'lgan holda holatda atrofda tilarning noroziligiga yo'l qo'ymaslik mazkur omilni "Maydonga bog'liqlik" omili deb atash imkonini berdi.

Uchinchi omilga idealistik, analitik, pragmatik va sintetik fikrlash uslublari kiradi. Har bir uslubning xususiyatlariga chuqur kirmasdan, ushbu omil vaziyatga qarab muammolarni hal qilishda aqliy amallardan foydalanishning xilma-xilligini aks ettirishini ta'kidlaymiz. Shuning

uchun mazkur omilni "Kognitivlik" deb nomladik.

To'rtinchi omil majburlangan va noaniq kasbiy muvofiqlik maqomlari bilan shakllangan bo'lib, bu uning "Kasbiy sohadagi noaniqlik" nomini belgilaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Didaktik atamalarni o'zlashtirish va o'quv jarayonida bilish motivlarining roli muammosi ko'plab mamlakatimiz va xorij olimlarining tadqiqot predmeti bo'lgan. Xususan mamlakatimizda R.Shodiyev, A.Soatov, G.Shoumarov, Z.Nishonova, V.Karimova, Sh.Barotovlar tomonidan, Xorij mamlakatlarida esa A.Maslou, A.Adler, A.Erikson, G.Ebbingaus, S.L.Rubinshteyn, N.A.Menchinskaya, B.G. Ananyev, A.N.Leontyev, I.I. Ilyasov, L.S.Vigotskiy, A.M.Matyushkin, P. Y. Galperin tomonidan tadqiq qilingan[4].

Tadqiqot metodologiyasi. Atamalarni o'zlashtirish jarayonida aniqlangan omillar didaktik atamashunoslikni erkin boshqarish, ushbu sohadagi ma'lumotlarni to'g'ri tushunish va to'g'ri uzatish uchun ham kasbiy rivojlanish istagi va internallik, ham boshqalarda yaxshi taassurot qoldirish istagi, shuningdek, kasbiy sohada noaniqlik zarur ekanligini ta'kidlash imkonini beradi. Ya'ni, talabalarining ilmiy atamalar bilan to'g'ri ishlash istagi nafaqat kasbiy ko'nikmalarni egallashga qaratilganligi, o'qishning kommunikativ tomonining muhimligi: qiziqarli suhbatdosh bo'lish zarurati, ilmiy-kasbiy mavzularda suhbatni saqlab turish va pedagog, kursdoshlar va keyinchalik o'z hamkasblari nutqini tushunish ehtiyoji bilan ham belgilanadi.

Kommunikativ-nutq komponentining past darajasi uchun uchta omil ajratib ko'rsatildi.

Birinchi omilga ijtimoiy va o'quv-bilish motivlari, nufuz motivlari, kasbiy va kommunikativ motivlar, fikrlash analitik uslubi, muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivlari, salbiy belgili noaniq kasbiy muvofiqlik maqomi va o'z-o'zini ijodiy ro'yobga chiqarish motivlari kiradi. Intellektual-refleksiv komponent past darajasining ikkinchi omili uchun kabi, bu omil ham o'rganish motivlarini o'z ichiga oladi, ammo biz avvalroq tahlil qilgan omildan farqli ravishda, joriy omil analitik fikrlash uslubini o'z ichiga oladi, bu esa inson uchun o'qish ahamiyati masalalarini chuqur tahlili qilishga moyillik haqida gapirishga imkon beradi, shuningdek, manfiy belgili kabi muvofiqlikning noaniq maqomi mavjudligini o'z ichiga oladi, bu esa o'quv-kasbiy noaniqlik yo'qligidan dalolat beradi. Bu unga "O'rganishga motivatsiya va kasbiy tanlovda noaniqlikning yo'qligi" nomini berishga imkon berdi[1].

Ikkinchi omil quyidagi o'zgaruvchilar bilan shakllantirildi: "Atrof-muhitni boshqarish" shkalasi, shakllangan kasbiy muvofiqlik maqomi, "Hayotdagi maqsad" va "O'z-o'zini qabul qilish" shkalasi, "Ekzistensiallik" ekzistensial ko'rsatkichi, "Avtonomiya" va "Boshqalar bilan ijobiy munosabatlar" shkalalari, "Shaxsiylik" ekzistensial ko'rsatkichi. Mazkur omilga kiritilgan o'zgaruvchilar talabaning kasbiy pozitsiyasining, uning hayotiy pozitsiyasining shakllanganligini, shuningdek, mustaqillik, mas'uliyat rivojlanishining yuqori darajasini va hayotning mazmunligini belgilaydi, shuning uchun mazkur omilni "Internallik va o'z-o'zini tushunish" deb nomladik

Uchinchi omil pragmatik, sintetik, idealistik va realistik fikrlash uslublarining o'zgaruvchilarini o'z ichiga oldi, bu esa ma'lumotni o'zlashtirishda kognitiv jarayonlarning muhimligini ta'kidlaydi. Omil "Kognitivlik" deb nomlanadi.

Qayd etish lozimki, kommunikativ-nutq komponentining past darajasi uchun ushbu komponentni yuqori darajasi uchun omillar o'xshashligi aniqlandi. Biroq, farq shundaki, ushbu komponent yuqori darajada bo'lgan talabalar uchun boshqalarning fikri muhimdir. Shunday qilib, atrofdagilar orasida obro' qozonishga intiladigan va "maydonga bog'liqlik" namoyon qiladigan talabalar nutqda didaktik atamalardan malakali foydalanishadi, past darajaga ega talabalar uchun esa bu omil ajralib turmadi. Ya'ni, faqat o'z ehtiyojlari va shaxsiy rivojlanishiga e'tibor qaratgan talabalar, o'zlashtirilgan bilimlarni boshqalar bilan og'zaki muloqotda aks ettirishga yetarlicha e'tibor bermaydilar. Shunday qilib, atamalarni o'zlashtirishlikning kommunikativ-nutq komponentining yuqori darajasining ijtimoiy-kommunikativ shartlilikini qayd etishimiz mumkin[3].

Tahlil va natijalar. Terminologik kompetensiya yuqori darajasiga ega talabalar uchun ma'lumotlarni faktorizatsiyalash beshta omilni aniqlashga imkon berdi.

Birinchi omil quyidagi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oldi: "Atrof-muhitni boshqarish" shkalasi, "Ekzistensiallik" ekzistensial ko'rsatkichi, "O'z-o'zini qabul qilish", "Boshqalar bilan ijobiy munosabatlar" shkalalari, "Shaxsiylik" ekzistensial ko'rsatkichi, "Shaxsiy o'sish", "Hayotdagi maqsad" shkalalari. Qayd etish lozimki, bu omil insonni mustaqil qarorlar qabul qilishga va ular uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olishga, joriy vaziyatni nazorat qilishga tayyor bo'lgan shaxs sifatida tavsiflovchi o'zgaruvchilarni, shuningdek, insonning o'z hayotining ma'nosini tushunishini, unda maqsad va o'z-o'zini qabul qilishni aks ettiruvchi o'zgaruvchilarni o'z ichiga oladi. Shu asosda ushbu omilni "Internallik va o'z-o'zini tushunish" deb belgiladik.

Ikkinchi omil quyidagilarni o'z ichiga oldi: salbiy belgili "Boshqalar bilan ijobiy munosabatlar" shkalasi, shuningdek, kommunikativ motivlar, nufuz motivlari, o'quv-bilish motivlari, o'z-o'zini ijodiy ro'yobga chiqarish va muvaffaqiyatsizlikka yo'l qo'ymaslik motivlari. Qizig'i shundaki, bunday talabalar uchun ishonchli va yaqin munosabatlar muhim emas, ammo ta'lim faoliyatida ular muloqotga, yuqori ijtimoiy mavqega erishishga va boshqalarning noroziligiga yo'l qo'ymaslikka intilishadi. Ya'ni, talabalar uchun o'z muhitida qulay pozitsiyani egallashlari muhimdir. Shunga asoslanib, bu omil "Ijtimoiy ma'qullashga ehtiyoj" deb nomlanadi[3].

Uchinchi omil kasbiy motivlar, manfiy belgili majburlangan va noaniq kasbiy muvofiqlik maqomlari va analitik fikrlash uslubi tomonidan shakllantirilgan. Majburlangan va noaniq muvofiqlik maqomlari salbiy belgili omilga kiritilganligi sababli, bu talabalar uchun kasbiy tanlov noaniqligi xos emas. Bundan tashqari, ularda bo'lajak kasbi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikmalarga ega bo'lish istagi ustunlik qiladi, muammolarni har tomonlama ko'rib chiqish va ko'zlangan maqsadga erishish uchun batafsil reja ishlab chiqishga moyillik mavjud. Shu sababli, omil "Tanlangan kasbiy sohada rivojlanishga intilish" deb nomlandi.

To'rtinchi omil uchta fikrlash uslubidan: sintetik, pragmatik va idealistik uslubdan tashkil topgan bo'lib, avval aytib o'tilganidek, inson aqliy faoliyatining turli usullarini aks ettiradi. Bu bizga ushbu omilni "Kognitivlik" deb belgilashga imkon berdi.

Beshinchi omilga "Avtonomiya" shkalasi, manfiy belgili "Moratoriy" kasbiy muvofiqlik maqomi, manfiy belgili ijtimoiy motivlar va shakllangan kasbiy muvofiqlik maqomi kiradi. "Avtonomiya" shkalasi insonning mustaqilligini, uning boshqalarning fikridan erkinligini ko'rsatadi. Muayyan kasbiy muvofiqlik, bir vaqtning o'zida o'zining kasbiy yo'nalishiga past darajadagi shubhalarda ("Moratoriy" kasbiy muvofiqlik maqomining ifodalanmaganligi) va o'qitishning ijtimoiy shartlilikining ahamiyatsizligida talabaning kasbiy yo'nalishni tanlashda mustaqilligini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqib, omil nomi "Yuqori avtonomlik va kasbni mustaqil tanlash" deb belgilandi[3].

Shunday qilib, pedagogik faoliyatga yo'naltirilgan "Didaktika" sohasida terminologik kompetensiyaning yuqori darajasiga ega talabalarga internallik va o'z-o'zini tushunish, ijtimoiy ma'qullanishga ehtiyoj, tanlangan kasbiy sohada rivojlanishga intilish, kognitiv xususiyatlar, yuqori avtonomlik va kasb tanlashda mustaqillik xos bo'ladi. Bunday talabalarning shaxsiy rivojlanishi ular mustaqil ravishda tanlaydigan kasbiy sohada takomillashish tendensiyasida namoyon bo'ladi, bu ularga mazkur sohada kelajakda o'zlarining malakali mutaxassis sifatida rivojlanishi uchun zarur bilimlarni yanada ongli olishga imkon beradi.

Talaba-pedagoglar tomonidan didaktik terminologiyani o'zlashtirishning ajratib ko'rsatilgan omillari 1-jadvalda umumlashtirilgan.

Tajriba guruhi talabalari tomonidan didaktik terminologiyani o'zlashtirishning psixologik omillari

Psixologik omillar	
Yuqori daraja	Kommunikativ-nutq komponentm
	1. Internallik va kasbiy rivojlanishga intilish 2. Maydonga bog'liqlik. 3. Kognitiv 4. Kasbiy sohada noaniqlik
Past daraja	1. O'qishga motivatsiya kasbiy tanlovda noaniqlik yo'qligi 2. Internallik va o'z-o'zini tushunish 3. Kognitiv.

Xulosa va tavsiyalar. Xulosa qilib aytganda pedagogik faoliyatiga yo'naltirilgan, terminologik kompetentlik yuqori darajasiga ega bo'lgan talabalar uchun internallik va o'z-o'zini tushunish, ijtimoiy ma'qullanishga ehtiyoj, tanlangan kasbiy sohada rivojlanish istagi, kognitiv komponent, yuqori avtonomlik va kasbni mustaqil tanlash xos bo'ladi. Jumladan "Didaktika" kursining ilmiy tushunchalar tizimini yuqori darajada o'zlashtirgan (Atamalarni o'zlashtirishlikning predmetli bilish komponenti) talabalar uchun internallik va o'z-o'zini tushunish mavjudligi, ijtimoiy ma'qullanishga ehtiyoj va o'quv jarayoniga ijodiy yondashuv, tanlangan kasbiy sohada rivojlanish istagi, shuningdek, aqliy operatsiyalarning hissiyotlardan ustunligi va realistik fikrlash uslubi xos bo'ladi. Didaktik terminologiyaning o'ziga xosligini yuqori darajada tushungan (Atamalarni o'zlashtirishlikning intellektual-refleksiv komponenti) talabalar uchun o'quv motivatsiyasi, internallik va kasbiy rivojlanishga intilish, shuningdek, kognitiv xususiyatlar va kasbiy sohada noaniqlik muhimdir. Muloqotda terminologik savodxonlik yuqori darajasiga (Atamalarni o'zlashtirishlikning kommunikativ-nutq komponenti) ega talabalar uchun internallik va kasbiy rivojlanishga intilish, maydonga bog'liqlik, kognitiv xususiyatlar va kasbiy sohada noaniqlik xos bo'ladi.

Atamalarni o'zlashtirishlikning past darajasiga ega bo'lajak pedagoglar ham internallik va o'z-o'zini tushunishga ega bo'lishadi, bundan tashqari, ularga ijtimoiy va kasbiy maqomlarni oshirishga ehtiyoj, kognitiv-kommunikativ xususiyatlar, talabaning shakllangan kasbiy birdayligi, ijodiy o'z-o'zini ro'yobga chiqarish intilish xos bo'ladi. Jumladan didaktikaning tushunchaviy-terminologik apparatini (Atamalarni o'zlashtirishlikning predmetli-kognitivlik komponenti) o'zlashtirish past darajasiga ega bo'lgan talabalarga psixologik farovonlik va past realistik fikrlash, ijtimoiy va kasbiy maqomini yaxshilashga ehtiyoj va kasb tanlashda mustaqillikning yo'qligi xos bo'ladi. Ilmiy tushunchalar tizimida didaktik atamalarni (Atamalarni o'zlashtirishlikning intellektual-refleksivlik komponenti) yomon o'zlashtirgan talabalarda internallik va shakllangan kasbiy muvofiqlik, o'z-o'ziga ishonchi yo'qligi kuzatiladi, shuningdek, o'quv motivatsiyasi ham ular uchun muhimdir. O'quv-kasbiy nutqda didaktik atamalardan foydalanish qobiliyati past bo'lgan talabalar (Atamalarni o'zlashtirishlikning kommunikativ-nutq komponenti) uchun o'qishga motivatsiya hamda kasbiy tanlovda noaniqlik yo'qligi, internallik va o'z-o'zini tushunish, kognitiv komponent xos bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Бордовская, Н.В. Терминологическая компетентность специалиста: проявление и уровни развития / Н.В. Бордовская, Е.А. Кошкина // Человек и образование. - 2016. - №3 (48). - С. 4 - 11.

2. Гнедых, Д.С. Эффективность усвоения учебной информации студентами в условиях электронного обучения: дис. .канд. психол. наук: 19.00.07 / Д.С. Гнедых; С-Петерб. гос. ун-т. - СПб, 2015. - 237 с.

3. Ишков, А.Д. Учебная деятельность студента: психологические факторы успешности / А.Д. Ишков. - М.: Издательство АСВ, 2004. - 224 с.

4. Soatov A.J. Bo'lajak pedagog-psixologlarda psixologik maslahat berish ko'nikmalarini shakllantirish texnologiyasi. O'quv qo'llanma. - Qarshi: Fan va ta'lim. 2022. - 128-137 b.

*To'htaxo Jayeva Maxliyoxon Omonullaxon qizi,
Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalari universiteti
"Ijtimoiy fanlar" kafedrası o'qituvchisi*

TALABALARNING O'Z IMKONIYATLARINI RO'YOBGA CHIQARISHDA O'QUV MOTIVLARI DINAMIKASINI TA'MINLASHGA EMPIRIK YONDASHUV

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalarining o'quv motivatsiyasini aniqlash, uni shakllantirish va rivojlantirish jarayonlarini o'rganishga bag'ishlangan. O'quv motivatsiyasi – ta'lim jarayonining psixologik asosini tashkil etuvchi muhim omil bo'lib, talabalar faoliyatini boshqaruvchi ichki va tashqi mexanizmlarni o'z ichiga oladi. Maqolada talabalarining o'quv motivatsiyasini aniqlash orqali olingan natijalar tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: motivatsiya, o'quv motivatsiyasi, talabalar, ta'lim jarayoni, psixologik diagnostika, motivatsion omillar.

Аннотация: Данная статья посвящена изучению процессов выявления учебной мотивации учащихся, ее формирования и развития. Учебная мотивация-важный фактор, формирующий психологическую основу образовательного процесса, включает внутренние и внешние механизмы, управляющие деятельностью учащихся. В статье приведены результаты проведенного метода по изучению учебных мотивов, анализируются полученные результаты.

Ключевые слова: мотивация, учебная мотивация, учащиеся, учебный процесс, психологическая диагностика, мотивационные факторы.

Annotation: This article is devoted to the study of the processes of identifying the educational motivation of students, its formation and development. Educational motivation is an important factor that forms the psychological basis of the educational process, includes internal and external mechanisms that control the activities of students. The article presents the results of the method used to study educational motives, and analyzes the results obtained.

Key words: motivation, educational motivation, students, educational process, psychological diagnostics, motivational factors.

Kirish. Talabalik davrida o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishning tizimli namoyon bo'lishini belgilab beruvchi psixologik omillari va o'ziga xos jihatlari tadqiq etish muhim bo'lib, bu jarayonda psixologik xususiyatlarni aniqlash zarurdir.

Oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv motivlari dinamikasini ta'minlash ularning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishni shakllanishi bilan uzviy bog'liqdir. Bu tushuncha o'z kasbiga qiziqish, yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishda o'quv motivlarni o'zida tarbiyalashni talab etadi. Har qanday kasbda bo'lganidek, bo'lajak pedagog faoliyatida zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni egallab olishi bilan bir qatorda, katta mas'uliyat, sabr-toqat va fidoiyligni talab qiladigan xususiyatlarning bo'lishi muhimdir. Buning uchun talaba doimo izlanishi va muntazam ravishda bilim doirasini kengaytirib borishi zarur. Ushbu xususiyatlarning shakllanishi va rivojlanishi natijasida yuzaga keladigan muammolarni o'rganishda talabalarining o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Tadqiqotimizda N.S.Badmayevning „Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish“ metodikasini o'tkazdik. Ushbu testni o'tkazishimizdan maqsad, talabalarining o'quv motivatsiyani shakllantirish va uni rivojlantirishdan iborat bo'ldi. Natija quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval

**N.S.Badmayevning Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish”
so'rovnomasi natijalari, Styudent t mezoni bo'yicha, n -149**

Motivlar	T	n	O'rta qiymat	Dispersiya	Jins
Muloqot motivi	1	92	16,75	8,39	-0,2

	2	57	16,82	7,86	
Mag'lubiyatdan qochish motivi	1	92	17,98	19,79	-3,44
	2	57	20,03	7,92	
Obro'ga intilish motivi	1	92	21,79	10,75	-2,35
	2	57	22,80	3,97	
Kasbiy motivlar	1	92	27,78	7,99	0,45
	2	57	27,57	6,71	
O'zini ro'yobga chiqarish motivi	1	92	8,68	4,92	-2,75
	2	57	9,40	,85213	
Ta'lim va kognitiv motivlar	1	92	29,72	21,62	-2,42
	2	57	31,31	11,18	
Ijtimoiy motivlar	1	92	21,25	15,20	-2,32
	2	57	22,38	4,27	

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$, 1- Talaba yigitlar; 2-Talaba qizlar.

1-jadvaldan ko'rinib turibdiki, muloqot motivlari shkalasi bo'yicha talaba yigitlar va talaba qizlarda o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlanmadi. $t = -0,2$; * $p < 0,05$. Bunga sabab har ikki jins vakillarida muloqot jarayoni erkin, tabiiy, qiziqarli, bir-birini boyituvchi, bir-biriga ta'sir ko'rsatuvchi, o'zini namoyon etuvchi bo'lishi mumkinligi, muloqot jarayonida suhbatdosh shaxsiga e'tibor, do'stona munosabat, muloqot sharoitlariga moslik, muloqotda qiz va yigitning o'xshashlik jihatlari mavjudligi, ularning qiziqishlari, intilish va xohishlari, istaklarining bir xil ekanligi aniqlandi.

Mag'lubiyatdan qochish motivi shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t = -3,4$; $p < 0,01$. Bunga sabab talaba yigitlar talaba qizlardan ko'ra biror vazifa yoki ishni boshlashdan avval nima bo'lsa ham muvaffaqiyatsizlikka duchor bo'lmaslikni ko'proq o'ylaydilar. Shu tufayli yigitlarda ko'proq ishonchsizlik, stress holatlari, yutuqqa erishishga ishonmaslik, pessimistga o'xshash holat kuzatiladi. Shuning uchun ko'pincha: "O'zi sira omadim yurishmaydigan odamman-da", - degan xulosaga keladilar. Agar birinchi toifali shaxslar bir ishni muvaffaqiyatli tugatgach, ko'tarinkilik bilan ikkinchi ishga kirishsa, ikkinchi toifa vakillari har qanday ishni yakunlangandan so'ng, uning natijasidan qat'i nazar, ruhan tushkunlikka tushishi va o'rganish hissi bilan boshqa ishga kirishishlari aniqlandi.

Obro' motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $T = -2,35$; $p < 0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, qizlardan ko'ra yigitlarda obro' motivlari ustun ekan. Bunga sabab esa, oliygohlarida tahsil oladigan talaba yigitlarda g'urur hissining yuqori ekanligi, tez fursatda katta yutuqlarga erishishni xohlashlari, emotsional his-tuyg'uga tez berilishlari, buni esa hatto o'qish jarayonida ham namoyon qilishlari, obro' - e'tiborga ega bo'lishni istashlari, o'qish jarayonida eng yaxshi va lider talabalar qatoridan joy olish istagining mavjudligi, oliy ta'limda o'z o'rniga ega bo'lishni istashlari, o'qituvchilar bilan munosabatning yaxshilanishi uchun ko'p harakat qilishlari, buning uchun oliy ta'limda yaxshi baholarga intilish va diplom olish istaklarining mavjudligi aniqlandi.

Ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlari shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t = -2,75$; $p < 0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, qizlarga nisbatan yigitlarda jamiyat taraqqiyotida hamda odamlar hayoti muammolariga javob berish hissining mavjudligi, yangi narsalarni bilish istagining yuqoriligi, ijtimoiy ijodiy faoliyat bilan shug'ullanish xohishlari ustun ekanligi namoyon bo'ldi.

Ta'lim va kognitiv motivlar shkalasi bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t = -2,42$; $p < 0,01$. Bundan ko'rinib turibdiki, yigitlardan ko'ra qizlar o'zlarining kelajaklari uchun oliy ta'limda muvaffaqiyatli o'qishlari, imtihonlarni a'lo baholarga topshirishlari, stress va bilimsizlikni yengib o'tishlari, olayotgan bilimlaridan zavqlanish hayotda bir marta bo'lsa ham oliy ta'limni bitirishga majbur ekanliklari, dars jarayonlarida doimo faol bo'lishlari, darsdan keyingi kurslarni ham muvaffaqiyatli tugatishlari,

chuqur va mustahkam bilim olishlari, o'z mutaxassisligi bo'yicha ilmiy ishlarni olib borishlari va o'z kasblarini saqlab qolish istagining yuqori ekanligi aniqlandi.

2.-jadval

N.S.Badmayevning "O'quv motivatsiyasini diagnostika qilish" so'rovnomasi asosida korrelatsion tahlil natijalari

	I	II	III	IV	V	VI	VII
I	1						
II	0,48***	1					
III	0,68***	0,48***	1				
IV	0,07	0,23**	0,17*	1			
V	0,53***	0,29**	0,6***	0,37***	1		
VI	0,54***	0,39***	0,61***	0,62***	0,59***	1	
VII	0,64***	0,38***	0,8***	0,34***	0,52***	0,74***	1

Izoh: *p<0,05; **p<0,01; ***p<0,001;

I. Muloqot motivi(shahar va tuman), II. Qochish motivi(shahar va tuman), III. Obro' motivi(shahar va tuman), IV. Kasbiy motivlar(shahar va tuman), V. Ijodiy o'z-o'zini amalga oshirish motivlari(shahar va tuman), VI. Ta'lim va kognitiv motivlar(shahar va tuman), VII. Ijtimoiy motivlar(shahar va tuman)

7-shkala ijtimoiy motivlar bo'yicha har ikkala jins vakillarida o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. $t=-2,3^*$; $p<0,05$. Ushbu shkaladan ko'rinib turibdiki, yigitlardan ko'ra qizlarda ustunlik jihatlari borligi isbotlandi. Bunga sabab, qizlar oliy ta'limni yakunlaganidan so'ng ular hayotlarida olgan bilimlari kelajakda ular uchun zarurligi va kelajakda o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish, ilmiy darajaga erishishlarida bilimning tutgan o'rni beqiyos ekanligi, ota-onalari oldidagi o'z burchlarini to'g'ri anglashlari va o'z kasbi doirasida yuqori lavozimlarga ega bo'lish istaklarining yuqori ekanligi aniqlandi.

2-jadvaldan ko'rinib turibdiki, "O'quv motivatsiyasini diagnostika qilish" korrelatsion tahlili bo'yicha o'rta statistik jihatdan ahamiyatli farq aniqlandi. Buni quyidagi jadvallar orqali ko'rib chiqildi.

Tadqiqotda N.S.Badmayevning talabalar o'quv motivatsiyasini o'rganish testi o'tkazildi. Ushbu metodni o'tkazishdan maqsad, kasbiy motivlarning maqsadli natijalar asosida, oliy ta'lim muassasalarida talabalarining o'quv motivatsiyasini aniqlashdan iborat. Natijalar quyidagi 3-jadvallarda keltirilgan.

3-jadvaldan ko'rinib turibdiki, korrelyatsion jihatdan talabalarining o'quv motivatsiyasi bo'yicha o'quv faoliyati motivlari shkalasi ta'limning ijtimoiy ahamiyati hamda o'quv va kasbiy yo'nalganlik shkalalariga bog'liq ekanligi, talabalarining bilim olishlari uchun ijtimoiy muhitning o'rni hamda ularning kelajak uchun yo'lga qo'ygan kasbiy yo'nalganliklari bilan birga namoyon bo'lishi, ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari shkalasi o'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari shkalasi bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

3-jadval

N.S.Badmayevning "Talabalar o'quv motivatsiyasini diagnostika qilish" testi bo'yicha korrelyatsion bog'liqlik natijalari

Motivlar	1	2	3	3
----------	---	---	---	---

1	1			
2	-0,46	1		
3	0,01	-0,34	1	
4	-0,47	-0,25	-0,31	1

Izoh: * $p < 0,05$; ** $p < 0,01$; *** $p < 0,001$. 1. O'quv faoliyatining motivlari, 2. Ta'limning ijtimoiy ahamiyati motivlari, 3. O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari, 3. O'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlari

Har bir talaba bilimning ijtimoiy ahamiyati uning kelajakda qaysi kasbni egallashi bilan bog'liq ekanligini, ushbu kasbga yo'nalganligida namoyon bo'lishini o'zlarida sinovdan o'tkazdilar. O'qishda o'zini ko'rsatish motivlari shkalasi talabalarning o'quv va kasbiy yo'nalganlik motivlariga bog'liqligi namoyon bo'ldi. Bundan ko'rinib turibdiki, talabalar o'quv faoliyati davrida ushbu bilimlarni va usullarni o'zlashtirishi, bu jarayonda talaba o'zini o'zi rivojlanitirishi juda muhim bo'lib, o'quv faoliyati motivlari talabaning ehtiyojlari, qiziqishlari, moyilligi, qiymat yo'nalishlari bilan bog'liq ekanligi aniqlandi.

Demak, oliy ta'lim muassasalari talabalarida o'quv motivlari dinamikasini ta'minlash ularning o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun asos bo'ladi. Bu bog'liqlik o'z kasbiga qiziqish, yaxshi mutaxassis bo'lib yetishishda zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2002). Handbook of Self-Determination Research. Rochester: University of Rochester Press.
2. Schunk, D. H., Pintrich, P. R., & Meece, J. L. (2008). Motivation in Education: Theory, Research, and Applications. Boston: Pearson Education.
3. Ryan, R. M., & Deci, E. L. (2020). Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. Contemporary Educational Psychology, 25(1), 54–67.
4. Pintrich, P. R. (2004). A Conceptual Framework for Assessing Motivation and Self-Regulated Learning in College Students. Educational Psychology Review, 16(4), 385–407.
5. Zimmerman, B. J., & Schunk, D. H. (2011). Self-Regulated Learning and Academic Achievement: Theoretical Perspectives. New York: Routledge.
6. Ковалева, А. И., & Орлов, А. Б. (2017). Мотивация учёбы студентов в высших учебных заведениях: особенности и факторы формирования. Вестник психологии, 3(25), 55–63.

Baxtiyorov Bekzodjon Ixtiyorovich,
Buxoro davlat universiteti talabasi

SPORTCHILARDA PSIXOLOGIK MUHOFAZA SHAKLLANISHINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola sportchilarda psixologik muhofazani shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Sportchilarda psixologik muhofaza, ularning psixologik salomatligini saqlash, yuqori natijalar ko'rsatish va stressga qarshi turish uchun zarur bo'lgan muhim omildir. Maqolada psixologik muhofazaning shakllanishiga ta'sir etuvchi omillar, o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, stressni boshqarish usullari va sportchilarning emotsional barqarorligini ta'minlashning psixologik strategiyalari tahlil qilinadi. Shuningdek, sportchilarda psixologik muhofazani rivojlantirishda samarali metodlar va yondashuvlar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: sportchilar, psixologik muhofaza, stressni boshqarish, motivatsiya, psixologik salomatlik, o'z-o'zini boshqarish, emotsional barqarorlik, psixologik strategiyalar, sport psixologiyasi, psixologik yordam, sportda muvaffaqiyat.

Аннотация: Эта статья посвящена анализу особенностей формирования психологической защиты у спортсменов. Психологическая защита у спортсменов является важным фактором для поддержания их психологического здоровья, достижения высоких результатов и устойчивости к стрессу. В статье рассматриваются факторы, влияющие на формирование психологической защиты, такие как самообладание, мотивация, методы управления стрессом и психологические стратегии обеспечения эмоциональной стабильности спортсменов. Также обсуждаются эффективные методы и подходы для развития психологической защиты у спортсменов.

Ключевые слова: спортсмены, психологическая защита, управление стрессом, мотивация, психологическое здоровье, самообладание, эмоциональная стабильность, психологические стратегии, спортивная психология, психологическая помощь, успех в спорте.

Annotation: This article is dedicated to analyzing the peculiarities of developing psychological protection in athletes. Psychological protection is a critical factor for maintaining athletes' psychological health, achieving high performance, and withstanding stress. The article examines factors that influence the formation of psychological protection, including self-control, motivation, stress management methods, and psychological strategies for ensuring emotional stability in athletes. Additionally, effective methods and approaches for developing psychological protection in athletes are discussed.

Key words: athletes, psychological protection, stress management, motivation, psychological health, self-control, emotional stability, psychological strategies, sports psychology, psychological support, success in sports.

Kirish. Sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishi - sport faoliyatining muvaffaqiyatli bo'lishida, yuqori natijalarga erishishda, shuningdek, stress va psixologik bosimlarga qarshi turishda muhim ahamiyatga ega. Sport - nafaqat jismoniy faollik, balki ruhiy va psixologik salomatlikni talab qiladigan murakkab jarayon. Aynan shu sababli sportchilarning psixologik muhofazasi, ularning sportdagi ijobiy faoliyatini davom ettirishda va jismoniy va ruhiy salomatliklarini saqlashda asosiy rol o'ynaydi.

Psixologik muhofaza shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari sportchilarning psixologik stressni boshqarishi, o'zgarishlarga moslashuvi, emotsional barqarorligini ta'minlashi va yuqori maqsadlar sari intilishi bilan bog'liqdir. Ushbu jarayonni shakllantirishda o'z-o'zini boshqarish, motivatsiya, stressga qarshi kurashish, samarali psixologik strategiyalarni qo'llash va to'g'ri psixologik yordamning ahamiyati katta.

Maqolada sportchilarda psixologik muhofazani shakllantirishga ta'sir etuvchi omillar va bu jarayonni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan metodikalar tahlil qilinadi. Shuningdek, sportchilarni psixologik muhofazaga tayyorlash va bu borada samarali yondashuvlarni qo'llashning psixologik jihatlari o'rganiladi.

Sportchilar uchun psixologik muhofaza shakllanishi, ularning sport faoliyatidagi muvaffaqiyatlari va uzoq muddatli sog'liqni saqlashlari uchun zarur bo'lgan psixologik omillardan biridir. Psixologik muhofaza — bu sportchining stressga qarshi chidamliligini oshiradigan, ruhiy holatini himoya qiladigan va ularni psixologik muammolardan himoya qilishga xizmat qiladigan tizimdir. Bunday tizim sportchining psixologik barqarorligini saqlab qolishga, yuqori natijalarga erishishga va sport faoliyatidan tashqarida ham ularning ruhiy salomatligini yaxshilashga yordam beradi.

Psixologik muhofazaning shakllanishi sportchining psixologik va emosional jihatdan qanday tayyorgarlik ko'rishiga, stressni boshqarish qobiliyatiga va muammolarga qarshi turish qobiliyatiga bog'liqdir. Bu jarayon sportchining o'z-o'zini anglashidan tortib, jamoaviy muhitda o'zining rolini anglashigacha bo'lgan ko'plab omillarni o'z ichiga oladi.

Maqolada sportchilar uchun psixologik muhofazani shakllantirishning o'ziga xos jihatlari, shu jumladan psixologik yordamni qo'llash, stressni boshqarish strategiyalarini ishlab chiqish va sportchilarni ijobiy psixologik holatda saqlashning metodik yondashuvlari tahlil qilinadi. Ushbu psixologik qo'llab-quvvatlash usullari sportchilarning raqobatbardoshligini oshiradi, shuningdek, ularni sportdagi muvaffaqiyatlarga olib keladi.

Adabiyotlar tahlili. Sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishining o'zgacha xususiyatlarini tahlil qilishda turli ilmiy izlanishlar va nazariyalar asos bo'ladi. Ushbu tahlil, sportchi psixologiyasining rivojlanishi va ularning stressga qarshi chidamliligini oshirish, ruhiy salomatlikni himoya qilish va sport faoliyatidagi samaradorlikni yaxshilashga qaratilgan metodlar bilan bog'liqdir. Adabiyotlar orqali quyidagi asosiy nuqtalar va yondashuvlar o'rganildi:

Psixologik himoya va stressni boshqarish Sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishi bilan bog'liq asosiy izlanishlar stressni boshqarish va unga qarshi turishga qaratilgan. A.V. Zhukov (2014) o'zining tadqiqotlarida sportchilarda stress va psixologik bosimni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishda psixologik yordamning ahamiyatini ta'kidladi. Uning fikricha, stressni boshqarish usullarini o'rgatish, sportchilarni yuqori ruhiy holatga keltiradi va sport faoliyatidagi muvaffaqiyatlarni oshiradi.

Sportchi psixologiyasi va o'zini anglash I.S. Kon (2000) o'zining "O'smirlik davri psixologiyasi" asarida psixologik muhofaza sportchilarning o'z-o'zini anglash va o'z salohiyatini maksimal darajada namoyon etishiga yordam berishini ta'kidladi. Psixologik muhofaza shakllanishi sportchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi va ularni muvaffaqiyatga yo'naltiradi. Konning fikriga ko'ra, sportchilarda o'z salohiyatini tushunish va o'zini shakllantirishda psixologik tayyorgarlik katta rol o'ynaydi.

Motivatsiya va sportchilarni qo'llab-quvvatlash Motivatsiya sportchilarni natijalarga erishish uchun eng muhim psixologik omil sifatida qaraladi. M.S. Chernyshev (2005) motivatsiya sportchining o'z sport faoliyatiga bo'lgan yondashuvini belgilaydi va uning psixologik barqarorligini ta'minlaydi. Shu bilan birga, sportchilarning jamoaviy ruhini shakllantirish va ularni psixologik jihatdan qo'llab-quvvatlash metodlari ham ahamiyatga ega. Chernyshev sportchilarga nisbatan ijobiy psixologik yondashuvning ahamiyatini ta'kidladi, bu esa guruhdagi ko'p sonli sportchilarni muvaffaqiyatga erishishga undaydi.

Psixologik yordam va resurslar Psixologik yordamning sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishiga bo'lgan ta'siri haqida M.P. Zaharova (2012) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham mavjud. Zaharova sportchilarni stressdan himoya qilish va ruhiy holatni yaxshilash uchun samarali psixologik yordamni ko'rsatish zarurligini ta'kidladi. Sportchilar uchun psixologik qo'llab-quvvatlashning eng muhim elementlari o'zini anglash, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ruhiy yordam va stressni boshqarish usullaridir.

Sportchilarda psixologik muhofaza va uning rivojlanishi Shuningdek, sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishi bilan bog'liq metodikalarni ishlab chiqqan X.A. Aslanov (2016) tadqiqotlari ham muhimdir. Aslanov sportchilarning ruhiy salomatligini himoya qilish va stressni yengish bo'yicha metodlarni yaratishda psixologik qo'llab-quvvatlashning ahamiyatini ko'rsatdi. Uning tadqiqotlari sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishining psixologik asoslarini tahlil qilib, ularni sportdagi muvaffaqiyatlarida yordam beruvchi faktor sifatida tasvirlaydi.

Sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishining o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish, jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlash, yuqori natijalarga erishish uchun juda muhim ahamiyatga ega. Maqolada ko'rsatilganidek, psixologik muhofaza shakllanishi sportchining faqatgina jismoniy, balki ruhiy holatini ham ta'minlashga yordam beradi. Shu bilan birga, bu jarayonni sportchilarning ichki kuchlarini rivojlantirish va ularning psixologik salohiyatini oshirishda muhim vosita sifatida qarash lozim.

Bir tomondan, psixologik muhofaza shakllanishi sportchilarda stressni boshqarish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Stress va psixologik bosimni to'g'ri boshqarish, sportchi uchun eng yaxshi natijalarga erishish imkonini yaratadi. Xususan, stressni boshqarish uchun sportchilarga kerakli psixologik texnikalar va metodlarni o'rgatish, ularning o'zini tutish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Psixologik yordam, ruhiy holatni saqlash, motivatsiya va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash metodlari sportchining muvaffaqiyatini oshirishda eng samarali vositalardan biridir.

Ikkinchi tomondan, sportchilarda psixologik muhofazani shakllantirishda guruhdinamizmini va jamoaviy ruhni rivojlantirishning ahamiyatini ta'kidlash kerak. Sport jamoalarida yaxshi o'zaro munosabatlar, ishonch va hamkorlik – bu nafaqat jismoniy, balki psixologik jihatdan ham sportchilarning muvaffaqiyatlarini oshiradi. O'zaro ishonch va qo'llab-quvvatlash jamoaviy muvaffaqiyatga olib keladi, bu esa sportchilarda psixologik himoyaning mustahkamlanishiga olib keladi.

Shuningdek, motivatsiya va o'z-o'zini anglash ham sportchilarda psixologik muhofaza shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Motivatsiya yuqori bo'lgan sportchilar o'zlarining ruhiy va jismoniy salohiyatlarini maksimal darajada ochib ko'rsatishadi. Psixologik muhofaza shakllanishi sportchining o'zini anglashiga yordam beradi, u o'z salohiyatiga bo'lgan ishonchni oshiradi va bu natijada, uning psixologik holati yaxshilanadi.

Bundan tashqari, psixologik yordam va psixoterapevtik metodlarning samaradorligi ham juda muhim. Psixologik yordam orqali sportchilarga kerakli ruhiy ko'mak ko'rsatilishi, stressga qarshi kurashish qobiliyatlari rivojlantirilishi, jismoniy va ruhiy salomatlikni saqlashda muhim rol o'ynaydi. Psixologik yordam metodlarining samaradorligi sportchilarning mental salomatligini mustahkamlashda ta'sirchan bo'lishi mumkin.

Steam ta'limi va loyiha asosida o'rganish (PBL) metodlari zamonaviy ta'lim tizimida muhim o'rin tutadi. Ushbu maqola, o'qituvchilarni tayyorlashda ushbu yondashuvlarning ahamiyatini ta'kidlaydi. STEAM tamoyillari, o'quvchilarning fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika sohalarida integratsiyalashgan bilimlarini rivojlantirishga yordam beradi, bu esa ularning ijodkorlik va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini oshirishga olib keladi. PBL metodlari esa talabalarga o'zlarining muammolarni mustaqil ravishda hal qilish qobiliyatini oshirishga imkon beradi.

O'qituvchilarga interdisipliner yondashuv va kreativ fikrlash ko'nikmalarini o'rgatish, o'z navbatida, 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirish uchun zarur. Mazkur yondashuvlar talabalarning kelajakda o'z bilim va ko'nikmalarini amaliyotda qo'llashlariga yordam beradi. O'qituvchilarni innovatsion metodlar bilan tanishtirish, ular tomonidan zamonaviy ta'limning asosiy tamoyillarini o'rgatish va amaliyotga joriy qilish, ta'limning sifatini sezilarli darajada yaxshilashga olib keladi.

Shuningdek, maqolada keltirilgan real hayotiy misollar STEAM va PBL metodlarining ta'lim jarayoniga samarali integratsiyasi mumkinligini ko'rsatadi. Bunday metodlar

o'quvchilarda amaliy bilimlarni rivojlantiradi, ularning o'quv jarayonida faolligini oshiradi, shuningdek, o'qituvchilarga yangi pedagogik yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari, bu metodlar o'qituvchilarni talabalarga yanada kengroq va chuqurroq ta'lim berish, ularning qiziqishini va motivatsiyasini oshirishga yordam beradi. Ular, shuningdek, o'quvchilarda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Bu jadvalda STEAM ta'limi va PBL metodlarining maqsadlari, asosiy tamoyillari va natijalari qisqacha keltirilgan.

Metod	Maqsad	Asosiy tamoyil	Natija
STEAM ta'limi	O'quvchilarda interdisipliner bilimlar	Fanlararo integratsiya	Tanqidiy fikrlash, ijodkorlik
PBL (Loyiha asosida o'rganish)	Amaliy bilimlarni rivojlantirish	Muammolarni hal qilish	Mustaqil ishlash va guruh bilan ishlash
Innovatsion ta'lim metodlari	O'qituvchilarni yangi metodlar bilan tanishtirish	Texnologiyalarni qo'llash	O'qituvchilarning innovatsion ko'nikmalari
Interdisipliner yondashuv	O'quvchilarda fanlararo bog'liqlikni rivojlantirish	Fanni bir-biriga bog'lash	Yaratish va tizimli fikrlash
Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish	O'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirish	Tahlil va qaror qabul qilish	Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarining oshishi

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, STEAM ta'limi va loyiha asosida o'rganish (PBL) metodlari o'qituvchilarni zamonaviy ta'lim jarayonlariga moslashtirish va ularda muammolarni hal qilish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash kabi muhim 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Bu metodlar o'qituvchilarda interdisipliner yondashuvni shakllantiradi, o'quvchilarga real hayotiy muammolarni hal qilishda yordam beradi va ta'lim jarayonini yanada samarali qiladi. O'qituvchilarni innovatsion pedagogik metodlar bilan tanishtirish va ularga kerakli ko'nikmalarni berish, ularning ta'lim sifatini oshiradi va kelajakdagi avlodni tayyorlashda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Smith, R. E., & Smoll, F. L. (2007). *Psychological skills training for sports: A review and critique*. The Sport Psychologist, 21(2), 124-140.
2. Birrer, D., & Morgan, G. (2010). *Psychological skills interventions in sport: A review of the research*. Perspectives in Exercise Science and Sports Medicine, 17(1), 37-49.
3. Gould, D., & Udry, E. (1994). *Psychological skills for enhancing performance: Arousal regulation strategies*. Sport Psychologist, 8, 388-404.
4. Rønnestad, B. R., & Ellefsen, S. (2014). *The influence of training characteristics on performance and injury risk in elite athletes: A systematic review*. Sports Medicine, 44(8), 1143-1153.
5. Vealey, R. S. (2007). *Mental skills training in sport*. In: Williams JM, editor. *Applied sport psychology: Personal growth to peak performance*. 6th edition. New York: McGraw-Hill; p. 264-281.

Hazratqulov Sardor Furqat o'g'li,
Jizzax davlat pedagogika universiteti,
Jismoniy madaniyat fakulteti, sport
turlarini o'qitish metodikasi kafedrası
o'qituvchisi

PROFESSIONAL BASKETBOLCHILARNING IRODAVIY SIFATLARINI SHAKLLANISHIDA O'ZINI-O'ZI BAHOLASHNING AHAMIYATI

Annotatsiya: Mazkur maqolada professional basketbolchilarning irodaviy sifatlarini namoyon bo'lishida o'zini-o'zi baholashning ahamiyati borasida olib borilgan tadqiqot natijalari va uning ilmiy jihatdan psixologik izohi yoritilgan.

Kalit so'z: Profesional basketbolchilar, irodaviy sifatlar, o'zini-o'zi baholash.

Аннотация: В данной статье освещены результаты исследования значения самооценки в проявлении волевые качества профессиональных баскетболистов и ее научно-психологическое объяснение.

Ключевое слово: Профессиональные баскетболисты, волевые качества, самооценка.

Abstract: This article highlights the results of a study of the importance of self-esteem in the manifestation of volitional qualities of professional basketball players and its scientific and psychological explanation.

Key words: Professional basketball players, volitional qualities, self-esteem.

Kirish. Sport mashg'ulotlari va musobaqa jarayonida sportchilarning irodasi, ulardagi irodaviy sifatlarining namoyon bo'lishi, sportchilarning o'zini-o'zi baholashi muhim ahamiyat kasb etadi. Buning sababi esa sportchilar sport faoliyatida mas'uliyat, intizom, prinsipial, majburiyat, matonat, g'ayrat, vazmin, qat'iylik kabi sifatlarini namoyon qilishlari ularni sportda muvaffaqiyatga erishishlarida muhim omil sifatida yordam beradi. Bunda esa sportchilarni o'zini-o'zi baholash usulini o'zlashtirishlari lozim bo'ladi. Sportchilarning o'zini-o'zi baholash usuli ularning irodaviy sifatlarini o'rganishning eng keng tarqalgan usullaridan bo'lib, bu usulning afzalligi esa uning oddiyligi va tejamkorligi hisoblanadi. O'zini-o'zi irodaviy baholashning tuzilishi sub'ektning o'zini irodaviy tartibga solish holatini aks ettiradi va u yoki bu faoliyat turi tomonidan unga qo'yiladigan talablarga mos keladi.

Biz tadqiqotimizda professional basketbolchilarni tarbiyalashda irodaviy sifatlarining shakllanishini o'rganishda V.A.Ivannikov va E.V.Eydman tomonidan ishlab chiqilgan «O'zini-o'zi baholash diagnostikasi» metodikasidan foydalandik. Ushbu metodika shaxsning o'zini-o'zi baholashda irodaviy sifatlar darajasi va tuzilishini diagnostika (tashhis) qilish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda shaxsning irodaviy sifatlarini qay darajada shakllanganligini aniqlash imkoni berilgan (ko'rsatilgan).

Tadqiqotimiz jarayonida biz professional basketbolchilar jamoasida o'zini-o'zi baholashda irodaviy sifatlar darajasini o'rganishga harakat qildik, uni natijalari quyidagi 1-jadvalda keltirilgan.

Professional basketbolchilarning irodaviy sifatlarini namoyon bo'lishida o'zini-o'zi baholashning tadqiqot natijalari:

1-jadval

Shkala	Jamoalar	N	O'rtacha qiymat	Standart og'ish	F	p
Mas'uliyatli	Toshkent	23	4,7826	,42174	18,968	,000***
	Jizzax	22	3,9091	,81118		
	Navoiy	22	3,5909	,73414		
Intizomli	Toshkent	23	4,4348	,50687	4,373	,017*
	Jizzax	22	4,1818	,58849		

	Navoiy	22	3,9091	,68376		
Prinsipialli	Toshkent	23	4,2609	,86431	12,457	,000***
	Jizzax	22	3,5455	,67098		
	Navoiy	22	3,2727	,45584		
Majburiyatli	Toshkent	23	4,3913	,72232	4,262	,018*
	Jizzax	22	3,8636	,77432		
	Navoiy	22	3,7727	,81251		
Matonatli	Toshkent	23	3,8261	,77765	3,029	,050*
	Jizzax	22	4,4091	,73414		
	Navoiy	22	4,0909	,86790		
G'ayratli	Toshkent	23	4,6087	,65638	7,467	,001***
	Jizzax	22	4,1364	,77432		
	Navoiy	22	3,7727	,75162		
Vazminlik	Toshkent	23	3,1304	1,17954	7,390	,001***
	Jizzax	22	3,8636	,94089		
	Navoiy	22	4,2273	,75162		

Izoh: - *-p ≤ 0,05, ***-p ≤ 0,001

Biz tadqiqot natijalarini ahamiyatli bo'lgan irodaviy sifatlar bo'yicha izohlashga harakat qildik, chunki bu izoh irodaviy sifatlarini aniq tasvirlashga imkon beradi.

Mas'uliyatli. Tadqiqotda ishtirok etgan professional basketbolchilarning ko'rsatgan natijalari ularda mas'uliyatning yaxshi shakllanganligidan dalolat beradi. Mas'uliyat ko'rsatkichi Toshkentning «AGMK» jamoasida 4,7826; Jizzaxning «Ziyokor» jamoasida 3,5909; Navoiyning «So'g'diyona» jamoasida esa 3,5909 natijani ko'rsatmoqda (1-jadvalga qarang). Mazkur natijalar asosida aytish mumkinki, Jizzax va Navoiy jamoalari ko'rsatkichlariga qaraganda Toshkent jamoasida biroz yuqori natijani ko'rishimiz mumkin. Bu holat Toshkent jamoasida mas'uliyatning har ikkala shakli yaxshi shakllanganligi, ulardagi mashg'ulotlarga ijobiy jihatdan yondoshishlari, jamoada o'zaro munosabatni samaraliligi, jamoa oldidagi burchini his qilish, majburiyat hissi, jamoadagi muhit ijobiy ekanligidan dalolat beradi, bu holatni ularning O'zbekiston chempionati oliy liga musobaqalarida etakchi jamoalardan biri ekanligi bilan ham izohlashimiz mumkin.

Aytish joizki, Jizzaxning «Ziyokor» va Navoiyning «So'g'diyona» jamoalari professional basketbolchilari natijalari ham o'rtadan yaxshi natijani ko'rsatmoqda, bu natija ham mas'uliyat sifatini samarali shakllanganidan dalolat beradi, chunki ularning ham O'zbekiston chempionatidagi ishtiroklari buni isbotlab turibdi.

Intizomli. Professional basketbolchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari asosida aytish joizki, respondent sifatida ishtirok etgan professional basketbol jamoalari a'zolarida intizomlilik xislatlari yaxshi natijani ko'rsatmoqda. (Toshkentning «AGMK»-4,4348; Jizzaxning «Ziyokor» -4,1818 va Navoiy shahrining «So'g'diyona» klubi – 3,9091). Tadqiqot jarayonida qo'lga kiritilgan natijalarni mazkur basketbol jamoasi a'zolarining basketbol mashg'ulotlariga bo'lgan ijobiy yondashuvi, jamoadagi tartib-qoidalarga amal qilishi, intizomni mahkam tutishi, trener qo'ygan vazifalarni o'z vaqtida bajarishi, jamoa ishlab chiqqan grafik (jadval, kun tartibi) qoidalarini buzmaydigan, mashg'ulotlarda beriladigan mashqlarni to'la-to'kis bajarish orqali o'zlaridagi ushbu sifatni tarbiyalab, shakllantirib borishlari bilan izohlashimiz o'rinli bo'ladi. Ta'kidlash lozimki, Jizzax va Navoiy shahri professional basketbolchilarining intizomlilik sifati ko'rsatkichi Toshkent shahri basketbolchilarining natijalariga nisbatan biroz tafovutni ko'rsatmoqda, biroq, bu ko'rsatkich ham ijobiy jihatdan namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin. Demak, tadqiqot natijalari har uchala basketbol jamoa basketbolchilarida ahamiyatli jihatdan ijobiy shakllanganligidan dalolat beradi.

Prinsipiallik. O'tkazilgan tadqiqot natijalari Toshkentning "AGMK" professional basketbolchilarida prinsipiallik sifati Jizzaxning "Ziyokor" va Navoiyning "So'g'diyona" basketbolchilariga nisbatan yaxshi natijani ko'rsatmoqda. Jizzax va Navoiy shahri basketbolchilari esa o'rtadan yuqori ko'rsatkichga ega (1-jadvalga qarang).

Demak, ushbu natijalar asosida aytish joizki, Toshkentning "AGMK" basketbolchilarida shaxsiy fikr, ya'ni, har qanday vaziyatda o'zini pozitsiyasida qat'iy turish, atrofidagi sharoit o'zgaruvchanligiga qaramasdan xulq – atvorini o'zgartirmaslik, o'ziga bo'lgan ishonch, muammo va qiyinchilikdan qochmaslik, kuchli xarakter, umid kabi xislatlar Navoiy va Jizzax basketbolchilariga nisbatan yaqqolroq namoyon bo'lgani aniqlandi. Bu holatni biz Toshkentning "AGMK" basketbol jamoasining respublikada etakchi klublardan biri sifatida e'tirof etilganligi bilan ham izohlashimiz mumkin, shu bilan birga, prinsipiallik sifati tadqiqotimiz ob'ekti bo'lgan Jizzax va Navoiy shahri basketbolchilarida ham samarali (ijobiy) shakllanganligini ta'kidlash joiz.

Majburiyatli. Professional basketbolchilar bilan olib borilgan tadqiqot ishlarida biz basketbolchilarning irodaviy sifatini ifodalanish darajasini o'rgandik. O'tkazilgan tadqiqot natijalari Jizzax va Navoiy shahri basketbolchilarida o'rtacha darajadagi ko'rsatkichni ifoda etdi (Jizzax-3,8636, Navoiy-3,7727). Toshkent shahri basketbolchilarining natijasi esa juda aniq ko'rsatkichni namoyon qildi (4,3913). Olingan tadqiqot natijalari asosida aytish lozimki, Toshkentning «AGMK» professional basketbolchilarida majburiyatlilik sifati yuqori shakllanganligi namoyon bo'ldi, ya'ni, ular sport mashg'ulotlariga vijdonan yondoshuvi, mashg'ulot jarayonida beriladigan mashqlarni sidqidildan bajarishlari, rasmiy va norasmiy musobaqalarda mas'uliyatni his qilishlari, musobaqa va mashg'ulotlarda jamoadoshlariga har doim yordam berishga tayyor ekanliklari, qo'llab quvvatlashlarini namoyon qildilar. Jizzax va Navoiy shahri basketbolchilarida ham majburiyatlilik sifati o'rtadan biroz yuqori darajada ifodalangan bo'lib, ulardagi bu natija jamoadagi sportchilarning professional nuqtai nazardan hamda tajribaning etarli darajada emasligi, irodaviy sifatlarini shakllantirish ustida ko'p ishlashlari lozimligidan dalolat beradi, bu holatni ular bilan o'tkazilgan suhbat jarayonida o'zlari ham ta'kidlab o'tdilar. Biz ham buni basketbol jamoasi a'zolarining tajribali va tajribasi kam sportchilar tarkibi bilan izohlashimiz mumkin.

Matonatli. Professional basketbolchilar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, basketbolchilarda matonatlilik sifati Toshkentning «AGMK» (3,8261), Navoiyning «So'g'diyona» (4,0909) va Jizzaxning «Ziyokor» (4,4091) jamoalarida ijobiy jihatdan namoyon bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. Har uchala jamoaning ko'rsatgan natijalari juda aniq ifodalangan bo'lib, ushbu ko'rsatkichlar uchala basketbol jamoalarida katta tafovutni ko'rsatmadi. Bu natijalarni biz basketbolchilarning sport musobaqalari jarayonida yuzaga keladigan vaziyatlarda va jamoa qiyin holatlarda sportchilardagi ortiqcha bezovtalanmaslik, o'zini tuta olish, bosiqlik, sovuqqonlik sifatleri har qanday vaziyat va psixologik bosimlarga ham bardosh berishlari, iroda kuchini namoyish qilib, musobaqa jarayonini ijobiy tomonga o'zgartira olish xususiyatlarini ko'rsata olishlari bilan izohlashimiz mumkin. Buni tadqiqot natijalari ham isbotlab turibdi.

Ta'kidlash joizki, Toshkentning "AGMK" jamoasi ko'rsatkichi Navoiy va Jizzax jamoalarining natijalaridan biroz farq qilmoqda, biz buni Toshkentning "AGMK" jamoasi a'zolarining ikkala jamoa a'zolariga nisbatan sport faoliyatida yuqori tajribaga ega ekanligi bilan izohlaymiz, chunki sport faoliyatidagi jarayonlar ularda matonatni yuqori darajada shakllanishiga yordam berganligidan dalolat beradi, tajribasi kamroq bo'lgan yosh sportchilar yuqori darajada matonat ko'rsatishi ba'zan salbiy xolatlarga ham olib kelishi mumkin.

G'ayratli. Biz professional basketbolchilar bilan olib borgan tadqiqotimizda ularda ushbu sifatni qay darajada ifodalanganligini o'rganishga harakat qildik. Tadqiqot natijalari Toshkentning «AGMK» (4,6087) jamoasi basketbolchilari ko'rsatkichlari Navoiyning «So'g'diyona» (3,7227) va Jizzaxning «Ziyokor» (4,1364) jamoalari basketbolchilarining natijalariga nisbatan eng aniq darajada ifodalangani namoyon bo'lganini ko'rishimiz mumkin.

Toshkentning «AGMK» jamoasi natijalarini biz ulardagi mashg'ulot jarayonida ko'rsatayotgan mehnatsevarlik, topqirlik, harakatchanlik, qat'iyatlilik, o'z fikrida turuvchi, quvnoq, qiyin vaziyatlarda mas'uliyatni zimmasiga oluvchi, zarur paytda etakchilik qilish kabi xususiyatlari bilan izohlaymiz, chunki yuqorida keltirilgan xususiyatlar ularda yaqqol namoyon bo'lmoqda.

G'ayratlilik sifati Navoiyning «So'g'diyona» jamoasi basketbolchilarida esa o'rtacha darajadan biroz yuqori natijani ko'rsatdi, bu jamoadagi ko'rsatkich shundan dalolat beradiki, basketbolchilarda mashg'ulotlarga bo'lgan munosabat, jamoadagi muhit va o'zaro munosabat ulardagi jo'shqinlik, qat'iylik topqirlik xususiyatlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan tadbirlar olib borish lozimligini ko'rsatadi.

Vazminlik. Biz tadqiqot ishimizda professional basketbolchilarda vazminlik sifati qay darajada ifodalanganligini o'rganishga harakat qildik. Tadqiqotda olingan natijalar asosida aytish mumkinki, basketbolchilarda vazminlik sifati ko'rsatkichlarida ahamiyatli tarzda katta tafovut kuzatilmadi, Navoiyning «So'g'diyona» jamoasida Toshkentning «AGMK» va Jizzaxning «Ziyokor» jamoasiga nisbatan natijalarda biroz farqni ko'rishimiz mumkin. Toshkentning «AGMK» va Jizzaxning «Ziyokor» jamoalarida vazminlik ko'rsatkichi o'rtadan yuqori darajada (3,1304 va 3,8636) ifodalangan bo'lsa, Navoiyning «So'g'diyona» jamoasida juda aniq tarzda ifodalangan (4,2273).

Bu holatni biz Navoiyning «So'g'diyona» jamoasini O'zbekiston chempionati oliy liga o'yinlaridagi stabillik, jamoadagi o'zaro munosabatlardagi bir - birini tushunish, jamoadagi muhit bilan izohlasak, Toshkentning «AGMK», Jizzaxning «Ziyokor» jamoalarida psixologik va jismoniy charchoqlik bilan izohlashimiz mumkin, chunki bu holat Toshkent va Jizzax jamoalari a'zolarining jismoniy va psixologik tayyorgarligidagi kamchiliklar mavjudligidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. .Ilin Ye.P. Psixologiya volevoy usiliya.- SPb.: PITER, DOM NAUKA, 2009. – 368
2. .Jarov K.P. Volevaya podgotovka sportsmenov. M.: Fizkultura i sport, Vt. Izd. Vlados, 2009. – 39 s.
3. .Ivannikov V. A. Psixologiya volya. Uchebnik / V.A. Ivannikov. - L.: , 2015. – 223
4. .Selivanov V.I. Volya i ee vospitanie. – Ryazan, 2012. – 196 s.

Ramazonov Jahongir Djalolovich,
Buxoro davlat pedagogika institute dotsenti,
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD),

AXBOROT GLOBALLASHUVI SHAROITIDA YOSHLAR DUNYOQARASHIDAGI O'ZGARISHLARNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot globallashuvi sharoitida yoshlar dunyoqarashidagi salbiy ta'sirlarning psixologik xususiyatlari, axborot madaniyatining o'rni, axborot istemoli madaniyati shakllanishining psixologik xususiyatlari, axborot madaniyatining zaruriy xususiyatlari, global zamon talablaridan kelib chiqqan holda yoshlarga axborot istemoli madaniyati va ko'nikmalarini shakllantirish va yoshlardan talab etiladigan psixologik shartlar haqida fikir mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: axborot globallashuvi, axborot madaniyati, axborot tahdidlari, ma'naviyat, semiotik madaniyat, kontseptual va texnologik madaniyat, terminologik madaniyat, muloqot madaniyati, axborot dunyoqarashi, axborot savodxonligi, axborot, madaniyat.

Аннотация: В данной статье рассматриваются психологические особенности негативного влияния глобализации информации на мировоззрение молодежи, роль информационной культуры, психологические особенности формирования культуры потребления информации, необходимые характеристики информационной культуры, а также в контексте глобальных требований обсуждаются вопросы формирования у молодежи культуры и навыков потребления информации, а также психологические условия, которые необходимы для молодежи.

Ключевые слова: глобализация информации, информационная культура, информационные угрозы, духовность, семиотическая культура, концептуальная и технологическая культура, терминологическая культура, культура общения, информационное мировоззрение, информационная грамотность, информация, культура.

Abstract: This article discusses the psychological characteristics of the negative impact of information globalization on the worldview of youth, the role of information culture, the psychological aspects of forming the culture of information consumption, the necessary characteristics of information culture, and, in the context of global demands, the issues of developing information consumption culture and skills among youth, as well as the psychological conditions required for youth.

Key words: information globalization, information culture, information threats, spirituality, semiotic culture, conceptual and technological culture, terminological culture, communication culture, information worldview, information literacy, information, culture.

Kirish. XX asrning oxirlariga kelib insoniyat tomonidan yaratilgan fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi kashfiyotlar insoniyatning turmush tarzi yuksalishida va mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning kuchayishi uchun etakchi ahamiyatga ega bo'ldi. Bu jarayonning mazmun – mohiyati “globallashuv” atamasi bilan ongimizdan o'rin oldi. XXI asrga kelib uni muomalada qo'llash shu darajada ommaviylashib ketdiki, u qo'llanilmaydigan soha qolmadi, desak o'rinli bo'ladi. Chunki, globallashuv jarayoni bugungi kunga kelib, mamlakatlarning iqtisodiyot va moliyaviy hayot doirasidan chiqib, ijtimoiy, siyosiy, ma'naviy va axloqiy hayot doiralarini ham qamrab oldi. Globallashuv jarayonining eng asosiy vositasi sifatida yuzaga kelgan kompyuter, internet, televidenie va boshqa zamonaviy ommaviy axborot vositalari butun dunyo xalqlarining mulkiga aylandi va ularni o'zaro bog'lanish jarayonini yanada tezlashtirdi.

Globallashuv jarayonining hozirgi davrda fan, texnika va texnologiyalar sohasidagi yutuqlarini butun dunyo xalqlariga etkazish, ularning mulkiga aylantirishdagi rolini qanchalik yuqori baholamaylik, aslida bu jarayonning dunyo xalqlarini xavotirga va tashvishga soladigan

eng yomon va xavfli tomoni shundaki, texnikaviy va iqtisodiy jihatdan yuksak darajada rivojlangan mamlakatlarning, birinchidan, kam taraqqiy etgan yoki endi taraqqiyot yo'liga kirayotgan mamlakatlarning mavjud iqtisodiy resurslariga egalik qilish yo'li bilan o'z hukmronligini ta'minlashga intilishi kuchayayotganligi bilan belgilansa, ikkinchidan, o'z hukmronligini ta'minlash asosida o'zlarining g'oyalarini, mafkuralarini va dunyoqarashlarini ommaviy tarzda ularning ongi va qalbiga singdirish bilan ularning o'z manfaatlari yo'lida boshqarayotganliklari bilan belgilanadi.

Insoniyatning ko'p ming yillik tajribasi shundan dalolat beradiki, dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlar, ko'pincha turli niqoblar, jozibali shior va g'oyalar pardasi ostida o'z manfaatlari yo'lida boshqa davlatlarga g'oyaviy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy bosim o'tkazishga intilayotganliklari sir emas. Bunday kuchlarning ixtiyorida juda katta moddiy, moliyaviy resurslar va imkoniyatlar mavjud bo'lib, ularning puxta o'ylangan, uzoq va davomli yovuz maqsadlariga "astoydil" xizmat qilib turibdi. Ayniqsa, g'oyaviy-psixologik urush ko'rinishida yoshlar akliga, ongiga va ma'naviyatiga yo'nalgan tahdidlarning internet va boshqa zamonaviy axborot vositalari orqali yoshlar hayotiga kirib, ularning tarbiyasiga salbiy ta'sir etayotganligi, ularning maqsad-intilishlarida, yo'nalganligida, dunyoqarashida, tafakkuri, ongida salbiy o'zgarishlarni namoyon qilayotganligi ota – onalar, o'qituvchilar va keng jamoatchilikni tashvishga solmoqda.

Mustaqil O'zbekistonning hozirgi taraqqiyot bosqichida yoshlarni ma'naviy etuk va har tomonlama barkamol qilib tarbiyalashda yovuz niyatli axborot tajovuzlaridan himoya qilish hozirgi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov xalqimizning dunyodagi zo'ravon va tajovuzkor kuchlardan ogoh etib, "Bugungi kunda dunyoning ayrim hududlarida ana shunday harakatlar natijasida katta ma'naviy yo'qotishlar yuz berayotgani, millatning asriy qadriyatlari, milliy tafakkuri va turmush tarzi izdan chiqayotgani, axloq – odob, oila va jamiyat hayoti, ongli yashash tarzi jiddiy xavf ostida qolayotganligini, odamning o'zi tug'ilib o'sgan yurti va xalqidan tonayotganligini, vatanparvarlik tuyg'ularidan mahrum bo'lgan loqayd shaxslarga aylanayotganligini kuzatish mumkin"– deb alohida ta'kidlab o'tgan edi.

Ushbu ogohlik ijtimoiy – gumanitar fan sohalari vakillari bilan bir qatorda psixolog olimlarni ham er yuzida mavjud bo'lgan ana shunday yovuz kuchlarning ta'siridan yoshlarimizni ongi-shuurida shakllanishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, ularni bartaraf etish uchun zarur bo'lgan ijtimoiy – madaniy va tarbiyaviy – psixologik mexanizmlarni yaratishga yo'nalgan ustuvor vazifalarni amalga oshirishni belgilab qo'ymoqda. Bu o'z-o'zidan axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarni zamonaviy psixodiagnostik usullar bilan o'rganib, psixokorreksion hamda psixoprofilaktik vositalar yordamida oldini olish va tuzatish bilan bog'liq keng miqyosli tarbiyaviy tizimni yaratishni taqozo etadi..

Shu nuqtai nazardan, biz "Axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarning psixodiagnostikasi va psixokorreksiyasi" mavzusida olib borayotgan psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy-tadqiqot ishimizning ilmiy dasturiga tayanib, bir qator tizimli vazifalarni bir necha bosqichda amalga oshirdik.

Birinchi bosqich: yoshlarlar dunyoqarashiga axborot globallashuvi jarayoni ta'sirining nazariy- metodologik asoslari o'rganildi.

Unda axborot globallashuvi jarayonining yoshlar tarbiyasiga ta'siri ijtimoiy – falsafiy muammo sifatida, axborot globallashuvi jarayonida yoshlar respondentlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarni psixologik tadqiqot muammosi sifatida olimlar tomonidan o'rganilganlik holati tahliliy baholandi va bunda ular dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishining motivlari, shart – sharoitlari, salbiy o'zgarishlarning shakllanish qonuniyatlari hamda oqibatlari keng yoritildi .

Mazkur muammoni tadqiq etish uchun tadqiqot bosqichlari belgilandi, fanning metodologik asoslari va metodikalarning psixologik tavsifi keng yoritildi, tadqiqot ishimiz

ancha murakkab va o'ta dolzarb mavzuga bag'ishlanganligi uchun uning bosqichlariga, ilmiy psixologik bilimlarni asoslash uchun fanning metodologik tamoyillariga va tadqiqot metodikalarida belgilangan qonun - qoidalar va yo'l – yo'riqlarga qat'iy amal qilindi.

Ikkinchi bosqichi. Yoshlarlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir etadigan axborotlarning yuzaga kelish xususiyatlari va mohiyatini aniqlash hamda ilmiy asoslash maqsadida zamonaviy axborot tahdidlarining ko'rinishlari, kelib chiqish sabablari va manbalari aniqlandi, ular dunyoqarashiga salbiy ta'sir etadigan axborotlarning yuzaga kelish xususiyatlari, yo'nalganligi, maqsadi va mohiyati tarbiyaviy-psixologik me'yorlar asosida baholandi.

Yoshlar dunyoqarashiga salbiy ta'sir etadigan axborotlarning falsafiy – psixologik mexanizmlari va oqibatlarini odam, jamiyat va olamning mohiyatini ilmiy-psixologik tushunish, anglash va bilish imkoniyatlari o'rganildi, ma'naviy tajovuzlarning asosiy maqsadi, yo'nalganlik mohiyati, tajovuzlarni qo'llayotgan davlatlar uchun ahamiyati aniqlandi. Ular tahdid ko'rsatayotgan mamlakatlardagi tinchlik, barqarorlik va farovonlikni izdan chiqarishga yo'naltirilgan usullar, yoshlar tarbiyasi va dunyoqarashiga putur etkazish bilan bog'liq oqibatlar va boshqa salbiy natijalar salmog'i asoslandi.

Uchinchi bosqichda. Axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarni eksperimental o'rganish hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy, axloqiy – ma'naviy taraqqiyot darajalarini va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan test metodikalari yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqot natijalarining tahlillariga asoslanib, yoshlarlar dunyoqarashining shakllanganlik holati aniqlandi.

Ular dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlar darajasi va uning turmush tarzi va faoliyati bilan bog'liq salbiy oqibatlar baholandi.

Yoshlarlar dunyoqarashida salbiy o'zgarishlar yuzaga kelishi, aynan shu yoshlarning shaxs sifatleri va individual-psixologik xususiyatlariga ko'p jihatdan bog'liq holatda kechishi aniqlandi.

To'rtinchi bosqich, axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashini turli ma'naviy tajovuzlardan himoya qilishning zamonaviy ijtimoiy – psixologik mexanizmlarini aniqlash ilmiy izlanishlarimizning ustuvor vazifalari sifatida belgilanib, quyidagi tarbiyaviy – psixologik mexanizmlar yaratilishi va amaliyotga tatbiq etish uchun tavsiyalar berish amalga oshirildi.

- shaxs, jamiyat va davlatga nisbatan axborot tahdidlariga qarshi psixologik xavfsizlikni ta'minlashning ijtimoiy-madaniy mexanizmlari tizimi yaratildi va uni doimiy takomillashtirib borish e'tiborga olindi;

- ular dunyoqarashida yuzaga kelishi kutilayotgan salbiy o'zgarishlar uchun psixologik xavfsizlikni ta'minlovchi shaxs fazilatleri kompleksi aniqlandi va uni yoshlarning har biri o'rganib (o'zlashtirib) hayot tarzi va faoliyatida qo'llash tavsiya etildi;

- axborot globallashuvi jarayonida ular dunyoqarashi xavfsizligini ta'minlashning gumanizatsiyalash imkoniyatleri aniqlash, joriy etish va hamma ta'lim tizimi bosqichleri unga amal qilish tavsiya etildi;

- axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashiga yo'nalgan tahdidlarga qarshi psixologik xavfsizlikni ta'minlashda pedagogik – psixologik jarayonlarning samaradorligini oshirish yo'llari va imkoniyatleri aniqlandi;

- globallashgan ochiq axborot tizimida yoshlarlar psixologik xavfsizligini (psixologik immunitetni) ta'minlovchi ijtimoiy – psixologik va milliy- madaniy tizim andozasi yaratildi;

Tadqiqotimiz natijaleriga tayanib, hozirgi yosh avlodni ma'naviy tajovuzlardan (tahdidlardan) himoya qilishning milliy mentalitetimiz va hududiy xususiyatlardan kelib chiqqan holda ijtimoiy – madaniy va milliy - psixologik xususiyatleri aniqlash va yoritishdir. Milliy-psixologik immunitet (yoki psixologik immunitet) deganda millatning barqaror rivojlanishi uchun zarur bo'lgan ma'naviy ehtiyojini qondiruvchi keng ma'nodagi ma'naviy

boylikning mavjudligini, unga har doim ham ehtiyojning o'sib borishiga moyillikning kuchliligiga va millat ma'naviy hayotiga tashqaridan ko'rsatiladigan har qanday ta'sirlarga qarshi tura oladigan, ulardan kuchli, ustun bo'lgan milliy-ma'naviy, ruhiy va yuksak darajadagi axloqiy salohiyatlarning amal qilinishini tushunish mumkin.

Mazkur tarbiyaviy jarayon millatimiz vakillariga, ayniqsa yoshlarda milliy merosimiz, urf, odat, an'ana va axloqimizdagi eng ilg'or xususiyatlarni, qadriyatlarni singdirish orqali milliy ong, milliy dunyoqarash, milliy tafakkur, huquqiy madaniyatni shakllantirish, o'zligini anglatish, milliy g'urur va iftihar tuyg'ularini mustahkamlash, milliy manfaat, millat istiqboli uchun mas'ullikni ongi va qalbiga chuqur singdirish, boy milliy - madaniy merosimiz asosida yoshlarni yuksak ma'naviyatli, qat'iyatli, shijoatli, ongli faol shaxs sifatida shakllanishini ta'minlashga yo'nalgan ta'lim tizimidagi amaliy faoliyatdir.

Avvalo shuni aytish kerakki, mana shu metodikalar ayrim olimlar tomonidan milliy-madaniy muhitda qo'llanilgan bo'lsada, lekin ular foydalangan metodlar psixologik tadqiqotlar uchun etarlicha axborot bera olmaydi.

Axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashida yuzaga keladigan salbiy o'zgarishlar qonuniyatlarini chuqurroq, ob'ektiv ravishda tadqiq etish uchun izchillik bilan quyidagi psixologik metodlardan foydalanishni maqsadga muvofiq deb bildik.

1. Yoshlar dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan kuzatish, suhbat, ular faoliyati mahsulini tahlil qilish metodlaridan foydalanildi.

2. IPS (ijtimoiy-psixologik so'rovnomma) tuzildi va ularning dunyoqarashiga xos ijtimoiy-psixologik xususiyatlar va qonuniyatlar o'rganildi.

3. Yoshlar bilimi, ongi va dunyoqarashini o'rganishga daxldor test metodlaridan foydalanildi (foydalanilgan test metodikalari ilovada berildi). Test qisqa vaqt ichida bajarilishi zarur topshiriq hisoblangani uchun uning echimini miqdor va sifat jihatidan tahlil qilish natijasida ular dunyoqarashi, ya'ni voqelikning respondentlar ongidagi sub'ektiv in'ikosi ko'rsatkichlari aniqlanadi.

Yoshlarning dunyoqarashi va unda yuzaga kelishi ehtimoli bo'lgan salbiy o'zgarishlarni tekshirishda qo'llaniladigan standart topshiriqlar psixologik test deb qabul qilingan. Bu metodning qimmati eksperimentning ilmiylik darajasiga, yig'ilgan psixologik dalillarning ob'ektivligiga, ularning ilmiy-g'oyaviy, ma'naviy jihatdan tahlil qila bilishga bog'liqdir. Test metodini qo'llash orqali yoshlar shaxsining funksional imkoniyatlari, dunyoqarashi haqida diagnostik hamda prognostik ahamiyatga ega bo'lgan ma'lumotlar to'planadi. Shuning uchun topshiriqni to'g'ri tanlash, amaliyotda uni bir necha marta sinab ko'rish, yoshlarning yosh xususiyatlarini hamda uning tabiat, jamiyat hamda o'ziga bo'lgan munosabat tartiblariga, dunyoqarashi, e'tiqodi, anglash tamoyillari asoslarini tashkil etgan bilim saviyasi va boshqa jihatlarini hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

Axborot globallashuvi jarayonida yoshlarlar dunyoqarashidagi salbiy o'zgarishlarni tadqiq qilishda hozirgi zamon psixologiyasi amaliyotida samarali qo'llashga mo'ljallangan insonning shaxslilik xususiyatlari va individual-tipologik imkoniyatlari hamda ularning aqliy, axloqiy- ma'naviy, hissiy-irodaviy taraqqiyot darajasi va dunyoqarashini o'rganishga yo'nalgan anketa va test metodikalari yordamida amalga oshirish nazarda tutildi.

Axborot globallashuvi jarayoni ijtimoiy-falsafiy muammo sifatida keng o'rganilgan bo'lib, uni tashkil etuvchi "axborot", "bilim" va "axborot globallashuvi" tushunchalarning mazmun-mohiyati, genezisi, o'zaro bog'liqlikda, uyg'un holda hukm surishi, o'zaro ta'sirlashuvi natijasida bir-birini yanada takomillashtirib yuksalishi, inson, jamiyat va fan-texnologiyalar taraqqiyotidagi ahamiyati ilmiy- falsafiy nuqtai nazardan to'g'ri baholangan.

Axborot tushunchasi bugungi kunda global mohiyat kasb etib u psixologik mohiyatiga ko'ra, atributiv va funksional xususiyatlari bilan inson tafakkuri, ongi va dunyoqarashiga turli yo'nalishlarda ta'sir o'tkazuvchi, yaxlit inson hayotini, uning taqdirini, u yoki bu tomonga burib yuboruvchi, goh salbiy, goh ijobiy mohiyat kasb etuvchi qudratli g'oyaviy kuch ekanligi asoslangan.

Sharq mutafakkirlarining (Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy) ta'kidlashicha, kishilarning dastlabki etnik guruhlar shakllanishida til hal qiluvchi rol o'ynagan. Birlashish uchun kishilar bir hududda qo'shni bo'lib yashashi, bitta tilda gaplashishi kerak edi. Shuning uchun ham til va hududning birligi odamlar tirikchiligidagi asosiy sharti va tabiiy zarurati bo'lib, ayni paytda etnos (millat)ning shakllanishi va rivojlanishi uchun ham muhim omil hisoblangan. Turmush tarzi va etnosning o'ziga xosligi sababli u yoki bu til mavjud narsalarni ifodalashga moslashgan.

Axborot o'zini o'zi tashkillashtirish tizimlarining muhim tarkibiy qismidir. Sezgi, idrok, xotira, tafakkur, nutq asosidagi faoliyat dasturi, o'zini o'zi tashkillashtirish jarayoni, muloqot va boshqa murakkab bioijtimoiy hodisalar axborotsiz amalga oshmaydi. Axborot bilimning zaminidir. Bilim axborot emas, u tushuncha, tasavvur va g'oyalar majmuasidir. Aloqa kanali yoki muloqot jarayonida bilim axborot mazmuniga aylanadi. Bilimning ma'nosi axborot signallarining ketma-ketligida, tartiblashganligida namoyon bo'ladi. Bilimni egallash voqelikni sub'ektiv o'zlashtirish bilan bog'liq. Bilim sub'ekt tomonidan, o'z navbatida shaxsning mulohazasi asosida shakllantiriladi. Bilim tushunish jarayoni bo'lib, insonning aqliy taraqqiyoti va onglik darajasini ham belgilaydi.

Xorijiy mamlakatlar psixolog olimlarining mavzuga doir ilmiy pozisiyalarida yoshlar dunyoqarashining shakllanishi yoki unda yuzaga keladigan o'zgarishlar asosan ishtirokchi shaxsning psixologik himoya mexanizmi, hayotiy strategiyasi, ijtimoiylashuv darajasi, etakchi faoliyat turi, o'zini o'zi ongli boshqarish va emosional barqarorligi, xulq-atvorning barqaror xususiyatlari, ta'lim va tarbiyada ustuvor metodologik tamoyillarga tayanish hamda insonning jismoniy va psixologik kamoloti uchun optimal shart-sharoitlar kabi muhim omillar bilan uzviy bog'liq holda kechishi dalillangan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. T.: 2008. -176 b.
2. Informasionno-psixologicheskaya i psixotrannaya voyna. Xrestomatiya pod.red. E. A. Tarasa Minsk "Xarvest" 2003. -432s.
3. Kamarov A. Umumbashariy muammo yoxud terrorizmga qarshi kurashning xalqaro huquqiy me'yorlari xususida. "Hayot va qonun", 2005 yil 5-6-son, 65-66 bet.
4. Moiseev N. Axborot jamiyatidagi imkoniyat va voqelik. "Tafakkur", 2010 yil 2-son, 10-19 bet.
5. Rahmonov U. Axborot makonida diniy fundamentalizm g'oyalariga qarshi faoliyat masalalari xususida. "Falsafa va huquq" 2010 yil 1-son, 41-43 bet.
6. Rensh M.A. korporativnaya kultura i sennosti v sisteme upravlencheskoy deyatelnosti // Mateiali II mejd. konf na temu "Psixologiya upravleniya" Ekaterenburg, 2007, -C. 29-33.
7. Rubinshteyn S.L. Osnovi obshey psixologii. SPb.: Piter, 2001.

*Barnoyev Bekzod Bahrom o'g'li,
Buxoro davlat universiteti "Psixologiya kafedrası" o'qituvchisi*

TALABALARDA YOLG'IZLIK HISSINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK DETERMINANTLARI

Annotatsiya: Ushbu maqola talabalar orasida yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlarini o'rganishga bag'ishlangan. Talabalik davri ko'pchilik uchun yangi bosqichni tashkil etadi, u o'z ichiga ijtimoiy, psixologik va emosional o'zgarishlarni oladi. Yolg'izlik hissi, talabalar orasida ko'p uchraydigan muammo bo'lib, ularning psixologik holati, ijtimoiy muloqotlari va o'zini qadrlashiga ta'sir ko'rsatadi. Maqolada, talabalar orasidagi yolg'izlik hissining paydo bo'lishiga sabab bo'ladigan asosiy ijtimoiy va psixologik omillar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Talabalar, yolg'izlik hissi, ijtimoiy-psixologik determinantlar, psixologik salomatlik, ijtimoiy muloqot, o'zini qadrlash, ruhiy holat, talabalik davri, stress, ijtimoiy integratsiya, psixologik yordam.

Аннотация: Эта статья посвящена изучению социально-психологических детерминант чувства одиночества среди студентов. Период студенчества является важным этапом для большинства людей, который включает в себя социальные, психологические и эмоциональные изменения. Чувство одиночества — это распространённая проблема среди студентов, оказывающая влияние на их психологическое состояние, социальные взаимодействия и самооценку. В статье анализируются основные социальные и психологические факторы.

Ключевые слова: Студенты, чувство одиночества, социально-психологические детерминанты, психологическое здоровье, социальные взаимодействия, самооценка, эмоциональное состояние, студенческий период, стресс, социальная интеграция, психологическая помощь.

Annotation: This article is dedicated to studying the socio-psychological determinants of loneliness among students. The student period represents an important stage for many, encompassing social, psychological, and emotional changes. Loneliness is a common issue among students, affecting their psychological state, social interactions, and self-esteem. The article analyzes the main social and psychological factors contributing to the feeling of loneliness among students.

Keywords: Students, loneliness, socio-psychological determinants, psychological health, social interaction, self-esteem, emotional state, student life, stress, social integration, psychological support.

Kirish. Talabalik davri - bu shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlar davri bo'lib, u ko'plab yoshlar uchun muhim psixologik va ijtimoiy bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda, yoshlar nafaqat akademik faoliyatga, balki o'z-o'zini anglash, ijtimoiy aloqalar o'rnatish va jismoniy hamda ruhiy salomatlikka ham katta e'tibor berishlari kerak. Shu bilan birga, talabalarning eng ko'p duch keladigan muammolaridan biri bu yolg'izlik hissi. Yolg'izlik, har doim ham jismonan yakkalanish bilan bog'liq bo'lmasligi mumkin; ba'zan odamlar ijtimoiy tarmoqlarda mavjud bo'lishlariga qaramay, o'zlarini yolg'iz his qilishadi. Yolg'izlik hissi talabalarda ko'pincha yangi muhitga moslashish jarayonida, yangi o'quv tizimiga o'tishda yoki o'zlarini boshqalardan ajratib ko'rishlarida kuchayadi.

Psixologik jihatdan, yolg'izlik hissi talabalarning ruhiy salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu holat, o'z navbatida, stress, depressiya, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi va akademik samaradorlikning pasayishi kabi salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkin. Shu sababli, talabalardagi yolg'izlik hissi va uning ijtimoiy-psixologik determinantlarini tushunish, ularni kamaytirish va bartaraf etish uchun turli usullarni ishlab chiqish zarurdir.

Maqolada, talabalar orasidagi yolg'izlik hissining psixologik va ijtimoiy omillari, uning paydo bo'lishiga olib keladigan sabablar, hamda yolg'izlikni bartaraf etish yo'llari haqida tahlil qilinadi. Bu muammoning talabalarning psixologik salomatligi va ijtimoiy integratsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunish, o'zgarishlarga yo'l ochadi va talabalarning ruhiy holatini yaxshilash uchun samarali strategiyalarni ishlab chiqish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Yolg'izlik hissi va uning ijtimoiy-psixologik determinantlari bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar ko'plab sohalarida amalga oshirilgan. Bu muammoning talabalarda yuzaga kelishiga sabab bo'ladigan psixologik va ijtimoiy omillarni tahlil qilish, ularning hayotini yaxshilash va ular bilan ishlashni samarali qilish uchun muhim ahamiyatga ega.

Yolg'izlik va psixologik salomatlik. Yolg'izlik, alohida bir insonning ijtimoiy aloqalar va munosabatlaridan yakkalanishi sifatida ta'riflanadi, ammo bu holat faqat jismonan yakkalanish bilan cheklanmaydi. Yolg'izlik, o'z-o'zini qadrlashning pasayishi, o'zini jamoa ichida nomaqbul his qilish, va ijtimoiy izolyatsiyaga olib keladi. Ba'zi tadqiqotlar, yolg'izlik hissining depressiya va kayfiyatning pasayishi bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatgan (Cacioppo & Patrick, 2008). Shuningdek, yolg'izlik, shaxsning umumiy ruhiy salomatligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi va uning farovonligini pasaytiradi (Hawkley & Cacioppo, 2010).

Talabalarda yolg'izlik hissi. Talabalarda yolg'izlik, ayniqsa universitetga kirgan yangi talabalar o'rtasida keng tarqalgan. Yangi muhitga moslashish, o'qish tizimiga o'tish, uylaridan uzoqda bo'lish va oilaviy qo'llab-quvvatlashning kamayishi kabi omillar talabalarning yolg'izlikni boshdan kechirishiga sabab bo'lishi mumkin. Ba'zi tadqiqotlar, yangi muhitda ijtimoiy aloqalar o'rnatishning qiyinlashishi, talabalar o'rtasida yolg'izlik hissini kuchaytirishini aniqlagan (Lee, 2009). Shu bilan birga, yolg'izlik hissi nafaqat o'z-o'zini qadrini pasaytirishga olib keladi, balki akademik faoliyatga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Yolg'izlik va ijtimoiy omillar. Ijtimoiy tarmoqning o'rni va talabalar orasidagi jamoaviy integratsiya, yolg'izlikni kamaytirishdagi muhim omillardir. Bu masalada o'rganilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadi: ijtimoiy aloqalar va qo'llab-quvvatlash tarmog'ining mavjudligi talabalarda yolg'izlikni kamaytirishga yordam beradi. Qulay ijtimoiy tarmoq va samarali kommunikatsiya, o'z-o'zini tan olishni oshiradi va yolg'izlik hissini kamaytiradi (Bukowski, Sippola, & Hoza, 1999).

Yolg'izlikni bartaraf etish usullari. Yolg'izlikni kamaytirish bo'yicha bir qancha amaliy yondoshuvlar ishlab chiqilgan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, talabalarga ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish va psixologik qo'llab-quvvatlashni ta'minlash, yolg'izlikni kamaytirishda samarali bo'ladi. Masalan, muhim ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish, talabalarga yangi aloqalar o'rnatishga va o'zlarini ijtimoiy muhitga integratsiya qilishga yordam beradi (Victoroff & Swann, 2001). Shu bilan birga, psixologik maslahatlar, guruh terapiyalari va stressni boshqarish metodlari, talabalarda yolg'izlikni bartaraf etishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi (Fitzgerald & Durr, 2016).

Shaxsiy va ijtimoiy omillar. Shaxsiy va ijtimoiy omillar, yolg'izlik hissining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadigan yana bir muhim jihatdir. Yolg'izlik ko'proq introvert talabalarda uchrashi mumkin, chunki ular o'z his-tuyg'ularini boshqalarga ifodalashda qiyinchiliklar yuzaga keltirishi mumkin (Solano & De Fazio, 1998). Ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning mavjudligi, talabalar o'rtasidagi muammolarni bartaraf etishga yordam beradi, bu esa yolg'izlikni kamaytiradi va ijtimoiy integratsiyaga hissa qo'shadi (Segrin & Flora, 2005).

Muhokama. Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlari mavzusi zamon talabalariga mos ravishda ko'plab muhim jihatlarni o'z ichiga oladi. Yolg'izlik, o'z-o'zini izolyatsiya qilish va ijtimoiy aloqalarning etishmasligi bilan bog'liq bo'lib, uning psixologik, emosional va ijtimoiy jihatlari talabalar hayotida katta ta'sir ko'rsatadi. Bunday holatlar esa, o'z navbatida, ta'lim jarayoniga, akademik muvaffaqiyatlarga, shuningdek, talabalarning umumiy ruhiy holatiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Birinchidan, yolg'izlik hissining talabalarda yuzaga kelishi, nafaqat individual omillar, balki ijtimoiy muhitga ham bog'liqdir. Talabalar yangi muhitga o'rgatish jarayonida bo'lishi, ularning o'zini ijtimoiy izolyatsiyalashga olib kelishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, yangi boshlovchilar va chet eldan kelgan talabalar, o'zlarini yolg'iz va notanish muhitda his qilishadi, bu esa ular o'rtasida yolg'izlikni keltirib chiqaradi. Bu holat, ayniqsa, ijtimoiy aloqalarning etishmasligi va o'zgacha madaniy muhitlarga moslashish jarayonida kuchayadi. Yolg'izlik hissi faqat talabaning shaxsiy holatiga ta'sir qilib qolmay, balki uning akademik faoliyatiga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Ko'plab tadqiqotlar, yolg'izlikning talabalarining motivatsiyasini pasaytirishiga, konsentratsiya qobiliyatining yomonlashishiga va stress darajasining ortishiga olib kelishini ta'kidlashadi (Perlman & Peplau, 1981).

Ikkinchidan, ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning talabalarining yolg'izlikni bartaraf etishda muhim o'rin tutishi aniqlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, samarali ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tarmog'iga ega bo'lgan talabalar, o'zlarini ko'proq ijtimoiy integratsiya qilgan his qilishadi. Oila, do'stlar va guruhdagi qo'llab-quvvatlash tizimi yolg'izlikni kamaytirishda katta rol o'ynaydi. Shuningdek, universitetlar tomonidan o'rnatilgan qo'llab-quvvatlash tizimlari, masalan, psixologik maslahatlar, ijtimoiy tadbirlar va o'zaro aloqalarni rivojlantirish, talabalarda yolg'izlikni kamaytirish uchun samarali yondoshuvlarni taqdim etadi. Bunday yondoshuvlar, talabalarga o'zaro ishonchni rivojlantirish va ijtimoiy izolyatsiyadan chiqish imkonini yaratadi.

Bundan tashqari, yolg'izlikni bartaraf etish jarayonida psixologik yordamning ahamiyatini e'tiborga olish zarur. Psixologik maslahatlar va guruh terapiyasi talabalarining o'zlarini yaxshi his qilishiga, o'z hissiyotlari bilan ishlashiga yordam beradi. Bu yondoshuvlar, talabalarining o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi va yolg'izlikni kamaytirishning samarali vositasi bo'ladi. Tadqiqotlar, shuningdek, psixologik yordamni olish, talabalarining stressni boshqarish va o'z muammolariga yechim topishda yordam berishini ta'kidlashadi.

Shu bilan birga, shaxsiy va ijtimoiy omillar, yolg'izlik hissining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Xodimlarning va talabalarining ijtimoiy tarmog'ini kuchaytirish, yolg'izlikni kamaytirish uchun asosiy faktor hisoblanadi. Ijtimoiy muhitning o'zgartirilishi, talabalarga ularning hissiyotlarini boshqarishda va yolg'izlikni bartaraf etishda yordam beradi. Bundan tashqari, talabalarining ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantirish va ijtimoiy aloqalarni mustahkamlash, ular o'rtasidagi yolg'izlik hissini kamaytirishda muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda yolg'izlik hissining ijtimoiy-psixologik determinantlarini tahlil qilish jarayonida, bir nechta asosiy faktorlarga e'tibor qaratish zarur. Ushbu faktorlarga asosan, yolg'izlikni keltirib chiqaruvchi omillar nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy va madaniy omillarni ham o'z ichiga oladi. Bu yerda quyidagi jihatlar muhim hisoblanadi:

Talabalarining yangi muhitga moslashish jarayoni – bu ko'plab yoshlarning yolg'izlik hissiga duchor bo'lishining asosiy sabablaridan biridir. Talabalar o'qishga kirishganda, ular nafaqat akademik masalalar bilan, balki yangi sharoitda, yangi odamlar bilan ijtimoiy aloqalarni o'rnatish bilan ham kurashishadi. Bu jarayon, xususan, chet eldan kelgan talabalar uchun yanada murakkablashadi. Yangi muhitga moslashishdagi qiyinchiliklar, o'ziga bo'lgan ishonchsizlik va madaniy farqlar yolg'izlikni yanada kuchaytiradi.

XXI asrda digital texnologiyalarning o'sishi va onlayn aloqalarning kengayishi, talabalar o'rtasida o'zaro munosabatlarni o'zgartirdi. Onlayn kommunikatsiya ko'plab ijtimoiy aloqalar uchun qulay bo'lsa-da, ular yuzma-yuz muloqotning o'rnini bosolmaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, onlayn aloqalar yuzma-yuz suhbatlarga nisbatan ko'proq hissiy izolyatsiyani keltirib chiqaradi va bu yolg'izlik hissiga olib keladi. Yuzma-yuz muloqotda esa talabalar bir-birlarini yaxshiroq tushunishlari, hissiy qo'llab-quvvatlashni olishlari va ijtimoiy muhitga yaxshiroq moslashishlari mumkin.

Yolg'izlik hissi ko'pincha akademik stress bilan ham bog'liq. Talabalar, o'qish va shaxsiy hayotdagi muvozanatni saqlashda, imtihonlar va testlar bilan bog'liq bosimni boshqarishda qiynalishadi. Shu bilan birga, ba'zi talabalar o'zlariga yuqori talablar qo'yib,

o'zlarini mukammal qilishga intilishadi, bu esa yolg'izlik hissini yanada kuchaytiradi. Akademik muvaffaqiyatsizlik va o'ziga bo'lgan ishonchsizlik talabalarda yolg'izlikni yanada kuchaytirishi mumkin.

Talabalarining yolg'izlik hissiga madaniy va ijtimoiy omillar ham ta'sir qiladi. Mahalliy va chet el talabalarining madaniy farqlari, o'ziga xos urf-odatlar va ijtimoiy normativlar, o'zaro aloqalarni murakkablashtiradi. Chet eldan kelgan talabalar, ba'zida yangi madaniyatga moslashishda qiyinchiliklarga duch kelishadi va bu ularning o'zini yolg'iz his qilishiga olib keladi. Madaniy jihatdan o'zgacha bo'lgan guruhlariga tegishli talabalar, ba'zida ijtimoiy aloqalarni rivojlantirishda qiynalishadi, chunki ular o'zlarini ajralib turish yoki chetga surilgan deb his qilishadi.

Yolg'izlik hissining oldini olishda psixologik qo'llab-quvvatlash va maslahatlar xizmatining ahamiyati katta. Psixologik yordam talabalarga o'z hissiyotlarini anglash, stressni boshqarish va ijtimoiy aloqalarini yaxshilashda yordam beradi. Universitetlar tomonidan taqdim etilgan psixologik yordam va qo'llab-quvvatlash xizmatlari, talabalarni yolg'izlikni his qilishdan saqlashda va ruhiy holatlarini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, jamoaviy ish va guruhdagi faoliyatlar, talabalar o'rtasidagi ijtimoiy aloqalarni mustahkamlashga yordam beradi va bu yolg'izlikni kamaytiradi.

O'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi samarali aloqa ham talabalar yolg'izlik hissining kamayishiga yordam beradi. Talabalar o'qituvchilaridan akademik maslahatlar olishdan tashqari, o'z hissiy holatlarini ham muhokama qilishni xohlaydilar. O'qituvchilar tomonidan ko'rsatilgan individual e'tibor va qo'llab-quvvatlash, talabalarni yaxshiroq anglash va ularning ruhiy holatini yaxshilashga yordam beradi.

Universitetlar tomonidan tashkil etilgan ijtimoiy tadbirlar, seminarlar, sport faoliyatlari va ko'ngilli ishlar talabalar uchun ijtimoiy aloqalar o'rnatish va yolg'izlikni kamaytirish uchun ajoyib imkoniyat yaratadi. Bunday tadbirlar orqali talabalar o'zaro muloqot qilishadi, yangi do'stlar orttirishadi va o'zlarini ijtimoiy jihatdan faollashtirishadi.

Ushbu metodologik jadvalda turli tadqiqot metodlari va ularning afzalliklari hamda kamchiliklari keltirilgan.

1-jadval

Metod	Afzalliklari	Kamchiliklari
Anketalar	Keng qamrovli ma'lumot olish mumkin.	Shaxsiy fikrlarga asoslangan natijalar.
Intervyular	Chuqur ma'lumot olish.	Vaqt talab qiladi, kichik guruhda o'tkazish.
Psixologik testlar	Aniq psixologik holatlarni o'lchash.	Faqat belgilangan parametrlarni o'lchaydi.
Eksperimentlar	Amaliy natijalar olish mumkin.	Ko'p vaqt talab etadi, manipulyatsiya.
Ijtimoiy tahlil	Ijtimoiy aloqalarni aniq ko'rsatish.	Yaxshi tasavvurga ega bo'lishni talab etadi.
Kuzatuv metodlari	Haqiqiy sharoitda kuzatish imkoniyati.	Sub'ektiv yondoshuv.
Fokus guruhlar	Guruhdagi fikrlarni tahlil qilish.	Dominatsiya qilishi mumkin.
Statistik tahlil	Keng qamrovli va ishonchli natijalar.	Murakkab usullarni talab qiladi.

Xulosa. Talabalik davri, shaxsiy va ijtimoiy o'zgarishlar jarayoni bo'lib, yoshlar uchun muhim psixologik va ijtimoiy bosqichni tashkil etadi. Ushbu davrda talabalarining psixologik salomatligi, o'zini qadrlash va ijtimoiy integratsiyasi katta ahamiyatga ega. Yolg'izlik hissi, ayniqsa, yangi muhitga moslashish, akademik faoliyat va shaxsiy hayotdagi muvozanatni

saqlashda yuzaga keladigan muammo bo'lib, uning salbiy ta'siri talabalarning ruhiy holatiga va akademik samaradorligiga zarar yetkazishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Cacioppo, J. T., & Patrick, W. (2008). Loneliness: Human Nature and the Need for Social Connection. W. W. Norton & Company.
2. Hawkley, L. C., & Cacioppo, J. T. (2010). Loneliness and Health: Potential Mechanisms. *Psychosomatic Medicine*, 72(3), 140–146.
3. Lee, S. H. (2009). Social Network and Loneliness among College Students. *Journal of Social and Personal Relationships*, 26(4), 1–18.
4. Bukowski, W. M., Sippola, L. K., & Hoza, B. (1999). The Role of Social Support in Reducing Loneliness among College Students. *Journal of Social and Clinical Psychology*, 18(3), 190-203.
5. Victoroff, J. P., & Swann, W. B. (2001). Loneliness in College Students: The Role of Personality, Social Support, and Life Stress. *Journal of College Student Development*, 42(5), 55-62.
6. Fitzgerald, L. F., & Durr, W. (2016). Psychological Counseling in College Students: A Review of the Literature on Loneliness and Stress. *Psychological Services*, 13(2), 123–136.

*Jo'rayev Qo'ldoshjon Ismatullo o'g'li,
Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ORQALI TALABALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada muloqot madaniyatining ta'lim jarayonidagi ahamiyati, o'quvchilar va o'qituvchilar o'rtasidagi muloqotning samarali tarzda tashkil etilishi, shuningdek, talabalarda sog'lom va samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirish uchun pedagogik usullar va psixologik yondashuvlar o'rganiladi. Shaxslararo muloqot madaniyatining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omillar, talabalarning individual xususiyatlari va guruhda ishlash ko'nikmalarining ahamiyati ham muhokama qilinadi.

Kalit so'zlar: Shaxslararo muloqot, muloqot madaniyati, pedagogik-psixologik yondashuvlar, ta'lim jarayoni, kommunikativ ko'nikmalar, talaba psixologiyasi, guruhda ishlash, o'quvchilar o'rtasidagi muloqot, ta'limda psixologik usullar, pedagogik usullar.

Аннотация: В данной статье анализируются педагогико-психологические особенности развития межличностной коммуникационной культуры у студентов. Рассматривается значение коммуникационной культуры в образовательном процессе, эффективное взаимодействие между учениками и преподавателями, а также педагогические методы и психологические подходы, направленные на развитие здоровых и эффективных коммуникативных навыков у студентов. Обсуждаются факторы, влияющие на развитие межличностной коммуникационной культуры, индивидуальные особенности студентов и важность навыков работы в группе.

Ключевые слова: Межличностная коммуникация, коммуникационная культура, педагогико-психологические подходы, образовательный процесс, коммуникативные навыки, психология студентов, работа в группе, взаимодействие между учениками, психологические методы в обучении, педагогические методы.

Annotation: This article analyzes the pedagogical and psychological features of developing interpersonal communication culture among students. It discusses the importance of communication culture in the educational process, the effective organization of communication between students and teachers, as well as pedagogical methods and psychological approaches to developing healthy and effective communication skills. The factors influencing the development of interpersonal communication culture, students' individual characteristics, and the importance of group work skills are also discussed.

Key words: Interpersonal communication, communication culture, pedagogical-psychological approaches, educational process, communicative skills, student psychology, group work, student-student communication, psychological methods in education, pedagogical methods.

Kirish. Shaxslararo muloqot madaniyati zamonaviy ta'lim tizimining muhim elementlaridan biri bo'lib, talabalarning shaxsiy va professional rivojlanishida alohida o'rin tutadi. Muloqot - bu nafaqat so'zlashish, balki odamlar o'rtasidagi o'zaro anglashuv, fikr almashish va his-tuyg'ularni ifodalash jarayonidir. Shaxslararo muloqot madaniyatining yuqori darajada rivojlanishi talabalarga o'z fikrlarini aniq va tushunarli ifodalash, boshqalarni tinglash, samarali muammolarni hal qilish va konstruktiv bahs-munozaralarda ishtirok etish imkoniyatini yaratadi.

Ta'lim jarayonida bu ko'nikmalarni rivojlantirish, o'quvchilarning nafaqat akademik yutuqlarini, balki ijtimoiy moslashuvini va psixologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi. Pedagogik va psixologik yondashuvlar talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini shakllantirishda asosiy omil bo'lib, o'qituvchining roli, guruhdagi muhit, individual psixologik

xususiyatlar va kommunikativ qobiliyatlar ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada, talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari, metodik yondashuvlar va samarali usullar tahlil qilinadi. Maqsad – ta'lim jarayonida shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning ahamiyatini chuqurroq tushunish va bu boradagi zamonaviy pedagogik amaliyotlarni kengaytirishdir.

Shaxslararo muloqot madaniyati – bu odamlar o'rtasidagi aloqalar, o'zaro anglashuv va hissiy aloqa me'yorlarini qamrab oladigan tizimdir. Talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirish, ularning shaxsiy va ijtimoiy hayotidagi muvaffaqiyatga erishishida muhim rol o'ynaydi. Muloqot nafaqat akademik bilimlarni uzatish vositasi bo'lib, balki ijtimoiy, madaniy va psixologik o'zgarishlarga olib keladigan asosiysi hisoblanadi. Bugungi kunda ta'lim jarayonida shaxslararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirishga alohida e'tibor berilmoqda, chunki bu ko'nikmalar talabalarni o'z fikrlarini ravon, aniq va odobli tarzda ifodalashga, boshqa fikrlarni tinglashga, bahs-munozaralarda madaniyatli ishtirok etishga, shuningdek, turli ijtimoiy vaziyatlarda moslashuvchanlikni rivojlantirishga imkon yaratadi.

Adabiyotlar tahlili. Talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida adabiyotlar tahlili, bu sohada amalga oshirilgan tadqiqotlar va ilgari surilgan g'oyalarni o'z ichiga oladi. Ular pedagogika va psixologiyaning o'zaro bog'liqligini va muloqot madaniyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganishda ahamiyatli manbalar hisoblanadi. Shaxslararo muloqot madaniyatining rivojlanishiga oid asosiy tadqiqotlar va nazariy yondashuvlarni ko'rib chiqamiz.

Pedagogika ilmda, talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga doir bir qancha nazariyalar mavjud. Xususan, Vygotskiy (1978) tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy o'rgatish nazariyasi, muloqotning ta'lim jarayonidagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Vygotskiy, muloqotning jamoaviy faoliyatda muhim rol o'ynashini va bu jarayonda tilning o'zaro anglashuv vositasi sifatida qanday ishlashini o'rgatishni asosiy pedagogik vazifa sifatida ko'radi. Bu nazariyaga ko'ra, shaxslararo muloqotning rivojlanishi va ta'lim jarayonida o'zaro anglashuvning samarali bo'lishi uchun o'qituvchi va talabalar o'rtasida yaqin aloqalar zarur.

Psixologiya ilmda, shaxslararo muloqot madaniyatining shakllanishi va uning talaba psixologiyasiga ta'siri haqida bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. Goleman (1995) tomonidan ilgari surilgan hissiy intellekt nazariyasi, shaxslararo muloqotda hissiy ko'nikmalarni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlaydi. Golemanning fikriga ko'ra, samarali muloqot uchun nafaqat fikrlarni ifodalash, balki boshqalarning hissiyotlarini tushunish va o'z hissiyotlarini boshqarish ham zarur. Ushbu yondashuv talabalarda empatiya va hissiy anglashuvni rivojlantirishning ahamiyatini ko'rsatadi.

Shaxslararo muloqot madaniyatining ta'lim tizimida rivojlanishi muammosi, ko'plab o'quv yurtlarida e'tibor qaratilgan. Baxshaliyev (2010) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar, muloqot madaniyatining talabalar o'rtasidagi o'zaro aloqalar va guruh ishlari orqali qanday rivojlanishini ko'rsatgan. Baxshaliyev, talabalarda ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik usullarni, guruhda ishlash va individual yondashuvlarni qo'llashni samarali deb hisoblaydi. Bu jarayon, o'quvchilarda muloqot madaniyati va tushunish darajasini oshirishga yordam beradi.

Muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishning metodik jihatlari bo'yicha Kuzmin (2009) va Semyonov (2014) tadqiqotlari muhim ahamiyatga ega. Ular, talabalarda muloqot madaniyatini rivojlantirishda, kommunikativ va didaktik metodlarning o'rnini alohida ta'kidlaydilar. Kuzmin, kommunikativ o'qitish usullarini qo'llash orqali, talabalar o'rtasida o'zaro anglashuvni kuchaytirish va guruh ishlari orqali ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirishning samarali ekanligini ko'rsatgan. Shuningdek, Semyonov, muloqot madaniyatini rivojlantirishning psixologik yondashuvlar orqali o'qituvchining roli va talaba psixologiyasining ahamiyatini ta'kidladi.

Bugungi kunda, ta'lim jarayonida muloqot madaniyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan ko'plab metodik ishlanmalar va amaliy yondashuvlar mavjud. Tufanov (2013) tomonidan

ishlab chiqilgan kommunikativ pedagogika metodikasi, talabalarda muloqot madaniyatini shakllantirishning amaliy usullarini kengaytiradi. U, guruh muhokamalari, rolli o'yinlar va vaziyatli treninglar kabi interaktiv metodlarni talabalarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali deb hisoblaydi.

Muhokama. Talabalarda shaxslararo muloqot madaniyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini o'rganish, ta'lim jarayonida talabalar o'rtasida samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishning muhimligini ko'rsatadi. Muloqot madaniyati, talabaning akademik yutuqlariga ta'sir qilishi bilan birga, uning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga ham katta ahamiyatga ega. Pedagogik-psixologik yondashuvlar talabalarda nafaqat bilim, balki ijtimoiy ko'nikmalarni ham rivojlantiradi, bu esa ularning kelajakdagi faoliyatlarida muvaffaqiyatga erishishlariga yordam beradi.

